O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

A.S. Jo‘rayev, U.A. Berdiyeva

“SOLIQ MA’MURCHILIGI”
O‘QUV QO‘LLANMA

Toshkent moliya instituti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan 5230800-“Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT–2021

УДК

ББК

A.S. Jurayev – iqtisod fanlari doktori, “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi professori

U.A. Berdiyeva – “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi dotsenti, PhD

Jurayev A.S., Berdiyeva U.A. “Soliq ma’murchiligi”: OTM uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: TMI, 2021. - b.

А.С. Жураев – доктор экономических наук, профессор кафедры «Налоги и налогообложение»

У.А. Бердиева – PhD, доцент кафедры «Налоги и налогообложение»

Жураев А.С., Бердиева У.А. «Солиқ маьмурчилиги»: Учебное пособие для вузов. –Т.: ТФИ, 2021. - с.

A.S. Djuraev - Doctor of Economics, Professor of the Department of «Taxes and Taxation»

U.A.Berdieva - PhD, Associate Professor of the Department «Taxes and Taxation» **A.S.Djuraev, U.A. Berdieva Tax administration: university textbook. – T.:TFI, 2021. - l**

Taqrizchilar: *A.Nurullayev* – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent A.Amanov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;

Рецензенты: *А.Нуруллаев* – кандидат экономических наук, доцент; А.Аманов – кандидат экономических наук, доцент;

Reviewers: *A.Нуруллаев* – Candidate of Economic Sciences, Associate Professor; A.Аманов – Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

O‘quv qo‘llanmada soliq ma’muriyatchiligining iqtisodiy mohiyati, maqsadi va vazifalari, funksiyalari va roli, uning davlat soliq menejmenti tizimida tutgan o‘rni yoritilgan. Unda soliq ma’muriyatchiligi faoliyati samarali tizimini shakllantirish yo‘li orqali O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi taraqqiyotining konseptual

asoslari va O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatini isloh qilish masalalari alohida ko‘rib chiqilgan.

Soliq xizmati faoliyatini tashkil etish, ham soliq to‘lovchilar ham soliq xizmati organlari faoliyati orqali davlatning huquq va majburiyatlari, soliq nazorati va soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik tizimi chuqurlashgan tarzda o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi aniq olingan soliqlar va yig‘imlarning hisoblanishi va to‘lanishi tartibi batafsil yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmaning mazmuni amal qilayotgan qonunchilik normalariga asoslanadi va Oliy ta‘limning 5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari talablariga mos keladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy ta’limning bakalavriat bosqichi 5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

В учебном пособии раскрываются экономическая сущность, цель и задачи, функции и роль налогового администрирования, его место в системе государственного налогового менеджмента. Отдельно излагаются концептуальные вопросы налоговой системы Узбекистана, реформы налоговой политики в Республике Узбекистан путем формирования эффективной системы функционирования налогового администрирования.

Углубленно рассматриваются вопросы организации налоговой службы, права и обязанности, как налогоплательщиков, так и государства, система налогового контроля и ответственности за нарушения налогового законодательства. Подробно исследуется порядок исчисления и уплаты конкретных налогов и сборов, действующих в налоговой системе Республики Узбекистан.

Содержание учебного пособия базируется на нормах действующего законодательства и соответствует требованиям Государственного образовательного стандарта высшего образования по направлению бакалавриата 5230800 “Налоги и налогообложение”.

Для студентов высших учебных заведений, по направлению бакалавриата 5230800 “Налоги и налогообложение”.

The schoolbook reveals the economic nature, purpose and objectives, functions and role of tax administration, its place in the system of state tax management. The conceptual issues of the tax system of the Uzbekistan, the reform of tax policy in the Republic of Uzbekistan through the formation of an effective system of tax administration functioning are set out separately.

The organization of the tax service, the rights and obligations of both taxpayers and the state, the system of tax control and responsibility for violations of tax laws are in-depth. The procedure for calculating and paying specific taxes and fees applicable in the tax system of the Republic of Uzbekistan is studied in detail.

The content of the schoolbook is based on the norms of current legislation and complies with the requirements of the State educational standard of higher education in the direction of undergraduate 5230800 - “Taxes and taxation”.

For university students enrolled in the direction of undergraduate 5230800 - "Taxes and taxation."

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda avvalambor, soliq siyosati, shu jumladan, soliq ma’murchiligi ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, soliq tizimini isloh qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish va iqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishishdir. Har bir mamlakatda ham ushbu maqsadga faqat izchil soliq siyosatini amalga oshirish orqali erishiladi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda soliq islohotlariga alohida e’tibor qaratilib, soliq organlari faoliyatini tubdan isloh qilish, soliq qonunchiligini soddalashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tendensiyasi muntazam amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan so‘nggi paytlarda qabul qilinayotgan Farmon va qarorlar soliq siyosatini erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rag‘batlantirish, soliq yukini kamaytirish hamda soliq ma’murchiligini takomillashtirishga qaratilayotganligi alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz soliq ma’murchiligini takomillashtirish asosan soliq to‘lovchilar va davlat o‘rtasida soliq munosabatlari samaradorligi va sifatini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu soliq siyosatimizning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu sababdan ham, Prezidentimiz soliq yukini pasaytiruvchi potensial zaxira, halol soliq to‘lovchilar orasida raqobat rejimi tengligini ta’minlash va soliq tizimi faoliyati bilan bog‘liq xarajatlarni pasaytirish orqali soliq ma’murchiligi darajasini oshirilishiga soliq siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida qaramoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar

strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasida “soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish, soliq ma’muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish orqali soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish” 2017-2021-yillarda amalga oshiriladigan eng muhim vazifa qilib belgilandi[1].

Mazkur vazifalar ijrosi yuzasidan 2017-yil 18-iyulda qabul qilingan PF-5116-sonli farmonida, Prezidentimiz amaldagi soliq tizimi xususan uning muhim yo‘nalishi bo‘lgan soliq ma’murchiligini amalga oshirishdagi quyidagi muammolarni qayd etib o‘tdi[2]:

– soliq solish tizimining murakkabligi va bir xil soliq solish bazasiga ega soliqlarning yetarli darajada unifikatsiya qilinmaganligi, soliq qonunchiligining o‘zgaruvchanligi, soliq to‘lovchilar tomonidan o‘z soliq majburiyatlarini to‘liq bajarish imkonini bermayapti;

– soliq to‘lovchilarning soliqlarni to‘lash bo‘yicha o‘z konstitutsiyaviy burchini ixtiyoriy bajarishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan, ayniqsa, joylarda amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida takomillashtirilmagan;

– soliq organlarining Davlat byudjetiga tushumlar to‘liqligini ta’minlash faoliyati ustidan tashqi nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi, soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish va soliq to‘lovchilarni hisobga olish imkonini bermayapti;

– soliq organlarining tashkiliy tuzilmasi soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida yig‘ish, davlat va mahalliy byudjetlar daromadlarini to‘ldirish mavjud resurslarni safarbar qilish imkonini bermayapti;

– soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish holati soliq ma’muriyatchiligining

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 30.03.2018 dagi 5116- sonli farmoni.

shaffofligini, soliq solish masalalarida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish hamda davlat xizmatlaridan foydalanish samaradorligini ta’minlamayapti;

– soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni barvaqt profilaktika qilish samaradorligini pasaytirib, soliq to‘lovchilarning sud organlariga murojaatlari ko‘payishiga olib kelmoqda;

– soliqqa oid huquqiy munosabatlarning ahvoli va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, soliq tushumlarini ishonchli prognozlashtirish faoliyatini takomillashtirishni, soliq siyosatining o‘rta muddatli va istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish, soliq ma’murchiligini barqaror rivojlanishi uchun uning normativ-huquqiy bazasini, tashkiliy va uslubiy jihatlarini ilg‘or xorij tajribasidan foydalangan holda shakllantirishni talab etadi.

1-BO‘LIM. SOLIQ MA’MURCHILIGINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1-mavzu. SOLIQ MA’MURCHILIGI FANINING MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. “Soliq ma’murchiligi” fanining predmeti va funksiyalari, o‘qitishning zarurligi

1.2. “Soliq ma’murchiligi” fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

1.3. “Soliq ma’murchiligi” fanining maqsadi va kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati

1.1. “Soliq ma’murchiligi” fanining predmeti va funksiyalari, o‘qitishning zarurligi

Soliq ma’murchiligi keng tushuncha bo‘lib, u soliq siyosatining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi va davlat bilan soliq to‘lovchi o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq bo‘lgan bir qator yo‘nalishlarini qamrab oladi. Soliq tizimining shakllanishi va uni rivojlantirish zaruriyati, shuningdek, soliq ma’murchiligini yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda bugungi kunda, soliqlar va soliq tizimini nazariy jihatdan o‘rganish va tahlil qilish, soliqlarni amaliyotda qo‘llanilishi, xususan, soliq ma’murchiligi, uning vazifalarini o‘rganish hamda samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida fuqarolarning qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlari ifodalangan. Ushbu asosda soliq to‘lovchilarning davlat byudjetiga soliqlar va bosh majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilab berilgan.

Soliq ma’murchiligi fanining vazifalari – talabalarga soliq ma’murchiligi funksiyasining turlari, rejalashtirishning uslublari, soliq

nazorati va hisobini yuritilishida muammolarni yechish masalalari, soliq ma’murchiligida ishlatiladigan asosiy tushunchalar va atamalar qo‘llanilishini o‘rgatishdan iborat.

Soliq ma’murchiligi fanining predmeti soliq organlari faoliyati va soliq to‘lovchilar o‘rtasida vujudga keladigan soliq munosabatlarini (harakatini), soliqlar mexanizmini har tomonlama o‘rganishdan, soliq voqeliklari pul munosabatlarini o‘rganishdan iborat bo‘ladi. Bu pul munosabatlari soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o‘rtadagi munosabatni chuqur o‘rganish, ularni to‘g‘ri tashkil qilishni ta’minlashdir. To‘g‘ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e’tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyiliga amal qilishi zarur. Byudjetga soliqlarni olishda soliq to‘lovchilar bo‘yniga ortiqcha og‘irlik osmaslik, ularni o‘z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so‘ndirib qo‘ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez-tez o‘zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e’tibor berish ko‘zda tutiladi. Bu yerda tomonlarning do‘stona munosabatda bo‘lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo‘lishini o‘rgatadi. Fanning predmetini chuqur o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo‘ravonlik munosabati bo‘lguday bo‘lsa, ikkinchi tomon unga javoban o‘z daromadlari, boshqa soliq obyektlarini har xil yo‘llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi yetmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq obyektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi. Demak, soliq ma’murchiligi fanini chuqur o‘rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Soliq ma’murchiligi – jarayon sifatida o‘zining funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda, “funksiya” - lotincha “functio” (ijro qilmoq, bajarmoq) so‘zidan olingan bo‘lib, “biron kimsa yoki narsaning ish faoliyat doirasi, vazifasi”, - degan ma’nolarni bildiradi.[3]

[3] Qarang.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. M.: Rus tili, 1981. 170 b.

Soliq ma’murchiligi faoliyat doirasi va vazifasi sifatida subyektning obyektga aniq ta’sir etish yo‘nalishlarini o‘zida aks ettiradi. Ma’murchilik ko‘p qirrali va murakkab tushuncha bo‘lib, uni muhim belgilariga ko‘ra, turkumlab o‘rganish mazkur fanning maqsadiga muvofiqdir.

Fanning funksiyalari soliq mutaxassisi va boshqa soliq idoralari xodimlarini nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo‘l- yo‘riqlar ko‘rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o‘rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o‘zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tatbiq etishdan iboratdir.

Demak, fanning asosiy funksiyasi yuqori malakali soliq mutaxassislarini tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlashdir.

1.2. Soliq ma’murchiligi fanini o‘qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

Soliq ma’murchiligi fanining boshqa fanlar singari o‘ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o‘qitishning zarurligi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta tashkil etish davrida soliq munosabatlarining ahamiyati o‘sib borayotganligidan kelib chiqadi.

Soliq ma’murchiligi fani soliq voqeliklarini (harakatlarini) chuqur o‘rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini o‘rgatadi.

Soliq ma’murchiligi fani soliq amaliyotidagi eng to‘g‘ri, eng mukammal va eng progressiv voqeliklarni o‘rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqeliklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to‘g‘ri, ma’qul va ilg‘or tajribalar olinib amaliyotga yo‘l ko‘rsatish uchun o‘rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo‘l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot

yo‘ldan adashgan yo‘lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o‘zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo‘ldan adashmaydi.

Soliq ma’murchiligi fanini o‘qitishning zarurligi amaliyotda yo‘ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo‘yicha o‘zgartirishlarga yo‘l qo‘ymaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir.

Soliq ma’murchiligi fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bog‘liqdir, uning maxsus bo‘limi, ya’ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo‘limidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlari umumiqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo‘lganligi bois, soliq ma’murchiligi fani ham moliya nazariyasi fani bilan chambarchas bog‘liq. Soliq ma’murchiligi fanining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlarini o‘rgatadi.

Soliq ma’murchiligi fani o‘z navbatida “Iqtisodiy nazariya”, Soliq nazariyasi”, “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish”, “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish”, “Soliq statistikasi va prognozi”, kabi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liq.

“Soliq ma’murchiligi fani “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish”, “Chet mamlakatlar soliq tizimi” va boshqa fanlarni o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Soliq ma’murchiligi fanini o‘qitishdan maqsad – soliqlar va soliqqa tortish tizimida rejalashtirish, soliq to‘lovchilar va soliqqa tortiladigan obyektlar hisobini yuritish, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, soliqlar va soliqqa tortishni tartibga solish kabi muammoli masalalarni o‘rgatishdan iborat. Bundan tashqari soliqlarni rejalashtirishning strategiyasi va taktikasini, soliqlarni rejalashtiruvining maqsadlarini o‘rganish va regional darajada soliqlarni rejalashtirish masalalarini tahlil qila olish, rejalashtirishda soliq potensialini baholay olish bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim va ko‘nikma hamda malakani shakllantirish, hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda soliqlarning

rag‘batlantiruvchi funksiyalardan soliq ma’murchiligida samarali foydalanishdir.

Soliq ma’murchiligi tizimida yuqorida ko‘rsatilgan ustuvor yo‘nalishlarning eng dolzarblarini qo‘llagan holda soliqqa tortishni tartibga solish bo‘yicha taklif hamda mulohazalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yo‘llarini bilishi kerak.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida Respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar – agrar, mulkiy munosabatlar, tashqi iqtisodiy, moliya-kredit tizimi va ijtimoiy sohalarda tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu islohotlar orasida moliya-kredit tizimini isloh qilish alohida rol o‘ynaydi. Chunki jamiyatni barcha sohalari faoliyati pulli munosabatlar bilan bevosita bog‘liqdir, vaholanki, pulli munosabatlarni samarali ishlash mexanizmi o‘z navbatida boshqa sohalarga bevosita ta’sir etadi, bu moliya-kredit tizimini jamiyat iqtisodiy tizimidagi o‘rni naqadar yuqori ekanligini ko‘rsatadi. “Qattiq moliyaviy siyosatni amalga oshirish, barqaror pul muomalasini ta’minlash, soliq tizimini takomillashtirish, umumiy qilib aytganda izchil moliya-kredit siyosatini amalga oshirish iqtisodiy islohotlarimizni muvaffaqiyatli ta’minlashga xizmat qilmog‘i lozim”, - degan edi birinchi prezidentimiz I.A. Karimov.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida soliqlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. Demak, davlat budjeti daromadlarini tashkil qiluvchi soliqlarning to‘liq va o‘z vaqtida undirilishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun barcha davlatlar qatori mavlakatimizda ham soliqlar va to‘lovlarni to‘liq, to‘g‘ri va o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazorat qilish tizimi yaratilgan.

1.3. “Soliq ma’murchiligi” fanining maqsadi va kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish davrida soliqlar va to‘lovlar davlatning asosiy daromad manbasi hisoblanib, ularning o‘z vaqtida to‘g‘ri hisoblanishi, davlat byudjetiga to‘liq hamda o‘z vaqtida

o‘tkazilishi ustidan soliq ma’murchiligi va soliq nazoratini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Soliqlar va soliqqa tortish ixtisosligi talabalari soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini soliq qonunchiligiga rioya etishini nazorat qilishining huquqiy, uslubiy va tashkiliy asoslarini o‘rganishlari lozim bo‘ladi. Buning uchun esa talabalar soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq majburiyatining yuzaga kelishi, soliq nazorati, uning shakllari, turlari, nazorat qiluvchi vakolatli organlar, ularning huquqlari va majburiyatlari, tekshirish o‘tkazish tartiblari, tekshirish natijalarida aniqlangan soliq qonunchiligi buzilish holatlari bo‘yicha ma’muriy yoki moliyaviy jazo choralarini qo‘llash bo‘yicha yetarli darajada malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim. Qolaversa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining tadrijiy rivojlanishi va Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan soliq siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish ushbu soha mutaxassislaridan chuqur iqtisodiy bilimga ega bo‘lishni talab etadi.

Bu fanni to‘liq o‘zlashtirgan talaba soliq ma’murchiligiga oid quyidagi bilimlarga ega bo‘ladi va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi:

- soliq qonunchiligiga oid tekshiruvlarning nazariy, huquqiy, uslubiy va tashkiliy asoslarini;
- hujjatli, nazorat tartibida va tezkor o‘tkaziladigan tekshiruvlarning mohiyati va xususiyatlarini;
- tekshiruv natijalari haqida shakllantiriladigan tekshiruv materiallarining tarkibi, ularni rasmiylashtirish tartiblarini;
- tekshiruv materiallarini rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish, aniqlangan huquq buzilish holatlari bo‘yicha ma’muriy yoki jinoiy chora ko‘rish va ularni bajarilishini nazorat qilish bilan bog‘liq ishlarni yuritishni;
- ma’muriy amaliyot yuritish bo‘yicha soliq organlarining tekshiruv natijalari asosida rasmiylashtiriladigan hujjatlarni yuritish tartiblarini;
- nazoratchi, taftishchi, tekshiruvchi, va davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tushunchalarining amaliy tafsilotini;
- nazorat qilish vakolati berilgan funksiyaviy bo‘limlar va ularning vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini;
- soliq nazoratiga oid dasturiy mahsullarni;

-Davlat soliq xizmatining inspektorlik lavozimlarida ishlayotgan xodimlarga mutaxassis sifatida qo‘yiladigan talablarni.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq ma’murchiligining predmeti va vazifalariga ta’rif bering.
2. Soliq ma’murchiligi fanining o‘rganish obyektlari nimadan iborat?
3. Soliq ma’murchiligi fanining funksiyalariga ta’rif bering.
4. Soliq ma’murchiligi funksiyalarining turkumlanishi qaysi belgilariga qarab amalga oshiriladi?
5. Soliq ma’murchiligi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini o‘ziga xos jihatlarini tahlil qiling.
6. “Soliq ma’murchiligi” fanining maqsadi nimadan iborat?
7. “Soliq ma’murchiligi” fanining kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati nimalardan iborat?

2-mavzu. SOLIQ MA’MURCHILIGI TIZIMINING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI

2.1. Soliq ma’murchiligi to‘g‘risida tushuncha va uning ahamiyati

2.2. Soliq tizimida soliq ma’murchiligini takomillashtirish tamoyillarining ustuvorligi

2.3. Soliq munosabatlarini boshqarish tizimida soliq ma’murchiligining huquqiy asoslari

2.1. Soliq ma’murchiligi to‘g‘risida tushuncha va uning ahamiyati

Jahon iqtisodiy rivojlanishida soliq sohasida turli xil fikrlar mavjud bo‘lishi bilan birga, soliq ma’murchiligi xususida hamda uni talqin etish xususida ham turli xil fikrlar mavjud. Iqtisodiy adabiyotda soliq ma’murchiligining mohiyatini anglash bo‘yicha bir-biridan farqlanuvchi qarashlar mavjud. Masalan, ingliz olimasi O.Noginaning fikriga ko‘ra, “Soliq ma’murchiligi soliqlarni undirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmuidir”[4], - deb ta’kidlab o‘tgan. Boshqa bir guruh iqtisodchilar, xususan amerikalik olim A.Teyt soliq ma’murchiligini barcha soliqlarni minimal xarajat qilib maksimal darajada yig‘ib olishga qaratilgan tadbirlarning yig‘indisi sifatida qaraydi. Ayrim mutaxassislar soliq ma’murchiligining ko‘rinishlaridan biri soliq organlarining huquqiy munosabatlari bilan bog‘liq faoliyatidir, deb hisoblaydilar. Umuman olganda soliq ma’murchiligini soliq tizimida o‘ziga xos boshqarish mexanizmi sifatida ham qarash mumkin.

Soliq ma’murchiligi davlat bilan soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi soliq munosabatlarini boshqaruvchi yoki boshqacha aytganda, davlatning soliq siyosatining amalga oshirilishini ta’minlovchi va shunga xizmat qiluvchi asosiy vosita bo‘lib, u soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini o‘zida aks ettiradi.

[4] Ногина О.А. Налоговый контроль: вопросы теории. 2002.

Ya’ni, davlat soliq ma’murchiligi orqali soliq tizimi va soliq organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi. Bu holat xususan bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada oydinlashib, alohida ahamiyat kasb etib boradi.

Xorijiy manbalarda soliq ma’murchiligiga turlicha ta’riflar keltirilgan. Bu borada ayrim tadqiqotchilar soliq ma’murchiligini soliq idoralarining kundalik faoliyati, deb qarashsa, ba’zilari byudjet tushumlarini ta’minlashda soliq xizmatining nazorat funksiyasi, deb qaraydilar yoki boshqa tadqiqotchilar soliq boshqaruvi bilan bog‘liq munosabatlar ham, deb hisoblaydilar.

Ba’zi davlatlarda soliq ma’murchiligiga soliq munosabatlarining davlat boshqaruvi tizimining ajralmas elementi deb qaraladi.

Ko‘pchilik davlatlarda soliq ma’murchiligini amalga oshiruvchi soliq idorasi o‘zining ayrim avtonom funksiyalarini amalga oshirishni saqlagan holda moliya vazirligi faoliyatining asosiy qismi hisoblanadi. Jumladan, Amerika qo‘shma shtatlari va Buyuk Britaniyada ushbu apparatlar Ichki daromadlar xizmati (IDX) deb yuritilsa, Fransiyada Bosh soliq boshqarmasi, Germaniyada esa Federal soliq boshqaruvi, yer va boshqalarning soliq boshqarmalari bo‘lib tashkil topgan.

Rossiyada “soliq ma’murchiligi” termini va soliq munosabatlari nazariyasi hamda metodologiyasi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri bilan birga aniqrog‘i sobiq ittifoq parchalangandan keyin kirib kelgan.

Rossiyada birinchilardan bo‘lib, aniqrog‘i 1997-yilda iqtisodchi olim M.T. Ospanov o‘zining “Soliq islohotlari va soliq munosabatlari garmonizatsiyasi” nomli ilmiy ishida soliq ma’murchiligining mohiyati haqida fikr yuritib, “Soliq ma’murchiligi deyilganda, davlat va soliq qonunchiligida belgilangan vakolati va mansab vazifalaridan kelib chiqib amalga oshiriladigan soliq boshqaruvi” [5] tushuniladi, - deb ta’kidlaydi.

Bizning fikrimizcha M.T. Ospanovning ushbu fikrlarida soliq ma’murchiligi tor doirada faqat davlat tomonidan belgilab berilgan vakolat va mansab vazifalarida belgilangan holatlar bo‘yicha boshqaruv - soliq ma’murchiligi deb tushunilmoqda.

[7] Оспанов М. Налоги и налогообложение: Учебник. М.: Дашков и Ко, 1997. 314 с.

Iqtisodchi olima G.Ya. Chuxinina esa, “Soliq ma’murchiligi mohiyatini juda tor doirada, ya’ni soliq nazorati subyektlari faoliyatini samarali amalga oshirish va tashkil etish”, - deb hisoblaydi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlarning fikrlarini tahlil qilib shuni qayd etish mumkinki, ularda hozirgacha soliq ma’murchiligi tushunchasini bir xil fikrlash mavjud emas. Ularda ko‘proq soliq organlarining soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar ustidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo‘yicha amalga oshriladigan faoliyatlari, deb qaralgan. Ya’ni mazmunan soliq nazorati tushunchasiga moslashtiriladi.

Ba’zi bir iqtisodchi olimlar soliq ma’murchiligini bu minimal miqdorlardagi xarajatlar hisobidan maksimal hajmda barcha soliqlarni to‘liq va o‘z vaqtida to‘lashga qaratilgan kompleks tadbirlar, deb tushunadilar.

Jumladan, iqtisodchi olima T.A. Slesareva “Soliq ma’murchiligi – bu soliq munosabatlarida qatnashuvchilar o‘rtasidagi boshqaruv jarayoni bo‘lib, soliq organlarining byudjet tizimidagi turli darajadagi byudjetlar o‘rtasidagi majburiyatlarni bajarishda soliqlarni yig‘ish va ular ustidan nazoratni amalga oshirish doirasida yuzaga keladigan jarayon”[6], - deb tushuntiradi va soliq ma’murchiligini konkretlashtirish uchun uni “keng” va “tor” ma’noda aniqlashtirib olishni taklif etadi.

Soliq ma’murchiligini keng ma’noda aniqlashda, uni turli darajadagi ma’muriy boshqaruvlar tizimining soliq sohasidagi soliq boshqaruvi tizimi, deb qarab, federal va hududiy darajada soliq munosabatlarida qat’iy majburiy ma’murchilik choralarini belgilovchi markaziy boshqaruvni amalga oshiruvchi soliq tizimi deb qaraydi. Majburiy ma’murchilik tarkibi deyilganda, ijtimoiy-iqtisodiy va soliqning fiskal funksiyalari soliqlarni rejalashtirish, soliqlar tushumini va nazoratini tartibga solish, soliq solish jarayonlarini boshqarishda xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish tushuniladi.

Soliq ma’murchiligini tor ma’noda aniqlashda esa barcha soliq munosabatlarida qatnashuvchilarni soliq qonunchiligini bajarilishini ta’minlashda soliq organlarining bevosita faoliyati tushunilishini taklif etadi.

[8] Слесарева Т. Упрощенная система налогообложения: Учебник. М.: ЕНВД, 2007. 112 с.

Dastlab shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida ta’kidlanganidek, “soliq ma’murchiligi” iborasi keyingi yillarda foydalanilayotgan bo‘lishiga qaramasdan uning mohiyatini ifodalash maqsadida bir necha shakldagi ta’riflari mavjud. Masalan, O.A. Mironova va F.F. Xanafeevlarning 2005-yilda Moskvada “OMEGA-L” nashriyotida nashrdan chiqqan va “Налоговое администрирование”, deb nomlangan darsliklarida (o‘quv qo‘llanmalarida) soliq ma’murchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagi ta’rif berilgan: “Налоговое администрирование – это динамически развивающаюся система управления налоговами отношениями, координирующая деятельност налоговых органов в условиях рыночных отношений”[7]. Keltirilgan bu ta’rifni o‘zbekchaga o‘giradigan bo‘lsak, u holda ta’rif quyidagi shakl va mazmunga ega bo‘ladi: “Soliq ma’murchiligi – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtiradigan, soliq munosabatlarini boshqarishning dinamik rivojlanayotgan tizimi”[8].

Bizning fikrimizcha, bu keltirilgan ta’rifda soliq ma’murchiligining mohiyatini ifodalovchi ikki jihatga alohida e’tibor qaratilgan:

1) bu yerda soliq ma’murchiligining mohiyati, eng avvalo, soliq organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilinayapti;

2) ta’rifda soliq ma’murchiligining mohiyati soliq munosabatlarini boshqarish tizimi orqali ifodalanishi ham qayd etilgan.

Bizning nazarimizda, O.A. Mironova va F.F. Xanafeevlarning soliq ma’murchiligiga bergan ta’riflaridagi “bozor iqtisodiyoti sharoitida” va “dinamik rivojlanayotgan” kabi iboralar soliq ma’murchiligiming mohiyatini ochib berishda, ma’lum darajada, ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularni mohiyatini ifodalashning hal qiluvchi belgilari sifatida talqin etish unchalik maqsadga ega emasdir.

Umuman olganda, yuqoridagi mualliflar tomonidan soliq ma’murchiligiga berilgan ta’rif o‘zining qisqaligi va ma’lum darajada,

[7] Mironova O.A., Xanafsev F.F. Nalogovos administrirovanie: Uchebnik. M.: OMGA-L, 2005. S. 33.
[8] Mironova O.A., Xanafsev F.F. Nalogovos administrirovanie: Uchebnik. M.: OMGA-L, 2005. S. 33.

aniqligi bilan ajralib turishini e’tirof etish joiz. Bu berilgan ta’rifning yutug‘i sifatida ko‘rsatilishga arziydi. Shu bilan birgalikda, bizning fikrimizcha, O.A. Mironova va F.F. Xanafeevlar tomonidan soliq ma’murchiligiga berilgan ta’rifda uning mazmun-mohiyati yetarli darajada to‘liq ochib berilmaganga o‘xshaydi. Buning asosiy sababi shundaki, qayd etilgan mualliflarning ta’rifida soliq ma’murchiligining mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi asosiy holatlarning hammasi ham inobatga olinmagan. Shuning uchun ham bu ta’rifni soliq ma’murchiligining mohiyatini to‘liq ifodalovchi ta’rif, deb atashga asoslar yetarli emasdir. Bizning fikrimizcha, soliq ma’murchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi ta’rifi bu jarayonda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan barcha holatlarni hisobga olishi zarur.

“Soliq ma’murchiligi” – soliq organlari umumiy faoliyatini tashkil etish va boshqaruv tizimi bo‘lib, u soliq organlarida qonun tomonidan ko‘zda tutilgan funksiyalarni bajarilishini ta’minlaydi.

Soliq ma’murchiligini mohiyatini aniqlash uchun, bizning nazarimizda, bir necha muhim holatlarga e’tibor bermoq lozim. Ularning muhimlari va eng asosiylari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Soliq ma’murchiligi soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir.

Soliq ma’murchiligi soliq munosabatlarini boshqarish tizimi ekan, biz bu yerda uning mohiyatini belgilab berishda muhim rol o‘ynashi mumkin bo‘lgan “boshqarish” so‘ziga alohida e’tibor berishimiz kerak. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, “boshqarish”ning mohiyatiga xos bo‘lgan holatlar soliq ma’murchiligining mohiyati uchun ham xosdir.

Shu yerning o‘zida soliq ma’murchiligining mohiyatini aniqlashga ko‘mak beruvchi yana bir holatni aniqlashimiz mumkin. Gap shundaki, soliq ma’murchiligi, birinchi navbatda, soliq munosabatlarini boshqarish tizimi sifatida qaralayotgan ekan, uning tizim ekanligiga ham e’tibor qaratmoq lozim. Soliq ma’murchiligiga tizim sifatida qaralsa, tabiiyki, uning bir necha elementlardan iborat ekanligi ma’lum bo‘ladi.

2. Soliq ma’murchiligi davlat soliq siyosatining amalga oshirilishini ta’minlaydi va shunga xizmat qiladi.

Shunday ekan, bu holat ham soliq ma’murchiligining mohiyatini belgilab berishda o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Shunga mos ravishda soliq ma’murchiligi operativ holda hayotga tatbiq etilayotgan soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini o‘zida aks ettirmog‘i lozim.

3. Soliq ma’murchiligi soliq organlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirib turadi.

Bu narsa soliq ma’murchiligiga bevosita xos bo‘lgan xususiyat bo‘lib, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq organlarining faoliyatlarini tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Busiz soliq organlarining faoliyatini sog‘lom tashkil etishni tasavvur etish mumkin emas.

4. Soliq ma’murchiligining mohiyati, konkret holda, u tomonidan bajarilishi mumkin funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi.

Soliq ma’murchiligi, eng avvalo, soliq munosabatlarini boshqarish tizimi bo‘lganligi uchun, unga umumiy ko‘rinishdagi boshqarishga xos bo‘lgan barcha funksiyalar tegishlidir.

5. Soliq ma’murchiligi soliq huquqining qoidalariga asoslanadi, ularni o‘ziga xos tarzda to‘ldiradi, uni nazariy va amaliy nuqtayi nazardan soliq mexanizmining o‘ziga xos bo‘lgan sterjeni sifatida talqin etish mumkin.

Soliq huquqining normalari soliq ma’murchiligi tizimini oqilona tashkil etishga imkon beradi va uni butun soliq mexanizmiga tarqatadi.

6. Soliq munosabatlari soliq ma’murchiligining predmetini tashkil etadi. Ma’lumki, soliq munosabatlari davlat (soliq nazoratining subyekti sifatida) bilan soliqqa tortish subyektlari (yuridik va jismoniy shaxslar) o‘rtasida vujudga kelib, bu subyektlar zimmasiga o‘z mablag‘lari hisobidan soliqlarni to‘lash majburiyati yuklangandir.

2.2. Soliq tizimida soliq ma’murchiligini takomillashtirish tamoyillarining ustuvorligi

Bugungi kunda Respublikamizda soliq siyosatini erkinlashtirish, soliq tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bu uning tashkiliy tuzilishini, ya’ni soliq ma’murchiligini soddalashtirish va takomillashtirishdan iborat.

Soliq ma’murchiligining mohiyati, vazifalari, qoidalari, soliq solish stavkalari va soliqqa tortiladigan obyektlarning hozirgi talqini soliq tizimi shakllanishining O‘zbekiston xususiyatlariga xos bo‘lgan hamda erkin bozor munosabatlariga o‘tish davrida bajariladigan o‘ziga xos vazifalar bilan bog‘liq dolzarb masalalar yechimiga yo‘naltirilgan. Sababi soliq ma’murchiligida mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy manfaatlari mujassamlashadi.

Xorij andozalariga ko‘ra soliq organlari tizimi ikki elementdan tarkib topgan:

– soliq ma’murchiligi tizimi;

– soliq organlarini tashkil qilish tizimi.

Soliq ma’murchiligi atamasi soliq xizmati tizimida keng tarqalmaganligi uchun unga shu o‘rinda ta’rif berib o‘tishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Soliq ma’murchiligi – soliq organlari umumiy faoliyatini tashkil etish va boshqaruv tizimi bo‘lib, u soliq organlarida qonun tomonidan ko‘zda tutilgan funksiyalarni bajarilishini ta’minlaydi.

Soliq ma’murchiligi tushunchasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat byudjetiga soliq to‘lovlarini tushushini ta’minlash bo‘yicha rejalashtirish;
- soliq munosabatlarining tashkiliy shakl va metodlari asosida boshqaruv tizimi;
- soliq nazorati tadbirlari.

Soliq munosabatlarining zamonaviy samarali boshqaruv tizimini ta’minlashimiz uchun soliq ma’murchiligining quyidagi funksiyaviy xususiyatlari takomillashtirilishi zarur bo‘ladi.

Birinchidan, soliq ma’murchiligi davlat byudjetining daromad qismini shakllantirishda soliq tushumlarini rejalashtirish funksiyasini bajaradi va soliqlarning mezon kriteriy ko‘rsatkichlari bo‘yicha rejalashtiriladi. Bunda asosan:

- mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘sish sur’atlarini inobatga olgan holda soliq tushumlari, ularning tarkibiy turlari bo‘yicha bashoratlashtiriladi;
- davlat byudjetining soliqli daromadlari aniqlanadi;
- byudjet daromadlariga nisbatan xarajatlar farqi (defistiti) aniqlanadi;
- davlat byudjetidagi respublika va mahalliy byudjetlar mablag‘lari ulushi aniqlanadi.

Soliq tushumlarining rejalashtirilishi quyidagicha muddatlarga mo‘ljallanib amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni qisqa muddatli reja – odatda joriy bir yillik soliq tushumlarini rejalashtirish va uzoq muddatli maqsadli reja – bir yildan uzoq muddatga rejalashtirish.

Ikkinchidan, soliq hisobini yuritish funksiyasi, ya’ni soliq organlari tomonidan soliqlarning umumiy hisobini olib borish.

Soliq ma’murchiligining bu funksiyasida soliq to‘lovchilar sonining o‘zgarishi dinamikasi, belgilangan soliq va yig‘imlarning o‘z vaqtida byudjetga tushishi, soliq organlarining moliyaviy ahvoliga qaratilgan. Bu borada quyidagi vazifalarni bajarilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:
- soliq to‘lovchilarni ro‘yxatdan o‘tkazib hisobini olib borish;
- soliq to‘lovchilarni hisobotlari va deklaratsiyalari bo‘yicha ish yuritish;
- soliq tushumlari bo‘yicha ortiqcha to‘lov va boqimandalar hisobini yuritish;
- ma’lumotlar natijasini tahlil qilish.

Uchinchidan, soliq nazorati funksiyasi. Bu funksiyaning xususiyati samarali soliq ma’murchiligining muhim sharti hisoblanadi. Soliq nazoratining asosiy maqsadi soliq to‘lovchilarning soliq to‘lovlaridan qochishini, bo‘yin tovlashini oldini olishga qaratilgan.

Soliq nazoratining amaliyotdagi foydalaniladigan shakllari quyidagicha:
- soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida davlat byudjetiga tushushining nazorati;
- soliq huquqbuzarliklarini oldini olish bo‘yicha monitoring;

- mavjud ma’lumotlarga asoslangan holda qisqa muddatli, rejali tekshirish va hujjatli reviziya o‘tkazish;
- tekshiruv materiallari bo‘yicha ma’muriy amaliyot yuritish, ya’ni qo‘llanilgan ma’muriy va moliyaviy jarimalarning to‘lanishini nazorat qilish.

To‘rtinchidan, soliq munosabatlarini tartibga solish. Soliqqa tortish jarayonini boshqarishning murakkabligi shundan dalolat beradiki, soliqlar bir vaqtning o‘zida ham ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va xo‘jalik xususiyatiga egadir.

Soliq ma’murchiligining obyekti, soliqqa tortish subyektlaridan turli darajadagi byudjetlarga tushadigan mablag‘lar oqimini tashkil qiladi va amalga oshirish bilan yuzaga keladigan munosabatlar tizimini muvozanatlashtiradi.

Soliqlar vositasida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish soliq ma’murchiligining muhim qismi hisoblanib davlatning soliqlar orqali iqtisodiyotni boshqaruvi va soliqlar vositasida soliq munosabatlarini rag‘batlantirish tizimini tartibga solinishi quyidagi omillarni nazarda tutgan holda amalga oshirilishi kerak:

- soliqqa tortish tizimini va tuzilmasining iqtisodiyoti uchun samarali shaklini ishlab chiqish;
- soliq va yig‘imlar muddati, miqdorini o‘zgartirish;
- soliq krediti, ya’ni imtiyozlar berish;
- soliqqa tortishning umumiy darajasini o‘rnatish.

Hozirgi paytda islohotlar sari iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida O‘zbekiston iqtisodiyoti, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi huquqiy va moliyaviy munosabatlar sohasida yuz berayotgan islohiy o‘zgarishlar va shunga monand ravishda soliq siyosatini erkinlashtirilishida barqaror soliq ma’murchiligini takomillashtirishimiz jahon talablariga javob beradigan soliq ma’murchiligi, davlatning moliyaviy ehtiyojlari va soliq to‘lovchilarning moliyaviy salohiyatlari asosida optimallashtirilgan rejalarni tuzish, me’yoriy tartibga solish va soliq organlari bilan soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi hamkorona soliq nazoratini tashkil qilish metodlariga asoslangan bo‘lishi lozim.

2.3. Soliq munosabatlarini boshqarish tizimida soliq ma’murchiligining huquqiy asoslari

Har qanday tizimning (sohaning) mukammal faoliyat yuritishi, ushbu tizimni tartibga solib turuvchi huquqiy asoslarning mukammal, bekamu-ko‘st, puxta va pishiq ishlab chiqilganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Shunday ekan, soliq ma’murchiligining samarali faoliyat yuritishi ham ko‘p jihatdan uni huquqiy bazasining mustahkamligi bilan ifodalanadi va unga soliq qonunchiligi orqali shakl beriladi.

Soliq ma’murchiligining huquqiy asoslari deganda, soliqqa oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishga xizmat qiluvchi, davlat idoralari tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bajarilishi lozimligi belgilangan, davlatning qonuniy hujjatlari tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq ma’murchiligining huquqiy asoslarini ikki guruhga: qonunlar va qonunostidagi me’yoriy hujjatlari guruhlariga bo‘linadi.

Soliq munosabatlarini tartibga solishda qonun me’yorlari yetakchi va belgilovchi ahamiyatga ega, chunki soliqlarni joriy etish, to‘lashga oid masalalar qonunlar bilan belgilanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barcha huquq sohalari ushun, shu jumladan, soliq ma’murchiligi fani uchun ham bosh yuridik manba bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 51-moddasida “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar”, deyiladi va shu bilan soliq munosabatlari jamiyatdagi yetakchi munosabatlardan ekanligi e’lon qilinadi.

2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi soliq ma’murchiligining huquqiy asoslarining ikkinchi eng muhim manbai hisoblanadi va soliq munosabatlarini tartibga solib borish aynan ushbu qonun hujjati orqali amalga oshiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni mamlakatimizda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining to‘g‘ri amal qilishini ta’minlovchi va nazorat qiluvchi organ hisoblangan davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tartibga solib boradi.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyat organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyat organlari to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra (6-modda) mahalliy davlat hokimiyati idoralari (xalq deputatlari, viloyat, shahar, tuman kengashlari, viloyat, tuman, shahar hokimlari) o‘z vakolatlari doirasida qaror va farmoyishlar chiqarishlari mumkin va ushbu hujjatlar ham soliq ma’murchiligi manbai sanaladi. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining soliq va soliqqa tortishga doir qaror va farmoyishlari ham joylarda soliq munosabatlarini amaliyotda qo‘llashda muhim asoslar hisoblanadi.

Soliq ma’murchiligining huquqiy asoslari sanaluvchi qonun ostidagi me’yoriy hujjatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining Farmon va qarorlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining Farmon va qarorlari ham, soliq ma’murchiligining huquqiy manbalari orasida muhim o‘rin tutadi. Farmon va qarorlar bilan me’yorlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida muhokama etilib, tasdiqlangach qonun kuchiga ega bo‘ladi. Mazkur hujjatlar vositasida soliqqa oid muhim qoidalar, imtiyozlar, cheklashlar muayyan huquqiy rejim joriy etiladi va bekor qilinadi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Respublika Markaziy bankining qarorlari bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan me’yoriy hujjatlar. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Respublika Markaziy bankining qarorlari bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan me’yoriy hujjatlari ham soliq munosabatlarini amaliyotda qo‘llashda, soliq ma’murchiligining huquqiy asoslarida salmoqli o‘rin tutadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi plenumi qarorlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi

tomonidan soliqqa oid ishlarni ko‘rish yuzasidan sud amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunlarini qo‘llash bo‘yicha qarorlari ham soliq ma’murchiligini huquqiy asoslari bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash joizki, soliq ma’murchiligini yuqorida sanab o‘tilgan huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda soliq munosabatlarida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar va norezidentlar bilan amalga oshirilganda xalqaro normalar ham qo‘llaniladi.

Biz yuqorida soliq ma’murchiligining boshqaruv tizimi xususida fikr yuritganimizda, boshqaruv subyektlari deyilganda, tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan tashkiliy-huquqiy asosda tashkil etilgan ma’muriy organlar tushunilishini ta’kidladik.

Soliq munosabatlarini boshqarish tizimida soliq ma’murchiligi boshqaruv tizimi subyektlarining huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni;
- “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-589-son Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 18-iyuldagi 5116-Farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi 2018-yil 29-iyundagi 5468-Farmoni;
- 2019-yil 26-sentyabr PF-3857-sonli “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2000-yil 13-martdagi 87-sonli Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat soliq organlari faoliyatini huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2000-yil 5- maydagi 180-sonli Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va byudjet parametrlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 28-dekabrdagi 4086-Qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3802-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 320-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-son Qarori va u asosida “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi” va boshqalar.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq ma’murchiligi to‘g‘risidagi tushunchaga ta’rif bering.
2. Soliq ma’murchiligi ahamiyatining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qiling.
3. Soliq ma’murchiligini mohiyati nimalardan iborat?
4. Soliq munosabatlarining zamonaviy samarali boshqaruv tizimini ta’minlashimiz uchun soliq ma’murchiligining qanday funksiyaviy xususiyatlari takomillashtirilishi zarur bo‘ladi?
5. Soliq munosabatlarini boshqarish tizimida soliq ma’murchiligining huquqiy asoslari nimalardan iborat?

3-mavzu. SOLIQ MA’MURCHILIGINI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARINING O‘RNI VA SOLIQ QONUNCHILIGI TARG‘IBOTI

3.1. Davlat soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi

3.2. Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari va huquqlari

3.3. Davlat soliq xizmati organlarining boshqa organ va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi

3.1. Davlat soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari tizimi soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olishning, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qarorini bajarish yuzasidan, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2019-yil 17-aprelda “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 320-sonli qarorni qabul qildi.

Ushbu qarorning 1-ilovasi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomi bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari maqomi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari va faoliyatining tashkiliy asoslari belgilab qo‘yildi.

Ushbu Nizom “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va yig‘imlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2010-yil 8-yanvardagi PQ-1257-son va “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qarorlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish tartibi va hisobotini, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari rahbarlarining funksional majburiyatlari va javobgarliklarini belgilab berdi.

Davlat soliq xizmati organlari soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilinishini ta’minlash sohasidagi nazorat bo‘yicha respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.



3.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining tashkiliy tuzulmasi[9]

Davlat soliq qo‘mitasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi.

Davlat soliq qo‘mitasi tizimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari, shuningdek, tasarrufidagi tashkilotlar va ta’lim muassasalari kiradi.

Davlat soliq xizmati organlari o‘z faoliyatlarini davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlaridan mustaqil tarzda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar. Davlat soliq xizmati organlarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Davlat soliq xizmati organlari yuridik shaxslar hisoblanadi, respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan ta’minlanadi, O‘zbekiston

[9] “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomoillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 3802-sonli qarori. 26.06.2018.

Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushurilgan va o‘z nomi bitilgan muhrga ega bo‘ladi.



3.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Markaziy apparatining tarkibiy tuzilmasi[10]

Davlat soliq xizmati organlari Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat soliq boshqarmasi hamda Davlat soliq inspeksiyalari kesimida o‘ziga biriktirilgan vazifalarni tarkibiy tuzilmalaridan kelib chiqqan holda taqsimlaydi. Xususan, Davlat soliq qo‘mitasi markaziy apparati tuzilmasi 3.2-rasmda keltirilgan va har bir o‘rinbosarga bo‘ysunuvchi boshqarma hamda bo‘limlar keltirilgan. Quyida Davlat soliq boshqarmasi va inspeksiyalari tarkibiy tuzilmasini keltirib o‘tamiz:

[10] O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti, http://soliq.uz/uz/about/soliq_organlarining_tarkibiy_tuzilmasi/qomita_markaziy_apparti_tarkibiy_tuzilmasi/



3.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq boshqarmasining tarkibiy tuzilmasi[11]



[11]O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti, http://soliq.uz/img/struktura/boshqarma_sxema 2017-uz.png

3.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq inspeksiyasining tarkibiy tuzilmasi[12]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan 2020-yil 1-noyabrdan davlat soliq xizmati organlari boshqaruv xodimlari soni 1 154 shtat birligiga yoki 10 foizga qisqartirildi.

Davlat soliq xizmati organlari boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 10 512 shtat birligi, shu jumladan, Davlat soliq qo‘mitasining markaziy apparatida – 498 shtat birligi etib belgilandi.

Davlat soliq qo‘mitasi markaziy apparati boshqaruv xodimlarining soni – 498 shtat birligi etib belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi markaziy apparatining tuzilmasida raisning birichi o‘rinbosari – kadastr agentligi direktori, kadastr agentligi shtat birligi joriy etildi, bu shtat birligi Davlat soliq qo‘mitasining umumiy xodimlar soniga kiritilmaydi.

Bundan tachqari davlat soliq qo‘mitasi raisiga quyidagi huquqlar berildi:

zarur hollarda markaziy apparat va hududiy bo‘linmalarning, shuningdek, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining tasdiqlangan tuzilmalariga boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni va ish haqi fondi doirasida o‘zgartirishlar kiritish;

bo‘ysunuvidagi xo‘jalik hisobidagi tashkilotlar xodimlari sonini belgilash, ularning tuzilmasini, shtat birliklarini, shu jumladan boshqaruv xodimlarining shtat birliklarini, ish haqi fondini, xarajatlar smetasini, transport vositalarining limitini tasdiqlash, shuningdek, ularning mol-mulkini tasarruf etish.

Soliq organlarida xizmatga o‘zlarining kasb malakasi, ishchanlik, shaxsiy va ma’naviy-axloqiy sifatlariga, ma’lumoti darajasiga va

[12] O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti, http://soliq.uz/img/struktura/inspeksiya_sxema2017-uz.png

salomatligiga ko‘ra soliq organlariga yuklangan vazifalarning bajarilishini ta’minlashga qodir bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadilar.

Soliq organlari mansabdor shaxslariga soliq organlarida boshqaruv xodimlarining shtatidagi lavozimlarni egallab turgan shaxslar kiradi va ularga egallab turgan lavozimlariga hamda uzoq muddat ishlaganligiga muvofiq ravishda quyidagi maxsus unvonlar beriladi:

3.1-jadval

Davlat soliq xizmati organlari tizimidagi maxsus unvonlar[13]

T/r	Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga egallab turgan lavozimi va ish stajiga muvofiq beriladigan maxsus unvonlar:
1	soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi
2	soliq xizmatining I darajali davlat maslahatchisi
3	soliq xizmatining II darajali davlat maslahatchisi
4	soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi
5	soliq xizmatining I darajali maslahatchisi
6	soliq xizmatining II darajali maslahatchisi
7	soliq xizmatining III darajali maslahatchisi
8	soliq xizmatining I darajali inspektori
9	soliq xizmatining II darajali inspektori
10	soliq xizmatining III darajali inspektori
11	soliq xizmatining inspektori

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va egallab turgan lavozimidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod qilinadi.

Qo‘mita raisining birinchi o‘rinbosari. Rais o‘rinbosarlari. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat

[13] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-sonli “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 3-ilovasiga asoslangan holda muallif tomonidan tayyorlandi.

soliq boshqarmalari boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar.

Qo‘mita markaziy apparatining mansabdor shaxslari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi. viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari bo‘limlari boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari Ichki audit boshqarmasi va O‘z xavfsizligi boshqarmasi bo‘limlari mansabdor shaxslari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i va boshliq o‘rinbosarlari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi bo‘limlari boshliqlari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi O‘z xavfsizligi boshqarmasi bo‘limlari mansabdor shaxslari, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari belgilangan tartibda Qo‘mita raisining buyrug‘i bilan tayinlanadilar.

Davlat soliq xizmati organlarining boshqa mansabdor shaxslari tegishli soliq organi rahbari tomonidan tayinlanadilar.

3.2. Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari va huquqlari

Qonun hujjatlariga asosan Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari quyidagiar:

- davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi yuzasidan ta’sirchan nazoratni ta’minlash;
- soliqlar va to‘lovlarning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini ta’minlash;
- soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlarining o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, ularni soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etgan holda to‘liq qamrab olish mexanizmlarini takomillashtirish;

- soliq solinadigan bazani tahlil qilish va kengaytirish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy usullarni joriy etish, soliqqa oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;
- pul mablag‘larining g‘ayrinoqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan naqd pulli hisob-kitoblarni amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining o‘z vaqtida va to‘liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta’minlash;
- soliq to‘lovchilarga to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish yo‘li orqali soliq to‘lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish, ularga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko‘maklashish, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqiy madaniyatini oshirish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo‘yicha respublika nazorat qiluvchi organlari faoliyatining muvofiqlashtirilishini ta’minlash, ushbu ishlarni amalga oshirishda bir-birini takrorlash va suiiste’molliklarga yo‘l qo‘ymaslik;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operatsiyalari amalga oshirilganda qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish.

Davlat soliq xizmati organlari o‘z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

1) soliq to‘lovchilarning moliyaviy hujjatlarini, shartnomalarini (kontraktlarini), rejalarini, smetalarini, daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyalarini hamda soliqlarni, to‘lovlarni hisoblab chiqish va to‘lash, fuqarolarning yakka tartibdagi jamg‘arib boriladigan pensiya

hisob raqamlariga jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarini to‘lash bilan bog‘liq boshqa hujjatlarini, shu jumladan, elektron hujjatlarini, shuningdek, eksport-import operatsiyalari bilan bog‘liq hujjatlarini tekshirish;

2) soliq tekshiruvlarini o‘tkazayotganda:

- hududni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini va boshqa binolarni (shuningdek, alohida rejimda ishlaydigan korxonalarni), shu jumladan, soliq to‘lovchi tomonidan daromadlar olish uchun foydalaniladigan yoxud soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog‘liq joylarni, ularning joylashgan joyidan qat’i nazar tekshirish;
- mol-mulklarni xatlash va bajarilgan ishlarni, ko‘rsatilgan xizmatlarni nazorat tartibida o‘lchash;
- kassalarni hamda tovar-moddiy boyliklar va hujjatlar (shu jumladan, elektron tarzidagi hujjatlarni) saqlash joylarini muhrlab qo‘yish;
- soliqlar va to‘lovlarni hisoblab chiqish va to‘lash bilan bog‘liq hujjatlarni talab qilish;
- hujjatlarni (nusxalarini, shuningdek, asl nusxalarini), shu jumladan elektron hujjatlarni, predmetlarni (tovarlar, buyumlar, xomashyolar, materiallar va yarim tayyor mahsulotlar namunalarini), shuningdek, huquqbuzarlik predmetlarini olib qo‘yish, olib qo‘yilishi soliq to‘lovchi faoliyatining to‘xtab qolishiga olib keladigan hujjatlar bundan mustasno. Soliq to‘lovchi faoliyatining to‘xtab qolishiga olib keladigan hujjatlar va predmetlarni olib qo‘yish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi;
- soliq to‘lovchidan, shuningdek, rahbarlik funksiyalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish funksiyalarini amalga oshiradigan shaxslardan, soliq to‘lovchining boshqa moddiy javobgar xodimlaridan tushuntirish xatlari, axborotlar, ma’lumotlar, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;
- tekshirilayotgan soliq to‘lovchilarning rahbarlaridan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari va hisob-kitoblarni xatlovdan o‘tkazishni talab qilish;
- tarjimonni, ekspertni jalb etish va ekspertizani tayinlash;

- soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlari bartaraf etilishini talab qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirish;

3) savdo, tovarlar sotish va pulli xizmatlar ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishi, shuningdek, naqd pul tushumining bankka o‘z vaqtida topshirilishini, shu bilan birga naqd pul mablag‘lari yoki plastik kartochkalar bo‘yicha to‘lov shakliga qarab narxlarni sun’iy ravishda oshirish yoki pasaytirish, nazorat-kassa mashinalaridan, hisob-kitob terminallaridan foydalanish, belgilangan tartibda talonlar va cheklarni berish, naqd tushumni o‘z vaqtida va to‘la hajmda inkassatsiya qilish masalalari yuzasidan tekshiruvlarni belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirish;

4) soliq tekshiruvlarini o‘tkazayotganda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasida saqlanayotgan ma’lumotlardan foydalanish;

5) belgilangan tartibda quyidagilarni olish:

- banklardan va boshqa kredit-moliya tashkilotlaridan soliq to‘lovchilarning hisob-kitob hisobvaraqlarida yoki boshqa hisobvaraqlarida amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi, shuningdek, ushbu hisobvaraqlarda mavjud pul mablag‘lari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;
- bojxona organlaridan va boshqa vakolatli organlardan import-eksport operatsiyalari amalga oshirilganligi va soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi boshqa zarur ma’lumotlarni;
- vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlardan davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining xizmat vazifalari masalalari bo‘yicha ma’lumotlarni;

6) belgilangan tartibda:

- qurilish, montaj, ta’mirlash va boshqa ishlarni nazorat o‘lchovidan o‘tkazish uchun malakali mutaxassislarni jalb etish;
- iqtisodiy jinoyatlar bilan kurashishda ilmiy-texnik vositalardan va usullardan foydalanish;
- o‘tkaziladigan tekshirishlarda boshqa nazorat qiluvchi organlar, vazirliklar va idoralar bilan hamkorlik qilish;

- mansabdor shaxslarni, fuqarolarni aniqlangan huquqbuzarlik faktlari bo‘yicha tushuntirishlar berish uchun soliq xizmati organlariga taklif etish;

7) soliq to‘lovchi tomonidan hisobga olish hujjatlari yo‘qotib qo‘yilgan yoki yo‘q qilingan hollarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar hamda to‘lovlar summasini soliq to‘lovchi to‘g‘risida o‘zida mavjud bo‘lgan axborotlar, shuningdek, boshqa ana shunday soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida hisob-kitob qilish yo‘li bilan mustaqil ravishda belgilash;

8) soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati mobaynida soliqlar va to‘lovlarning hisoblab chiqilgan summasini hisoblab chiqarish yoki qayta ko‘rib chiqish;

9) soliqlar va to‘lovlarni undirish funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlarni soliqlar va to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab chiqilganligi, to‘liq undirilganligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga hamda davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘z vaqtida o‘tkazilganligini nazorat qilish;

10) soliq tekshiruvini o‘tkazishga soliq to‘lovchi tomonidan to‘sqinlik qilinganda yoki hududlarni, binolarni, shu jumladan, soliq to‘lovchi tomonidan daromadlar olish uchun foydalanilayotgan yoxud soliq solish obyektini saqlash bilan bog‘liq joylarni tekshirish uchun davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarini kiritish rad etilganda, soliq to‘lovchi ma’lum qilingan manzilda bo‘lmaganda, shuningdek, soliq to‘lovchi tomonidan soliq hisoboti va (yoki) moliyaviy hisobot, kameral tekshiruv natijalari bo‘yicha tafovutlarning asoslari yoxud aniqlashtirilgan soliq hisoboti belgilangan muddatda taqdim etilmagan holatlarda bank hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish bo‘yicha sud tartibida chora-tadbirlar ko‘rish (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirishning aniqlangan holatlari bundan mustasno);

11) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish va yuridik hamda jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarni

qo‘llash. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo‘llaniladi, ular sodir etilgan huquqbuzarliklardagi aybini e’tirof etgan va moliyaviy sanksiyalar summasini ixtiyoriy ravishda to‘lagan holatlar bundan mustasno;

ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ma’muriy jazolar qo‘llash;

12) aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha tovar-moddiy boyliklarni qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda va tartibda davlat daromadiga o‘tkazish. Soliq to‘lovchilar – yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar-moddiy boyliklarini davlat daromadiga o‘tkazish sud tartibida amalga oshiriladi;

13) soliq to‘lovchilar tomonidan noqonuniy olingan mablag‘larni davlat daromadiga undirish to‘g‘risida ularga nisbatan sudga da’volar taqdim etish;

14) soliq to‘lovchi majburiyatlarining bajarilishi zarurligi to‘g‘risida va soliq qarzini majburiy tartibda undirish bo‘ycha ko‘riladigan chora-tadbirlar to‘g‘risida soliq to‘lovchiga talabnoma yuborish;

15) soliq to‘lovchi soliq hisoboti taqdim etilgan sanadan e’tiboran o‘n kun mobaynida yozma ariza bermagan taqdirda, soliqlar va to‘lovlarning ortiqcha to‘langan summalarini soliq qarzini, shu jumladan, ular bo‘yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga hisobga olishni amalga oshirish to‘g‘risida tegishli moliya organlariga mustaqil ravishda xulosa taqdim etish;

16) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan holatlarda hujjatlarni, agar ular chet tilda tuzilgan bo‘lsa, notarial tasdiqlangan holda davlat tiliga tarjima qilishni talab qilish;

17) bozorlarda, savdo komplekslarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joylarida bir martalik yig‘imning to‘liq tushganligini va uni topshirish hisobini, ijara to‘lovini, nazorat-kassa mashinalaridan foydalanilishini, hisob-kitob terminallarini, savdo va xizmatlar ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini belgilangan tartibda qisqa muddatli tekshirishlarni amalga oshirish, shu jumladan, naqd pul mablag‘lari yoki plastik kartochkalar bo‘yicha to‘lov

shakliga qarab narxlarni sun’iy ravishda oshirish yoki pasaytirish, shuningdek belgilangan tartibda talonlar va cheklarni berish, naqd tushumni o‘z vaqtida va to‘la hajmda inkassatsiya qilish masalalari yuzasidan tekshiruvlarni o‘tkazish.

18) bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joylarida aniqlangan moliya- iqtisodiy va soliq sohalaridagi buzilishlar sodir etilganligi haqidagi dalillari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvlar o‘tkazish, ular bo‘yicha jinoiy ishlar qo‘zg‘ash, keyinchalik ishlarni tergovga tegishliligiga qarab qonun hujjatlariga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berish.

Davlat soliq xizmati organlari davlat statistika, axborot, arxiv, ma’lumot va boshqa tashkilotlarining soliq to‘lovchilar haqidagi ma’lumotlarni berish yuzasidan ko‘rsatadigan xizmatlari (bajaradigan ishlari) uchun haq to‘lashdan ozod qilinadi.

Davlat soliq xizmati mansabdor shaxslarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, “Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizom, shuningdek, “Davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida”gi Nizom bilan tartibga solinadi.

3.3. Davlat soliq xizmati organlarining boshqa organ va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi

Davlat soliq xizmati organlari o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Hududlararo inspeksiya o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Davlat soliq xizmatining hududiy organlari o‘z vakolatlari doirasida boshqa hududiy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Davlat soliq xizmatining hududiy organlari tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilishida va amalga oshirilishida kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Qo‘mitaning faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish, moliya va bank tizimlarini isloh qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Kompleks rahbari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish, moliya va bank tizimlarini isloh qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalalari yig‘ima axborot-tahlil departamenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bo‘linmalari mutasaddilik qiladi.

Hududlararo inspeksiya tarkibiy bo‘linmalarining Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari hamda hududiy davlat soliq xizmati organlari bilan hamkorligi Hududlararo inspeksiya tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

Hududlararo inspeksiya bo‘linmalarining Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari va hududiy davlat soliq xizmati organlari bilan hamkorligi axborot ayirboshlash va qonun hujjatlarida belgilangan soliq nazoratining shakllarini amalga oshirishga asoslangan.

Hududlararo inspeksiya tarkibiy bo‘linmalarining Qo‘mita markaziy apparati bo‘linmalari va hududiy davlat soliq xizmati organlari bilan hamkorligi jarayonida vujudga keladigan tushunmovchiliklar Qo‘mita raisining topshirig‘iga muvofiq uning tegishli o‘rinbosarlari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Ushbu ko‘rib chiqishda tushunmovchiliklar tartibga solinmagan holatlarda, ular bo‘yicha qaror bevosita Qo‘mita raisi tomonidan qabul qilinadi.

Hududlararo inspeksiya va uning tarkibiy bo‘linmalari o‘zlarining vazifa va funksiyalarini bajarishda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi o‘z vakolatlari doirasida soliqqa tortish subyektlari va obyektlari, soliq bazasini belgilash, soliq imtiyozlarini qo‘llash, soliq haqidagi qonun hujjatlarining ayrim qoidalarini tushuntirish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qabul qiladigan umumiy majburiy tusdagi normativ hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Soliq to‘lovchilarning hisobga olinishini va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta’minlash maqsadida banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari:

1) xo‘jalik yurituvchi subyektlar davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatga olinganliklarini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgan taqdirdagina ular uchun hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlari ochishlari mumkin va bu hisobvaraqlar ochilganligi haqida ular ochilgan kunning ertasidan kechiktirmay mazkur organga xabar beradilar;

2) xo‘jalik yurituvchi subyektlar byudjet oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarganliklari to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlarining xulosasi taqdim etilgan taqdirdagina xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlarini yopishlari mumkin;

3) davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘lovchi mijozlardan belgilangan muddatda to‘lanmagan soliqlar va jarimalarni so‘zsiz undirish to‘g‘risidagi farmoyishlarini (inkasso topshiriqlarini) mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan alimentlar undirish haqidagi, mualliflik shartnomalari bo‘yicha haq to‘lashga doir, shuningdek, hayot va sogliqqa yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash haqidagi talablarni qondirish uchun hisobvaraqdan pul mablag‘lari

o‘tkazilishi yoki berilishini nazarda tutadigan ijro hujjatlari bo‘yicha mutanosib ravishda bajaradilar;

4) soliq to‘lovchi mijozning mablag‘lari bo‘lsa, uning hisob-kitob yoki boshqa hisobvarag‘idan mablag‘larni hisobdan chiqarish operatsiyasi amalga oshirilgan kuni soliqlar va jarima summalarini byudjet daromadiga o‘tkazadilar;

5) yuridik shaxslarning so‘mdagi mablag‘lari yetishmagan va valyuta hisobvarag‘ida mablag‘lari mavjud bo‘lgan taqdirda, davlat soliq xizmati organlarining taqdimnomasiga ko‘ra mazkur valyuta mablag‘larini byudjet oldidagi qarzni to‘lash uchun zarur bo‘lgan hajmda sotuv kunidagi kurs bo‘yicha valyuta birjasida so‘zsiz tartibda sotadilar;

6) davlat soliq xizmati organlarining yozma talabi bo‘yicha soliq to‘lovchi mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan pul mablag‘lari berish, o‘tkazish yoki ularni hisobdan chiqarishga doir barcha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yadilar;

7) davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga:

- yuridik shaxslarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlari;
- jismoniy shaxslarning depozit va boshqa hisobvaraqlari

bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni tekshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadilar;

8) davlat soliq xizmati organlarining so‘rovnomasiga ko‘ra ularga so‘ralayotgan davr mobaynida soliq to‘lovchi mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan operatsiyalar va ana shu hisobvaraqlarda pul mablag‘larining bor-yo‘qligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadilar;

9) davlat soliq xizmati organlarining so‘rovnomasiga ko‘ra eksport-import shartnomalarining ijrosiga doir ma’lumotlarni va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa axborotni taqdim etadilar;

10) olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik korxonalari esa uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo‘yicha pul operatsiyalari o‘tkazish bilan bog‘liq moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi munosabati bilan korxonalarning hisobvaraqlari yopilgan sanadan e’tiboran ularning faoliyatni davom ettirishi maqsadga

muvofiqligi to‘g‘risidagi masalalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish uchun axborotni ularni hisobga olgan joydagi davlat soliq xizmati organiga uch ish kuni mobaynida taqdim etadilar.

Banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining soliq to‘lovchi mijozlarning soliqlar, shuningdek, jarima summalarini o‘tkazish haqidagi topshiriqlarini bajarishni kechiktirishi taqiqlanadi.

Bank tomonidan soliq (yig‘im), bo‘nak to‘lovi, penya va jarima summasini o‘tkazish to‘g‘risidagi soliq to‘lovchining topshiriqnomasini, soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarmaslik (bajarilishini kechiktirish) – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining bir yuz ellikdan bir qismi miqdorida, lekin kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun o‘tkazilmagan summa bir foizining beshdan bir qismidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida davlat hokimiyati vakili hisoblanadilar. Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya qilish xususidagi talablari barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi shart.

Hech kim davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga aralashishga haqli emas. Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining o‘z xizmat vazifalarini bajarishlariga to‘sqinlik qilinish, ularning o‘z xizmat vazifalarini bajarishlari munosabati bilan ularning sha’ni va qadr-qimmatini haqoratlash, ularga qarshilik ko‘rsatish, tahdid qilish, zo‘ravonlik qilish yoki ularning hayoti, sog‘ligi va mol-mulkiga tajovuz qilish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining tashkiliy tuzulmasini tahlil qiling.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Markaziy apparatining tarkibiy tuzilmasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq boshqarmasining tarkibiy tuzilmasini tahlil qiling.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq inspeksiyasining tarkibiy tuzilmasini tahlil qiling.
5. Davlat soliq xizmati organlari tizimidagi maxsus unvonlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
6. Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Davlat soliq xizmati organlarining majburiyatlarini tahlil qiling.
8. Davlat soliq xizmati organlari nazorat faoliyati qanday tartibda amalga oshiriladi?
9. Davlat soliq xizmati organlarining huquqlarini o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
10. Davlat soliq xizmati organlari boshqa organ va tashkilotlar bilan qanday tartibda o‘zaro hamkorlik olib boradi?

4-mavzu. SOLIQ MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISHDA SOLIQ MA’MURCHILIGI TIZIMINING AHAMIYATI

4.1. Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma’murchiligi tizimining o‘rni va ahamiyati

4.2. Soliqlar yig‘iluvchanligining tutgan o‘rni va ahamiyati

4.1. Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma’murchiligi tizimining o‘rni va ahamiyati

Mamlakatimizda soliq tizimidagi islohotlarni yanada jonlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Soliq ma’muriyatchiligini amalga oshirishda bir qator muammolar mavjudligi sababli Farmon bilan davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning quyidagi muhim yo ‘nalishlari belgilandi:

- soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko ‘rsatishga to‘liq o‘tish;
- soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan ishonchli axborotini o ‘z muddatida taqdim etish bo‘yicha mas’uliyatini oshirish;
- soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

- makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirishni ta’minlash bo‘yicha samarali tadbirlarni amalga oshirish;
- faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalarning faoliyatini tiklashga har tomonlama ko‘maklashish, past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish, o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;
- soliq solish masalalari, shu jumladan, respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo‘shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;
- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, soliq organlarini yuqori ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega malakali xodimlar bilan to‘ldirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek, xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Soliq organlari va halol soliq to‘lovchilar o‘rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko‘maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli – soliq monitoringi joriy etildi.

Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to‘qnash kelgan halol soliq to‘lovchilar – xo‘jalik yurituvchi subyektlarga soliq ta’tillari berish tarzidagi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi shakli nazarda tutildi. Shuningdek, soliq to‘lovchi tomonidan ortiqcha to‘langan soliqlar va to‘lovlarni qaytarish yoki hisobga olish muddati ikki baravarga qisqartirildi.

Soliq nazoratining to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotsiz shakllari samaradorligini oshirish maqsadida kameral tekshiruv natijalari bo‘yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to‘lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda soliq auditi tayinlash joriy etildi.

Bundan tashqari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida “sog‘lom raqobat”ni ta’minlash va “xufiyona biznes” yuritishga barham berish maqsadida soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma’lumotlarning onlayn rejimida berilishini ta’minlaydigan nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etildi.

Shu bilan bir qatorda, real ish o‘rinlarini legallashtirish uchun davlat soliq xizmati organlariga xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish vazifalari yuklatildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan O‘zbekiston Hisob palatasi tuzilmasida O‘zbekiston Davlat byudjetiga tushumlarning to‘liqligini nazorat qilish inspeksiyasi tashkil etilib, uning faoliyati byudjet daromadlarini ko‘paytirish zaxiralarini aniqlash va ularning safarbar etilishini ta’minlash, soliq va bojxona to‘lovlarining yig‘iluvchanlik darajasini tizimli tahlil qilish, Davlat byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlarining xolisligi va asosliligini baholash, soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazani to‘liq qamrab olish ustidan nazoratni amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

Soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishini muvofiqlashtirish va soliq to‘lovchilarga interaktiv davlat xizmatlari taqdim etish amaliyotini kengaytirish uchun mas’ul bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisining o‘rinbosari lavozimi joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, Farmon bilan 37 ta banddan iborat Davlat soliq xizmati organlari faoliyati va soliq ma’muriyatchiligining samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan.

Nazarda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish maqsadida soliq qonunchiligi va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo‘yicha ishchi komissiya tashkil etildi. Ushbu

komissiyaga, shu jumladan, quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish vazifalari yuklatildi:

- soliq ma’muriyatchiligi va nazoratini tashkil etish tartibi va metodologiyasini tubdan takomillashtirish;
- soliq yukini yanada kamaytirish, bir xil soliq solish obyektlariga ega bo‘lgan soliqlar va yig‘imlarni birlashtirish;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash uchun qo‘shimcha mezon (oborotning chegaraviy miqdori) joriy etishni va ushbu miqdor oshgan korxonaga, kichik tadbirkorlik subyekti maqomini saqlab qolgan holda, qo‘shimcha soliq majburiyatlarini belgilash;
- ayrim yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalarini optimallashtirish;
- halol, shu jumladan, ish o‘rinlari va mehnatga haq to‘lash fondini legallashtiradigan soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish choralarini joriy etish.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlarni amalga oshirilishi soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi, uning shaffofligini ta’minlaydi, bu esa, shubhasiz, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida o‘z aksini topadi.

Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma’murchiligi tizimining o‘rni va ahamiyatini aniqlashda quyidagi holatlarga e’tibor berish lozim:

a) soliq ma’murchiligi soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir;

b) soliq ma’murchiligi davlat soliq siyosatini amalga oshirilishini ta’minlaydi va shunga xizmat qiladi;

d) soliq ma’murchiligi soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turadi;

e) soliq ma’murchiligi soliq huquqining qoidalariga asoslanadi, ularni o‘ziga xos tarzda to‘ldiradi, uni nazariy va amaliy nuqtayi nazardan soliq mexanizmining o‘ziga xos sterjeni sifatida talqin etish mumkin;

f) soliq munosabatlari soliq ma’murchiligi predmetini tashkil etadi;

g) soliq ma’murchiligi mohiyati, konkret holda, u tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi.

Soliq ma’murchiligining mohiyatini aniqlashda soliq tizimi tuzilishi va soliq siyosatini tashkil etishning prinsiplari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu prinsiplarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1) soliqqa tortish jarayonlarini ma’muriy boshqarishni o‘zida aks ettiruvchi tashkiliy prinsiplar (umumiylik, tenglilik, o‘zgaruvchanlik);

2) soliqlarning iqtisodiyotga ta’sirini o‘zida ifodalaydigan iqtisodiy prinsiplar (samaradorlilik, tejamkorlilik, teng taqsimlanish);

3) soliq munosabatlarining qonun nuqtayi nazaridan aniqligini ko‘rsatuvchi prinsiplar (birlik-yagonalik, barqarorlik, aniqlilik).

Fikrimizcha, soliq ma’murchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi ta’rifi ushbu jarayonda e’tiborga qaratilishi kerak bo‘lgan barcha holatlarni hisobga olishi zarur.

4.2. Soliqlar yig‘iluvchanligining tutgan o‘rni va ahamiyati

Har bir mamlakat taraqqiy etib borgani sari soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirib borishga intiladi. Bizning davlatimizda ham soliq siyosatidagi qator qonunchilik normalari qayta ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda va bu jarayon hali to‘liq o‘z nihoyasiga yetganicha yo‘q. Ya’ni soliqlarning undirilish mexanizmi murakkabligi, soliq solish tartibining uzilishlari, soliq munosabatlari obyektlari, subyektlari o‘rtasidagi aloqalarning to‘la qonun doirasida emasligi soliq siyosatini yanada takomillashtirib yangicha qiyofada yuzaga chiqishiga asos bo‘lmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468 sonli farmoni bo‘yicha soliq ma’murchiligi borasida yanada yangi o‘zgarishlar boshlandi. Soliq munosabatlarida soliq ma’murchiligi subyektlari masalalari bo‘yicha ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. Soliq to‘lovchilarga tushadigan soliq yukining og‘irligi, soliq to‘lovchilar tomonidan mehnatga haq to‘lash fondiga ajratmalar to‘lashdan qochish holatlari (ya’ni soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash) mavjudligining o‘ziyoq soliq

ma’murchiligi sohasida soliq munosabatlari subyektlariga alohida to‘xtalishga sabab bo‘la oladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning moliyaviy asoslari shakllanishiga ijobiy ta’sir etishning moliyaviy usullaridan biri soliqlar yig‘iluvchanligi darajasini oshirish va soliqlarni undirishda byudjetdan qarzdorlik darajasini kamaytirishdir. Bugungi kunda ko‘plab munozaralarga sabab bo‘layotgan soliq tizimi modernizatsiyasining alohida bir yo‘nalishi sifatida soliq ma’muriyatchiligining ushbu yo‘nalishiga oid munosabatlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonunida “Davlat soliq xizmati organlari soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning byudjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini ta’minlash maqsadlarida tuziladi” [14] , deyilgan. Shunga ko‘ra, ular soliq nazoratini amalga oshiradilar. Bugungi kunda soliq organlarining funksiyalari, vakolatlari va tuzilmasi zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirilmog‘i zarur, ular fiskal-moliya organlari tuzilmasida, eng avvalo, soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, Davlat byudjetining daromad qismini barqaror shakllantirishning belgilangan topshiriqlarini bajarish masalalarida hali yetakchi o‘rinni egallagani yo‘q. Soliq to‘lovchilarning faoliyatiga vakolatli organlarning ko‘p aralashishi, tekshirishlarni amalga oshirish orqali ularning erkinliklarini bo‘g‘ib qo‘yib, asosiy faoliyatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va diversifikatsiyalashtirish bosqichida davlat moliyasini isloh etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, soliq tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda fiskal va monetar siyosatning o‘rni, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari, moliyaviy tizim va resurslarni boshqarishning ilg‘or xorij tajribasidan respublikamizda foydalanish masalalari hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

[14]O’zbekiston Respublikasining 29.08.1997 dagi “Davlat soliq xizmati to’g’risida”gi qonuni 1-moddasi.

Mamlakatimizda soliq tizimini takomillashtirish hamda soddalashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada soliq ma’muriyatchiligi shaffofligini ta’minlash, soliq to‘lovchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilish borasida muayyan yutuqlarga erishilmoqda.

Jumladan, bu yo‘nalishda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirish maqsadida, eng avvalo, ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog‘ini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, soliq yukini kamaytirish natijasida korxonalarda o‘z ixtiyorida qoladigan mablag‘lardan ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida investitsiya faoliyatini kengaytirish hamda xodimlar mehnatini yanada rag‘batlantirish imkoni paydo bo‘lmoqda.

Shuningdek, soliq tizimini soddalashtirish va soliqlarni bir xillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlar, o‘z navbatida, korxonalarning buxgalteriya xodimlarini soliqlarni hisoblash va to‘lash ishlarini soddalashtirishga hamda soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi.

Ta’kidlash lozimki, bu boradagi islohotlarni izchil davom ettirish va yanada jadallashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Binobarin, zamonaviy talablarga javob beradigan soliq tizimi – iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘tgan davr mobaynida tadbirkorlik subyektlarida tekshirishlarni va ularning faoliyatiga asossiz aralashishlarni qisqartirish bo‘yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirishlar bekor qilindi, hisobotlarning shakli va topshirish muddatlari soddalashtirildi.

Shu bilan birga, soliq ma’muriyatchiligi sohasida, jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ishda, soliq solinadigan bazani

kengaytirishda va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolar mavjudligi va bu esa o‘z navbatida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishi sifatida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish belgilangan bo‘lib, “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturida soliq ma’muriyatchiligi sifati va samaradorligini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida soliqqa tortishni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur vazifalarni to‘laqonli bajarish hamda mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, soliq yukini kamaytirish orqali soliq solinadigan bazani kengaytirishga erishish maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3168-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 677-sonli qarori tasdiqlandi.

Soliq ma’murchiligining muhim funksiyalaridan biri bu soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasini ta’minlash hisoblanadi. Soliqlarning yig‘iluvchanligi esa byudjetga soliq tushumlarining o‘z vaqtida tushishini ta’minlashning qay darajada ekanligini bildiradi. Ma’lumki, soliq tushumlarining miqdori har yili davlat byudjeti daromadlari rejalashtirilayotgan vaqtda aniqlanadi. Bu jarayon moliyaviy rejalashtirishning aniqlilik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Soliqlarning yig‘iluvchanligi deganda soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar va boshqa to‘lovlarning byudjetga o‘z vaqtida va bir maromda tushishini ta’minlash jarayoni tushuniladi.

Byudjetga rejalashtirilgan soliq tushumlari ijrosida haqiqatda kelib tushgan to‘lovlar soliq yig‘iluvchanligi darajasini, rejaga yetmagan qismi esa soliqlar bo‘yicha byudjetga boqimanda darajasini ifodalaydi.

Byudjetga boqimanda qarzdorliklar sabablari turlicha bo‘lib, ularga bir qator omillar ta’sir qiladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Byudjet daromadlarining to‘g‘ri rejalashtirilishi. Agar byudjet daromadlari to‘g‘ri rejalashtirilgan bo‘lsa soliq tushumlarining kelib tushishi bilan byudjet daromadlari o‘rtasida bog‘liqlik mavjud bo‘ladi va soliqlarning yig‘iluvchanligi ta’minlanadi.
- Soliq tushumlarining byudjetga tushish jarayonining prognoz qilinishi. Ushbu omil eng muhimlaridan biri bo‘lib, soliq tushumlarining byudjetga tushish jarayoni qanchalik obyektiv prognoz qilingan bo‘lsa, soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasi ham shuncha oshadi. Byudjet daromadlari rejalashtirilayotganda soliq tushumlarining prognoziga tayaniladi, agar soliq tushumlari noto‘g‘ri darajada prognoz qilingan bo‘lib, unga asoslangan holda byudjet daromadlari rejalashtirilsa, soliq tushumlarining kelib tushishi va byudjet daromadlarining miqdori o‘rtasida manfiy farq yuzaga keladi.
- Soliq to‘lovchilarning soliq potensialining to‘g‘ri aniqlanganligi. Soliq to‘lovchilarning soliq potensialini baholash, ya’ni ularning zimmasiga yuklatilgan soliq to‘lovlarini to‘lay olish darajasini baholash, o‘z navbatida soliqlarni prognoz qilish darajasiga ta’sir qiladi, provardida esa byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoniga ta’sir qiladi. Shu jihatdan olganda soliq to‘lovchilarning soliq potensialini to‘g‘ri aniqlash soliqlarning yig‘iluvchanligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.
- Soliq to‘lovchilarda soliq madaniyatining rivojlanganlik darajasi. Byudjetga soliq tushumlarining bir maromda kelib tushishi ko‘pincha soliq to‘lovchilarning soliq madaniyati darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Soliq madaniyatining rivojlanganligi o‘z navbatida soliq boqimandaligining kamayishiga ijobiy ta’sir qiladi. Soliq to‘lovchilar tomonidan o‘zlariga yuklatilgan soliq to‘lovlarini to‘g‘ri anglab yetgan holda to‘lab borishi, soliq hisobotlarini o‘z vaqtida taqdim etishi, soliqni

to‘lashdan bo‘yin tovlamasligi soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

- Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq to‘lovlarini to‘lash jarayonini rejalashtirishni to‘g‘ri tashkil etish darajasi. Soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushishi ko‘p jihatdan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarishni to‘g‘ri tashkil etish, ya’ni soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashni tashkil etishni rejalashtirish soliq tushumlarining byudjetga tushish jarayonini ta’minlaydi, soliq to‘lovchilarning byudjet oldidagi qarzdorligini kamaytirishga imkon yaratadi. Chunki, soliq tushumlarini to‘lashni rejalashtirish soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlariga teng ravishda moliyaviy manbalarni shakllantirishni ham taqozo etadi. Soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq to‘lovlari uchun moliyaviy manbalarni rejalashtirish bir tomondan boqimandalikni kamaytirsa, boshqa tomondan soliqlarni to‘lamaganlik uchun moliyaviy va boshqa jarimalarni to‘lashning oldini olinadi.
- Soliq undirishga xizmat qiluvchi moliya-kredit organlarining faoliyati samaradorligi. Soliq tushumlarining yig‘iluvchanligi yuqorida qayd etib o‘tilganlardan tashqari soliq undirishga xizmat qiluvchi organlar, jumladan, bank muassasalari, bojxona organlari hamda mahallalarning soliqlarni byudjetga o‘tkazib berish borasidagi faoliyatiga ham bog‘liqdir.

Soliq kodeksi, boshqa qonunosti hujjatlarda soliq yig‘iluvchanligiga ta’rif berilmagan hamda soliq yig‘iluvchanligini aniqlash tartibi belgilanmagan. Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotda soliq yig‘iluvchanligini ta’riflashda yagona yondashuv yo‘qligini ko‘rishimiz mumkin. Tahlillarning ko‘rsatishicha, iqtisodiy adabiyotda soliq yig‘iluvchanligini nazariy asoslashda bir necha ilmiy yondashuvlar mavjud:

Birinchi yondashuvda[15] “soliq yig‘iluvchanligi” soliqning fiskal funksiyasidan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichi sifatida tushuniladi. Mazkur tushunchani amaldagi qonunchilik asosida

[15] Муталимова П.М. Урегулирование налоговой задолженности: комплексное решение // Российское предпринимательство. 2012. №22 (220). С. 190-194; Гираев В.К. Комплексный подход к урегулированию налоговой задолженности // Казанская наука. 2013. №3. С. 44-46 .

belgilanadigan soliq majburiyatlarining bajarilish to‘liqligi sifatida ishonarli ta’riflash va ma’lum davrda soliq majburiyatlari miqdoriga kelib tushadigan soliq to‘lovlari miqdori nisbati tarzida ifodalash mumkin.

Ikkinchi yondashuv[16] tarafdorlari soliq yig‘iluvchanligi mohiyatini soliq organlari faoliyatining reyting ko‘rsatkichi sifatida asoslaganlar. Ushbu ko‘rsatkich soliq to‘lovlari haqiqatdagi tushumlari miqdorini o‘rganilayotgan davrning eng ko‘p miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan hisob-kitob qilinadi. “Soliqlarning yuz foiz yig‘iluvchanligi” tushunchasining o‘zi ma’lum darajada shartli. Bu shartni to‘liq amalga oshirishning imkoniyati yo‘q, chunki amaliyotda yil davomida soliqqa tortiladigan daromad va boshqa obyektlarning umumiy miqdorini soliqqa tortish bazalarini rejalashtirishdagi statistik xatolar, soliq to‘lovchilarning soliqni to‘lashdan bo‘yin tovlashi, soliq imtiyozlarining joriy etilishi tufayli to‘g‘ri aniqlashning iloji yo‘q. Ushbu holatlar soliq yig‘iluvchanligi darajasini faqat makrodarajada, ya’ni respublika, viloyat va tuman doirasida aniqlash zarurligini asoslaydi, chunki mikrodarajada, korxona darajasida soliq yig‘iluvchanligini aniqlash mantiqiy jihatdan olib qaralganda maqbul emas. Binobarin, korxona miqyosida soliq yig‘iluvchanligi darajasini aniqlashga nisbatan to‘langan soliqlar miqdorini yoki unga teskari tushuncha bo‘lgan soliq qarzdorligi miqdorini aniqlash ma’qulroq.

Soliq to‘lovchilarning huquq va manfaatlarini kengaytirish, ularga keng imkoniyatlar yaratib berish hamda mavjud tekshirishlarni sonini keskin qisqartirish maqsadida hukumatimiz tomonidan qator qaror va farmonlar ishlab chiqildi.

Soliq ma’muriyatchiligi sohasida, jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ishda, soliq solinadigan bazani kengaytirishda va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolar mavjudligi va bu esa o‘z navbatida, mamlakatni ijtimoiy-

[16] Савинов И.Т. Налоговая задолженность: проблемы администрирования и пути регулирования // Региональные проблемы преобразования экономики. 2013. №3 (37). С. 210-213; Сиражудинова С.И. Повышение эффективности налогового администрирования на современном этапе: Автореферат дис. на соиск. уч. степ. к.э.н.. Владикавказ, 2017. С.7.

iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Soliq tizimining samaradorligi va soha xodimlarining soliq to‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatishi, albatta, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, soliq organlarini ma’naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to‘ldirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash hamda ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratishni talab etadi.

Soliq ma’muriyatchiligi sohasida, shu jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi sababli 2017- yilning iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116 sonli Farmoni qabul qilindi[17]. Mazkur Farmonda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo‘nalishlari etib quyidagi 7 ta vazifa belgilab berildi:

1. Soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish;

2. Soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan

[17]O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning yig’iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5116 sonli farmoni.

bog‘liq bo‘lgan ishonchli axborotni o‘z muddatida taqdim etish bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish;

3. Soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

4. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olishni ta’minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

5. Faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalarning faoliyatini tiklashga har tomonlama ko‘maklashish, past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish, o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

6. Soliq solish masalalarida, shu jumladan, respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo‘shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

7. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, soliq organlarini ma’naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to‘ldirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek, xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Shuningdek, 2018-yildan boshlab “halol soliq to‘lovchi” tushunchasi amaliyotga joriy qilindi, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar o‘z vaqtida va to‘liq miqdorda muntazam to‘lab kelinganda ularga belgilangan tartibda soliq ta’tillarini joriy qilish va ularni rag‘batlantirish chora-tadbirlarini joriy etish belgilandi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq siyosatida soliq ma’murchiligini tutgan o‘rni va ahamiyati nimalardan iborat?

2. Davlat soliq ma’murchiligining strategik maqsadining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qiling.

3. Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma’murchiligi tizimining ahamiyati nimalardan iborat?

4. Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma’murchiligi tizimining o‘rni izohlab bering.

5. Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma’murchiligi tizimining ahamiyatini ko‘rsating.

6. Soliq ma’muriyatchiligini amalga oshirishda davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning yo‘nalishlarini aytib bering.

7. Soliq ma’murchiligini amalga oshirishda soliqlar yig‘iluvchanligining tutgan o‘rni va ahamiyatini tushuntirib bering.

2-BO‘LIM. SOLIQ MA’MURCHILIGINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI MEXANIZMI

5-mavzu. SOLIQ TO‘LOVCHILAR VA SOLIQ OBYEKTLARINI HISOBGA OLISH TIZIMI

5.1. Soliq to‘lovchilarni hisobga olish

5.2. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olish

5.3. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning hisobini yuritish

5.1. Soliq to‘lovchilarni hisobga olish

Davlat soliq xizmati organlari soliq to‘lovchilarning hisobini yuritadi. Soliq to‘lovchilarning hisobini yuritish ularni hisobga qo‘yish va ular to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlarini yuritish orqali amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilayotganda unga soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami beriladi hamda soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi hisobga qo‘yish ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestriga kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestri O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan yuritiladi. Davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to‘lovchiga berilgan identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma yoki soliq to‘lovchi bir vaqtning o‘zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo‘yilgan holda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan taqdirda, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma soliq to‘lovchining hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjatdir. Soliq

to‘lovchining identifikatsiya raqami muayyan soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilganda unga beriladigan raqamdir. Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami o‘zgarmaydi va bekor qilinganidan keyin boshqa soliq to‘lovchiga berilmaydi. Identifikatsiya raqami bir marta beriladi va faqat yuridik shaxsning tugatilishi, jismoniy shaxsning vafoti yoki boshqa mamlakatga ko‘chib ketishi munosabati bilan ushbu voqealar ro‘y bergandan keyin uch yil o‘tgach, bekor qilinishi mumkin. Soliq to‘lovchilarga identifikatsiya raqamlarini berish Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 130-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlarini berish va qo‘llash tizimi to‘g‘risida”gi nizomga asosan O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining identifikatsiya raqamlari yagona reestrini shakllantirish; soliq to‘lovchilarni hisobga olishni tartibga solish; soliqlarning byudjetga tushishini hisobga olish va soliq organlarining o‘zaro hamkorligi bo‘yicha ma’lumotlarni kompyuterda ishlashni joriy etish; soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo‘yicha axborotlarning yaxlitligi va ishonchliligi ko‘p tomonlama tekshirilishi, nazorat qilinishini tashkil etish; soliq organlari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari, bank muassasalari va moliyaviy tusdagi, shuningdek, ko‘char va ko‘chmas mulk bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar o‘rtasida axborot ayirboshlashni birxillashtirish; daromadlarni, to‘langan soliqlarni va xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy va boshqa sug‘urta bo‘yicha davlat jamg‘armalariga to‘lovlarni hisobga olishni birxillashtirishni ta’minlashga qaratilgan. Identifikatsiya raqami soliq to‘lovchining barcha soliq majburiyatlari va barcha ijtimoiy huquqlari bo‘yicha yagona hisoblanadi, uning davlat hokimiyati va nazorat organlari bilan davlat ijtimoiy sug‘urtasi hamda boshqa sug‘urta jamg‘armalaridan to‘lovlar (mablag‘lar) olish bo‘yicha barcha o‘zaro munosabatlarida qo‘llaniladi va o‘zgartirilmaydi. Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami quyidagilarda albatta yozib qo‘yilishi kerak: yuridik va jismoniy shaxslarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomada, ro‘yxatdan o‘tkazish davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida ularni hisobga

qo‘yish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi; faoliyatning ayrim turlari bilan shug‘ullanishga doir litsenziyasida; cheklardan tashqari, pul bilan hisob-kitob qilinadigan to‘lov hujjatlarida, shuningdek, ularning elektron shaklida; davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan moliyaviy va soliq hisoboti hujjatlarida; yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tuziladigan xo‘jalik, fuqarolik-huquqiy hamda mehnat shartnomalarida; yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan bitimlar tuzganligini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda, shu jumladan, hisobvaraq-fakturalar hamda transport hujjatlarida; yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarda qiymat ifodasiga ega bo‘lgan moliyaviy, mulkiy hamda boshqa majburiyatlar yuzaga kelganligini, shuningdek, ularning bajarilishini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda. Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami to‘qqizta raqamli belgidan iboratdir, dastlabki 8 raqam soliq to‘lovchining o‘z raqami, oxirgi raqam esa nazorat sonini tashkil etadi. Shunday qilib, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami tuzilishi quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi: Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini kodlashtirish uchun seriyali tartib usulidan foydalaniladi. Bunda soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlari barcha to‘plami soliq to‘lovchilarning tiplarini aniqlashtiruvchi ikki turkumlash guruhiga: jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan. Ushbu maqsadlarda quyidagi kodlardan foydalanilishi kerak: 20000000X dan 29999999X gacha – yuridik shaxslar uchun; 40000000X dan 79999999X gacha – jismoniy shaxslar uchun; bunda X – soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami sonlari izchilligi to‘g‘riligini nazorat qiluvchi son, ushbu son O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida kompyuter tomonidan soliq to‘lovchiga identifikatsiya raqami berish jarayonida muayyan algoritm bo‘yicha shakllantiriladi. Zarurat bo‘lganda, kodlashtirish tizimi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida quyidagi kodlar zaxira qilingan: 00000000X dan 19999999X gacha; 30000000X dan 39999999X gacha; 80000000X dan 99999999X gacha. Soliq to‘lovchi sifatida quyidagilar hisobga qo‘yiladi: yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari o‘zlari joylashgan yerdagi (pochta manzilidagi) davlat soliq xizmati organida; yuridik shaxsning soliq majburiyatini mustaqil

ravishda bajaradigan alohida bo‘linmalari – alohida bo‘linmaning joylashgan yeridagi yoki faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida; jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organida; yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari – doimiy muassasaning joylashgan yeridagi va (yoki) faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida; mol-mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lovchilar bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari – soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organida. Soliq to‘lovchida u hisobga qo‘yilganidan keyin yer solig‘i, mol-mulk solig‘i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash bo‘yicha majburiyati hisobga qo‘yilgan joydan tashqarida yuzaga kelgan taqdirda, soliq to‘lovchi soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organida obyekt bo‘yicha hisobga qo‘yilishi kerak. Bir vaqtning o‘zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo‘yilgan holda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan yuridik va jismoniy shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga qo‘yilishi kerak.

5.2. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olish

Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olish davlat soliq xizmati organi tomonidan har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha hamda u to‘layotgan barcha soliqlar va yigimlar bo‘yicha, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, shu jumladan, elektron shaklda shakllantirish va yuritish orqali amalga oshiriladi. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotlarining ma’lumotlari, Soliq

to‘lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari boshqa manbalardan to‘plagan, shu jumladan, soliq tekshiruvlari vaqtida to‘plagan axborotlar asosida shakllantiriladi. Soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi. Ushbu qoidalar tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar va yigimlarga, shuningdek, undirilishi tegishli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan boshqa majburiy to‘lovlarga tatbiq etilmaydi.

5.3. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning hisobini yuritish

Soliq va yig‘imning har bir turi bo‘yicha soliq solish obyekti hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlar soliq qonunchiligiga muvofiq belgilanadi. Soliq to‘lovchi tomonidan hisob hujjatlari yo‘qotilgan yoki yo‘q qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari byudjetga to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar va yig‘imlar summasini soliq to‘lovchi to‘g‘risida, shuningdek, shunga o‘xshash boshqa soliq to‘lovchilar to‘g‘risida o‘zlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda hisob-kitob qilish orqali aniqlashi mumkin.Soliq kodeksida soliq solishning turli tartibi nazarda tutilgan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan soliq to‘lovchilar soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritishlari shart. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobi soliq to‘lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida yuritiladi. Faoliyatning muayyan turiga taalluqli barcha daromadlar va xarajatlar tegishli hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak. Soliq solish obyektlari

va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobi mutanosib usul yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri hisobga olish usuli orqali yuritilishi mumkin. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritish usuli yuridik shaxsning butun kalendar yilga mo‘ljallangan hisob siyosati bilan belgilanadi hamda yil mobaynida o‘zgartirilishi mumkin emas. Hisobga olishning mutanosib usulida daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obyektlar realizatsiya qilishdan olingan sof tushumning umumiy summasidagi faoliyatning muayyan turlari bo‘yicha realizatsiya qilishdan olingan sof tushum ulushiga mutanosib tarzda shu muayyan faoliyat turiga kiritiladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri hisobga olish usuli qo‘llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obyektlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, shu turga kiritiladi. Bunda faoliyatning biron turiga kiritish mumkin bo‘lmagan daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obyektlar hisobga olishning mutanosib usuli orqali faoliyatning muayyan turiga kiritiladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchining soliq va yig‘imning har bir turi bo‘yicha yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek, hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan hujjatidir. Hisobot O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi. Soliq hisoboti qog‘ozda va elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to‘lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi. Yuridik shaxs – soliq to‘lovchi qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda, har bir qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan soliq to‘lovchiga soliq davri boshlanganidan e’tiboran qayta tashkil etish yoki tugatish tugallangan kunga qadar bo‘lgan davr yuzasidan tegishincha topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoxud tugatish balansi asosida alohida-alohida soliq hisoboti tuziladi. Tadbirkorlik subyekti – yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilgan

taqdirda, unga soliq davri boshlanganidan to yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tugatish tartib-taomili boshlanganligi haqida xabardor qilingan sanagacha bo‘lgan muddat uchun alohida soliq hisoboti tuziladi. Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik soliq to‘lovchining zimmasiga yuklatiladi. Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Soliq hisoboti soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Ayrim turdagi soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti ham Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda obyektlar bo‘yicha hisobga qo‘yilgan joy bo‘yicha soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etiladi. Tadbirkorlik subyektlari uchun qulaylik tug‘dirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari uchun soliq hisobotlarini faqat elektron shaklda taqdim etilish bo‘yicha qoida joriy qilingan. Masalan, Jismoniy shaxslar daromad solig‘i bo‘yicha soliq deklaratsiyasini yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadilar, yuridik shaxslar yer solig‘i va mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliq hisobotini esa obyektlar joylashgan joyda hisobga qo‘yilgan joy bo‘yicha taqdim etadilar. Soliq hisoboti davlat soliq xizmati organlarida va soliq to‘lovchida Soliq kodeksida belgilangan soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati mobaynida saqlanadi.

Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning hisobini yuritish soliq va yig‘imning har bir turi bo‘yicha soliq solish obyekti hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlar soliq qonunchiligiga muvofiq belgilanadi. Soliq to‘lovchi tomonidan hisob hujjatlari yo‘qotilgan yoki yo‘q qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari byudjetga to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar va yig‘imlar summasini soliq to‘lovchi to‘g‘risida, shuningdek, shunga o‘xshash boshqa soliq to‘lovchilar to‘g‘risida o‘zlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda hisob-kitob qilish orqali aniqlashi mumkin. Soliq kodeksida soliq solishning turli tartibi nazarda tutilgan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan soliq to‘lovchilar soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritishlari shart. Soliq solish

obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobi soliq to‘lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida yuritiladi. Faoliyatning muayyan turiga taalluqli barcha daromadlar va xarajatlar tegishli hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobi mutanosib usul yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri hisobga olish usuli orqali yuritilishi mumkin. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritish usuli yuridik shaxsning butun kalendar yilga mo‘ljallangan hisob siyosati bilan belgilanadi hamda yil mobaynida o‘zgartirilishi mumkin emas. Hisobga olishning mutanosib usulida daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obyektlar realizatsiya qilishdan olingan sof tushumning umumiy summasidagi faoliyatning muayyan turlari bo‘yicha realizatsiya qilishdan olingan sof tushum ulushiga mutanosib tarzda shu muayyan faoliyat turiga kiritiladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri hisobga olish usuli qo‘llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obyektlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, shu turga kiritiladi. Bunda faoliyatning biron turiga kiritish mumkin bo‘lmagan daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obyektlar hisobga olishning mutanosib usuli orqali faoliyatning muayyan turiga kiritiladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq to‘lovchilarni hisobga olish qanday tartibda amalga oshiriladi?
2. Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda qanday hujjatlar talab qilinadi?
3. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olish qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning hisobini yuritish tartibi qanday?
5. Soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamining mohiyatini ochib bering.

6-mavzu. SOLIQ IDORALARIDA SOLIQLAR VA MAJBURIY TO‘LOVLAR HISOBINING YURITILISHI

6.1. Shaxsiy kartochka tushunchasi va uni yuritish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish

6.2. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va to‘lovlar hisobini yuritish

6.3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va to‘lovlar hisobini yuritish

6.4. Soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritilishini nazorat qilish va javobgarlik

6.1. Shaxsiy kartochka tushunchasi va uni yuritish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutstiyasi 51-moddasi va Soliq Kodeksining 8-moddalariga asosan mamlakatimizda soliqlar va qonun bilan belgilangan boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyligi qat’iy ravishda belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) soliq kodeksi 85-moddasida belgilanganidek, o‘zlariga yuklatilgan soliq majburiyatlarini bajarish uchun davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatda turishlari shart. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar davlat ro‘yxatidan o‘tgach, jismoniy shaxslar esa uchastka davlat soliq inspektorlari tomonidan ro‘yxatga olingach Davlat soliq inspeksiyasida soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatga turadi va uning zimmasiga qonun hujjatlariga binoan soliq to‘lash majburiyati

yuklatiladi. Shu munosabat bilan soliq subyektlari va soliq organlari o‘rtasida huquqiy munosabatlar o‘rnatiladi.

Davlat soliq organlariga kelib tushadigan axborotning katta hajmlarda bo‘lishi, ularga qisqa muddatlarda unumli va aniq ishlov berish zarurligini inobatga olib xodimlarning say-harakatidan bevosita soliq xizmati organlarining asosiy funksional vazifalarini hal etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish soliq xizmatlari ishining barcha jarayonlariga joriy etilgan.

Bugungi kunda Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalari DSQ raisining 2012-yil 15-sentyabrdagi 350-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish” tartibiga asosan yuritiladi.

Mazkur tartib O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, Mehnat kodeksiga, Fuqarolik kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi, “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning Davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan Pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarida byudjetga, byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar va boshqa to‘lovlarning, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari, Davlat soliq qo‘mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoyalash, soliq organlarini rivojlantirish va kutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasiga to‘lovlarning tezkor hisobini yuritish, soliq organlarining funksional bo‘linmalari o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvi tartibini belgilaydi.

Hududiy davlat soliq inspeksiyalarida soliq to‘lovchilarni hisobga olishni va ularning shaxsiy kartochkalarini elektron ko‘rinishda yuritish ishlari alohida bo‘lim tomonidan yuritiladi. Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchining soliq majburiyatlarini bajarilishiga doir

ayrim ma’lumotlar soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkalarida yuritiladi.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasi (keyingi matnda “ShK”, deb yuritiladi) – Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli dasturiy mahsul orqali soliq to‘lovchining soliqlar va boshqa to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarilish hisobi yuritiladigan elektron shakldagi hujjatdir.

Davlat soliq xizmati organlarida byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobi byudjet klassifikatsiyasiga muvofiq tegishli ShKlarda soliqlar va boshqa to‘lovlarning, shuningdek, penya va jarimalarning hisoblangan hamda to‘langan summalarini aks etgan holda yuritish uchun, to‘liq Davlat soliq qo‘mitasining Yuridik shaxslarga soliq solish va Jismoniy shaxslarga soliq solish bosh boshqarmalari tomonidan soliqlar va boshqa to‘lovlar turi bo‘yicha amaldagi mavjud ShKlar yoki bank hisobvaraqlari ro‘yxati byudjet klassifikatsiyasi va soliq hisoboti shakllaridan kelib chiqib ochilishi yoki yopilishi bo‘yicha inventarizastiya qilib boriladi. Soliq qonunchiligiga kiritiladigan o‘zgartirishlar belgilangan tartibda qonuniy kuchga kirgandan so‘ng, 10 kun muddatda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning elementlari ko‘rsatilgan holda to‘liq DSQning Axborot - tahlil bosh boshqarmasiga rasman ma’lum qilib boriladi.

Soliqlar va boshqa to‘lovlar turi bo‘yicha ochilishi yoki yopilishi lozim bo‘lgan ShKlar yoki bank hisobvaraqlari bo‘yicha rasman berilgan ma’lumotga asosan dasturiy majmualarga o‘zgartirish kiritish yuzasidan Axborot-tahlil bosh boshqarmasi tegishligicha Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markaziga buyurtma topshiriqlar beradi.

Davlat soliq xizmati organlarida ShK milliy valyuta – so‘mda yuritiladi. Qonun hujjatlariga asosan soliq hisobi chet el valyutasida yuritilishi belgilangan taqdirda, ShK chet el valyutasida hamda unga mos ravishda milliy valyutada yuritilishi mumkin.

ShKlarda quyidagi summalar aks ettiriladi:

a) soliq to‘lovchining soliq hisobotiga, shu jumladan, aniqlashtirilgan soliq hisobotiga va tekshirishlar natijasida qo‘shimcha yoki kamaytirishga hisoblangan summalar;

b) to‘langan (undirilgan) summalar;

d) qaytarilgan yoki amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda soliqlar va to‘lovlarning bir turidan boshqa turdagi soliq qarzi uchun hisobga olingan summalar;

e) to‘lash muddati kechiktirilgan (bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoni berilgan) to‘lovlar;

f) hisobdan chiqarilgan va alohida hisobi yuritiladigan summalar;

g) hisoblangan penya va boshqa moliyaviy sanksiyalar.

ShKni yuritish dasturiy mahsulida ma’lumotlar bazasiga belgilangan tarzda ma’lumotlar kiritiladi va to‘liqligicha saqlanishi ta’minlanib, noqonuniy foydalanishdan himoyalanadi.

ShKga ma’lumotlar asosan birlamchi hujjatlar yoki maxsus elektron raqamli imzo bilan yuborilgan elektron hisobotlar (aniqlashtirilgan hisobotlar) asosida kiritiladi.

ShKga barcha yozuvlar ketma-ket tartibda sanalari va kiritilayotgan yozuvlarning haqqoniyligini tasdiqlovchi hujjatlar (soliq hisobotlari, aniqlashtirilgan soliq hisobotlari, to‘lov hujjatlari, bank ko‘chirmalari, tekshirish natijasida rasmiylashtirilgan 10-shakl ma’lumotlari, ariza va vakolatli organlar hujjatlari, xo‘jalik va fuqarolik sudlari qarorlari, ajrimlari va boshqa qonun bilan belgilangan hujjatlar) ko‘rsatilgan holda tegishli ustunlarda aks ettiriladi.

Soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarni yuritish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. ShKlarni yuritish huquqi faqat funksional vazifalardan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organi rahbarining buyrug‘i bilan yuklatilgan mas’ul xodimlarga beriladi.

2. Davlat soliq xizmati organining buyrug‘i bilan bo‘limning mas’ul xodimlariga qonun hujjatlarida belgilangan vazifalar hamda javobgarliklar yuklatilgan.

3. Xizmat vazifasidan foydalanish uchun ShKlardagi ma’lumotlarni kiritish va o‘zgartirish huquqisiz, faqatgina ko‘rish huquqi davlat soliq xizmati organi rahbarining rasmiy ko‘rsatmasi asosida tegishli mas’ul xodimlarga berilishi mumkin.

4. ShKlarga ma’lumotlarni kiritish va ularni o‘zgartirish huquqi berilgan xodimlarga alohida “parol” yoki elektron raqamli imzo (keyingi matnda “parol” deb yuritiladi) berilib, ushbu “parol” asosida ma’lumotlar bazasiga kirib ishlashga ruxsat beriladi.

5. ShKlarga ma’lumot kiritish va ularni o‘zgartirish huquqini beruvchi “parol”ni mas’ul xodim tomonidan boshqa shaxslarga oshkora qilinishi, shuningdek, ShKlarga boshqa xodimning paroli bilan ma’lumotlar kiritish yoki kiritilgan ma’lumotlarni o‘zgartirish (o‘chirish) qat’iyan taqiqlanadi, Davlat soliq inspeksiyasi rahbariyatining ruxsatiga asosan bo‘lim boshlig‘i tomonidan noaniqliklarni to‘g‘rilash maqsadida ShKga kiritiladigan o‘zgartirishlar bundan mustasno.

6. Mas’ul xodimlarga alohida berilgan “parol”lar zaruriyatdan kelib chiqib, xodimning o‘zi tomonidan o‘zgartirib turiladi va ushbu kiritilgan o‘zgartirishlar ma’lumotlar bazasida saqlanib boriladi.

Ma’lumotlar bazasida “parol”larni qayd qilish elektron jurnali dasturiy majmuada yuritiladi. Elektron jurnalda har bir xodim va uning amaldagi paroli avtomatik tarzda qayd qilinib boriladi. Elektron jurnaldagi ma’lumotlar shifrlanadi.

Xodimlar egallab turgan lavozimidan ozod etilganda yoki boshqa lavozimga o‘tganda ma’lumotlar bazasiga kirib ishlash uchun unga berilgan imkoniyat (dostup) berkitiladi.

ShKlarda amalga oshirilgan har bir operatsiya va uni amalga oshirgan mas’ul xodimning ismi sharifi, sanasi va vaqti dasturiy mahsul tomonidan maxsus elektron jurnalda qayd etib boriladi. Har bir operatsiyaning eski holati keyinchalik aniqlik kiritish maqsadida va nazoratini ta’minlash uchun avtomatik tarzda saqlanib qolinadi.

Soliq organining mas’ul xodimlari (DSI boshlig‘i, mas’ul o‘rinbosari va bo‘lim boshlig‘i) lavozimga tayinlanayotganda yoki vazifasidan ozod qilinayotganda, ushbu sanaga ma’lumotlar bazasi arxivlanadi va arxiv faylining nomi, hajmi va sanasi ko‘rsatilgan holda topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilib saqlanadi.

Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar hisobini yuritish bo‘yicha hujjatlar soliq qonunchiligida belgilangan ish yuritish

hujjatlar jildida (nomenklatura) belgilangan muddatlargacha saqlanadi. Ko‘rsatilgan muddat tugagandan so‘ng, belgilangan tartibda soliq organining arxiviga topshiriladi.

Moliya yili tugashi bilan ShK bo‘yicha qoldiq summalari keyingi yilga o‘tkaziladi hamda ma’lumotlar bazasi to‘liq arxivlanib, DSQning 2007-yil 21-dekabrdagi “Davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar ma’lumotlar bazasi arxivini DSQga taqdim etish va saqlash to‘g‘risida”gi Ichki tartibi asosida DSI, Davlat soliq boshqarmasi hamda DSQda saqlash uchun olib qo‘yiladi.

Soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha hisobga olish hujjatlari quyidagi ish yuritish jildlarida saqlanadi:

a) soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha soliq to‘lovchining solishtirma dalolatnomasi hamda ShKsidan ko‘chirma;

b) moliya idorasi, bank muassasasi va boshqa vakolatli tashkilotlardan olingan, byudjet klassifikatsiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan bank operatsiyalarining to‘lov hujjatlari va bank ko‘chirmalari, to‘lov reestrlari;

d) ortiqcha to‘langan summalarni hisobga olinganligi yoki qaytarilganligi bo‘yicha hujjatlar;

e) ShKlarni boshqa tuman (shahar) soliq organiga jo‘natish va qabul qilish yuzasidan hujjatlar;

f) soliqlar va to‘lovlarni majburiy undirish bo‘yicha hujjatlar;

g) soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha soliq majburiyatlarini bajarishda to‘lash muddatlarini o‘zgartirilishi yuzasidan hujjatlar;

h) soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlari to‘xtatilganligi to‘g‘risida hujjatlar;

i) tugatilgan soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlarini ijrosi to‘g‘risidagi hujjatlar;

j) qayta tashkil bo‘lgan soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlarini ijrosi bo‘yicha hujjatlar;

k) Davlat byudjetining kelgusi yildagi asosiy parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, shuningdek, byudjet klassifikatsiyalariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi Moliya vazirligining buyruqlari;

Ish yuzasidan boshqa zaruriy hujjatlar

Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasida umumiy tartibda quyidagi ma’lumotlar aks ettiriladi:

a) soliq to‘lovchining identifikastion raqami;

b) soliq to‘lovchining to‘liq nomi;

d) soliq to‘lovchining yuridik manzili;

e) soliq yoki majburiy to‘lov turi nomi;

f) byudjet klassifikastiyasi asosida byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga o‘tkaziladigan soliqlar va to‘lovlar hisob raqami;

g) soliq to‘lovchining mulkchilik shakli;

h) soliq to‘lovchining yuqori tashkiloti;

i) soliq to‘lovchining faoliyat turi;

j) soliq to‘lovchiga xizmat ko‘rsatuvchi bank nomi, bank kodi va bankdagi asosiy (birlamchi) hisob raqami;

k) soliq to‘lovchi yuridik shaxsning rahbari va bosh hisobchisining ismi, sharifi (F.I.Sh) hamda telefon raqamlari.

Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va to‘lovlar hisobini yuritish

Yuridik shaxslarning shaxsiy kartochkalarini ochishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. ShK amaldagi soliq qonunchiligiga asosan soliq to‘lovchining majburiyatlaridan kelib chiqib, har bir soliq va to‘lovlar turi bo‘yicha alohida ochiladi.

2. Davlat soliq xizmati organlarida byudjetga va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar va to‘lovlar, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari, Davlat soliq qo‘mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoyalash, soliq organlarini rivojlantirish va kutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasiga to‘lovlar bo‘yicha ShK yuritiladi.

3. Soliq to‘lovchi yuridik shaxslar davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yilishi (davlat ro‘yxatidan o‘tgan joydan tashqari soliq to‘lovchining obyektlari bo‘yicha hisobga olingan yoki “Fuqarolarning Davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi

Qonunining
15-moddasida belgilangan pensiya to‘lovi majburiyati paydo bo‘lgan soliq to‘lovchilar bundan mustasno) bilan bir vaqtda quyidagi to‘lov turlari bo‘yicha topshirilgan hisobotga asosan ShKlar ochiladi:

a) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

b) ijtimoiy soliq;

d) fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallari.

4. Ma’lumotlar bazasidagi barcha soliq to‘lovchilarning o‘tgan hisobot yili oxiridagi qoldiq summalarini joriy yilga ko‘chirib o‘tkazish jarayonida dasturiy mahsul orqali joriy yil uchun ShKlar avtomatik tarzda ochiladi.

5. Soliq to‘lovchiga ShK ochish uchun asos bo‘lib soliq to‘lovchi tomonidan DSIga soliq majburiyatlari bo‘yicha taqdim etilgan soliq hisobotlari, tekshirish natijalarida soliq va to‘lov turlari bo‘yicha qo‘shimcha (kamaytirishga) hisoblangan soliq summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan to‘lov topshiriqnomalari hisoblanadi.

6. “Fuqarolarning Davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasida belgilangan pensiya to‘lovi majburiyati paydo bo‘lgan soliq to‘lovchilarga tuman (shahar) Ijtimoiy ta’minot bo‘limidan ma’lumot kelib tushgan kundan so‘ng, 3 ish kunidan oshmagan muddatda ShKlar ochiladi.

7. Yuridik manzili o‘zgarganligi sababli, boshqa tuman (shahar)dan kelgan soliq to‘lovchilarga ma’lumot kelib tushgan kundan so‘ng, bir ish kunida elektron fayllarni ma’lumotlar bazasiga qabul qilinib tegishli ShKlarni ochadi.

8. Ma’lum bir tuman (shahar) soliq organida hisobga olingan soliq to‘lovchi boshqa tuman (shahar) hududida soliq solish obyekti va soliq solish bilan bog‘liq obyektga ega bo‘lgan taqdirda, soliq solish obyektidan kelib chiqib belgilangan tartibda tegishli soliqlar va to‘lovlar turlari bo‘yicha ShKlar ochiladi.

Yuridik shaxslarning ShKlaridagi mavjud barcha soliq va to‘lov turlari bo‘yicha hisobot yilining yil oxiriga qoldiq (joriy va alohida hisobi yuritilgan va to‘lash muddati uzaytirilgan soliq qarzi va penyasi,

penya hisoblanmaydigan soliq qarzi, ortiqcha to‘langan summasi, shu jumladan QQS bo‘yicha manfiy qoldig‘i, qo‘llanilgan moliyaviy jarimaning undirilmasdan qolgan qismi) summalari keyingi yilning yil boshiga qoldiq summasi sifatida soliq to‘lovchining shu soliqlar va to‘lovlar turlari bo‘yicha ochilgan yangi ShKlariga dasturiy mahsul orqali avtomatik ravishda o‘tkaziladi.

1. Soliqlar va to‘lovlarning ShKdagi o‘tgan yil oxiriga qoldiq summasi hisobot yili boshiga ShKning tegishli “qoldiq” (saldo) qatorining “soliq qarzi”, “penya”, “ortiqcha to‘langan summa”, “shu jumladan QQS bo‘yicha manfiy qoldiq” hamda “penya hisoblanmaydigan soliq qarzi miqdori” (ChSNNKNNP) ustunlarida aks ettiriladi.
2. Ma’lumotlar bazasidan barcha soliq to‘lovchilarning ShKlaridagi qoldiq summalarni yildan yilga dasturiy mahsul orqali avtomatik ravishda o‘tkazish vakolati davlat soliq xizmati organi mas’uliga beriladi.
3. Soliq to‘lovchilarning ShKsidagi hisobot yili oxiriga qoldiq summalarini keyingi yilning boshiga qoldiq summalari sifatida o‘tkazish soliq organida hisobga qo‘yilgan barcha soliq to‘lovchilar bo‘yicha amalga oshiriladi.
4. Yangi hisobga qo‘yilgan soliq to‘lovchilarning ShKlarida hisobga qo‘yilgan yil boshidagi qoldiq summa sifatida – “nol” aks ettiriladi.
5. Yuridik manzili o‘zgarganligi munosabati bilan qayta hisobga qo‘yilgan soliq to‘lovchilarga ochiladigan ShKda qoldiq summalar sifatida avval ro‘yxatda bo‘lgan tuman (shahar) soliq organida “shaxsiy kartochkani uzatish” operatsiyasi amalga oshirilgan sanasi bilan ShKdagi mavjud qoldiq summalari aks ettiriladi.
6. Ma’lum bir tuman (shahar) soliq organida hisobga qo‘yilgan bo‘lib, ikkinchi bir tuman (shahar) hududida soliq solish obyekti paydo bo‘lgan sanadan boshlab, ushbu DSI bazasida soliq to‘lovchilar ShKsida yil boshiga qoldiq summa sifatida “nol” aks ettiriladi.
7. Soliq to‘lovchining o‘tgan yil uchun ShKsida yil boshiga oldingi yildan o‘tkazilgan qoldiq summalar noto‘g‘riligi aniqlangan taqdirda, uni to‘g‘rilab o‘zgartirish kiritish faqat tegishli hujjatlar asosida bo‘lim boshlig‘i tomonidan DSI boshlig‘i nomiga yozilgan

bildirishnomaga qo‘yilgan munosabat belgisi asosida amalga oshiriladi.

10. Soliq qarzini undirish maqsadida tayyorlanadigan inkasso topshiriqnomalari, soliq to‘lovchi tomonidan taqdim qilingan bankda 2-sonli kartotekaga qo‘yilgan to‘lov topshiriqnomalari, xulosalar reestrlarida ham ushbu hujjatlarni tayyorlagan mas’ul xodimning ismi sharifi qayd qilib boriladi.

ShKlarni yuritishda kiritiladigan ma’lumotlar

Soliqlar va to‘lovlarni hisoblangan, undirilgan, to‘langan, qaytarilgan (hisobga olingan), kamaytirilgan hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlar bo‘yicha operatsiyalar, tekshiruv natijasida aniqlangan soliqlar va to‘lovlar hamda qo‘llanilgan moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha ShKlarni yuritishda quyidagi ma’lumotlar kiritiladi:

a) soliq to‘lovchilarning soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha taqdim etgan soliq hisobotlari asosidagi ma’lumotlar;
b) soliq to‘lovchilarning soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha taqdim etgan aniqlashtirilgan soliq hisobotlari asosidagi ma’lumotlar;
d) qonun hujjatlari hamda vakolatli organlar qarorlari asosida ayrim soliq to‘lovchilarning soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik summalarini to‘lash muddatini uzaytirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkonini berish, hisobdan chiqarish, penya hisoblanishini to‘xtatish to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
e) byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga to‘langan (undirilgan) soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha ma’lumotlar;
f) soliq tekshiruvlari natijasida qo‘shimcha (kamaytirishga) hisoblangan soliqlar va to‘lovlar hamda qo‘llanilgan moliyaviy sanksiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
g) soliq qarzini soliq to‘lovchining mol-mulki sotuvidan Sud ijrochilari departamenti tomonidan tushirilgan tushumning 10 foizi (sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg‘armasining hisob raqamiga o‘tkazilgan);
h) qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa holatlar.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olish va ularga shakllarni ochish tartibi

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning ShKlarini ochish uchun asos bo‘lib, vakolatli organlar tomonidan soliq obyekti (mol-mulki, yer maydoni, ishlatilgan suv hajmi) ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi, yuridik shaxs tashkil qilmasdan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi hujjatlar, shuningdek, Soliq kodeksining 393-moddasida belgilangan ro‘yxat bo‘yicha daromad olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida olingan ma’lumotlar hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning ShKlari O‘zbekiston Respublikasi DSQ tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan dasturiy mahsulda yuritiladi.

Quyidagi soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga soliq va to‘lovlar, penya va jarimalar bo‘yicha soliq majburiyatlari bajarilishi hisobini yuritish uchun soliq organlarida ShKlar ochiladi:

- YaTT faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga;
- dehqon xo‘jaliklari (yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil topgan dehqon xo‘jaliklari)ga;
- turar va noturar uy-joylarga, yer uchastkalariga yoki boshqa soliqqa tortiladigan mol-mulkka egalik qiluvchi fuqarolarga.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxs va YaTT ShKlari byudjet klassifikatsiyasiga muvofiq har bir soliq to‘lovchi uchun alohida soliq majburiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha ochiladi:

a) yer solig‘i;
b) mol-mulk solig‘i;
d) YaTTga qat’iy belgilangan soliq;
e) ijtimoiy soliq;
f) yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliq;
g) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
h) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
i) boshqa to‘lovlar;

j) soliq organlarini rivojlantirish jamg‘armasiga to‘lovlar.

Soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritilishini nazorat qilish va javobgarlik

Davlat soliq xizmati organlarida yangi dasturiy majmua yaratilguniga qadar ShKlarda soliq va to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni to‘g‘ri va haqqoniy yuritilishiga ham, hamda yangi dasturiy majmua ishga tushirilib, amaliyotga joriy qilingandan so‘ng, tegishli ma’lumotlar to‘liq yangi dasturiy majmuaga o‘tkazilishiga, hamda ShKlarda soliq va to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni to‘g‘ri va haqqoniy yuritilishiga ham davlat soliq xizmati organlari rahbari javobgar hisoblanadi.

ShKlarda soliq va to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni to‘g‘ri va haqqoniy yuritilishini ta’minlash uchun quyidagilar:

Soliq to‘lovchi ShKsini yuritish uchun mas’ul xodim hamda bo‘lim boshlig‘i soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha hisoblangan (kamaytirishga hisoblangan), qo‘shimcha hisoblangan, undirilgan (to‘langan, qaytarilgan), to‘lash muddati kechiktirilgan (hisobdan chiqarilgan, bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoni berilgan), hisoblangan penya va jarima summalarini ShKlarda to‘g‘ri va to‘liq aks ettirilishi, shuningdek, ularni hisobini yuritilishi va belgilangan hisobotlarni to‘g‘ri tuzilishi bo‘yicha;

DSIning Yuridik shaxslarga soliq solish, Jismoniy shaxslarga soliq solish va boshqa funksional bo‘linmalarining mas’ul xodimlari belgilangan shakllar bo‘yicha ma’lumotlarni to‘liq va to‘g‘ri to‘ldirib (yoki tayyorlab) o‘z vaqtida ta’minlanishi bo‘yicha;

Kameral nazorat bo‘limining mas’ul xodimlari, qabul qilingan soliq hisobotlaridagi ShKga kiritilishi lozim bo‘lgan hisoblangan soliq summalarining to‘g‘ri aks ettirilishi, soliq hisobotlari reestrini saqlanishi hamda tegishli funksional bo‘limga belgilangan muddatlarda taqdim etib borilishi, soliq hisobotlaridagi soliq summasini reestrdagi soliq summalariga to‘g‘ri kelishi va ularning haqqoniyligi bo‘yicha;

Davlat soliq xizmati organining rahbarlari ShKlarda soliq va to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni yuritilish bo‘limida byudjetga va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga soliq va majburiy

to‘lovlar bo‘yicha tushumlar hisobini hamda soliq to‘lovchilarning ShKlarini yuritilishini to‘g‘ri tashkil etilishi, shuningdek, nazorat qilinishi bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda javobgardirlar.

ShKlarga asossiz tarzda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi taqiqlanadi. ShKlarni yuritish uchun asos bo‘ladigan boshqa ma’lumotlarni noqonuniy ko‘rsatganlik va ShKlarga noqonuniy ma’lumotlar kiritganlik uchun mas’ul xodimlar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Shaxsiy kartochka tushunchasi va uni yuritish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish qanday tartibda olib boriladi?
2. Shaxsiy kartochka kiritiladigan ma’lumotlar nimalardan iborat?
3. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va to‘lovlar hisobini yuritish tartibini tushuntiring.
4. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va to‘lovlar hisobi qanday tartibda yuritiladi?
5. Soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritilishini nazorat qilish va javobgarlik kimlarga yuklatilgan?

7-mavzu. SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

7.1. Soliq qarzlarining vujudga kelish sabablari hamda soliqlarni undirish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar

7.2. Soliqlarini undirish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar

7.3. Soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish

7.1. Soliq qarzlarining vujudga kelish sabablari hamda soliqlarni undirish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar

Soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalari soliq to‘lovchilardir.[18]

Ularga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

- ✓ soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarish;
- ✓ qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy va soliq hisobotini tuzish;
- ✓ hududiy Davlat soliq inspeksiyasiga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;
- ✓ soliq tekshiruvlari o‘tkazilayotgan vaqtda hududiy Davlat soliq inspeksiyasiga soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish, to‘lash bilan bog‘liq hujjatlar hamda ma’lumotlarni taqdim etish;
- ✓ hududiy Davlat soliq inspeksiyasining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini

[18] A. Tangriqulov, A. Xomma, Sh. Toshmatov, I. Norqo‘ziyev, N. Roziqov. Soliq qarzi va uni undirish. Yangi asr avlodi, 2010. 8 b.

bajarish, shuningdek, mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilmaslik;

✓soliqlar va to‘lovlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarish, hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa soliqqa oid majburiyatlar.

Shuning uchun ham, o‘tilgan “soliqlarni undirishning zarurligi”, “soliqlarning o‘z vaqtida undirilishi” va “soliqlarning o‘z vaqtida byudjet ixtiyoriga o‘tkazilishi” bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni alohida-alohida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikdagi jarayon sifatida qaramoq lozimdir.

Shu o‘rinda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham bu masalaga alohida e’tibor berilganligini ham qayd etib o‘tishimiz kerak. Konstitutsiyaning 51-moddasida “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar”,[19] - deb yozib qo‘yilgan.

Soliq kodeksining 8-moddasidagi “Soliq solishning majburiyligi prinsipi”da keltirilishicha: “Har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig‘imlarni to‘lashi shart”.[20]

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich ta’kidlaganlaridek, “Fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi zarur”.[21]

Soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlashning obyektiv zarurligiga tegishli bo‘lgan holatlarni shartli ravishda uch bosqichga bo‘lib o‘rganishning maqsadga muvofiq ekanligini aniqlash uncha murakkab emasdir.

Dastlabki yoki birinchi bosqich o‘z ichiga qadimgi dunyo davridan o‘rta asrlarning boshlariga tegishli bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, bu davrlarda soliqlarni byudjetga o‘z vaqtida undirishning obyektiv zarurligi tan olingan bo‘lsa-da, davlatning o‘zi bu vazifani bevosita

[19] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 51-moddasi.- T.: O‘zbekiston, 2018.

[20] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2021. 8-modda.

[21] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: O‘zbekiston, 2019. 55 b.

bajarmagan. Soliqlarni undirish quyi bo‘g‘inning, shahar yoki jamoalarning, ko‘pchilik hollarda esa sotib oluvchilarning yordami tufayli amalga oshirilgan. Bu bosqichda soliqlarning undirilishi ustidan davlat nazorati o‘rnatilmagan.

Ikkinchi bosqichda (XVI-XIX asrning boshlarida) mamlakatlarda davlatning moliyaviy tashkilotlari paydo bo‘ladi. Bu davrda davlat soliq undirishga xos bo‘lgan soliqqa tortish kvotasini o‘rnatish, soliqlarning undirilish jarayonini nazorat qilish, uning undirilish chegarasini belgilash kabi funksiyalarni o‘z zimmasiga oladi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bu ikkinchi bosqichda ham, sotib oluvchilarning soliqlarni undirishdagi roli kattaligicha qolavergan.

Sotib oluvchilarning xizmatidan foydalanishning ma’nosi shundan iboratki, egri (bilvosita) soliqlar, favquloddagi soliqlar yoki yangidan joriy etilayotgan soliqlarning ayrimlari ularning aniq bo‘lishi bilan bir vaqtning o‘zida savdoga qo‘yilgan. Soliq uchun kim eng yuqori bahoni belgilasa, soliqni undirish huquqi o‘shanga sotilgan. Undan so‘ng esa sotib oluvchi u yoki bu soliqni undirish borasida davlat vakolatiga ega bo‘lgan holda o‘zining yordamchilari bilan birgalikda soliq undirish huquqini sotib olishda ketgan xarajatlarni qoplash va foyda olish maqsadida soliqni undirib olish bilan shug‘ullangan. O‘z mexanizmida juda katta kamchiliklarga ega bo‘lishiga qaramasdan davlat ana shu tartibdan uzoq yillar davomida foydalangan va uning bu tarzda ish tutishining asosiy sabablaridan biri soliqlarning o‘z vaqtida byudjetga tushumini ta’minlashning obyektiv zarurligi bilan belgilanadi.

Soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlashning ahamiyati quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlash byudjetdan qilinadigan ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarini (maorif, sog‘liqni saqlash va sport, fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy ta’minot va boshqalar) o‘z vaqtida moliyalashtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish xarajatlarining o‘z vaqtida byudjetdan moliyalashtirilishi ham byudjetga soliqlarning o‘z vaqtida tushumini ta’minlashning ahamiyatini ko‘rsatuvchi yana bir

omildir. Agar aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning asosiy qismi so‘nggi yillarda kam ta’minlangan va ko‘p bolali oilalarga mo‘ljallanganligi inobatga olinsa, bu narsa soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlashning naqadar ahamiyatli ekanligini yana bir bor yaqqol ko‘rsatadi.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining mutanosib rivojlanishini ta’minlashdan davlatning o‘zi ham manfaatdor bo‘lganligi uchun byudjetdan ham ma’lum bir xarajatlarning qilinishini taqozo etadi, bu xarajatlarning byudjetdan o‘z vaqtida amalga oshirilishini soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlamasdan amalga oshirish mumkin emas.

To‘rtinchidan, yuqorida uchinchi punktda qayd etilgan holat bilan bir vaqtning o‘zida davlat iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini ustuvor rivojlanishini ta’minlash maqsadida byudjetdan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish uchun ham kattagina hajmdagi xarajatlarni amalga oshirishga majburdir, bu muammoni ham soliqlarni byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlamasdan turib bajarib bo‘lmaydi.

Beshinchidan, soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlanmasligi davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlari hamda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlarini saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning, rezerv fondini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning va byudjetdan qilinadigan boshqa xarajatlarning o‘z vaqtida moliyalashtirilishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bularning barchasi soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlashning ahamiyati naqadar katta ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Soliqlar va to‘lovlarning byudjetga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini ta’minlash, soliq va to‘lov intizomini mustahkamlash, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning byudjet oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarishlari uchun mas’uliyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-1504-son farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonga muvofiq, Davlat soliq qo‘mitasiga soliqlar va byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlarni korxonaning mulki hisobidan undirib olish huquqi berildi.

Muddatida to‘lanmagan soliqlarni undirish bilan bog‘liq bo‘lgan qonun hujjatlarida asosan soliq organlarining huquqlari, soliq to‘lovchilarning majburiyatlari belgilab berilgan.

Qonun hujjatlarida, soliq qarzini majburiy undiruvdagi ahamiyati jihatidan ko‘rib chiqilsa, avvalambor, O‘zbekiston Respublikasining 29-avgust 1997-yildagi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuniga to‘xtalib o‘tishni taqozo qiladi. Ushbu qonun bilan belgilangan Davlat soliq xizmati organlarining huquqlaridan biri, soliq to‘lovchiga majburiyatini bajarishi zarurligi haqida hamda soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan ko‘riladigan choralar to‘g‘risida talabnoma yuborish vakolati hisoblanadi.

Soliq qarzini majburiy undiruv bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy hujjat Soliq kodeksi hisoblanadi. Soliq kodeksida soliq qarzini majburiy undirishning barcha jarayonlari o‘z aksini topgan.

Muddatida to‘lanmagan soliqlar va to‘lovlarni undirish mexanizmi tarkibiy jihatdan (harakatlantiruvchi kuchlari) uch qismdan iboratdir:

1. “Soliq to‘lovchilar”, “Soliq agentlari”, “Soliq to‘lovchilarning vakillari”;

2. Vakolatli organlar;

3. Normativ-huquqiy hujjatlar.

Muddatida to‘lanmagan soliqlar va to‘lovlarni undirish mexanizmining har bir tarkibiy qismi, o‘z navbatida, bir necha elementlardan iboratdir.

Qarzdorlarni tarkibiy qismi sifatida O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 20,23 ва 24-moddalariga asosan “Soliq to‘lovchilar”, “Soliq agentlari”, “Soliq to‘lovchilarning vakillari” kabi elementlardan tashkil topgan.

Soliq to‘lovchilar Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar va ularning alohida bo‘linmalaridir.

Soliq agentlari tomonidan Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar hamda yig‘imlarni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

Soliq to‘lovchining vakillari qonunga yoki ta’sis hujjatiga muvofiq soliq to‘lovchining vakili bo‘lishiga vakolatli shaxslardir.

Vakolatli organlar quyidagilardir:

❖ soliq organlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari;

❖ bojxona organlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, “Toshkent – AERO” maxsus bojxona kompleksi va bojxona postlari;

❖ yig‘imlarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar;

❖ soliq organlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari;

❖ bojxona organlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, “Toshkent – AERO” maxsus bojxona kompleksi va bojxona postlari;

❖ yig‘imlarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar.[22]

O‘zbekiston Respublikasida amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblangan soliq va yig‘imlarni muddatida byudjetga o‘tkazib bermasa yoki to‘lashdan bo‘yin tovlasa

[22] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2021. 25-modda.

u holda, ushbu xo‘jalik yurituvchi subyekt byudjet oldida soliq qarziga ega bo‘ladi.

Soliq kodeksining 55-moddasida soliq qarziga ta’rif berib o‘tilgan va unga ko‘ra: “hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, shuningdek, Soliq kodeksida belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar soliq qarzi, deb e’tirof etiladi”.[23]



7.1-rasm. Soliq qarzlarini vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillar[24]

Rus iqtisodchi olimi O.S. Kalacheva o‘z tadqiqotlarida soliq qarzdorligi vujudga kelishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida soliq madaniyatining pastligi, normativ hujjatlarning beqaror va o‘zgaruvchanligi, targ‘ibot ishlarining sustligi, davlat organlariga

[23] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2021. 55-modda.

[24] A. Tangriqulov, A. Xomma, Sh. Toshmatov, I. Norqo‘ziyev, N. Roziqov. Soliq qarzi va uni undirish. Yangi asr avlodi, 2010. 51 b.

nisbatan ishonchsizlikning yuqoriligini misol sifatida keltirib o‘tgan.[25]

Soliq qarzi vujudga kelishiga quyidagi bir necha sabablarni misol qilib keltirish mumkin:

- Soliq to‘lovchi o‘z majburiyatlarini bilmasligi;
- Soliq to‘lovchi hisob raqamida mablag‘larni yo‘qligi yoki yetarli miqdorda yo‘qligi;
- Qasddan soliq to‘lamaslik;
- Soliq to‘lovchining sog‘ligining yomonlashuvi;
- Soliq to‘lovchi uzoqroq safarda bo‘lishi;
- Boshqa sabablar.[26]

Soliq to‘lovchi o‘z majburiyatlarini bilmasligi, ya’ni soliq to‘lash muddatlarini bilmaslik yoki to‘lanishi kerak bo‘lgan soliq summasini bilmaslik holatlari bo‘lishi mumkin. Xuddi shuningdek, soliq to‘lovchilarning soliq yig‘imlarni to‘lash majburiyatini bajarish muddati kelganda xo‘jalik yurituvchi subyektda moliyaviy muammolarning mavjudligi, ya’ni bankdagi hisob raqamlarida pul mablag‘larining mavjud emasligi yoki yetarli darajada mavjud emasligi holatlari ham amaliyotda uchrab turadi.

Soliq to‘lovchi qasddan, ya’ni o‘z majburiyatlarini bila turib soliq to‘lamaslik holatlari ham bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar yuzasidan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning 174-moddasiga muvofiq javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq: “Soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) yoxud soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ancha miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n

[25] Калачева О.С. Получение налоговой культуры населения как способ борьбы с налоговыми правонарушениями в России // Вестник Волгоградского института бизнеса. 2016. Ноябрь № 4 (37). С. 34-37.
[26] A. Tangriqulov, A. Xomma, Sh. Toshmatov, I. Norqo‘ziyev, N. Roziqov. Soliq qarzi va uni undirish. Yangi asr avlodi, 2010. 9 b.

baravarigacha miqdorda, mansabdor shaxslarga esa o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi”.[27]

Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun javobgarlik choralari belgilangan. Jinoyat kodeksining 184-moddasiga muvofiq: “Foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko‘rsatishni, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki yig‘imlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin ro‘y bergan bo‘lsa – bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash:

a) takroran;

b) ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa:

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash juda ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa:

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Qasddan yashirilgan, kamaytirib ko‘rsatilgan foyda (daromad) bo‘yicha soliqlar va yig‘imlar to‘liq to‘langan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organining qarorini yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

[27] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘ridagi Kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2018. 174-modda.

huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining sodir etilgan jinoyat haqidagi xabarini olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliqlar va yig'imlar, shu jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o'rnini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi".[28]

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning byudjet oldidagi soliq qarzlarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

- joriy soliq qarz summasi;
- majburiy undiruvga qaratilgan qarz summasi;
- muddati uzaytirilgan qarz summasi;
- soliq tekshiruvi yoki soliq nazorati o'tkazilishi natijasida aniqlangan soliq qarzi summasi;
- umidsiz qarz summasi.

Joriy soliq qarz summasi – bunday soliq qarzlari asosan xo'jalik yurituvchi subyektlarining kelgusi davr uchun to'lanishi lozim bo'lgan soliqlari bo'yicha bo'nak to'lovlari hisoblanishi yoki to'lovlarni qisqa muddatlarga kechikishi natijasida vujudga keladi.

Majburiy undiruvga qaratilgan qarz summasi – bu o'z vaqtida belgilangan muddatlarda to'lovlar amalga oshirilmaganligi sababli xo'jalik yurituvchi subyektlarning byudjet oldidagi soliq qarzlarini to'lash imkoni bo'lmagan hollarda paydo bo'ladi. Mahsulot jo'natgan, xizmat ko'rsatgan yoki boshqa ishlarni amalga oshirgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitor qarzlari paydo bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyektning bankdagi hisob raqamiga mablag'lar kelib tushmaganligi sababli korxona byudjetga to'lovlarni amalga oshira olmaydi. Ammo, amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun to'lov amalga oshirilishiga qarab emas, balki jo'natilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarga qarab soliq turlari bo'yicha soliqlar hisoblanadi hamda korxona tomonidan hisob-kitoblar belgilangan muddatlarda soliq organlariga taqdim etiladi. Bu hisob-kitoblar davlat soliq organlarida ularning shaxsiy varaqalariga kiritiladi. O'z vaqtida to'lovlar amalga

[28] O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2018. 184-modda.

oshirilmaganligi sababli, korxonalarning davlat byudjeti oldida soliq qarzlari vujudga keladi va to‘lov muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 110-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biriga teng penya hisoblanishi natijasida soliq qarzi va jarima summalari ortib boradi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan mazkur soliq qarzini undirish bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda majburiy undiruv choralarini amalga oshiradilar. Amaldagi Soliq kodeksining 120-moddasiga muvofiq soliq qarzini undirish choralariga quyidagilar kiradi:

- soliq qarzini soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan so‘zsiz undirish;
- soliq qarzini boshqa mol-mulk hisobidan undirish.

Soliq qarzi summasini undirish soliq to‘lovchining barcha bank hisobvaraqlarida turgan pul mablag‘laridan amalga oshiriladi, qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratish mumkin bo‘lmagan hisobvaraqlar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012-yil 15-martda 2342-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasining 2011-yil 12-dekabrdagi 35/4, 82, 2011-41-son qarori bilan tasdiqlangan “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaning 1-ilovasida undiruv qaratilmaydigan bank hisobvaraqlar ro‘yhati berilgan. Ular quyidagi bank hisobvaraqlari hisoblanadi:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy hisobvarag‘i ochilgan balans hisobvarag‘ida “888” tartib raqam bilan ochilgan hisobvaraq.

2. 22604 – Mijozlarning boshqa depozitlari – Jamg‘arma – Maqsadli (Hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag‘lar).

3. 22626 – Korxona va tashkilotlarning maqsadli mablag‘lari (Hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag‘lar).

4. 23202 – Kliring tranzaksiyalar.

5. 23204 – Bir martalik o‘zaro hisob-kitoblar uchun byudjet mablag‘lari.

6. 23208 – Moliya vazirligi fondlari bilan bo‘ladigan kliring tranzaksiyalari.

7. 23210 – Moliya vazirligi fondlaridan qishloq xo‘jalik mahsulotlari uchun ajratilgan maqsadli mablag‘lar.

8. 23218 – Moliya vazirligi fondidan ajratilgan maqsadli mablag‘lar.

9. 23220 – Moliya vazirligi fondidan olingan maqsadli mablag‘lar.

10. 23222 – Moliya vazirligi fondining maqsadli mablag‘lari.

11. 23224 – Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro bir martalik hisob-kitoblar uchun byudjet mablag‘lari.

12. 23226 – Respublika byudjetining eksportchi-korxonalar bilan bo‘ladigan maqsadli hisob-kitoblar uchun mablag‘lari.

13. 23228 – Respublika byudjetining pudratchi tashkilotlar bilan bo‘ladigan maqsadli hisob-kitoblar uchun mablag‘lari.

14. 20412 – Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamg‘arma depozitlari.

15. Maqsadli mablag‘lar taqsimoti bo‘yicha alohida tartiblarda ishtirok etadigan “O‘zbekneftegaz” MXK, “O‘zdonmahsulot” AK, “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK tarkibidagi tashkilotlarga “O‘zbekneftegaz” MXK korxonalari va tashkilotlari hisobvaraqlaridan to‘lovlarni amalga oshirish va ularga “O‘zkommunxizmat” agentligining hududiy gaz ta’minoti korxonalaridan tushadigan to‘lovlari to‘g‘risidagi nizomga (ro‘yxat raqami 1441, 2005-yil 14- yanvar), “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK korxonalari hisob raqamlaridan to‘lovlarni amalga oshirish to‘g‘risida nizomga (ro‘yxat raqami 1088, 2001-yil 27- noyabr), Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga topshirilgan g‘alla va sholi uchun yakuniy hisob-kitoblar qilishda to‘lovlarni amalga oshirish tartibiga (ro‘yxat raqami 657, 1999-yil 1-mart) muvofiq ochilgan hisobvaraqlar (asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘idan tashqari).

16. 22630 – Mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadigan ijtimoiy nafaqalar bo‘yicha mablag‘lar (Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi 44-sonli qarori bilan tasdiqlangan Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan ochilgan maxsus hisobvaraq).

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30- oktyabrdagi 306-son “Suv ta’minoti va kanalizatsiya tashkilotlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq “Suvoqova” davlat unitar korxonalari tomonidan ularning shahar va tuman filiallari ta’minoti hamda joriy xarajatlarini (ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, mahalliy soliqlar, xizmat safari xarajatlari, suv, gaz, elektr energiyasi, telefon va boshqa kommunal to‘lovlar, ijara haqi, avtotransport xarajatlari) qoplash maqsadida ajratiladigan mablag‘lar uchun ochilgan 22622 — “Yuridik shaxslarning o‘z vakolatxonalari va filiallari ta’minoti uchun ajratgan mablag‘lari” hisobvarag‘i.

18. 22634 – Tabiiy gazdan tushadigan pul mablag‘larini jamlaydigan yagona maxsus hisobvaraq.

19. 22636 – Elektr energiyasidan tushadigan pul mablag‘larini jamlaydigan yagona maxsus hisobvaraq.

Muddati uzaytirilgan qarz summasi – bunday soliq qarzi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliqlar va yig‘imlarni ayrim uzrli sabablarga ko‘ra to‘lash imkoni bo‘lmagan hollarda paydo bo‘ladi. Bunday soliq qarzi summasi asosan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yirik davlat korxonalari va byudjet tashkilotlari uchun yuqori davlat organlarining ko‘rsatmalariga muvofiq, oldindan to‘lov amalga oshirilmasdan mahsulot jo‘natgan, xizmat ko‘rsatgan yoki boshqa ishlarni amalga oshirgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo‘ladi. O‘z vaqtida to‘lovlar amalga oshirilmaganligi sababli, mahsulot jo‘natgan, xizmat ko‘rsatgan yoki boshqa ishlarni amalga oshirgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning debitor qarzlari paydo bo‘ladi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari xo‘jalik yurituvchi subyektlarining o‘zaro pullik majburiyatlari bo‘yicha qarzlarini

to‘lash muddatini kechiktirish va ularni bo‘lib-bo‘lib to‘lash masalasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tegishli komplekslar rahbarlari bilan kelishgan holda ko‘rib chiqiladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi hamda ularni bajarilishi yuzasidan soliq tekshiruvlari o‘tkazilishi mumkin. Soliq sohasida o‘tkazilayotgan islohotlar hamda tadbirkorlik subyektlariga yanada kengroq imkoniyatlar yaratish maqsadida soliq tekshiruvlari ikki yilga to‘xtatildi. Lekin soliq va to‘lovlarni byudjetga o‘z vaqtida tushishini ta’minlash maqsadida soliq nazorati shakllari o‘tkaziladi. Mazkur har ikki holatda ham qonun buzilishi holatlari aniqlanishi mumkin va bunday hollarda qo‘shimcha soliq hamda penya hisoblanishi, jarima qo‘llanilishi mumkin. Yuqorida keltirib o‘tilgan hollarda soliq to‘lovchilarning davlat oldida qarzdorligi vujudga keladi. Soliq Kodeksiga muvofiq: “Soliq qarzini to‘lash, shu jumladan, uni soliq organlari tomonidan undirish chog‘ida to‘lash quyidagi tartibdagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1) soliqlar summasi;

2) hisoblangan penyalar;

3) jarimalar”[29].

Ayrim soliq to‘lovchilar va soliq agentlari zimmasida turgan soliqlarning to‘lanishi va (yoki) undirilishi quyidagi hollarda undirish imkoni bo‘lmay qolgan umidsiz soliq qarzi, deb e’tirof etiladi va ularga:

1) yuridik shaxs tugatilganda – yuridik shaxsning mol-mulki yetarli emasligi va (yoki) shu yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda uning soliq qarzini uzish imkoni bo‘lmaganligi sababli uning Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda uzilmay qolgan qismi bo‘yicha;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bankrot, deb e’tirof etilganda – qarzdorning mol-mulki yetarli emasligi sababli soliq qarzining uzilmay qolgan qismi bo‘yicha;

[29] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2021. 55-modda.

3) jismoniy shaxs vafot etganda yoki jismoniy shaxs vafot etgan, deb e’lon qilinganda – uning mol-mulki yetarli emasligi sababli, shu jumladan, meros davlat mulkiga o‘tgan taqdirda, uning soliq qarzining Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda uzilmay qolgan qismi bo‘yicha;

4) sud tomonidan hujjat qabul qilinib, unga muvofiq soliq organi soliq qarzini undirishning belgilangan muddati o‘tishi munosabati bilan uni undirish imkoniyatini yo‘qotganda, shu jumladan, sud tomonidan soliq qarzini undirish to‘g‘risida ariza berishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklashni rad etish haqida ajrim chiqarilganda;

5) chet el yuridik shaxsi soliq organidan hisobdan chiqarilganda – doimiy muassasaning mol-mulki yetarli emasligi va qonunchilikda belgilangan miqdor va tartibda O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan to‘lash imkonsizligi sababli to‘lanmagan soliq qarzi bo‘yicha undirilishi umidsiz, deb e’tirof etilgan mazkur soliq qarzi shu chet el yuridik shaxsi Soliq kodeksida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra soliq organida qaytadan hisobga qo‘yilganda tiklanishi lozim.

Soliq qarzining sodir bo‘lish jarayonini o‘rganish uchun soliq subyektining manfaatlari va iqtisodiy muhitning holatiga aniq baho berish juda muhim o‘rin tutadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan byudjet oldida soliq qarzini vujudga kelishining eng asosiy sabablaridan biri birinchi navbatda – korxonaning moliyaviy holati. O‘z navbatida korxonalarning moliyaviy holatiga ko‘p omillar ta’sir etadi, shu jumladan, debitorlik va kreditorlik qarzlarini oshib borishidir.

Shuning uchun ham turli mulkchilik shaklidagi korxonalarini moliyaviy ahvolini yaxshilash, sotilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun o‘z vaqtida to‘lovlarni ta’minlash hamda korxona rahbarlari, tijorat banklari to‘lov intizomi holati uchun javobgarligini oshirish, o‘zaro qarzdorlikni qisqartirish maqsadida bir qator qonun hujjatlari qabul qilingan: 1995-yil 12-maydagi Vazirlar Mahkamasining №1154-sonli “Xalq xo‘jaligida hisob-kitoblarni o‘z vaqtida o‘tkazish uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining

javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 1996-yil 24- yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1363-sonli “To‘lov intizomini va o‘zaro hisob-kitoblarni mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan qator choralar ko‘rsatilgan. Ular – iste’molchilarga mahsulot ortish, ishlar bajarish va xizmat ko‘rsatishda oldindan 15 foizdan kam bo‘lmagan holda to‘lov o‘tkazish; muddati o‘tgan debitorlik qarzdorlik deb 90 kundan keyin ortilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun mablag‘ kelib tushmasa hisoblanadi, 1996-yildan esa buxgalteriya hisobi tizimiga muddati o‘tgan debitor va kreditor qarzdorlik to‘g‘risida ma’lumot yuritish tartibi kiritilgan.

Davlat soliq organlari soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan to‘lovlarni to‘liq davlat byudjetiga o‘tkazilishini nazorat qilishda albatta soliq qarzlarini sodir bo‘lishiga sababchi bo‘ladigan holatlarni chuqur tahlil qilib lozim bo‘lgan hollarda tegishli mansabdor shaxslarga ular haqida amaliy tavsiyalar berishlari bu tavsiyalarga soliq to‘lovchining munosabatini nazorat qilib borishlari odatda ijobiy natija beradigan omillardan hisoblanadi.

Soliq qarzining vujudga kelishi soliq munosabatlarida sodir bo‘ladigan o‘ziga xos huquqbuzarlik yoki soliq to‘lovchining bevosita faoliyatiga tegishli moliyaviy munosabatlar oqibatida sodir bo‘ladi va davlat byudjeti daromadlariga sezilarli darajada zarar keltiradi. Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etmaslikning har qanday alomatlari soliq qarzini keltirib chiqarishi mumkin. Qonunbuzarlikning bosh omili hisob-kitobni to‘g‘ri yuritmaslikdan boshlanadi. Shu tufayli hisob-kitob, ayniqsa buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritish bo‘yicha qattiq talabni korxona rahbari va bosh buxgalter zimmasiga yuklashni yanada kuchaytirish, javobgarlikni oshirish hozirgi kun davr talabi bo‘lib hisoblanadi. Agar davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar yoki o‘tkazilgan soliq nazorati shakllari tahliliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlarni hisoblab chiqarishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilishi va buning natijasida ular katta miqdorda moliyaviy jarima to‘lab, iqtisodiy qiyinchiliklarga duch

kelishini ko‘pgina mamlakatlar soliq amaliyotida uchratishimiz mumkin.

Soliq qarzi summalari paydo bo‘lishi holatlarini oldini olishda quyidagi mezonlarga e’tibor berilishi lozim:

1. Xo‘jalik subyektlari tomonidan belgilangan muddatlarda byudjet va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlarni amalga oshirmasdan mablag‘larini boshqa maqsadlarga yo‘naltirish.

2. Soliq organlari tomonidan vaqtida inkasso topshiriqnomalarini soliq to‘lovchining banklardagi hisobraqamlariga qo‘ymaslik.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan banklardagi hisob raqamlari bo‘lganligi munosabati bilan qoshida sho‘ba korxonalari ochib, asosiy oborotini ular orqali amalga oshirish.

4. Asosiy hisob raqamidan tashqari boshqa banklarda ikkilamchi hisob raqamlari ochib, asosiy pul aylanmalarini ular orqali amalga oshirish.

5. Banklar ishtirokisiz hisob-kitoblarni amalga oshirish (tovar ayirboshlash, qarzini uchinchi shaxs foydasiga kechish) holatlari hisobiga sodir etilishi mumkin.

7.2. Soliqlarini undirish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar

Soliqlarning to‘g‘ri hisoblanishi va to‘liq undirilishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qulay shart-sharoit yaratish hamda ular manfaatini qonuniy himoyalash uchun ham xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston davlat soliq tizimi tez sur’atlarda rivojlanib, har qanday rivojlangan mamlakat soliq tizimi bilan raqobatlasha oladigan darajaga erishdi. Xarajatlarni qisqartirish maqsadida davlat soliq xizmati organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanib, soliq qarzini elektron inkasso topshiriqnomalari orqali undirilmoqda. Ushbu tartibni soliq undirish amaliyotiga joriy etish, albatta, davlat manfaatlariga mos keldi. Chunki amaldagi soliq qarzini undirish tartibi uchun sarflanadigan qog‘oz va boshqa yordamchi materiallar sarf-xarajatlari ancha qimmatga tushmoqda edi. 2011-

yilning yanvar oyidan boshlab soliq qarzini undirishning elektron inkasso topshiriqnomalari tizimi joriy etildi.

Soliq qarzini undirishning elektron inkasso topshiriqnomalari tizimining joriy etilishi quyidagi afzalliklarga ega:

– xodimning vaqtini tejaydi;

– qarzdor korxona hisob raqamiga avtomatik ravishda inkasso topshiriqnomasi o‘z vaqtida qo‘yilishini ta’minlaydi;

– soliq qarzi undirilishini tezlashtiradi;

– soliq undirish xarajatini kamaytiradi (qog‘oz, bo‘yoqlar, printerlar va boshqa xarajatlarni qisqartirish evaziga);

– byudjetga tushumlarning o‘z vaqtida tushishini ta’minlaydi;

– soliq nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi uni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi bankka, o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor-yo‘qligidan qat’iy nazar, Soliq kodeksida belgilangan to‘lov muddatidan kechiktirmasdan taqdim etishi shart.[30]

Agar soliq to‘lovchida to‘lanmagan soliq qarzi mavjud bo‘lsa, soliq organi unga soliqlarni to‘lash muddati o‘tganidan keyin uch kundan kechiktirmay soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnoma yuboradi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxs soliq to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarmagan bo‘lsa, soliq organi soliq qarzini ushbu jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Undirish to‘g‘risidagi arizaga soliq organining talabnomani ta’minlash tartibida javobgarning mol-mulkini xatlash haqidagi iltimosnomasi ilova qilinishi mumkin.

Undirish to‘g‘risidagi arizaning nusxasi u sudga berilgan kundan kechiktirmay soliq organi tomonidan soliq qarzi undirilayotgan jismoniy shaxsga yuboriladi.

[30] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2021. 115-modda.

Agar jismoniy shaxsning soliq qarzi umumiy summasi bir million so‘mdan oshsa, undirish to‘g‘risidagi ariza soliq organi tomonidan sudga beriladi.

7.3. Soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich ta’kidlaganlaridek: “Yangi fikr va yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat har doim yutadi va rivojlanadi”.[31]

Bugungi kundagi soliq siyosatidagi eng muhim va dolzarb bo‘lgan masalalardan biri – bu soliq munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi soliq qonunchiligi va boshqa me’yoriy hujjatlarning mukammalligini ta’minlash, soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish bilan bir qatorda soliq qarzdorliklarini hosil bo‘lishini oldini olish va ularni undirish mexanizimini takomillashtirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxsning byudjet oldida soliq qarzdorligi yuzaga kelgan taqdirda, agar jismoniy shaxsning soliq qarzi umumiy summasi bir million so‘mdan oshsa, undirish to‘g‘risidagi ariza soliq organi tomonidan soliq qarzini undirish yuzasidan belgilangan tartibda sudga murojaat qilish lozimligi belgilab berilgan.

Yuqoridagi belgilangan tartibdan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organlari mavjud soliq qarzini jismoniy shaxsdan undirish yuzasidan da’vo arizani rasmiylashtiradi va tegishli iqtisodiy sudlariga topshiradilar. Iqtisodiy sudlar tomonidan ushbu da’vo arizalari atroflicha ko‘rib chiqilib, soliq qarzini jismoniy shaxsdan undirish yuzasidan ijro hujjati chiqariladi. Ushbu ijro hujjati belgilangan muddatda ijro uchun tegishli hududiy O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi

[31] Mirziyoyev Sh.M. Innovatsion g‘oyalarni ilm-fan va sanoatga keng tatbiq etish- islohotlar samaradorligining bosh mezoni//Xalq so‘zi. №107. 2019. 29 may.

bo‘limiga taqdim qilinadi va ijro hujjati yuzasidan qarzni undirish amalga oshiriladi.

Qonunchiligimizga muvofiq soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish faqat sud tartibida amalga oshiriladi. Mazkur tartib qoidalar soliq qarzini undirishni biroz ortga surilishiga olib kelmoqda, bundan tashqari, sud xarajatlari va pochta xarajatlari ham mavjud. Ko‘plab mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish sud tartibida amalga oshirilmaydi, bu vakolat davlat soliq xizmati organlarining vakolati hisoblanadi. Fikrimizcha ushbu amaliyot soliq qarzlarini undirish tezlashishiga ortiqcha sarf-xarajatlarning oldi olinishiga sabab bo‘ladi.

Dunyo mamlakatlari tajribasini o‘rganib shu aytishimiz mumkin, xususan, Yaponiyada soliq qarzini undirishdan ko‘ra uni vujudga kelishini bartaraf etishga katta ahamiyat beriladi. Biz buning uchun, avvalambor, soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratishimiz lozim.

Soliq madaniyati shakllanish jarayoniga ham bir qator muammolar ta’sir qiladi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qonunchilikning nobarqarorligi;
- targ‘ibot ishlarining yetarli darajada emasligi;
- soliq munosabatlari subyektlarining o‘zaro munosabatlaridagi ijtimoiy javobgarlik muammolari;
- aholining soliq organlariga bo‘lgan ishonchsizligi;
- soliq organlarida xizmat qilish nufuzining yuqori emasligi va kadrlar qo‘nimsizligi;
- globalizatsiya jarayonida raqobatning kuchayishi va buning natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning doimiy ravishda soliq va yig‘imlardan qochish yo‘llarini qidirishi.

Aholi soliq savodxonligining pastligi, huquqiy nigilizm, normativ-huquqiy hujjatlarga ommaviy amal qilmaslik, soliq

sohasiga yuzaki munosabat davlat va jamiyat manfaatlariga tuzatib bo‘lmaydigan darajada zarar keltiradi.[32]

Hozirgi kunda ushbu masala yuzasidan bir qancha amaliy ishlar olib borilayotganligini ko‘rishimiz mumkin, masalan “Biz to‘laydigan soliqlar nimalarga sarflanadi”, - deb nomlanmgan ijtimoiy videoroliklarda ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolarga ular to‘laydigan soliqlar davlat uchun uning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini bajarishi uchun naqadar muhim ahamiyat kasb etishi haqida tushuntirilgan. Bundan tashqari, respublikamizning barcha hududlarida “Men soliq to‘lovchiman” aksiya o‘tkazilishi ham fuqarolarning soliq savodxonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu kabi ishlarni amalga oshirish natijasida soliq madaniyatini yanada yuksaltirish orqali fuqarolarimiz tomonidan soliqlar va yig‘imlarning o‘z vaqtida to‘lanishi, pirovardida esa soliq qarzdorliklarini vujudga kelishini oldini olishimiz mumkin.

Soliq to‘lovchi yuridik shaxslar soliq qarzdorligini kamaytirish, soliq qarzi vujudga kelishini oldini olishda soliq qarzining vujudga kelish sabablari hamda unga bevosita ta’sir etuvchi omillarni o‘rganib chiqish zarur. O‘zaro moliyaviy-xo‘jalik munosabatida bo‘lgan korxonalar tomonidan to‘lov intizomi qoidalariga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik hamda kreditorlik qarzlarining ortib ketishi korxonlarning byudjet oldida qarz majburiyatlarini vujudga kelishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish davomida shuni ko‘rdikki, ayrim mamlakatlarda soliq qarzdorliklari vujudga kelishini oldini olish maqsadida soliq qarzi mavjud xo‘jalik yurituvchi subyektlar soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqidan mahrum etiladilar. Bu esa korxona uchun o‘z foydasining qisqarishiga olib keladi. Shuning uchun ham mazkur davlatlarda soliq imtiyozlaridan mahrum bo‘lmaslik uchun soliqlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda

[32] Raximov A.M., Temirov D.N. O‘zbekistonda soliq sohasidagi huquqbuzarliklar sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlar//“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. 2017. Aprel. №2.

to‘lashga harakat qilishida. Mazkur mexanizm soliq qarzlarini vujudga kelishini oldini olish uchun xizmat qiladi.

Shunindek, soliq qarzini vujudga kelishini oldini olish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlardan biri sifatida soliq to‘lovchilarni qonunchilikdagi yangiliklardan xabardor qilish, undagi o‘zgarishlar bo‘yicha tushuntirishlar berish, turli seminar-treninglar tashkil etishni aytishimiz mumkin.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalari moliyaviy faoliyatiga hozirda salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan muammolardan biri bu korxona byudjet oldidagi boqimandasi uchun penyalar to‘lash amaliyotidir. Bunda muddatida to‘lanmagan boqimanda summasiga muddati uzaytirilgan har bir kun uchun penya to‘lanadi. Penyalarning belgilanishi bir tomondan adolatli, chunki u korxonalar byudjet oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Hozirda esa hukumat qarorlari bilan davlat xaridi va byudjet tashkilotlariga yuklab jo‘natilgan tovarlar (ish, xizmat) uchun davlat byudjetidan mablag‘larning o‘z vaqtida o‘tkazilmasligi sababli bunday soliq qarzlari ko‘payib bormoqda.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq majburiyati deganda nima tushuniladi?
2. Soliq qarzini vujudga kelish sabablari nimadan iborat?
3. Soliq hisobotlarini taqdim etish tartibini tushuntiring?
4. Soliq qarzi, penya va umidsiz qarz tushunchalariga ta’rif bering.
5. Soliq to‘lovchilarga soliq qarzi haqidagi ma’lumotnomalar taqdim etish tartibini tushuntirib bering.

3-BO‘LIM. SOLIQ MA’MURCHILIGINING AHAMIYATINI OSHIRISHDA SOLIQ NAZORATINI ROLI

8-mavzu. SOLIQ ORGANLARI NAZORAT FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING SHAKLLARI VA ZAMONAVIY USULLARI

8.1. Soliq nazorati va uning ahamiyati
8.2. Soliq nazoratining shakllari va ularni amalga oshirish tartibi

8.1. Soliq nazorati va uning ahamiyati

Respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu islohotlar orasida moliya-kredit tizimini isloh qilish alohida o‘rin egallaydi. Chunki jamiyatning barcha sohalari faoliyati pulli munosabatlar bilan bevosita bog‘liqdir, vaholanki, pulli munosabatlarni samarali ishlash mexanizmi, o‘z navbatida, boshqa sohalarga bevosita ta’sir etadi, bu esa moliya-kredit tizimining jamiyat iqtisodiy tizimidagi o‘rni naqadar yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Soliqlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. Demak, davlat byudjeti daromadlarini tashkil qiluvchi soliqlarning to‘liq va o‘z vaqtida undirilishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun barcha davlatlar qatori mamlakatimizda ham soliqlar va yig‘imlarni

to‘liq, to‘g‘ri va o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazorat qilish tizimi yaratilgan.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini soliq qonunchiligiga rioya etish nuqtayi nazaridan nazorat qilishning huquqiy, uslubiy va tashkiliy asoslarini o‘rganadi. Ma’lumki, soliq to‘lovchilar davlat byudjetiga to‘laydigan soliqlarini mustaqil ravishda hisoblab, belgilangan muddatda va miqdorda amalga oshirishlari lozim. Davlat soliq to‘lovchilarga soliqlarning fiskal majburiyatidan kelib chiqqan holda shunday qat’iy talabni qonun normalari asosida belgilab qo‘ygan.

Soliq nazorati qanchalik qat’iy bo‘lsa va tekshiruvlar natijasida aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha chora ko‘rish muqarrarligi to‘liq ta’minlansa, davlat byudjeti manfaatlari har tomonlama muhofaza qilingan va byudjet daromadlarining shakllanishi kafolatlangan bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat ishlarining huquqiy masalalari, nazoratni tashkil qilishning uslubiy yo‘nalishlari, nazorat natijalarini rasmiylashtirish va soliq qonunchiligiga rioya etishda qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ygan soliq to‘lovchilarga chora ko‘rish tartiblarini belgilaydi.

Soliq nazoratini to‘g‘ri ta’minlash davlat va mahalliy byudjetning daromad qismi to‘ldirilishining muhimligini belgilaydi. Bundan tashqari, soliq nazorati obyektlarining ko‘pligi sababli ham uning muhim ekanligini belgilovchi omillardandir. Shu sababli ham soliqlar va yig‘imlarni undirishda butun dunyoda soliq nazorati amaliyoti muhim o‘rin egallaydi. Chunki ushbu nazorat orqali byudjetga soliq to‘lovchilar tomonidan qasddan yoki yanglishishlar natijasida soliqdan yashirilgan to‘lovlar aniqlanib, ijtimoiy adolat va huquqbuzarlik uchun jazoning muqarrarlik tamoyillari ta’minlanadi.

Soliq nazoratiga O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida “Soliq nazorati – soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olishning, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat” [33] - deb ta’rif berilgan.

[33] O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi № 474-I son qonuni . 29.08.1997.

Soliq nazorati moliyaviy-xo‘jalik nazorati turiga kiradi. Ushbu nazorat turi davlat moliyaviy nazorati bilan xususiy va umumiy jihatdan yaqindir. Lekin soliq nazorati o‘zining obyekti, mazmuni, usul va uslubi, nazorat qiladigan shaxslar va idoralar turiga qarab davlat moliyaviy nazoratidan farq qiladi. Bundan tashqari, soliq nazorati davlat byudjeti daromad qismini to‘ldirish bilan bog‘liq maxsus vazifani nazorat qilishi bilan ham boshqa nazoratlardan farq qiladi.

“Vakolatli organlarning soliq to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyati soliq nazoratidir”.[34]

Soliq nazoratining obyekti – soliq va yig‘imlarni undirish hamda ushbu majburiyatlarni bajarmagan soliq to‘lovchilarni javobgarlikka tortish bilan bog‘liq munosabatlar majmuidir.

Soliq nazoratining subyektlari – Davlat soliq xizmati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti organlari va mulkdorlar tomonidan yollangan auditorlik xizmati vakillari bo‘lishi mumkin.

Soliq nazoratini olib borishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, soliqqa tortishni takomillashgan tizimini tashkil etish, soliq to‘lovchilar, banklar va boshqa soliqqa oid munosabatlar qatnashuvchilari o‘rtasida soliq qonunchiligini buzishga yo‘l qo‘ymaydigan soliq intizomini yaratishdir.

Bundan tashqari, davlat soliq nazoratining alohida vazifalari ham mavjud bolib, bundan ko‘zlangan maqsad soliqqa oid munosabatlarning alohida sohalarini tartibga solish hisoblanadi. Masalan, naqd pul sohasidagi qonunchilik normalariga amal qilish va savdo-sotiq, valyuta qonunchiligini tartibga solish kabi vazifalardir.

Soliq nazoratining vazifalari quyidagilardan iborat:

– soliq va yig‘imlarni to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda byudjet (byudjetdan tashqari fondlarga) o‘z muddatlarida to‘lanishini ta’minlash;

[34] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2021. 135-modda.

– soliq va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunlarni buzuvchilarga jazoning muqarrarligini ta’minlash;

– soliq qonunchiligi buzilishini oldini olish, soliq to‘lovchilarni soliq va yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki to‘liq bajarmaganligi natijasida davlatga yetkazilgan zararni undirish;

– soliqqa tortish metodologiyasi va qonunchiligini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish.

Nazoratni amalga oshirishda uning mazmunini aniqlab olish ham muhim masalalardan hisoblanadi. Shu tufayli soliq nazorati mazmuni sifatida:

– yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunlar bajarilishini tekshirish;

– soliq organlarida hisobda turish va bu bilan bog‘liq majburiyatlarni tekshirish;

– buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritish, soliq hisobotlarini to‘g‘ri va belgilangan muddatlarda taqdim etish, ulardagi ma’lumotlarning asosliligini tekshirish;

– soliq to‘lovchilarning soliq qonunchiligi talablariga rioya etilishini tekshirish;

– banklarning soliq qonunchiligi ijrosi bo‘yicha majburiyatlarini bajarilishini tekshirish;

– naqd pul muomalasiga oid qonunchilik normalariga rioya etilishini tekshirish;

– soliq va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunlar buzilishini oldini olish;

– yashirin soliq obyektlarini aniqlash;

– soliq qonunchiligini buzuvchilarni aniqlash va ularni javobgarlikka tortish;

– soliq to‘lovchilar tomonidan soliq va yig‘imlar to‘g‘risidagi majburiyatlarini bajarmaslik yoki yetarli darajada bajarmaslik oqibatida davlatga yetkazilgan zararni undirish kabilardir.

Soliq nazoratining usuli – bu nazoratni amalga oshirishning aniq harakat uslubidir. Rivojlangan mamlakatlarda soliq nazoratini tashkil etishda turli usullardan foydalaniladi.

8.2. Soliq nazoratining shakllari va ularni amalga oshirish tartibi

2020-yil 1-yanvarga qadar soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshirilar edi:

- soliq to‘lovchilarni hisobga olish;
- soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olish;
- byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlarni hisobga olish;
- kameral nazorat;
- xronometraj ko‘zdan kechirish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining hisobotdagi sonining va haqiqiy sonining muvofiqligi yuzasidan monitoring;
- soliq tekshiruvlari;
- mavzuli ekspress-o‘rganish;
- fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash;
- aksiz to‘lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek, ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish;
- davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan pul mablag‘lari davlat daromadiga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini nazorat qilish;
- yig‘imlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish;
- soliq monitoringi.

O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-136-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-599-sonli O‘zbekiston Respublikasining qonuni bilan uning yangi tahriri tasdiqlandi.

Yangi tahriri Soliq kodeksiga asosan soliq organlari soliq nazorati:

1) soliq tekshiruvlari;

2) soliq monitoringi shaklida amalga oshiradi.

Bojxona organlari tovarlarning O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlarga nisbatan o‘z vakolatlari doirasida Soliq kodeksiga va bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq nazoratini amalga oshiradi.

Demak, soliq nazoratining birinchi shakli – soliq tekshiruvlaridir.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qaroriga asosan “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo‘yicha toifalash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi qabul qilindi. Nizom soliq organlarida soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo‘yicha toifalash tartibini belgilash, soliq solish sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash imkoniyatlarini oshirish, faoliyati bo‘yicha soliq xavfi past deb aniqlangan soliq to‘lovchilarga (soliq agentlariga) nisbatan soliq nazoratini minimallashtirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarni, shuningdek, soliq tekshiruvlarini o‘tkazishga tanlab olinadigan soliq to‘lovchilarni inson omilisiz avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulot orqali aniqlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda soliq xavfi darajasidan kelib chiqib soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq tekshiruvlari shakllarini belgilash maqsadida ishlab chiqildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qarori bilan “Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” Nizom qabul qilindi. Nizom bilan soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi belgilandi.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o‘tkazadi:

kameral soliq tekshiruvi;

sayyor soliq tekshiruvi;

soliq auditi.

Kameral soliq tekshiruvi – soliq to‘lovchilar (soliq agentlari) tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblanishini, o‘z vaqtida va to‘liq byudjet tizimiga to‘lanishini tekshirish maqsadida soliq to‘lovchi, soliq agentlari tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq organida mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv hisoblanadi.

Sayyor soliq tekshiruvi – soliq organlari tomonidan soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash sohasida soliq to‘lovchilarning ayrim majburiyatlarini, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshiruv bo‘lib, unda hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag‘lari harakatining, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa axborotning tahlili o‘tkaziladi.

Soliq auditi – soliq to‘lovchining (soliq agentining) muayyan davrdagi moliya va soliq hisobotlarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga barcha jihatlardan muvofiqligi va haqqoniyligini, soliq solish maqsadlarida buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida hisobga olishda soliq majburiyatlarining to‘g‘ri shakllantirilishi va aks ettirilishini soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan o‘rganish orqali soliqlarni to‘g‘ri hisoblash va to‘lashning to‘g‘riligini tekshirishdir.

Soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq organlari mansabdor shaxslari quyidagilarga haqlidir:

kameral soliq tekshiruvini o‘tkazishda:

soliq organlarining bevosita soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslari ko‘rsatilgan obyektlar to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarning tekshirilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga asoslangan ma’lumotlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida tekshirilayotgan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan hududlarini yoki binosini yoxud soliq solish obyektlarini ko‘zdan kechirish;

soliq tekshiruvlarini o‘tkazish chog‘ida soliq to‘lovchini yozma bildirish asosida soliq organiga u tomonidan soliqlarni to‘lash (ushlab

qolish va o‘tkazish) yuzasidan yoxud soliq tekshiruvi bilan bog‘liq ravishda tushuntirishlar berishga chaqirish;

tekshirilayotgan soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli bo‘lgan hujjatlarni (axborotni) uchinchi shaxslardan talab qilib olish zarur bo‘lgan hollarda ushbu hujjatlarni (axborotni) soliq to‘lovchining kontragentidan yoki hujjatlarga (axborotga) ega bo‘lgan boshqa shaxslardan talab qilib olish;

tovarlarning (xizmatlarning) bitimdagi narxi bozor narxidan past yoki yuqori bo‘lgan hollarda, tegishli soliqlar bo‘yicha soliq bazasiga tuzatish kiritish;

kameral soliq tekshiruvi jarayonida tekshirilayotgan soliq to‘lovchi tomonidan soliq organi talab qilgan hujjatlar so‘rovnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etilmaganda, Soliq kodeksining 111-moddasiga asosan soliq to‘lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarini to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazishda:

soliq to‘lovchilar tomonidan aholi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini, shu jumladan, nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallarining qo‘llanilishini tekshirish;

profilaktika tadbirlarini o‘tkazish;

soliq to‘lovchining tekshiruv bilan bog‘liq, shu jumladan, elektron axborot jismlarida saqlanadigan hisob hujjatlari va axborotni talab qilib olish va o‘rganish;

soliq to‘lovchining hududlari va binolarini, shuningdek, hujjatlar va buyumlarini, shu jumladan, soliq to‘lovchi daromad olish uchun foydalanadigan yoxud soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog‘liq joylarni belgilangan tartibda ko‘zdan kechirish;

videotasvirga olish moslamalaridan majburiy foydalangan holda mustaqil ravishda nazorat xaridini amalga oshirish;

asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari va hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish;

soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar hisobga qo‘yilishi ustidan soliq nazoratini amalga oshirish;

xronometraj ko‘zdan kechirishni o‘tkazish;

sotilayotgan tovarlar narxini va ko‘rsatilayotgan xizmatlar haqini sun’iy ravishda oshirish yoki pasaytirishni tekshirish;

soliq to‘lovchi ishchi-xodimlari haqiqiy sonini ularning soliq hisobotidagi aks ettirilgan soniga muvofiqligini tekshirish;

bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish;

yer qa’ridan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan foydali qazilmalar hajmini tekshirish;

banklar tomonidan soliq to‘lovchilarning to‘lov topshiriqnomalari va soliq organlarining inkasso topshiriqnomalari o‘z vaqtida bajarilishini tekshirish;

valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rezidentlar va norezidentlar tomonidan rioya etilishi yuzasidan tekshiruvlarni amalga oshirish;

aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish;

avtotransport vositalarida tashilayotgan tovarlarga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan tovar-kuzatuv hujjatlari mavjudligini tekshirish;

soliq auditini o‘tkazishda:

ko‘rsatilgan obyektlar to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarning tekshirilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga asoslangan ma’lumotlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida tekshirilayotgan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan hududlarini yoki binosini yoxud soliq solish obyektlarini ko‘zdan kechirish;

tekshirilayotgan shaxsdan soliq tekshiruvi uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilib olish;

soliq tekshiruvlarini o‘tkazuvchi shaxs soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarga (axborotga) ega bo‘lgan kontragentdan yoki boshqa shaxslardan ushbu hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish;

soliqlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq hujjatlarni, buyumlarni va elektron axborot saqlovchi jismlarni (soliqqa oid axborotni saqlovchi moslamalar, shu jumladan, kompyuterning qattiq diski, noutbuklar va boshqalar) Soliq kodeksining 148-moddasida belgilangan tartibda olib qo‘yish;

agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past yoki yuqori bo‘lsa, tegishli soliqlar bo‘yicha soliq bazasiga tuzatish kiritish.

Soliq nazoratining ikkinchi shakli – soliq monitoringidir.

Soliq organlari tomonidan oldingi yil uchun daromadlari yillik moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra kamida o‘n milliard so‘mni tashkil etgan yuridik shaxslarda soliq monitoringi o‘tkaziladi.

Soliq organining vakolatli mansabdor shaxslari va soliq to‘lovchi soliq monitoringi ishtirokchilari hisoblanib, uni o‘tkazish maxsus sxema asosida amalga oshiriladi.

Soliq monitoringi soliq to‘lovchiga nisbatan ixtiyoriy bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar davlat soliq boshqarmalari tomonidan, yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan esa – Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

Soliq kodeksiga muvofiq soliq monitoringining predmeti soliq monitoringida ishtirok etayotgan soliq to‘lovchi tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishidan iboratdir.

Yuridik shaxs soliq organiga soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risida ariza taqdim etgan yildan keyingi kalendar yil soliq monitoringi o‘tkaziladigan davrdir.

Soliq monitoringini o‘tkazish soliq monitoringi o‘tkaziladigan yilning

1-yanvaridan boshlanadi va soliq monitoringi o‘tkazilgan davrdan keyingi yilning 1-iyulida tugallanadi.

Soliq monitoringi soliq organining vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan o‘z xizmat majburiyatlariga muvofiq soliq organi joylashgan yer bo‘yicha o‘tkaziladi.

Agar soliq monitoringini o‘tkazish chog‘ida taqdim etilgan hujjatlardagi ma’lumotlar o‘rtasida ziddiyatlar yoki yuridik shaxs tomonidan taqdim etilgan hamda soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar o‘rtasida nomuvofiqliklar aniqlansa, soliq organi bu haqda zarur tushuntirishlar berish yoki tegishli tuzatishlar kiritish talabi bilan yuridik shaxsga xabar qiladi. Bunday tushuntirishlar yuridik shaxs tomonidan talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etiladi, tuzatishlar esa o‘n kun davomida kiritiladi.

Agar taqdim etilgan tushuntirishlar ko‘rib chiqilganidan keyin yoki ular mavjud bo‘lmagan taqdirda soliq organi soliqlar yoki yig‘imlar noto‘g‘ri hisoblab chiqarilganligi (ushlab qolinganligi), to‘liq yoki o‘z vaqtida to‘lanmaganligi (o‘tkazilmaganligi) to‘g‘risida dalolat beruvchi dalilni aniqlasa, soliq organi Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda asoslantirilgan fikrini tuzishi shart.

Soliq monitoringi o‘tkazilayotganda soliq organi soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblab chiqarilganligi (ushlab qolinganligi), to‘liq va o‘z vaqtida to‘langanligi (o‘tkazilganligi) bilan bog‘liq bo‘lgan zarur hujjatlarni (axborotni), tushuntirishlarni yuridik shaxsdan talab qilib olishga haqlidir.

Talab qilinadigan hujjatlar (axborot) va tushuntirishlar soliq organiga shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi, pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilishi, telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali, soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda topshirilishi yoki axborotga doir hamkorlik reglamentida nazarda tutilgan tartibda berilishi mumkin.

Hujjatlarni qog‘oz shaklida taqdim etish yuridik shaxs tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma nusxalar shaklida amalga oshiriladi. Soliq monitoringini o‘tkazishda talab qilingan hujjatlar (axborot) va tushuntirishlar yuridik shaxs tomonidan tegishli talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etiladi.

Agar talabnomani belgilangan muddatda ijro etish imkoni bo‘lmasa, yuridik shaxs talabnoma olingan kundan keyingi kun davomida soliq organining soliq monitoringini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslarini uni ijro etish imkoni yo‘qligi to‘g‘risida sabablarini hamda u

talab etilayotgan hujjatlarni (axborotni) va tushuntirishlarni qaysi muddatlar ichida taqdim etishi mumkin bo‘lsa, o‘sha muddatlarni ko‘rsatgan holda yozma ravishda xabardor qiladi. Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) mazkur bildirishnoma asosida u olingan kundan e’tiboran ikki kun ichida hujjatlarni (axborotni) va tushuntirishlarni taqdim etish muddatlarini uzaytirishga yoki muddatlarni uzaytirishni rad etishga haqli bo‘lib, bu haqda alohida qaror chiqariladi.

Agar taqdim etilgan tushuntirishlar, hujjatlar (axborot) ko‘rib chiqilgandan keyin yoxud ular mavjud bo‘lmaganda, soliq organi soliqlar va yig‘imlar noto‘g‘ri hisoblab chiqarilganligi (ushlab qolinganligi), to‘liq yoki o‘z vaqtida to‘lanmaganligi (o‘tkazib berilmaganligi) to‘g‘risida dalolat beruvchi faktni aniqlasa, soliq organi asoslantirilgan fikrni tuzishi shart.

Soliq organi soliq monitoringini o‘tkazish chog‘ida o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki soliq to‘lovchining so‘roviga binoan asoslantirilgan fikr tuzadi. Soliq organining asoslantirilgan fikri soliq monitoringini o‘tkazish muddati tugaguniga qadar kamida uch oy oldin tuzilishi mumkin.

Soliq organi asoslantirilgan fikrni yuborish muddatini uzaytirish to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch kun ichida soliq to‘lovchiga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda xabar qiladi.

Soliq to‘lovchi asoslantirilgan fikrni unda soliq organining buxgalteriya (soliq) hisobi va soliq hisoboti yuzasidan bayon etilgan nuqtayi nazarini e’tiborga olish orqali, aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish yo‘li bilan yoki boshqa usulda bajaradi.

Soliq to‘lovchi soliq organining asoslantirilgan fikriga rozi bo‘lmagan taqdirda, u olingan kundan e’tiboran bir oy ichida soliq organiga o‘z e’tirozlarini yozma yoki elektron shaklda soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali taqdim etadi.

Mazkur e’tirozlarni olgan soliq organi ular olingan kundan e’tiboran uch kun ichida bu e’tirozlarni o‘zida mavjud bo‘lgan barcha

materiallar bilan birga Davlat soliq qo‘mitasiga o‘zaro kelishuv tartib-taomili tashabbusi bilan chiqish uchun yuborishi shart.

Soliq organi soliq monitoringi tugagan sanadan e’tiboran ikki oydan kechiktirmay soliq to‘lovchini soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida ushbu soliq to‘lovchiga yuborilgan, bajarilmagan asoslantirilgan fikrlar mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali xabardor qiladi.

Soliq monitoringi quyidagi hollarda muddatidan oldin tugatiladi:

1) axborotga doir hamkorlik reglamenti yuridik shaxs tomonidan ijro etilmaganda, agar bunday ijro etmaslik soliq monitoringini o‘tkazish uchun to‘siq bo‘lgan bo‘lsa;

2) soliq organi tomonidan soliq monitoringini o‘tkazish chog‘ida yuridik shaxs tomonidan ishonchli bo‘lmagan axborot taqdim etilganligi fakti aniqlanganda;

3) soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida hujjatlar (axborot), tushuntirishlar soliq organiga muntazam ravishda (ikki marta va undan ortiq) taqdim etilmaganda.

Soliq organi yuqorida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan kundan e’tiboran o‘n kun ichida, lekin soliq monitoringi o‘tkazilayotgan davrdan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay yuridik shaxsni soliq monitoringini muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida yozma shaklda xabardor qiladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq nazorati haqida tushuncha bering.
2. Soliq nazoratining ahamiyati nimadan iborat?
3. Soliq nazoratining qanday shakllari mavjud?
4. Soliq nazoratining amalga oshirish tartibi qanday?

9-mavzu. KAMERAL SOLIQ NAZORATI UNI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH MEXANIZMI

9.1. Kameral soliq tekshiruvini tashkil etish

9.2. Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish

9.3. Kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha talabnomani yuborish

9.4. Kameral soliq tekshiruvida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish

9.1. Kameral soliq tekshiruvini tashkil etish

O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-136-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-599-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan uning yangi tahriri tasdiqlandi.

Yangi tahriri Soliq kodeksiga asosan soliq organlari soliq nazoratini:

1) soliq tekshiruvlari;

2) soliq monitoringi shaklida amalga oshiradi.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o‘tkazadi:

– kameral soliq tekshiruvi;

– sayyor soliq tekshiruvi;

– soliq auditi.

Kameral soliq tekshiruvi – soliq to‘lovchilar (soliq agentlari) tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblanishini, o‘z vaqtida va to‘liq byudjet tizimiga to‘lanishini tekshirish maqsadida soliq to‘lovchi, soliq agentlari tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq organida mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv hisoblanadi.

Kameral soliq tekshiruvi – soliq to‘lovchilar (soliq agentlari) tomonidan soliqlar va yig‘imlar (keyingi o‘rinlarda – soliqlar) to‘g‘ri hisoblanishini, o‘z vaqtida va to‘liq byudjet tizimiga to‘lanishini tekshirish maqsadida soliq to‘lovchi, soliq agentlari (keyingi o‘rinlarda – soliq to‘lovchi deb, yuritiladi) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq organida mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv hisoblanadi.

Kameral soliq tekshiruvi quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

– soliq xavfini boshqarish tizimi asosida aniqlangan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi sodir etilganligi xavfi mavjudligida;

– soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar yoki xatolar aniqlanganda.

Soliq organlari quyidagi hollarda ham kameral soliq tekshiruvini o‘tkazishga haqli:

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishi holatlari haqida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari soliq organiga tushganda;

– soliq to‘lovchi tomonidan oldin taqdim etilgan soliq hisobotiga nisbatan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini kamaytiradigan yoki ko‘rilgan zarar summasini ko‘paytiradigan aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilganda.

Kameral soliq tekshiruvi belgilangan da’vo muddati o‘tmagan soliq davrlariga nisbatan o‘tkazilishi mumkin.

Agar soliq (hisobot) davri uchun soliq monitoringi o‘tkazilayotgan bo‘lsa, bunday davr uchun kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilmaydi. Ko‘rsatilgan qoida soliq monitoringi muddatidan oldin tugatilganda qo‘llanilmaydi.

Kameral soliq tekshiruvi soliq organi joylashgan joyda amalga oshiriladi, bundan soliq to‘lovchining hududlarini va binolarini ko‘zdan kechirish bilan bog‘liq holatlar mustasno.

Hududlarni va binolarni ko‘zdan kechirish soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida aks ettirilgan ko‘rsatkichlar yoki ma’lumotlar hamda soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud boshqa axborotning haqqoniyligini tasdiqlash uchun o‘tkaziladi.

Hududlarni va binolarni ko‘zdan kechirish soliq to‘lovchida belgilangan ish rejimiga asosan bir ish kuni davomida o‘tkaziladi.

Agar soliq to‘lovchi tomonidan avval hisoblangan soliq summasi o‘zgartirilib, kameral soliq tekshiruvi tugagunga qadar o‘n kun oldin aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilsa, kameral soliq tekshiruvi ushbu taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini hisobga olgan holda o‘tkaziladi.

9.2. Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish

Kameral soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida o‘tkaziladi.

Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruq asosida faqat bitta soliq to‘lovchi tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Kameral soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqda soliq to‘lovchining nomi va uning identifikatsiya raqami, tekshiruvchi shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi, kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish muddatlari, tekshirilayotgan davr ko‘rsatiladi.

Kameral soliq tekshiruvida soliq organining ikki va undan ortiq tekshiruvchi mansabdor shaxslari qatnashganda, tekshirish jarayonini boshqarish va natijalarini umumlashtirishga buyruqda familiyasi birinchi ko‘rsatilgan tekshiruvchi javobgar shaxs hisoblanadi.

Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish muddati kameral soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqda ko‘rsatilgan sanadan boshlanadi.

Kameral soliq tekshiruvining umumiy muddati oltmish kundan oshishi mumkin emas.

Kameral soliq tekshiruvi davomida soliq organi so‘rovnoma asosida soliq to‘lovchidan:

– soliqlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo‘lgan birlamchi hujjatlarni, buxgalteriya hisobi registrlarini hamda boshqa hisob hujjatlarini;

– taqdim etilgan soliq hisoboti va hisob hujjatlariga doir tushuntirishlarni;

– soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash bilan bog‘liq boshqa axborotni talab qilib olishga haqli.

So‘rovnomada ko‘rsatilgan hujjatlar va tushuntirishlar soliq to‘lovchi tomonidan soliq organiga so‘rovnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etilishi kerak.

Hujjatlarni taqdim etish muddati soliq to‘lovchining hujjatlar taqdim etish uchun sabablari va zarur bo‘lgan muddatlari ko‘rsatilgan arizasiga ko‘ra soliq organi tomonidan uzaytirilishi mumkin. Bunda ariza soliq to‘lovchi tomonidan soliq organiga so‘rovnoma olingan kundan e’tiboran keyingi kun davomida taqdim etiladi.

Tekshirilayotgan soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli bo‘lgan hujjatlarni (axborotni) uchinchi shaxslardan talab qilib olish zarur bo‘lgan hollarda, soliq organlari ushbu hujjatlarni (axborotni) soliq to‘lovchining kontragentidan yoki hujjatlarga (axborotga) ega bo‘lgan boshqa shaxslardan talab qilib oladi.

Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish uchun soliq to‘lovchi tomonidan hujjatlar tasdiqlangan ko‘chirma nusxa shaklida taqdim etiladi. Zarurat bo‘lgan hollarda soliq organi hujjatlarning asl nusxalari bilan tanishishga haqli.

Agar hujjatlar oldin soliq organiga asl nusxalar tarzida taqdim etilib, keyinchalik tekshirilayotgan soliq to‘lovchiga qaytarilgan bo‘lsa, shuningdek, soliq organiga taqdim etilib, bartaraf etib bo‘lmaydigan

kuch holatlari oqibatida yo‘qotilgan taqdirda, hujjatlar tekshirilayotgan soliq to‘lovchidan qayta talab qilib olinishi mumkin.

Kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha tekshiruvni o‘tkazuvchi mansabdor shaxs xulosa tuzadi.

Xulosada kameral soliq tekshiruvini boshlash tashabbusi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan ma’lumotlar ko‘rsatilib, soliqqa oid huquqbuzarliklarning aniqlanganligi yoki aniqlanmaganligi, qisman tasdig‘ini topganligi yoki topmaganligi, soliq hisobotlaridagi tafovutlar yoki xatolar bayon etiladi.

Shuningdek, xulosada, agar bunday harakatlar kameral soliq tekshiruvi doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa, soliq to‘lovchidan yoki uchinchi shaxslardan talab qilib olingan yoxud soliq to‘lovchining hududlarini va binolarini ko‘zdan kechirishda hamda o‘tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlarida olingan axborotni (hujjatlarni) o‘rganish va tahlil qilish natijalari ham ko‘rsatiladi.

Kameral soliq tekshiruvi yuzasidan tuzilgan xulosa soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan ikki kun ichida ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Kameral soliq tekshiruvi materiallari, shu jumladan, soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi dalolatnoma, tekshirish yakunlariga ko‘ra tafovutlar aniqlanganligi yoki soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi mavjud emasligi to‘g‘risida tuzilgan xulosa O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq to‘lovchi hisobda turgan joydagi soliq organida tekshiruv tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak.

9.3. Kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha talabnomani yuborish

Kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha tasdiqlangan xulosaga ko‘ra soliq hisobotidagi tafovutlar yoki xatolar aniqlangan holatlar yuzasidan soliq organi tomonidan ikki kun muddatda soliq to‘lovchiga ularni bartaraf etish to‘g‘risida talabnoma yuboriladi.

Talabnoma yuborilgan sana kameral soliq tekshiruvi tugatilgan sana hisoblanadi. Taqdim etilgan soliq hisobotlarini o‘rganish va tahlil qilish natijalari bo‘yicha tafovutlar yoki xatolar aniqlanmagan bo‘lsa ham kameral soliq tekshiruvi yakunlangan deb hisoblanadi va bu haqida soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga tegishli xabarnoma yuboriladi.

Soliq to‘lovchi talabnoma olingan kundan boshlab o‘n kun muddatda tegishli soliqlar bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asoslarini tasdiqlovchi hujjatlar bilan soliq organiga taqdim etishi shart.

Soliq to‘lovchi talabnomada ko‘rsatilgan tafovutlarning asosnomasi sifatida soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqli. Ushbu asosnomani soliq to‘lovchining nomidan soliq maslahatchilari tashkiloti mustaqil ravishda soliq to‘lovchi bilan tuzilgan shartnomaga asosan taqdim etishi mumkin.

Soliq to‘lovchining taqdim etgan asosnomasi tegishli hujjatlar (asosnomalar) olingan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida soliq organining rahbari (rahbari o‘rinbosari) tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Aniqlangan tafovutlar bo‘yicha taqdim etilgan asosnomalarga to‘liq yoki qisman rozilik berilgan taqdirda, soliq organi oldin yuborilgan talabnoma bekor qilinganligi to‘g‘risidagi bildirish xatini yoxud soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan talabnomani uch kun ichida soliq to‘lovchiga yuboradi.

Agar soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmasa yoki aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asosnomalarni taqdim etmasa yoxud taqdim etgan asosnomalar yetarli emas deb topilsa, soliq organi soliq to‘lovchiga soliq auditini tayinlashga haqli.

9.4. Kameral soliq tekshiruvida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish

Agar kameral soliq tekshiruvi paytida soliq to‘lovchi tomonidan javobgarlik belgilangan soliqqa oid huquqbuzarlikning sodir etilganligi holati aniqlansa, kameral soliq tekshiruvini o‘tkazgan mansabdor shaxs

soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi holatlarini qayd etuvchi dalolatnomani tuzadi.

Dalolatnoma soliqqa oid huquqbuzarlik holati aniqlangan kundan e’tiboran o‘n kun ichida, biroq kameral soliq tekshiruvi muddati tugashi kunidan kechiktirmay tuziladi. Mazkur dalolatnoma xulosa tuzilishidan oldin tuzilishi kerak.

Dalolatnoma kameral soliq tekshiruvini o‘tkazgan mansabdor shaxs va soliq to‘lovchi tomonidan imzolanadi.

Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) dalolatnomani va kameral soliq tekshiruvining boshqa materiallarini ushbu dalolatnoma tuzilgan kundan e’tiboran o‘n kun o‘tgach, biroq o‘n besh kundan kechiktirmasdan ko‘rib chiqadi.

Soliq organi mansabdor shaxsi tomonidan soliq tekshiruvida olingan fotosuratlar, videoyozuvlar va tekshirishda olingan boshqa materiallar xulosaga yoki soliqqa oid huquqbuzarlik dalolatnomasiga ilova qilinadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi va ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilinadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik to‘g‘risidagi dalolatnoma va kameral soliq tekshiruvining boshqa materiallari ko‘rib chiqilganidan keyin natijalari bo‘yicha besh kun ichida soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) quyidagilarni:

– qo‘shimcha soliqlar va penya hisoblash yoki ularni rad etishni;

– soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun soliq to‘lovchini javobgarlikka tortish yoki buni rad etishni nazarda tutuvchi qaror qabul qiladi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun soliq to‘lovchini javobgarlikka tortish va qo‘shimcha soliqlarni hisoblash to‘g‘risidagi qaror, u qabul qilingan kundan keyin ikki kun ichida yuboriladi.

Soliq to‘lovchini soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror olingan kundan e’tiboran o‘n kun muddatda moliyaviy sanksiyalar summasi ixtiyoriy ravishda to‘langanda jarima miqdori belgilangan miqdorga nisbatan ikki baravarga kamaytiriladi.

Soliq organining qarorini bajarilishi soliq organi va soliq to‘lovchi tomonidan soliq organining qarori olingan sanadan boshlab bir oy muddat o‘tgach amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorni ixtiyoriy bajarmagan taqdirda, soliq qarzini undirish soliq organi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Soliq organlari tomonidan o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvi natijasida undirilgan soliq, penya va moliyaviy jarimalar summalarining 60 foizi davlat byudjetiga, 40 foizi Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.

Soliq organining kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qabul qilgan qarori ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

Davlat soliq qo‘mitasining qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq nazoratini vazifasi nimalardan iborat?
2. Soliq nazoratini turlariga ta’rif bering.
3. Kameral soliq tekshiruvining o‘ziga xos jihatlarini ochib bering.
4. Kameral soliq tekshiruvi mohiyatini ochib bering.
5. Kameral tekshiruvi soliq nazoratining shakllaridan biridir.
6. Kameral nazoratni o‘ziga xos jihatlarini soliq nazoratining boshqa shakllaridan ajralib turadigan jihatlarini tahlil qiling.
7. Kameral soliq tekshiruvi o‘tkazish mexanizmi mohiyatini ochib bering.

10-mavzu. SOLIQ TEKSHIRUVLARI VA TURLARI HAMDA ULARNI TASHKIL QILISH

10.1. Soliq tekshiruvlari turlari

10.2. Soliq tekshiruvlarini tashkil qilish

10.1. Soliq tekshiruvlari turlari

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o‘tkazadi:

– kameral soliq tekshiruvi;

– sayyor soliq tekshiruvi;

– soliq auditi.

Kameral soliq tekshiruvi – soliq to‘lovchilar (soliq agentlari) tomonidan soliqlar va yig‘imlar (keyingi o‘rinlarda – soliqlar) to‘g‘ri hisoblanishini, o‘z vaqtida va to‘liq byudjet tizimiga to‘lanishini tekshirish maqsadida soliq to‘lovchi, soliq agentlari (keyingi o‘rinlarda – soliq to‘lovchi deb, yuritiladi) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq organida mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qoplash bilan bog‘liq bo‘lgan kameral soliq tekshiruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizom asosida belgilanadi.

Sayyor soliq tekshiruvi – soliq organlari tomonidan soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash sohasida soliq to‘lovchilarning ayrim majburiyatlarini, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshiruv bo‘lib, unda hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag‘lari harakatining, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa axborotning tahlili o‘tkaziladi.

Soliq auditi – soliq to‘lovchining (soliq agentining) muayyan davrdagi moliya va soliq hisobotlarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga barcha jihatlardan muvofiqligi va haqqoniyligini, soliq solish maqsadlarida buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida hisobga olishda soliq majburiyatlarining to‘g‘ri shakllantirilishi va aks ettirilishini soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan o‘rganish orqali soliqlarni to‘g‘ri hisoblash va to‘lashning to‘g‘riligini tekshirishdir.

Sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni xabardor qilgan holda amalga oshiriladi, davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarni tekshirish bundan mustasno.

Soliq to‘lovchilarda o‘tkazilgan tekshiruv natijalari soliq organlari tomonidan tekshiruv tugatilganidan keyin uch kun ichida tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimiga kiritiladi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi soliq organining mansabdor shaxsi, soliq to‘lovchi va uning vakillari soliq tekshiruvining ishtirokchilari hisoblanadi.

Soliq tekshiruvlariga zarur hollarda guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolislar jalb etilishi, shuningdek, ekspertiza tayinlanishi mumkin.

Ekspert, mutaxassis va tarjimonni jalb qilish uchun soliq organi tomonidan tegishli davlat organlari va tashkilotlariga murojaat qilinadi.

Mustaqil ekspert, mutaxassis va tarjimonlar shartnoma asosida soliq organining mablag‘lari hisobidan jalb qilinishi mumkin, mablag‘ ajratish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega biror-bir holatlar o‘ziga ma’lum bo‘lgan har qanday voyaga yetgan jismoniy shaxs ko‘rsatmalar berish uchun guvoh sifatida chaqirilishi mumkin.

Soliq tekshiruvi davomida ko‘rsatmalar olishdan avval soliq organining mansabdor shaxsi guvohni ko‘rsatmalar berishni rad etganlik yoki bundan bosh tortganlik yoxud bila turib yolg‘on ko‘rsatmalar berganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantiradi.

Guvohning ko‘rsatmalari bayonnomada qayd etiladi.

Ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan soliq tekshiruvini o‘tkazadigan soliq organi mansabdor shaxsining iltimosnomasi asosida qabul qilinadi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi soliq organining mansabdor shaxsi soliq to‘lovchini ekspertiza tayinlanganligi to‘g‘risidagi qaror bilan tanishtiradi va huquqlarini tushuntirib, bu haqida bayonnoma tuzadi.

Soliq organlari mansabdor shaxslari sayyor soliq tekshiruvida xolis sifatida ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq to‘lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

– soliq organlari mansabdor shaxslarining tekshiruv masalalariga aloqasi bo‘lmagan talablarini bajarmaslik;

– soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda shaxsan yoki o‘z vakili orqali ishtirok etish;

– soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi soliq organlariga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosiga taalluqli masalalar bo‘yicha tushuntirishlar berish;

– soliq to‘lovchi talab qilib olinayotgan hujjatlarni soliq organiga taqdim etmaslikka haqli, agar ushbu hujjatlar yoki ularning nusxalari oldin soliq organlariga oldingi o‘tkazilgan kameral yoki sayyor soliq tekshiruvlarida yoxud soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida taqdim etilgan bo‘lsa;

– ekspertni rad etish va ekspertni o‘zi ko‘rsatgan shaxslar orasidan tayinlash to‘g‘risida iltimos qilish;

– soliq organi mansabdor shaxsining ruxsati bilan ekspertiza o‘tkazishda ishtirok etish va ekspertga tushuntirishlar berish, ekspertning xulosasi bilan tanishish;

– soliq tekshiruvi materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomasini olish;

– soliq organlari mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan shikoyat qilish;

– kameral soliq tekshiruvi natijasi bo‘yicha talabnomada ko‘rsatilgan tafovutlarning asosnomasi sifatida soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasini taqdim etish.

Sayyor soliq tekshiruvlari yoki soliq auditini o‘tkazishda soliq to‘lovchilar quyidagi hollarda soliq organi mansabdor shaxslarini soliq tekshiruvini o‘tkazish uchun hududga va joylarga qo‘ymaslikka haqli, agar:

– sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruq belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan va buyruq nusxasi soliq to‘lovchiga berilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi uni olishdan bosh tortgan hollar bundan mustasno;

– tekshiruvchi mansabdor shaxs tekshiruvni tayinlash to‘g‘risidagi buyruqda ko‘rsatilmagan, o‘z xizmat guvohnomasini ko‘rsatmagan bo‘lsa;

– soliq tekshiruvini o‘tkazishning buyruqda ko‘rsatilgan muddatlari boshlanmagan yoki o‘tib ketgan bo‘lsa.

Soliq to‘lovchilar qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ham ega.

Soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq to‘lovchilarning majburiyatlari:

– soliq organlarining tekshirish bilan bog‘liq qonuniy talablarini bajarish, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilmaslik;

– tekshiruvni o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga tekshiruv bilan bog‘liq, shu jumladan, elektron axborot jismlarida saqlanadigan, hujjatlar va axborotni o‘rganish hamda tahlil qilish imkoniyatini ta’minlash;

– tekshiruvni o‘tkazuvchi mansabdor shaxsning talabiga ko‘ra soliq to‘lovchi elektron shaklda tuzilgan hujjatlarning qog‘ozdagi ko‘chirma nusxalarini taqdim etishi shart, elektron hisobvaraq-fakturalarning axborot tizimida ro‘yxatga olingan elektron hisobvaraq-fakturalar bundan mustasno;

– kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha talabnoma olingan kundan boshlab o‘n kun muddatda tegishli soliqlar bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asoslarini tasdiqlovchi hujjatlar bilan taqdim etish;

– soliq auditi boshlangunga qadar soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarnomada ko‘rsatilgan hujjatlar va ma’lumotlarni tayyorlab qo‘yish.

Soliq to‘lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

10.2. Soliq tekshiruvlarini tashkil qilish

Soliq tekshiruvlarining ikkinchi turi – bu sayyor soliq tekshiruvlaridir. Sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

– soliq xavfini boshqarish tizimi orqali aniqlangan, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish xavfi mavjudligi;

– jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq yoxud valyuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi holatlari to‘g‘risidagi murojaatlari, shu jumladan, tovarlar va xizmatlarning narxini asossiz oshirib yuborish holatlari to‘g‘risida, yo‘lovchilarni yengil avtotransport vositalari bilan tashish bo‘yicha noqonuniy tadbirkorlik faoliyati;

– ommaviy axborot vositalarida soliqqa va valyutaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilinganda;

– o‘tkazilayotgan kameral soliq tekshiruvini xolisona amalga oshirish maqsadida qo‘shimcha ma’lumotlar olish zarurati yuzaga kelganda;

– valyuta operatsiyalarini amalga oshirilishining asoslanganligi yuzasidan monitoring olib borish jarayonida soliq organi yuborgan so‘rovnomaga soliq to‘lovchi tomonidan hujjatlar yoki axborot taqdim etilmagan yoxud to‘liq taqdim etilmaganda;

– sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, boshqa davlat organlari va tashkilotlaridan soliq va valyutaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida dalolat beruvchi axborot tushganda.

Sayyor soliq tekshiruvi o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda o‘tkaziladi.Sayyor soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining (o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida o‘tkaziladi.

Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqda soliq to‘lovchining nomi, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda lavozimi, tekshiruvlarni o‘tkazish muddati va maqsadlari, Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimidagi ro‘yxatga olish raqami ko‘rsatiladi.

Davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan, noqonuniy faoliyat yuritayotgan jismoniy shaxslar faoliyati bo‘yicha sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqda soliq to‘lovchining nomi va Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimidagi ro‘yxatga olish raqami ko‘rsatilmaydi.

Agar sayyor soliq tekshiruvida soliq organining ikki yoki undan ortiq tekshiruvchi mansabdor shaxslari qatnashganda, buyruqda familiyasi birinchi ko‘rsatilgan tekshiruvchi tekshirish jarayonini boshqarish va natijalarini umumlashtirishga javobgar shaxs hisoblanadi.

Sayyor soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqda ko‘rsatilgan sana ushbu tekshiruvni o‘tkazish muddatining boshlanishi deb hisoblanadi.

Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazishda soliq to‘lovchilardan sayyor soliq tekshiruvi predmetiga aloqador bo‘lmagan hujjatlarni (axborotni) talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishi, shu jumladan, ular tomonidan nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo‘llanilishi bo‘yicha sayyor soliq tekshiruvlarini tashkil etish Davlat soliq qo‘mitasining “Soliq hamkor” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

Fuqarolardan tushgan murojaatlar va o‘tkazilgan soliq tekshiruvlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Davlat soliq qo‘mitasining axborotlarni qayta ishlash markazi tizimida joylashtiriladi.

“Soliq hamkor” avtomatlashtirilgan axborot tizimini qayta ishlash, har yilgi saqlash va modernizatsiyalash Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo‘llanilishi masalalari bo‘yicha sayyor soliq tekshiruvlari soliq organlari tomonidan xavfni boshqarish tizimi ma’lumotlaridan foydalangan holda choraklik reja-jadval asosida amalga oshirilishi mumkin.

Avtotransport vositalarida tashilayotgan tovarlarga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan tovar-kuzatuv hujjatlari mavjudligining sayyor soliq tekshiruvlari soliq organlari mansabdor shaxslari tomonidan blok-postlarda huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa nazorat organlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Mazkur tekshirishlar soliq organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlari hamda boshqa nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Sayyor soliq tekshiruvi jarayonida soliq organi mansabdor shaxslari soliq to‘lovchining binolarini va hududini ko‘zdan kechirishga hamda hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yishga haqli. Mazkur tadbirlar zarurat yuzaga kelganda xolislarni jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvlarining uchinchi turi – soliq auditidir. Soliq auditi quyidagi soliq to‘lovchilarda o‘tkaziladi:

soliq tavakkalchiligining yuqori toifasiga mansub bo‘lgan;

kameral soliq tekshiruvi natijasi bo‘yicha soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmasa (shu jumladan, aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), yoxud aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asosnomalarni taqdim etmasa, yoki u taqdim etgan asosnomalar yetarli emas, deb topilgan hollarda;

ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslarda (soliq maslahatchilari tashkilotlarining soliqlar bo‘yicha xulosalari mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilar bundan mustasno);

soliq to‘lovchilarning jinoiy ishlar bo‘yicha moliya-xo‘jalik faoliyati taftish qilinishi doirasida;

faoliyatini to‘xtatgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, qat’iy belgilangan miqdorda yoki deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan daromad solig‘ini to‘laydiganlardan tashqari.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan faqat soliq va valyuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishga doir tekshiruvlarni o‘tkazish uchun haftasiga 16 ish soatidan ko‘p bo‘lmagan muddatga jalb qilinishi mumkin.

Soliq organlari soliq auditi o‘tkazilishi boshlanishidan kamida o‘ttiz kalendar kun oldin soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.

Agar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lsa, soliq organi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishgan holda soliq to‘lovchini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqlidir.

Soliq auditini o‘tkazish uchun soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘i soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida soliq auditini o‘tkazish dasturi tayyorlangandan keyin chiqariladi.

Soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruq bilan uni o‘tkazish dasturi ham tasdiqlanadi.

Jinoyat ishi yuzasidan buyruq tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi soliq organiga tushgan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida chiqariladi.

Ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar va faoliyatini to‘xtatgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan soliq organi xabardor qilingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida soliq auditini amalga oshirishga kirishiladi.

Doimiy muassasa orqali faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlarida soliq auditi ularning O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyati tugagan kundan boshlab uch ish kuni ichida boshlanishi lozim.

Soliq auditi soliq organi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq auditida ishtirok etish uchun Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda boshqa soliq organlarining mansabdor shaxslari jalb etilishi mumkin.

Soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- soliq auditi o‘tkazish uchun asoslar;
- soliq to‘lovchining nomi va identifikatsiya raqami;
- soliq auditini o‘tkazuvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi;
- soliq auditining maqsadi (tekshiriladigan bitta yoki bir nechta soliq turlari);
- soliq auditini o‘tkazish muddati;
- soliq auditi o‘tkazish davri.

Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimidagi ro‘yxatga olish raqami.

Soliq auditi o‘tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning soliq hisobotiga soliq to‘lovchi tomonidan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida dalolatnoma tuzilgan (imzolangan) kunda tugaydi.

Soliq auditida ikki va undan ortiq tekshiruvchilar qatnashganda tekshirish jarayonini boshqarish va natijalarini umumlashtirish maqsadida buyruqda birinchi ko‘rsatilgan tekshiruvchi guruh rahbari hisoblanadi.

Soliq auditini o‘tkazish jarayonida soliq auditida qatnashish uchun qo‘shimcha ravishda tekshiruvchi xodimlar jalb etilishi, tekshiruvchilar almashtirilishi, shuningdek, tekshiruvchini buyruqdan chiqarish zarurati tug‘ilganda oldingi buyruqning ro‘yxatga olish raqami va sanasi ko‘rsatilgan holda soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan qo‘shimcha buyruq chiqariladi.

Soliq organi soliq auditi boshlanishidan oldin soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida yuboradi, bundan soliqdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lgan, ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar va faoliyatini o‘z tashabbusi bilan to‘xtatgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda jinoyat ishi doirasida taftish o‘tkaziladigan soliq to‘lovchilar mustasno.

Xabarnomada soliq auditining boshlanish sanasi, tekshirilishi lozim bo‘lgan masalalarning ro‘yxati, zarur hujjatlarning dastlabki ro‘yxati, shuningdek, soliq auditini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Soliq to‘lovchi soliq auditi boshlangunga qadar xabarnomada ko‘rsatilgan hujjatlar va ma’lumotlarni tayyorlab qo‘yishga majburdir.

Soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabarnoma soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti yoki buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi.

Soliq auditi faqat Soliq kodeksining 88-moddasida belgilangan da’vo qilish muddati o‘tmagan oxirgi soliq auditidan keyingi davrni qamrab olishi mumkin.

Soliq organlari soliq to‘lovchining aynan bitta davr uchun aynan bir xil soliqlar bo‘yicha bir martadan ortiq soliq auditini o‘tkazishga haqli emas, bundan soliq auditini o‘tkazish chog‘ida soliq organiga ma’lum bo‘lmagan yangi holatlar aniqlangan hollar mustasno. Yangi

holatlar aniqlangan taqdirda soliq organi takroriy soliq auditini tayinlashga haqli.

Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘ttiz ish kunini tashkil qiladi.

Quyidagi hollarda soliq auditini o‘tkazish muddati ikki oydan olti oygacha uzaytirilishi mumkin:

soliq auditi jarayonida tekshirilishi lozim bo‘lgan hujjatlar hajmining ko‘pligi sababli soliq auditini o‘tkazish uchun buyruqda ko‘rsatilgan muddatning yetarli emasligi;

yaroqsiz holga kelgan hujjatlarning hamda soliqlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq elektron axborotni saqlovchi jismlar qayta tiklanishi;

mutaxassis fikri olinishi;

ekspert jalb qilinishi;

tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq auditi o‘tkazilishini quyidagi hollarda ham uzaytirishga haqli:

talab qilingan hujjatlar (axborot) besh ish kuni ichida taqdim qilinmasligi (uzaytirish hujjatlar talab qilinayotgan har bir shaxs bo‘yicha ko‘pi bilan bir marta yo‘l qo‘yiladi);

chet el davlat organlaridan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida axborot olinishi;

ekspertizalar o‘tkazish;

chet tilida taqdim etilgan hujjatlarni tarjima qilish.

Soliq auditini o‘tkazishning umumiy muddati olti oydan oshishi mumkin emas.

Soliq auditining muddatini uzaytirish soliq auditini o‘tkazuvchi shaxsning iltimosnomasiga asosan amalga oshiriladi. Bunda iltimosnoma soliq auditining muddati tugashidan besh ish kun oldin berilishi kerak.

Soliq auditining muddati uzaytirilganda oldingi buyruqning ro‘yxatga olish raqami va sanasi ko‘rsatilgan holda soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan qo‘shimcha buyruq chiqariladi.

Soliq auditini o‘tkazish muddati soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq topshirilgan kunda boshlanadi.

Soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq nusxasi soliq to‘lovchiga yoki uning vakiliga buyruqning ikkinchi nusxasiga uni olganligi to‘g‘risida imzo qo‘ydirgan holda topshiriladi.

Tekshiruv boshlanishidan oldin tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs tomonidan soliq to‘lovchining vakolatli vakiliga uning tekshiruvda ishtirok etish uchun yuridik xizmat vakillarini va (yoki) advokatni jalb etish yoki ularning ishtirokini rad etish huquqi yozma shaklda tushuntirilib, bu haqida bayonnoma tuziladi. Bunda advokat xizmatlarini rad etganlik soliq to‘lovchi tomonidan advokatni tekshiruvning keyingi bosqichlarida jalb etish uchun monelik qilmaydi.

Agar soliq to‘lovchi ma’lum qilgan manzilida joylashmaganligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra buyruqni taqdim qilishning imkoni bo‘lmaganda, buyruq elektron hujjat shaklida soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo‘lmasa, buyruq nusxasi buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi.

Soliq auditi natijalari soliq organlari tomonidan tekshiruv tamomlangandan keyin uch ish kun ichida Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimiga kiritiladi.

Soliq auditini soliq to‘lovchining hududida o‘tkazishning imkoni bo‘lmaganida, soliq auditi soliq organi joylashgan joyda o‘tkaziladi. Bunda soliq auditini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar soliq to‘lovchi tomonidan soliq organiga taqdim etiladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq nazorati qanday shaklda amalga oshiriladi?
2. Soliq tekshiruvlarining turlarini ko‘rsating?
3. Soliq tekshiruvlari nima maqsadda o‘tkaziladi?
4. Soliq tekshiruvlarini qanday tashkil qilinadi?
5. Sayyor soliq tekshiruvi qanday tekshiruv hisoblanadi?

11-mavzu. SOLIQ TEKSHIRUVLARINI O‘TKAZISH TARTIBI

11.1. Soliq auditini tayinlashi
11.2. Soliq auditini o‘tkazish tartibi
11.3. Hudud va binolarni ko‘zdan kechirish, hujjatlarni talab qilib olish

11.1. Soliq auditini tayinlanishi

Soliq auditi soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchining muayyan davr uchun soliqlar va yig‘imlarning hisoblanishi hamda to‘lanishining to‘g‘riligini tekshirish maqsadida, uning buxgalteriya,

moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarini o‘rganish va taqqoslash yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Jinoyat ishi doirasida soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish etish O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi va Soliq kodeksi talablari asosida o‘tkaziladi.

Soliq auditi quyidagi soliq to‘lovchilarda o‘tkaziladi:

– soliq xavfini boshqarish tizimi orqali aniqlangan, yuqori darajadagi tavakkalchilik (soliq xavfi) toifasiga mansub bo‘lgan soliq to‘lovchilarda;

– kameral soliq tekshiruvi natijasi bo‘yicha soliq organining talabnomasiga javoban aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmagan (shu jumladan, aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asos keltirmagan yoki taqdim qilingan asosnomalar yetarli emas, deb topilgan yuqori darajadagi tavakkalchilik (soliq xavfi) toifasiga mansub bo‘lgan soliq to‘lovchilarda;

– ixtiyoriy tugatilayotgan soliq to‘lovchilarda;

– jinoiy ish qo‘zg‘atilgan soliq to‘lovchilarda;

– avval o‘tkazilgan soliq auditi chog‘ida soliq organiga ma’lum bo‘lmagan yangi holatlar aniqlangan soliq to‘lovchilarda.

Soliq auditi doirasida soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchiga hujjatlar elektron hujjat tarzida soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi. Yuborilgan hujjatlar soliq to‘lovchi tomonidan o‘qib chiqilganidan keyin, lekin ushbu hujjat jo‘natilgan sanadan e’tiboran uch kundan kechiktirmay olingan, deb hisoblanadi.

Agar soliq to‘lovchida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo‘lmasa, hujjatlar buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi va ular jo‘natilganidan so‘ng besh kundan keyin olingan, deb hisoblanadi.

Hujjatlar soliq to‘lovchiga yoki uning vakiliga shaxsan mazkur hujjatlar olingan sana ko‘rsatilgan holda imzo qo‘ydirib topshirilishi mumkin.

Soliq auditi soliq to‘lovchilarni oldindan xabarnoma yuborish orqali amalga oshiriladi, Jinoyat ishi doirasida soliq to‘lovchining

moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish etish holatlarida oldindan xabarnoma yuborilmaydi.

Agar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning quyidagi:

– tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasini hisobga olish registrlarida aks ettirmaslik;

– yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmasdan yoxud soxta hujjatlar bo‘yicha tashish;

– hisobda realizatsiya qilinmagan, deb ko‘rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi;

– rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish;

– tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni almashtirish, soxtalashtirish yoki yo‘q qilish;

– qalbaki birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;

– nazorat-kassa texnikasining fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy ravishda o‘zgartirish kiritish;

– foydalanilmagan moddiy xarajatlarni foydalanilgan deb, ishlab chiqarish hisobotiga qo‘shish;

– tovarlarni sotishdan (xizmat ko‘rsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o‘tkazish (sotish hajmini va daromadni (foydani) qasddan kamaytirish);

– moddiy, yoqilg‘i-energetika resurslari xarajatlarini (limitlarni) va amortizatsiya (eskirish) normasini sun’iy ravishda oshirish yoki normativlarni noto‘g‘ri qo‘llash;

– ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan xodimlarning haqiqiy ish haqi summasi soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

– mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

– realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo‘yicha aks ettirish kabi belgilari mavjud bo‘lsa, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishgan holda soliq to‘lovchini oldindan xabardor qilmasdan soliq auditini boshlaydi.

Soliq auditini o‘tkazish uchun soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘i soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida soliq auditi dasturi tayyorlangandan keyin chiqariladi.

Soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruq bilan uni o‘tkazish dasturi ham tasdiqlanadi.

Jinoyat ishi yuzasidan o‘tkaziladigan soliq auditi uchun buyruq taftish o‘tkazish to‘g‘risida qabul qilingan qaror yoki ajrim soliq organiga kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida chiqariladi.

Soliq auditini:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan o‘z hududida soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan soliq to‘lovchilarda;

yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tomonidan yirik soliq to‘lovchilarda;

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan yuqori darajadagi tavakkalchilik (soliq xavfi) toifasiga mansub bo‘lgan soliq to‘lovchilarda o‘tkazadi.

Soliq auditida ishtirok etish uchun boshqa soliq organlarining mansabdor shaxslari jalb etilishi mumkin.

Soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

- soliq auditi o‘tkazish uchun asoslar;
- soliq to‘lovchining nomi va identifikatsiya raqami;
- soliq auditini o‘tkazuvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi;
- soliq auditini o‘tkazish muddati;
- soliq auditining maqsadi (tekshiriladigan soliq davrida barcha soliqlar va yig‘imlar yoki ayrim soliq turi).

Soliq auditi o‘tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning soliq hisobotiga soliq to‘lovchi tomonidan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bunda soliq to‘lovchi tomonidan tekshirilayotgan davrning aynan tekshirilayotgan soliq hisobotlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi yuzasidan jo‘natilgan qayta hisobotlari qabul qilinmaydi (qaytariladi) va soliq auditi jarayonida soliqlar hisoblanishida hisobga olinmaydi.

Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida dalolatnoma tuzilgan (imzolangan) kunda tugaydi.

Soliq auditida ikki va undan ortiq soliq auditini o‘tkazuvchi shaxslar qatnashganda, tekshirish jarayonini boshqarish va natijalarini umumlashtirish maqsadida buyruqda birinchi ko‘rsatilgan tekshiruvchi guruh rahbari hisoblanadi.

Soliq organi soliq auditi boshlanishidan kamida o‘ttiz kalendar kun oldin soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lgan, ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan hamda jinoyat ishi doirasida taftish o‘tkaziladigan soliq to‘lovchilarga xabarnoma yuborilmaydi.

Xabarnomada soliq auditining boshlanish sanasi, tekshirilishi lozim bo‘lgan masalalarning ro‘yxati, zarur hujjatlarning dastlabki ro‘yxati, shuningdek, soliq auditini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Soliq to‘lovchi soliq auditi boshlangunga qadar xabarnomada ko‘rsatilgan hujjatlar va ma’lumotlarni tayyorlab qo‘yishi lozim.

Soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabarnoma soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti yoki buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi.

Soliq auditi faqat da’vo qilish muddati o‘tmagan oxirgi soliq auditidan keyingi davrni qamrab olishi mumkin.

Soliq organlari soliq to‘lovchining aynan bitta davr uchun aynan bir xil soliqlar bo‘yicha bir martadan ortiq soliq auditini o‘tkazishga haqli emas. Soliq auditini o‘tkazish chog‘ida soliq organiga ma’lum

bo‘lmagan yangi holatlar aniqlangan holda bir martadan ortiq soliq auditini o‘tkazishga haqli. Yangi holatlar aniqlangan taqdirda soliq organi takroriy soliq auditini tayinlaydi.

Soliq auditini o‘tkazish chog‘ida soliq organiga ma’lum bo‘lmagan yangi holatlarga soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash hamda soliq to‘lovchi tomonidan soliq auditi o‘tkazilgan davrlar uchun soliqlar va yig‘imlar summasining kamayishini nazarda tutuvchi aniqlashtirilgan soliq hisobotlarini taqdim qilinishi kiradi.

Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘ttiz ish kunini tashkil qiladi, soliq auditini o‘tkazish muddati ikki oygacha, alohida hollarda esa – uch oygacha uzaytirilishi mumkin.

Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilishi quyidagilar uchun ham uzaytirilishi mumkin:

talab qilingan hujjatlar (axborotlar) besh ish kuni ichida taqdim qilinmaganda (uzaytirish hujjatlar talab qilinayotgan har bir shaxs bo‘yicha ko‘pi bilan bir marta yo‘l qo‘yiladi);

chet el davlat organlaridan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida axborot olishda;

ekspertizalar o‘tkazishda;

chet tilida taqdim etilgan hujjatlarni tarjima qilishda (hujjatlar davlat tiliga tarjima qilingan asl nusxalari shaklida yoki notarial tarzda tasdiqlangan shaklda bo‘lishi mumkin);

soliq auditi jarayonida o‘rganilishi lozim bo‘lgan hujjatlar hajmining ko‘pligi sababli soliq auditini o‘tkazish uchun buyruqda ko‘rsatilgan muddatning yetarli emasligida;

yaroqsiz holga kelgan hujjatlarning hamda soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq elektron axborot jismlarni qayta tiklanishida;

mutaxassis fikri olinishida;

ekspert jalb qilinganda.

Soliq auditini o‘tkazishning umumiy muddati olti oydan oshishi mumkin emas.

Soliq auditining muddatini uzaytirish soliq auditini o‘tkazuvchi shaxsning asoslantirilgan iltimosnomasiga asosan yuqori turuvchi soliq

organining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bunda asoslantirilgan iltimosnoma soliq auditining muddati tugashidan besh ish kuni hisobida oldin berilishi kerak.

Soliq auditining muddati uzaytirilganda oldingi buyruqning ro‘yxatga olish raqami va sanasi ko‘rsatilgan holda soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan qo‘shimcha buyruq chiqariladi.

Tekshirilayotgan kalendar yilda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarda soliq auditini o‘tkazish muddati o‘ttiz ish kunidan ortiq davom etishi mumkin emas, bundan jinoyat ishi doirasida o‘tkaziladigan soliq auditi (taftish) mustasno.

11.2. Soliq auditini o‘tkazish tartibi

Soliq auditini o‘tkazish muddati soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq topshirilgan kunda boshlanadi.

Soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq nusxasi soliq to‘lovchiga yoki uning vakiliga buyruqning ikkinchi nusxasiga uni olganligi to‘g‘risida imzo qo‘ydirgan holda topshiriladi.

Agarda soliq to‘lovchi yuridik manzilida joylashmaganligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra buyruqni taqdim qilishni imkoni bo‘lmaganda, buyruq uning shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Soliq to‘lovchida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo‘lmasa, buyruq buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi.

Soliq auditi boshlanishidan oldin soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

– shaxsiy xizmat guvohnomasini va tekshiruv o‘tkazish huquqini beruvchi maxsus guvohnomasini ko‘rsatishi;

– soliq to‘lovchini yoki uning vakilini tekshiruv maqsadi bilan tanishtirishi;

– “Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobi”ni to‘ldirishi, kitob yoki uning elektron shaklini to‘ldirish imkoni mavjud bo‘lmagan taqdirda, bu haqda soliq auditi dalolatnomasida qayd etishi;

– soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqning bir nusxasini soliq to‘lovchiga taqdim etishi;

– soliq to‘lovchining huquq va majburiyatlarini, shu jumladan, tekshiruv ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi yoki tadbirkorlik subyektlarining boshqa tegishli birlashmalarini jalb qilishga haqli ekanligini tushuntirishi.

Soliq auditi “Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobi” to‘ldirilganidan so‘ng o‘tkaziladi.

Soliq auditi dalolatnomasiga “Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobi”ning to‘ldirilgan shakli (qog‘oz shakli to‘ldirilganda – elektron shakli to‘ldirilmaganligi sababi) yoki kitob taqdim etilmaganda – uning taqdim etilmaganligi to‘g‘risida soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs tomonidan tegishli yozuv kiritiladi.

Soliq auditini o‘tkazuvchi mansabdor shaxs “Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobi”ni to‘ldirishdan bosh tortgan taqdirda, soliq to‘lovchi soliq auditining o‘tkazilishiga yo‘l qo‘ymaslikka haqli.

Soliq auditi 2022-yil 1-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni soliq auditi tayinlanganligi to‘g‘risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qilish orqali o‘tkaziladi.

2022-yil 1-yanvardan boshlab soliq auditi Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimi orqali Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarni kelishish va o‘tkazish tartibi haqidagi 2018-yil 7-sentyabr 3067-ro‘yxat raqamli vaqtinchalik nizomga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil bilan kelishilgan holda “Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobi” to‘ldirilganidan so‘ng o‘tkaziladi.

11.3. Hudud va binolarni ko‘zdan kechirish, hujjatlarni talab qilib olish

Bevosita soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi soliq organlari mansabdor shaxslarining tekshirilayotgan shaxsning hududiga yoki binosiga kirishi ushbu mansabdor shaxslar tomonidan xizmat guvohnomalari va soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) ushbu shaxsning soliq tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i (qarori) taqdim etilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Soliq organlarining bevosita soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslari ko‘rsatilgan obyektlar to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarning tekshirilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga asoslangan ma’lumotlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida tekshirilayotgan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan hududlarini yoki binosini yoxud soliq solish obyektlarini ko‘zdan kechirishni o‘tkazishi mumkin.

Soliq organlarining soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslariga mazkur hududlarga yoki binolarga (bundan turar-joy binolari mustasno) kirishiga to‘sqinlik qilingan taqdirda soliq organining mansabdor shaxsi o‘zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnomani tuzadi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi tekshirilayotgan shaxs to‘g‘risida o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar yoki xuddi shunday soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini mustaqil tarzda aniqlashga haqli. Tekshirilayotgan shaxs ko‘rsatilgan dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda mazkur dalolatnomaga tegishli qayd kiritiladi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi soliq organlari mansabdor shaxslarining turar-joy binolariga ularda yashovchi jismoniy shaxslarning xohishiga qaramay yoki xohishiga qarshi qonunda yoki sudning qarori asosida belgilangan hollardan boshqacha tarzda kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Hudud va binolarni ko‘zdan kechirish xolislar ishtirokida amalga oshiriladi hamda zarur bo‘lgan hollarda, ko‘zdan kechirish chog‘ida fotosuratga olish va videoyozuvga tushirish amalga oshiriladi, hujjatlardan ko‘chirma nusxalar olinadi yoki ko‘zdan kechirish bilan bog‘liq boshqa harakatlar bajariladi.

Soliq auditini o‘tkazuvchi shaxsga hududlarga yoki binolarga (bundan turar joy binolari mustasno) kirishiga to‘sqinlik qilingan yoki soliq to‘lovchi ro‘yxatga olish ma’lumotlarida ko‘rsatilgan manzilida joylashmagan taqdirda, soliq organlari Soliq kodeksining 111-moddasiga muvofiq soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatga to‘xtatib turishi mumkin.

Hudud va binolarni ko‘zdan kechirish uchun ularga kirishga to‘sqinlik qilingan holat bo‘yicha dalolatnoma tuzilganidan keyin soliq to‘lovchi tomonidan hudud va binolarga kirishga ruxsat berilgan taqdirda, soliq to‘lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror bekor qilinadi hamda ko‘zdan kechirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hudud va binolar ko‘zdan kechirish natijasida bayonnoma tuziladi.

Agarda mazkur soliq solish bilan bog‘liq obyektlar boshqa viloyat hududida joylashgan taqdirda, ushbu obyektlarni ko‘zdan kechirish, soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlovdan o‘tkazish va savdo qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish soliq auditini o‘tkazuvchi shaxsning murojaati asosida obyekt joylashgan joydagi soliq organi rahbarining (o‘rinbosarining) buyrug‘iga binoan amalga oshiriladi.

Soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs soliq to‘lovchidan soliq auditi uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilib olishga haqli. Bunda soliq to‘lovchiga hujjatlarni taqdim etish to‘g‘risidagi talabnoma yuboriladi.

Talabnoma soliq to‘lovchiga shaxsan imzo qo‘ydirgan holda topshiriladi. Agar talabnomani mazkur usulda topshirish imkoni bo‘lmasa, soliq to‘lovchiga hujjatlar elektron hujjat tarzida soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi. Talab qilib olinadigan hujjatlar soliq organiga shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi, pochta

orqali buyurtma xat bilan yuborilishi yoxud telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda topshirilishi mumkin.

Soliq auditi davomida talab qilib olingan hujjatlar talabnoma olingan kundan e’tiboran besh ish kuni ichida taqdim etiladi. Agar tekshirilayotgan shaxs talab qilinayotgan hujjatlarni ushbu muddatda taqdim etish imkoniga ega bo‘lmasa, u soliq auditini o‘tkazuvchi shaxsni bu haqda yozma ravishda xabardor qiladi.

Soliq to‘lovchi talab qilingan hujjatlarni belgilangan muddatlarda taqdim etishning imkoni yo‘qligi to‘g‘risida uning sabablarini ko‘rsatilgan yozma shakldagi xabarnomani talabnoma olingan kundan keyingi kun davomida yuborishi kerak. Ushbu xabarnomada soliq to‘lovchi talab qilingan hujjatlarni taqdim eta olishi mumkin bo‘lgan muddatlar ko‘rsatilishi lozim.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq to‘lovchidan xabarnomani olgan kundan e’tiboran ikki kun ichida ushbu xabarnoma asosida hujjatlarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish yoki muddatlarni uzaytirishni rad etishga haqli bo‘lib, bu haqda alohida qaror chiqaradi.

Soliq to‘lovchining talab qilinayotgan hujjatlarni taqdim etishni rad etganligi soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs tomonidan soliq to‘lovchi va soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnomada qayd etiladi.

Soliq to‘lovchi dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, bu haqda tegishli qayd kiritiladi. Hujjatlarni taqdim etish soliq to‘lovchi tomonidan rad etilganligi yoki belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganligi ushbu hujjatlarni olib qo‘yish uchun asos bo‘ladi.

Soliq auditi jarayonida soliq organlariga tekshirilayotgan shaxsning kameral yoki sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkazilganda ilgari taqdim etilgan hujjatlarni, shuningdek, soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida tasdiqlangan ko‘chirma nusxalar shaklida taqdim etilgan hujjatlarni tekshirilayotgan shaxsdan talab qilib olishga haqli emas.

Agar hujjatlar ilgari soliq organiga asl nusxalar tarzida taqdim etilib, keyinchalik tekshirilayotgan shaxsga qaytarilgan bo‘lsa, shuningdek, soliq organiga taqdim etilib, bartaraf etib bo‘lmaydigan

kuch holatlari oqibatida yo‘qotilgan taqdirda, hujjatlar tekshirilayotgan shaxsdan qayta talab qilib olinishi mumkin.

Soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarga (axborotga) ega bo‘lgan kontragentdan yoki boshqa shaxslardan ushbu hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishga haqli.

Agar tekshirilayotgan soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlar (axborot) boshqa hududda hisobda turgan soliq to‘lovchidan (uchinchi shaxsdan) olish talab etilsa, soliq auditini o‘tkazuvchi soliq organi tegishli hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to‘g‘risida soliq to‘lovchi (uchinchi shaxs) hisobda turgan joyidagi soliq organiga topshiriqnoma yuboradi.

Topshiriqnomada soliq auditi jarayonida talab qilib olinadigan hujjatlar (axborot) ko‘rsatiladi hamda soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruq nusxasi ilova qilinadi.

Topshiriqnoma olingan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida hujjatlar (axborot) qaysi shaxsdan talab qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning hisobda turgan joyidagi soliq organi tomonidan uchinchi shaxsga talabnoma yuboriladi.

Talabnomaga hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to‘g‘risidagi topshiriqnomaning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Talabnomani olgan shaxs talabnoma olingan kundan e’tiboran besh ish kuni ichida uni bajaradi yoki talab qilib olinayotgan hujjatlarga (axborotga) ega emasligini xabar qiladi.

Agar talab etiladigan hujjatlarni (axborotni) mazkur muddatda taqdim etish imkoni bo‘lmasa, soliq organi uchinchi shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra ushbu hujjatlarni (axborotni) taqdim etish muddatini uzaytirishga haqli.

Soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs soliqlarni va yig‘imlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq hujjatlarni va elektron axborot jismlarini (soliqqa oid axborotlarni saqlovchi moslamalar, shu jumladan, kompyuterning qattiq diski, noutbuklar va boshqalar)ni olib qo‘yishga haqli.

Hujjatlar va elektron axborot jismlari quyidagi hollarda olib qo‘yiladi:

– soliq auditini o‘tkazish jarayonida hujjatlarni taqdim etish soliq to‘lovchi tomonidan rad etilganligi yoki belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda;

– hujjatlarning ko‘chirma nusxalari yetarli bo‘lmasa hamda soliq organlarida hujjatlarning asl nusxalari yo‘q qilinishi, yashirilishi, o‘zgartirilishi yoki almashtirib qo‘yilishi mumkinligi to‘g‘risida taxmin qilish uchun yetarlicha asoslar mavjud bo‘lganda.

Olib qo‘yilgan hujjatlar va elektron axborot jismlarini saqlash zarurati tugagunga qadar saqlab turiladi.

Soliq auditi uchun ahamiyati bo‘lmagan hujjatlar va elektron axborot jismlari soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs tomonidan ko‘zdan kechirib bo‘lganidan keyin egalariga darhol qaytarib beriladi. Qaytarilgan hujjatlar va elektron axborot jismlari bo‘yicha soliq to‘lovchidan qabul qilib olganligini to‘g‘risida tilxat olinadi.

Hujjatlarning asl nusxalari olib qo‘yilganda, soliq organlari ularning saqlanishini ta’minlashlari shart. Hujjatlar va elektron axborot jismlarini olib qo‘yish soliq auditini o‘tkazuvchi shaxsning asoslantirilgan qarori asosida amalga oshiriladi.

Hujjatlar va elektron axborot jismlarini tungi paytda (soat 23-00 dan 06-00 ga qadar bo‘lgan vaqt oralig‘ida) olib qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq tekshiruvi predmetiga aloqasi bo‘lmagan hujjatlar va buyumlar olib qo‘yilmaydi.

Hujjatlar va elektron axborot jismlarini olib qo‘yish xolislar hamda hujjatlari va elektron axborot jismlarini olib qo‘yish amalga oshirilayotgan shaxslar ishtirokida o‘tkaziladi. Barcha olib qo‘yiladigan hujjatlar va elektron axborot jismlari xolislarga hamda olib qo‘yishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga ko‘rsatiladi va zarur bo‘lgan taqdirda olib qo‘yilgan joyda o‘raladi.

Hujjatlar va elektron axborot jismlarini olib qo‘yish to‘g‘risida bayonnoma tuziladi va uning ko‘chirma nusxasi soliq to‘lovchiga imzo qo‘ydirilgan holda taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchi bayonnomani olishdan bosh tortsa, bayonnomaga tegishli yozuv kiritiladi va bir nusxasi soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yoki pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq auditi qanday amalga ochiriladi?
2. Hududlar va joylarni ko‘zdan kechirish tartibini tushuntiring?
3. Mol-mulkni inventarizatsiyadan o‘tkazish tartibini tushuntiring?
4. Hujjatlarni talab qilib olish tartibini tushuntiring?
5. Hujjatlarni va predmetlarni talab qilib olish va olib qo‘yish mohiyatini ochib bering.
6. Soliq organlari soliq to‘lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish haqlimi?

12-mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI QARORLARI IJROSINI TA’MINLASHDA DAVLAT SOLIQ ORGANLARI AMALGA OSHIRADIGAN NAZORAT TADBIRLARI

12.1.Sayyor soliq tekshiruvi va uni amalga oshirishda soliq organlari mansabdor shaxslarining huquqlari hamda majburiyatlari

12.2. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning hisobga qo‘yilishi ustidan soliq nazoratini amalga oshirish

12.3. Xronometraj ko‘zdan kechirishni o‘tkazish

12.4. Nazorat kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo‘llanilishini tekshirish

12.5. Soliq to‘lovchi ishchi-xodimlarining haqiqiy soni va soliq hisobotidagi aks ettirilgan ishchi-xodimlar soniga muvofiqligini tekshirish

12.6. Bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarining to‘xtash joylarida soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish

12.7. Savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish

12.8. Yer qa’ridan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan foydali qazilmalar hajmini tekshirish

12.9. Soliq to‘lovchilarning to‘lov topshiriqnomalari va soliq organlarining inkasso topshiriqnomalari banklar tomonidan o‘z vaqtida bajarilishini tekshirish

12.10. Valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rezidentlar va norezidentlar tomonidan rioya etilishini tekshirish

12.1. Sayyor soliq tekshiruvi va uni amalga oshirishda soliq organlari mansabdor shaxslarining huquqlari hamda majburiyatlari

Soliq tekshiruvlari soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi.

Sayyor soliq tekshiruvi – soliq organlari tomonidan soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash sohasida soliq to‘lovchilarning ayrim majburiyatlarini, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshiruv bo‘lib, unda hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag‘lari harakatining, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa axborotning tahlili o‘tkaziladi.

Sayyor soliq tekshiruvi Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni xabardor qilgan holda amalga oshiriladi, davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarni tekshirish bundan mustasno.

Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazishda soliq organlari mansabdor shaxslari quyidagi huquqlarga ega:

- soliq to‘lovchilar tomonidan aholi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini, shu jumladan, nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallarining qo‘llanilishini tekshirish;
- profilaktika tadbirlarini o‘tkazish;
- soliq to‘lovchining tekshiruv bilan bog‘liq, shu jumladan, elektron axborot jismlarida saqlanadigan hisob hujjatlari va axborotni talab qilib olish va o‘rganish;
- soliq to‘lovchining hududlari va binolarini, shuningdek, hujjatlar va buyumlarini, shu jumladan, soliq to‘lovchi daromad olish uchun foydalanadigan yoxud soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog‘liq joylarni ko‘zdan kechirish;
- videotasvirga olish moslamalaridan majburiy foydalangan holda mustaqil ravishda nazorat xaridini amalga oshirish;
- asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari va hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish;

- soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar hisobga qo‘yilishi ustidan soliq nazoratini amalga oshirish;
- xronometraj ko‘zdan kechirishni o‘tkazish;
- sotilayotgan tovarlar narxini va ko‘rsatilayotgan xizmatlar haqini sun’iy ravishda oshirish yoki pasaytirishni tekshirish;
- soliq to‘lovchi ishchi-xodimlari haqiqiy sonining ularning soliq hisobotidagi aks ettirilgan soniga muvofiqligini tekshirish;
- bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish;
- yer qa’ridan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan foydali qazilmalar hajmini tekshirish;
- banklar tomonidan soliq to‘lovchilarning to‘lov topshiriqnomalari va soliq organlarining inkasso topshiriqnomalari o‘z vaqtida bajarilishini tekshirish;
- valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rezidentlar va norezidentlar tomonidan rioya etilishi yuzasidan tekshiruvlarni amalga oshirish;
- aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish;
- avtotransport vositalarida tashilayotgan tovarlarga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan tovar-kuzatuv hujjatlari mavjudligini tekshirish.

Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazishda soliq organlari mansabdor shaxslari quyidagilarga majburdilar:

– soliq to‘lovchiga o‘z xizmat guvohnomasini ko‘rsatish;

– soliq to‘lovchini soliq tekshiruvi maqsadi, uning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirish;

– soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqning bir nusxasini soliq to‘lovchiga taqdim etishi;

– o‘tkazilgan soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha soliq tekshiruvi dalolatnomasini tuzish va bir nusxasini soliq to‘lovchiga taqdim etish;

– o‘tkazilgan soliq tekshiruvlarining natijalari tekshiruv tamomlangandan keyin uch kun ichida Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimiga kiritilishini ta’minlash.

12.2. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning hisobga qo‘yilishi ustidan soliq nazoratini amalga oshirish

Sayyor soliq tekshiruvida soliq organi tomonidan bir nechta nazorat tadbirlari o‘tkaziladi.

Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi axborotni aniqlashtirish sayyor soliq tekshiruvlari chog‘ida, keyinchalik soliq solinadigan bazaga tuzatishlar kiritish maqsadida hududlar va binolarni ko‘zdan kechirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi axborotni aniqlashtirishda quyidagilar tekshiriladi:

– davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi hujjatlar, faoliyat turi va joyining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;

– soliq to‘lovchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek, ushbu mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida mol-mulkka va yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligi.

Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi axborotni aniqlashtirish natijasida olingan ma’lumotlar sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida qayd etiladi.

12.3. Xronometraj ko‘zdan kechirishni o‘tkazish

Xronometraj ko‘zdan kechirish soliq to‘lovchilarning faoliyat turlari bo‘yicha haqiqiy ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) hajmlarini, shuningdek, haqiqiy xarajatlarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Xronometraj koʻzdan kechirish soliq toʻlovchining faoliyatini toʻxtatmasdan, uning ish kunini toʻliq qamrab olgan holda, unga tegishli boʻlgan barcha obyektlarda, ularning joylashgan joyidan qat'i nazar bir vaqtning oʻzida oʻtkaziladi.

Xronometraj koʻzdan kechirish soliq toʻlovchilarning tekshirishgacha tasdiqlangan ish rejimidan kelib chiqib, biroq ketma-ket yetti kalendar kundan kam boʻlmagan muddatda oʻtkaziladi.

Agar soliq toʻlovchining turli hududlarda joylashgan (tuman, shahar) bir nechta obyektlari mavjud boʻlsa, soliq organi ularda xronometraj koʻzdan kechirish oʻtkazish yuzasidan obyekt joylashgan hududiy soliq organiga xronometraj koʻzdan kechirish boshlanishidan kamida bir kun oldin rejalashtirilgan xronometraj koʻzdan kechirishning aniq sanasini koʻrsatgan holda yozma xabarnoma yuboradi.

Xronometraj koʻzdan kechirish natijasi boʻyicha rasmiylashtirilgan ma'lumotlar xronometraj koʻzdan kechirish yakunlanganidan soʻng hududiy soliq organlari tomonidan soliq toʻlovchi hisobga olingan joydagi soliq organiga bir kun ichida yuborilishi shart.

Xronometraj koʻzdan kechirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (bajarilayotgan ishlar, koʻrsatilayotgan xizmatlar) turi va miqdorini aniqlash;

– tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalanilayotgan xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar hajmini, uskunalarning ishlab chiqarish quvvatlarini qayd etish;

– tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvatlari uchun sarflanayotgan resurslar (gaz, elektr energiyasi, suv, yoqilgʻi-moylash materiallari va boshqalar) hajmining ishlab chiqarish hajmiga muvofiqligini aniqlash;

– ishlab chiqarilgan mahsulotlarni (bajarilayotgan ishlarni, koʻrsatilayotgan xizmatlarni) realizatsiya qilish usullarini aniqlash;

– soliq toʻlovchining haqiqiy xarajatlarini aniqlash.

Xronometraj koʻzdan kechirish natijasi bayonnomasi ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Bayonnomaning bir nusxasi tekshirilayotgan shaxsga

bayonnoma nusxasini olganligini tasdiqlovchi imzo qo‘ydirgan holda beriladi.

Soliq to‘lovchi bayonnomaga imzo chekishdan va (yoki) uning bir nusxasini olishdan bosh tortgan hollarda sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan bu haqida bayonnomaga tegishli yozuv kiritiladi.

Xronometraj ko‘zdan kechirish natijasi kameral soliq tekshiruvi jarayonida soliq to‘lovchilarga soliqlar va yig‘imlarni qo‘shimcha hisoblash uchun asos bo‘lishi mumkin.

12.4. Nazorat kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo‘llanilishini tekshirish

Nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo‘llanilishini tekshirish bevosita soliq to‘lovchi savdo yoki xizmatlar amalga oshirilayotgan joyda o‘tkaziladi.

Nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo‘llanilishini tekshirish nazorat xaridini amalga oshirish yo‘li bilan ham o‘tkazilishi mumkin.

Nazorat-kassa texnikasi va (yoki) hisob-kitob terminallari qo‘llanilishi nazoratini amalga oshirishda, jumladan, quyidagilar tekshiriladi:

soliq to‘lovchi tomonidan foydalanilayotgan nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminali tegishli qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi;

xaridorlarga nazorat-kassa texnikasi cheki yoki unga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar berilishi;

bank kartalari orqali to‘lovlar qabul qilinishi, xaridorlarga hisob-kitob terminallari cheki va nazorat-kassa texnikasi cheki berilishi;

sotilayotgan tovarlar narxini hamda ko‘rsatilayotgan haqini naqd pul mablag‘lari yoki bank kartalar bo‘yicha to‘lash shakliga qarab ularni sun’iy ravishda oshirish yoki pasaytirish masalalari.

Nazorat xaridini amalga oshirishda quyidagi shaxslar jalb qilinishi mumkin:

soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganligi to‘g‘risida murojaat qilgan jismoniy shaxs (yuridik shaxsning vakili);

“xolis xaridor” xizmatini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs ishchi-xodimlari;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda fuqarolik tusidagi shartnomalar asosida soliq organlari tomonidan jalb qilingan jismoniy shaxslar;

Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi vakillari.

Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazishda nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘rsatma berish uchun tovar yoki xizmatni xarid qilgan, tekshiruv natijasidan manfaatdor bo‘lmagan har qanday mustaqil voyaga etgan va soliq nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega holatlar o‘ziga ma’lum bo‘lgan shaxslar jalb qilinishi mumkin.

Sayyor soliq tekshiruvida soliq organlarining tekshiruvchi mansabdor shaxslari tomonidan nazorat xaridi jarayonini videotasvirga olish uchun videotasvirga olish moslamalaridan majburiy foydalanish sharti bilan mustaqil ravishda nazorat xaridi amalga oshirilishi mumkin.

Nazorat xaridini amalga oshirgan shaxslar sotib olingan tovarlarni nazorat xaridi yakunlanishi bilan soliq organining sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslariga topshirishi shart.

O‘tkazilgan nazorat xaridi natijasi bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi va sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxs, nazorat xaridini amalga oshirgan shaxs va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadi.

Nazorat xaridini o‘tkazish bayonnomasining bir nusxasi soliq to‘lovchiga bayonnoma nusxasini olganligini tasdiqlovchi imzo qo‘ydirgan holda beriladi. Bunda soliq to‘lovchi nazorat xaridini o‘tkazish bayonnomasiga imzo chekishdan va (yoki) uning nusxasini olishdan bosh tortgan hollarda, sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan bayonnomaga bu haqida tegishli yozuv kiritiladi.

Nazorat xaridini o‘tkazishda naqd pul mablag‘lari va bank plastik kartalaridagi mablag‘lardan ham foydalanish mumkin.

Nazorat xaridini o‘tkazishda foydalanish uchun naqd pul mablag‘lari Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratiladi.

Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxs nazorat xaridini o‘tkazish uchun naqd pul mablag‘larini tegishli soliq organi kassasidan oladi.

Naqd pul mablag‘larini sayyor tekshiruvini o‘tkazish uchun mansabdor shaxsga berishda ularning qiymati, banknota seriyasi va raqamlari alohida varaqda qayd etilib, chiqim kassa orderiga ilova qilinadi. Mazkur varaq nusxasi sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxsga beriladi.

Nazorat xaridi o‘tkazilib va o‘zaro hisob-kitoblar yakunlangach nazorat xaridini o‘tkazishda foydalanilgan pul mablag‘lari tekshirilgan soliq to‘lovchi (uning vakili) tomonidan sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxsga qaytariladi, xarid qilingan tovarlar soliq to‘lovchiga (uning vakili) qaytarib berilishi shart, bundan qaytarish imkoni bo‘lmagan hamda qonun hujjatlariga muvofiq olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan nazorat xaridi predmetlari mustasno.

Sayyor soliq tekshiruvi yakunlangandan so‘ng nazorat xaridini o‘tkazishda foydalanish uchun olingan naqd pul mablag‘lari bir kun ichida tegishli soliq organi kassasiga to‘liq hajmda topshiriladi. Pul mablag‘larining qiymati, banknota seriyasi va raqamlari yozilgan varaq nusxasi kirim kassa orderiga ilova qilinadi.

Soliq organlariga nazorat-kassa texnikasi yoki hisob-kitob terminallarini qo‘llash bilan bog‘liq soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi haqida jismoniy shaxslardan tushgan murojaatlarga videoyozuvlar ilova qilinganda nazorat xaridini amalga oshirish talab qilinmaydi.

Jismoniy shaxslardan tushgan videoyozuvlar ilova qilingan murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari soliq organi tomonidan sayyor

soliq tekshiruvi natijasi bo‘yicha tuziladigan dalolatnomada aks ettiriladi, bayonnoma tuzilmaydi.

Jismoniy shaxslar tomonidan soliq organlariga taqdim qilingan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi to‘g‘risidagi videoyozuvlar quyidagi talablarga mos bo‘lishi kerak:

– videofaylning namoyish etish imkoniyati 720×480 pikseldan kam bo‘lmasligi;

– videoyozuv davomiyligi 30 sekunddan kam bo‘lmasligi va 10 daqiqadan oshmasligi;

– videoyozuv ma’lumotlarida sana va vaqt ko‘rsatilishi.

Soliq organlari jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan videotasvirlarni soliqqa oid huquqbuzarliklar holati aniqlangan kundan boshlab o‘n kundan kechiktirmay ko‘rib chiqish uchun qabul qiladi.

O‘zgartirish kiritilgan videoyozuvlar ko‘rib chiqish uchun qabul qilinmaydi, bevosita soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi holatlarini aks ettirish yuzasidan hajmini qisqartirish maqsadida ajratib olingan hollar bundan mustasno.

Sayyor soliq tekshiruvi jarayonida soliq to‘lovchining kassasida mavjud naqd pul qoldig‘i sanoqdan o‘tkaziladi va naqd pul qoldig‘ini sanoqdan o‘tkazish dalolatnomasi tuziladi.

Soliq to‘lovchining kassasidagi naqd pul qoldig‘i summasini nazorat-kassa texnikasida aks ettirilgan pul tushumlari summasi bilan solishtirish natijalari sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga kiritiladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan boshqa soliq to‘lovchiga tegishli nazorat-kassa texnikasi yoki hisob-kitob terminallaridan foydalanish holati aniqlangan taqdirda, sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida ularning rusumi va zavod raqami to‘g‘risidagi ma’lumot aks ettiriladi, shuningdek, xarid cheki ilova qilinadi.

Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa texnikasi mavjudligi aniqlangan taqdirda, sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxs tomonidan belgilangan tartibda bayonnoma tuziladi va ushbu nazorat-kassa texnikasi ekspertizadan o‘tkazish uchun vaqtincha olib qo‘yiladi.

12.5. Soliq to‘lovchi ishchi-xodimlarining haqiqiy soni va soliq hisobotidagi aks ettirilgan ishchi-xodimlar soniga muvofiqligini tekshirish

Sayyor soliq tekshiruvi doirasida soliq to‘lovchi – yuridik shaxslar ishchi-xodimlarining haqiqiy soni va soliq hisobotdagi aks ettirilgan ishchi-xodimlar soniga muvofiqligi tekshiruvi amalga oshirilishi mumkin. Mazkur tekshiruv quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– soliq to‘lovchining haqiqatda faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlari sonini aniqlash va bayonnoma tuzish;

– tekshiruvda aniqlangan soliq to‘lovchining haqiqatda faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlari oxirgi hisobot davri uchun soliq organiga taqdim etgan soliq hisobotlarida aks ettirilgan ishchi-xodimlar bilan solishtiriladi;

– soliq hisobotlarida mavjud bo‘lmagan ishchi-xodimlardan ularning ishlash davri hamda olayotgan daromadlari summasi (ish haqi) to‘g‘risida yozma ravishda tushuntirishlar olinadi.

Soliq to‘lovchi ishchi-xodimlarining haqiqiy soni va soliq hisobotida aks ettirilgan ishchi-xodimlar soniga muvofiqligi tekshiruvi natijalari sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida aks ettiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan xodimlar bilan mehnat shartnomalari va (yoki) yollangan xodimni hisobga qo‘yish kartochkalari mavjud bo‘lmagan holatlar aniqlanganda, ushbu qoidabuzarliklar sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida aks ettiriladi.

12.6. Bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarining to‘xtash joylarida soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish

Bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarining to‘xtash joylarida soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– bir martalik yig‘imlarning to‘liq va o‘z vaqtida undirilishi hamda ularni to‘lashda nazorat-kassa texnikasi qo‘llanilishini nazorat qilish;

– bozorlar, savdo komplekslari va ularning filiallarida sotuvchi va xaridorlarga ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlarning hamda bino va inshootlarni, shuningdek, buyumlarni ijaraga berish bo‘yicha ijara to‘lovlarining o‘z vaqtida va to‘liq undirilishini nazorat qilish;

– savdo va xizmatlar ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish.

Bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarining to‘xtash joylarida soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish natijalari sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida aks ettiriladi.

12.7. Savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish

Savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishda quyidagilar tekshiriladi:

alkogol va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilganligi va tegishli ruxsatnoma yoki litsenziyalar mavjudligi;

hisob-kitob terminali, nazorat-kassa texnikalari mavjudligi hamda soliq to‘lovchining nomiga rasmiylashtirilganligi;

savdo shoxobchasida sotuvchi – yuridik shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ya’ni korxonaning nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili), ish rejimi, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, agar sotuvchi yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lsa, uning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi va ro‘yxatdan o‘tkazgan organning nomi, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami to‘g‘risidagi ma’lumotlar xaridorlar tanishishi uchun qulay tarzda joylashtirilganligi;

saqlanayotgan, foydalanilayotgan va realizatsiya qilinayotgan tovarlarga ularning qonuniy kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligi;

agar soliq to‘lovchi amalga oshiradigan faoliyat litsenziyalanishi shart bo‘lsa, litsenziyaning tartib raqami va amal qilish muddati to‘g‘risidagi, shuningdek, uni bergan organ haqidagi ma’lumotlar xaridorlar (iste’molchilar) tanishishi uchun qulay tarzda joylashtirilganligi;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlari hamda boshqa buyumlar bilan savdoni amalga oshiradigan sotuvchi tomonidan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlarni sotish qoidalariga rioya etilishi, zargarlik buyumlarining asillik darajasi belgilanganligi va tamg‘alanganligi;

umumiy ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) va sotish qoidalariga rioya etilishi;

alkogol mahsulotlari realizatsiyasini amalga oshirishni boshlash to‘g‘risida soliq organlari xabardor qilinganligi, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdoni va umumiy ovqatlanishni amalga oshirish shartlariga muvofiqlik tekshiriladi.

Savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish natijalari sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida aks ettiriladi.

12.8. Yer qa’ridan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan foydali qazilmalar hajmini tekshirish

Yer qa’ridan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmini tekshirish soliq organlari mansabdor shaxslari tomonidan konchilik munosabatlari sohasidagi vakolatli davlat organlari mutaxassislarini jalb qilgan holda o‘tkaziladi.

Yer qa’ridan foydalanuvchilarning geologik, marksheyderlik yoki texnik xizmatlaridan olingan xulosalar soliq organlari tomonidan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlashda foydalaniladi.

Soliq organlari tomonidan yer qa’ridan foydalanuvchilar haqiqatda qazib olgan (ajratib olgan) foydali qazilmalar hajmini

tekshirish uchun konchilik munosabatlari sohasidagi vakolatli davlat organlari mutaxassislarini jalb qilish yiliga ikki martadan ko‘p bo‘lmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

12.9. Soliq to‘lovchilarning to‘lov topshiriqnomalari va soliq organlarining inkasso topshiriqnomalari banklar tomonidan o‘z vaqtida bajarilishini tekshirish

Soliq to‘lovchilarning to‘lov topshiriqnomalari va soliq organlarining inkasso topshiriqnomalari banklar tomonidan o‘z vaqtida bajarilishini tekshirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– soliq to‘lovchining pul mablag‘lari hisobidan soliqni byudjet tizimiga o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomasi banklar tomonidan uning bankdagi hisobvarag‘ida mavjud pul mablag‘lari hisobidan o‘z vaqtida bajarilishini tekshirish;

– soliq organining soliqni byudjet tizimiga o‘tkazishga doir inkasso topshiriqnomasi banklar tomonidan soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘ida mavjud pul mablag‘lari hisobidan o‘z vaqtida bajarilishini tekshirish.

Tekshirishda soliq to‘lovchining topshiriqnomalari va soliq organining inkasso topshiriqnomalari bank tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan navbat bo‘yicha bajarilishi o‘rganiladi, jumladan:

– soliqdan qarzdor mijozning bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari mavjud bo‘lganda soliq organlarining inkasso topshiriqnomalari, soliq to‘lovchilarning to‘lov topshiriqnomalari banklar tomonidan ijro qilinishini tekshirish;

– soliq to‘lovchining hisobvaraqlaridagi milliy valyutadagi mablag‘lar to‘lanishi lozim bo‘lgan talablarni qondirish uchun yetarli bo‘lmaganda soliq organlarining taqdimnomasiga asosan mijozlarining chet el valyutasidagi hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘larning inkasso talabnomalarini qondirish uchun yetarli bo‘lgan miqdordagi qismi bank tomonidan Respublika valyuta birjasiga sotuvga chiqarilganligini tekshirish;

– mijozning pul mablag‘lari yetarli bo‘lmaganda tijorat banklari tomonidan ijro to‘lov hujjatlari bo‘yicha mutanosib ravishda hisobdan chiqarish tartibiga rioya qilinayotganligini tekshirish.

Soliq organining inkasso topshiriqnomasi hamda soliq to‘lovchilarning to‘lov topshiriqnomasi tijorat banklari tomonidan bajarilishini tekshirish natijalari sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida aks ettiriladi.

12.10. Valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rezidentlar va norezidentlar tomonidan rioya etilishini tekshirish

Valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rezidentlar va norezidentlar tomonidan rioya etilishi yuzasidan tekshiruv quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– valyuta operatsiyasini amalga oshirish uchun asos bo‘lgan hujjatlar (shartnomalar), ushbu hujjatlar (shartnomalar) asosida amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni tasdiqlovchi hujjatlar tekshiriladi;

– eksport-import operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklar mavjudligi tekshiriladi.

Valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rezidentlar va norezidentlar tomonidan rioya etilishi yuzasidan tekshiruv natijalari sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida aks ettiriladi.

Shuningdek, soliq organlari tomonidan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari va hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazadilar. Asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari va hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish mol-mulkning haqiqatda mavjudligini aniqlash, haqiqatda mavjud mol-mulkni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan solishtirish, majburiyatlar hisobda to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish maqsadida o‘tkaziladi.

Aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish natijalari sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasida aks ettiriladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Sayyor soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organlari tomonidan soliqlar va yig‘imlarni hisoblash amalga oshiriladimi?
2. Soliq organlari sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazish chog‘ida qanday tadbirlarni o‘tkazishga haqli?
3. Asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari va hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish tartibi qanday?
4. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar hisobga qo‘yilishi ustidan soliq nazoratini amalga oshirish tartibini tushuntiring.
5. Xronometraj ko‘zdan kechirishni o‘tkazish tartibi qanday?
6. Sotilayotgan tovarlar narxini va ko‘rsatilayotgan xizmatlar haqini sun’iy ravishda oshirish yoki pasaytirishni tekshirish tartibini tushuntiring.
7. Soliq to‘lovchi ishchi-xodimlarining haqiqiy sonini ularning soliq hisobotidagi aks ettirilgan soniga muvofiqligini tekshirish qay tartibda amalga oshiriladi?

4-BO‘LIM. SOLIQ MA’MURLARINING SOLIQ TEKSHIRUVLARI NATIJALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH

13-mavzu. SOLIQ TEKSHIRUVI NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH VA UNI KO‘RIB CHIQISH TARTIBI

13.1. Soliq tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirish tartibi
13.2. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibi
13.3. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish
13.4. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorning kuchga kirishi

13.1. Soliq tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirish tartibi

Soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir.

Soliq tekshiruvi natijsi bo‘yicha dalolatnoma tuziladi. Soliq tekshiruvi dalolatnomasi: kirish, asosiy va yakuniy qismlardan iborat bo‘ladi. Soliq tekshiruvi dalolatnomasining kirish qismida o‘tkazilayotgan tekshirish va tekshirilayotgan subyekt (soliq to‘lovchi) haqida umumiy ma’lumotlar:

- soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan tekshirishni o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqning raqami, sanasi;
- tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektining ta’sis hujjatlariga ko‘ra to‘liq va qisqacha nomi;
- soliq to‘lovchining identifikatsion raqami (STIR) va kodi;
- tekshirish o‘tkazilgan joyning nomi (tekshirish o‘tkazilgan hudud, aholi maskani);
- tekshiruv dalolatnomasi rasmiylashtirilgan sana tekshiruv o‘tkazgan shaxslarning dalolatnomaga imzo qo‘ygan sanasi.

Soliq tekshiruviga soliq xizmatining boshqa organlari mutaxasislari jalb etilgan taqdirda, tekshirish dalolatnomasida ularning ham familiyasi, ismi, mansabi va ular xizmat qilayotgan soliq organlari nomi ko‘rsatilib o‘tiladi. Tadbirkorlik subyektining tekshiruv o‘tkazilayotgan faoliyat davri, tekshirish boshlangan va tugallanish sanasi. Bunda, tekshirishning boshlanish sanasi bo‘lib, tekshirilayotgan subyekt rahbariga (vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi shaxsga), hujjatli tekshirishni o‘tkazish to‘g‘risida soliq organi boshlig‘ining (o‘rinbosarlari) buyrug‘ini taqdim qilingandagi sanasi, tekshirishni tugatilish sanasi esa – tekshiruvni amalga oshirgan tekshiruvchilarning dalolatnomaga imzo qo‘ygan sanasi hisoblanadi.

Ammo, tekshirishga taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar bo‘lmagan yoki ularni tekshiruvga taqdim etilmagan holatlarda,

tekshirishni boshlanish sanasi bo‘lib, tekshiruvga hujjatlar taqdim etilgan sana hisoblanadi:

– tekshirilayotgan davrda, tekshirilayotgan subyekt mansabdor shaxslarining (rahbari, bosh hisobchisi yoki ularning vazifasini bajaruvchilar) familiyasi, ismi, sharifi;

– agarda tekshirilayotgan davr maboynida yuqorida qayd etilgan shaxslar tarkibida o‘zgarish yuz bergan bo‘lsa, mazkur shaxslarning, qaysi vaqtdan boshlab (buyruq, farmoyish, ta’sischilar yig‘ilish qarori yoki ishga tayinlash va bo‘shatish to‘g‘risidagi boshqa hujjatlar) tegishli mansabga, ishga tayinlangani yoki bo‘shatilgani ko‘rsatib o‘tiladi;

– tekshirilayotgan subyekt joylashgan manzili (xususiy tadbirkorning yashash manzili), shuningdek, ular tomonidan xo‘jalik faoliyati amalga oshirilayotgan manzil (davlat ro‘yxatidan o‘tgan manzil bilan solishtirish);

– maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshirilayotgan faoliyat to‘g‘risidagi ma’lumotlar (sanasi, raqami, bergan tashkilotning nomi, ruxsatnoma amal qilishining boshlanish va tugash sanasi);

– subyektning haqiqatda amalga oshirayotgan moliya-xo‘jalik faoliyati turi, shu jumladan, qonun bilan taqiqlangan faoliyat turi yoki maxsus ruxsatnoma olmasdan faoliyat ko‘rsatayotganligi to‘g‘risidagi ma’lumot;

– tekshirish o‘tkazish uslubi, uning birlamchi hujjatlarni (to‘liq yoki tanlash yo‘li bilan) tekshirilishi tartibi;

– tekshirish bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yilganligi, ekspertiza, soliq to‘lovchining mulklari sanoqdan o‘tkazilganligi, korxona hududi va binolari ko‘zdan kechirilganligi va tekshiruv davrida amalga oshirilgan boshqa tadbirlar to‘g‘risida ma’lumot;

– bank muassasalaridagi hisob raqami (shu jumladan, Respublikadan tashqarisida mavjud bo‘lganlari) va boshqa ma’lumotlar to‘g‘risida;

– ilgari o‘tkazilgan tekshirishlar (Moliya vazirligi, soliq idoralari, huquqni muhofaza qilish idoralari va auditorlik tashkilotlari tomonidan), ular natijalari bo‘yicha qabul qilingan choralar (soliq idorasiga qayta

topshirilgan hisobotlar, keltirilgan zararning qoplanishi, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari) haqida qisqacha ma’lumot;

– tashkil etilgan sho‘ba korxonalari, vakolatxonalar, filiallar va boshqa tarkibiy tuzilmalari haqida ma’lumot;

– ta’sischilar va ta’sis hujjatlariga asosan nizom fondining miqdori va tekshiruv kuniga qadar nizom fondining haqiqatda shakllantirilganligi haqida ma’lumot (pul mablag‘lari hisobida – so‘m yoki valyuta, asosiy vositalar, intellektual mulk, nomoddiy aktivlar va h.k.);

– aksionerlik jamiyatlarida aksiyalarning chiqarilishi va ularning joylashtirilishi (foiz hisobida, pul mablag‘lari va miqdor ko‘rinishida) hamda aksionerlar va xususiylashtirish haqida boshqa zarur bo‘lgan ma’lumotlar.

Soliq tekshiruvi (taftish) natijasi bo‘yicha tuzilgan dalolatnomaning tavsif qismida, tekshirish natijasida aniqlangan hujjatli tasdiqlangan soliq va boshqa qonunbuzarlik faktlari yoki qonunbuzarliklarni aniqlanmaganligi holatlari, shuningdek, tekshirish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilishga ta’sir etadigan holatlar tizimli ifodalaniladi. Tekshiruv davomida soliq qonunchiligiga taalluqli bo‘lmagan lekin nazorati soliq idoralariga yuklatilgan qonunbuzarliklar aniqlanganda bunday faktlar ham hujjatli tekshiruvlar natijasi bo‘yicha tuziladigan dalolatnomada aks ettirilishi lozim.

Soliq tekshiruvi dalolatnomasi kamida uch nusxada tuziladi.

Soliq tekshiruvi dalolatnomasining barcha nusxalari davlat soliq xizmati organlarining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi. Soliq tekshiruvi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to‘lovchiga topshiriladi. Soliq to‘lovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasini olganda dalolatnomaning barcha nusxalariga uni olgan sanani ko‘rsatgan holda imzo qo‘yishi shart. Soliq tekshiruvi dalolatnomasining davlat soliq xizmati organida qolgan nusxalari soliq tekshiruvi materiallariga qo‘shib qo‘yiladi.

Soliq to‘lovchining soliq tekshiruvi dalolatnomasidagi imzosi uning soliq tekshiruvi natijalaridan rozi ekanligini anglatmaydi.

Soliq to‘lovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasini olishdan bosh tortgan taqdirda davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi bu

haqda soliq tekshiruvi dalolatnomasiga tegishli yozuv kiritadi. Mazkur holda soliq tekshiruvi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to‘lovchiga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi va shu paytdan e’tiboran soliq tekshiruvi tugallangan hisoblanadi.

Soliq tekshiruvi dalolatnomasi soliq to‘lovchiga topshirilgan kun soliq tekshiruvi tugallangan kun hisoblanadi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazish uchun asos bo‘lgan quyidagilarning nusxalari:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni soliq auditi tayinlanganligi to‘g‘risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qilinganligi;

davlat soliq xizmati organining buyrug‘i, buyruqda tekshiruvni o‘tkazish maqsadi, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslarning tarkibi ko‘rsatiladi, soliq tekshiruvi doirasida sodir etilgan harakatlar to‘g‘risidagi bayonnomalar, inventarizatsiya dalolatnomalari, ekspertlarning xulosasi, soliq tekshiruvi o‘tkazish paytida olingan materiallar, shuningdek, soliq tekshiruvi doirasida harakatlar sodir etilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar soliq tekshiruvi dalolatnomasiga qo‘shib qo‘yilishi lozim.

Soliq tekshiruvi materiallari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi belgilagan tartibga binoan soliq to‘lovchi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organida soliq tekshiruvi tugallangan kundan e’tiboran keyingi ish kunidan kechiktirmasdan ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

13.2. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibi

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishlari qaysi soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi davomida aniqlangan bo‘lsa, o‘sha soliq auditi dalolatnomasi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallari soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan ushbu soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan

e’tiboran o‘n kun o‘tgach, lekin o‘n besh kundan kechirtirmay ko‘rib chiqilishi kerak. Ularga doir qaror soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilganidan keyin besh kundan kechiktirmay qabul qilinishi lozim.

Agar tekshirilayotgan shaxs (uning vakili) soliq auditining dalolatnomasiga va (yoki) sayyor soliq tekshiruvining materiallariga doir yozma e’tirozlarini soliq auditi dalolatnomasini olgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tegishli soliq organiga mazkur dalolatnoma bo‘yicha umuman yoki uning ayrim holatlari yuzasidan yozma e’tirozlarini taqdim etgan bo‘lsa, ushbu e’tirozlar ham ko‘rib chiqilishi lozim.

Soliq organi tekshiruv materiallari ko‘rib chiqiladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida soliq to‘lovchini ko‘rib chiqish boshlanguniga qadar kamida ikki ish kuni oldin xabardor qiladi.

Agar soliq to‘lovchi soliq organini uzrli sabablarga ko‘ra soliq tekshiruvi materiallarining ko‘rib chiqilishiga kela olmasligi to‘g‘risida xabardor qilgan bo‘lsa, soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq tekshiruvi materiallarining ko‘rib chiqishni kamida besh kun muddatga qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, soliq to‘lovchi bu haqda xabardor qilinadi.

O‘ziga nisbatan soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxs soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida shaxsan va (yoki) o‘z vakili orqali ishtirok etishga haqli.

O‘ziga nisbatan soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilgan, tekshiruv materiallari ko‘rib chiqiladigan vaqt va joy haqida tegishli tarzda xabardor qilingan shaxsning (uning vakilining) kelmaganligi soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi, bundan ushbu shaxsning ishtirok etishi soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan mazkur materiallar ko‘rib chiqilishi uchun shart, deb topilgan holatlar mustasno.

Soliq tekshiruvi materiallarini mohiyatiga ko‘ra ko‘rib chiqishdan oldin soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari):

1) ishni kim ko‘rib chiqayotganligini va qaysi soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilishi lozimligini e’lon qilishi;

2) ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun taklif etilgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi faktini aniqlashi shart.

Ushbu shaxslar kelmagan taqdirda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) ish yuritish ishtirokchilari belgilangan tartibda xabardor qilingan-qilinmaganligini aniqlashtiradi va soliq tekshiruvi materiallarini mazkur shaxslarning yo‘qligida ko‘rib chiqish yoki ushbu ko‘rib chiqishni keyinga qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

3) o‘ziga nisbatan soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxsning vakili ishtirok etgan taqdirda ushbu vakilning vakolatlarini tekshirishi;

4) ko‘rib chiqish tartib-taomilida ishtirok etayotgan shaxslarga ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntirishi;

5) ko‘rib chiqish uchun ishtirok etishi zarur bo‘lgan shaxs kelmagan taqdirda, soliq tekshiruvi materiallarining ko‘rib chiqilishini keyinga qoldirish to‘g‘risida qaror chiqarishi kerak.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish chog‘ida tekshiruv dalolatnomasi, zarur bo‘lgan taqdirda esa soliq nazorati tadbirlarining boshqa materiallari, shuningdek, o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxsning yozma e’tirozlari ham o‘qib eshittirilishi mumkin.

Yozma e’tirozlarning mavjud emasligi ushbu shaxsni (uning vakilini) tekshiruv materiallarini ko‘rib chiqish bosqichida o‘z tushuntirishlarini berish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish vaqtida taqdim etilgan dalillar, shu jumladan, o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxsdan ilgari talab qilib olingan hujjatlar, ushbu shaxs soliq tekshiruvlaridan o‘tkazilganda soliq organlariga taqdim etilgan hujjatlar hamda soliq organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar o‘rganiladi.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish davomida zarur bo‘lgan taqdirda ushbu ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun guvohni, ekspertni, mutaxassisni jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilayotganda bayonnoma yuritiladi.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari):

1) o‘ziga nisbatan tekshiruv dalolatnomasi tuzilgan shaxs soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishini sodir etgan-etmaganligini;

2) aniqlangan qoidabuzarliklar soliqqa oid huquqbuzarlik alomatini tashkil etish-etmasligini;

3) shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishga asoslar mavjud-mavjud emasligini;

4) soliq to‘lovchining e’tirozlari asoslanganligini belgilaydi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik alomati mavjud bo‘lgan taqdirda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishdagi aybini istisno etuvchi holatlarni yoki soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni yumshatuvchi yoxud og‘irlashtiruvchi holatlarni aniqlaydi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishlari sodir etilganligi faktini tasdiqlash uchun qo‘shimcha dalillar olish zarur bo‘lgan taqdirda yoki ular bo‘lmaganda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini bir oydan oshiq bo‘lmagan muddatda o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqlidir.

Soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini tayinlash to‘g‘risidagi qarorda bunday qo‘shimcha tadbirlarni o‘tkazish zaruratini keltirib chiqargan holatlar bayon etiladi, ularni o‘tkazish muddati va aniq shakli ko‘rsatiladi.

Soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlari sifatida hujjatlarni talab qilib olish, guvohni so‘roq qilish, ekspertiza amalga oshirilishi mumkin.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini o‘tkazgan soliq organining mansabdor shaxslari tomonidan bunday tadbirlar tugagan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tuzilishi va imzolanishi kerak.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlari natijasida olingan materiallar ilova qilingan holda ushbu qo‘shimcha tuzilgan sanadan e’tiboran uch kun ichida o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxsga

(uning vakiliga) imzo qo‘ydirib berilishi yoki u olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshirilishi kerak.

Agar o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxs (uning vakili) soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimchani olishdan bosh tortsa, bunday fakt tekshiruv dalolatnomasiga doir qo‘shimchada aks ettiriladi. Bunday holda soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha tashkilotning (alohida bo‘linmaning) joylashgan eri yoki jismoniy shaxsning yashash joyi bo‘yicha pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi va buyurtma xat yuborilgan sanadan e’tiboran beshinchi kunda qabul qilingan, deb hisoblanadi.

O‘ziga nisbatan soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxs (uning vakili) soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tekshiruv dalolatnomasiga doir bunday qo‘shimcha bo‘yicha umuman yoki uning alohida qoidalari yuzasidan yozma e’tirozlarini taqdim etishga haqli.

13.3. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) quyidagilarni nazarda tutuvchi qarorni qabul qiladi:

1) soliq auditi materiallari bo‘yicha soliqlar va penyalar qo‘shib hisoblash yoki buni rad etish;

2) soliq to‘lovchini soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish yoki buni rad etish.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik holatlari mazkur holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa ma’lumotlarga, o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxs

tomonidan o‘z himoyasi uchun keltiriladigan vajlarga hamda ushbu vajlarni tekshirish natijalariga havola qilgan holda, o‘tkazilgan soliq tekshiruvida qanday belgilangan bo‘lsa, shunday bayon etiladi.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda ushbu Kodeksning shu huquqbuzarliklarni nazarda tutuvchi moddalari va qo‘llaniladigan javobgarlik choralari ko‘rsatiladi.

Soliqlarni qo‘shib hisoblashni nazarda tutuvchi qarorda, agar soliqlarga oid qarzdorlik tekshiruv jarayonida aniqlangan bo‘lsa, soliqlarga oid aniqlangan ushbu qarzdorlik miqdori va tegishli penyalar summasi ko‘rsatiladi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni rad etishni nazarda tutuvchi qarorda bunday rad etish uchun asos bo‘lgan holatlar bayon etiladi.

Soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qarorda o‘ziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxs ushbu qaror ustidan qaysi muddat ichida shikoyat qilishga haqli bo‘lsa, o‘sha muddat va qaror ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilish tartibi ko‘rsatiladi.

13.4. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorning kuchga kirishi

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qabul qilingan qaror o‘ziga nisbatan ushbu qaror qabul qilingan shaxsga (shaxsning vakiliga) berilgan kundan e’tiboran bir oy o‘tgach kuchga kiradi.

Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror u qabul qilingan kundan e’tiboran ikki kun ichida o‘ziga nisbatan ushbu qaror qabul qilingan shaxsga (uning vakiliga) imzo qo‘ydirib berilishi yoki olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usul orqali topshirilishi kerak.

Agar qarorni berish yoki u olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshirish imkoni bo‘lmasa, u yuridik shaxsning

(alohida bo‘linmaning) joylashgan yeri yoki jismoniy shaxsning yashash joyi bo‘yicha pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi. Qaror pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilganda buyurtma xat yuborilgan kundan e’tiboran beshinchi kun u berilgan sana, deb hisoblanadi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq auditi dalolatnomasini ro‘yxatdan o‘tkazish va soliq organining rahbari (muovini) tomonidan ko‘rib chiqish tartibi nimadan iborat?
2. Soliq auditi) dalolatnomasi bo‘yicha taqdimnoma kiritish va qaror qabul qilish tartibi nimadan iborat?
3. Jinoyat alomatlari mavjud bo‘lgan materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish tartibi.
4. Soliq auditi dalolatnomasini rasmiylashtirishda qo‘yiladigan talablar.
5. Soliq auditi dalolatnomasini rasmiylashtirish tartibi nimadan iborat?

14-mavzu. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIK UCHUN JAVOBGARLIK CHORALARI

14.1. Soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarlik

14.2. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

14.1. Soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarlik

Soliq to‘lovchining, soliq agentining yoki boshqa shaxsning Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik, deb e’tirof etiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda javobgar bo‘ladi.

Jismoniy shaxs soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun o‘n olti yoshdan boshlab javobgarlikka tortilishi mumkin.

Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo‘yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Hech kim soliqqa oid sodir etilgan ayni bir huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Yuridik shaxsning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishiga mazkur huquqbuzarlik sodir etilganligi fakti soliq organining kuchga kirgan qarorida aniqlanganligi asos bo‘ladi.

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda uning mansabdor shaxslarini ma’muriy, jinoiy yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi.

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi uni to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar (yig‘imlar) va penyalarning summalarini to‘lash (o‘tkazish) majburiyatidan ozod etmaydi.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor, deb hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o‘zining soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor emasligini isbotlashi shart emas.

Soliqqa oid huquqbuzarlik fakti va shaxsning uni sodir etishda aybdorligi to‘g‘risida dalolat beruvchi holatlarni isbotlash majburiyati soliq organlarining zimmasiga yuklatiladi.

Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun quyidagi holatlardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

1) soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjud emasligi;

2) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybi mavjud emasligi;

3) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketganligi.

G‘ayrihuquqiy xatti-harakatni (harakat va harakatsizlik) qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor, deb e’tirof etiladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o‘z harakati (harakatsizligi) g‘ayriqonuniy ekanligini bilgan bo‘lsa, bunday harakatning (harakatsizlikning) zararli oqibatlari yuzaga kelishini istagan yoxud ularning yuzaga kelishiga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, bunday huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan, deb topiladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o‘z harakatlari (harakatsizligi) g‘ayriqonuniy ekanligini yoxud bunday harakatlar (harakatsizlik) natijasida yuzaga keladigan oqibatlarning zararli ekanligini garchand ularni oldindan ko‘rishi lozim va mumkin bo‘lgani holda bilmagan bo‘lsa, bunday huquqbuzarlik ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan, deb e’tirof etiladi.

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdorligi uning mansabdor shaxslarining yoki vakillarining harakatlari (harakatsizligi) ushbu soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishini keltirib chiqargan aybiga qarab aniqlanadi.

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar, deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo‘lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi. Mazkur holatlar hammaga ma’lum faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan ma’lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan aniqlanadi;

2) soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo‘lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o‘z harakatlarini o‘zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo‘lgan soliq to‘lovchi – jismoniy shaxs tomonidan sodir etilganda. Mazkur holatlar

mazmuni, mohiyati va sanasi bo‘yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan o‘sha soliq davriga taalluqli bo‘lgan hujjatlarni soliq organiga taqdim etish orqali isbotlanadi;

3) soliq organining yoki boshqa vakolatli organning (ushbu organ mansabdor shaxsining) soliqni (yig‘imni) hisoblab chiqarish, to‘lash tartibi to‘g‘risida yoki soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qo‘llanilishining boshqa masalalari bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘lovchiga (yig‘im to‘lovchiga, soliq agentiga) yoxud noma’lum doiradagi shaxslarga bergan yozma tushuntirishlari soliq to‘lovchi (yig‘im to‘lovchi, soliq agenti) tomonidan bajarilganda. Mazkur holatlar ushbu organning tegishli hujjati mavjud bo‘lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjat ma’nosi va mazmuniga ko‘ra, bunday hujjat qabul qilingan sanadan qat’i nazar, soliqqa oid huquqbuzarlik yuz bergan soliq davriga taalluqli bo‘ladi;

4) soliq monitoringini o‘tkazish davrida soliq organining soliq to‘lovchiga (yig‘im to‘lovchiga, soliq agentiga) yuborilgan asoslantirilgan fikri soliq to‘lovchi (yig‘im to‘lovchi, soliq agenti) tomonidan bajarilganda.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar, deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar og‘ir kechishi oqibatida soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;

2) tahdid yoki majburlash ta’sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;

3) sud yoki ishni ko‘rayotgan soliq organi tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi, deb topilishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat, deb e’tirof etiladi. Agar soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun o‘ziga nisbatan javobgarlik choralari qo‘llanilgan shaxs bu choralar qo‘llanilgan kundan e’tiboran bir yil ichida bunday huquqbuzarlikni qayta sodir etmagan bo‘lsa, u javobgarlikka tortilmagan, deb hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar sud yoki ishni ko‘rayotgan soliq organi tomonidan belgilanadi va moliyaviy sanktsiyalar qo‘llanilganda inobatga olinadi.

Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik chorasidir.

Moliyaviy sanksiyalar Soliq kodeksida nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida qo‘llaniladi.

Javobgarlikni yengillashtiruvchi hech bo‘lmaganda bitta holat mavjud bo‘lgan taqdirda, jarima miqdori Soliq kodeksining tegishli moddasida belgilangan miqdorga nisbatan ikki marta kamaytiriladi.

Aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklardagi aybga iqror bo‘linganda va soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarori olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda moliyaviy sanksiyalar summasi ixtiyoriy ravishda to‘langanda jarima miqdori Soliq Kodeksining tegishli moddalarida belgilangan miqdorga nisbatan ikki baravarga kamaytiriladi.

Javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, jarima miqdori ikki barobar oshiriladi.

Bir shaxs tomonidan ikki va undan ortiq soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlik uchun alohida tarzda undiriladi.

14.2. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq to‘lovchisi sifatida soliq organlarida hisobga qo‘yishning belgilangan tartibi soliq to‘lovchi tomonidan buzilganda, – soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining besh foizi miqdorida, lekin besh million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq solish obyekti bo‘yicha soliq organlarida hisobga qo‘yish muddatlari buzilganda, agar hisobga qo‘yishning belgilangan muddatidan o‘tishi:

o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmaganda, – bir million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lganda, – ikki million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Chet el yuridik shaxsi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy muassasasini tashkil etishga olib keluvchi faoliyatning soliq organida hisobga qo‘ymasdan amalga oshirilishi – bunday faoliyatni amalga oshirish boshlangandan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olingan daromaddan o‘n foiz miqdorida, lekin o‘n million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirish – bunday faoliyatdan olingan daromadlarning o‘n foizi miqdorida, lekin bir million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq hisobotini soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik – bu soliq hisoboti asosida to‘lanishi (qo‘shimcha to‘lanishi) lozim bo‘lgan soliq summasini belgilangan muddatda to‘lanmagan har bir kechiktirilgan kun uchun bir foiz miqdorida, lekin ko‘rsatilgan summaning o‘n foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Nazorat-kassa texnikasining va (yoki) hisob-kitob terminallarining qo‘llanilishi majburiy bo‘lgani holda, ularni qo‘llamasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik, xuddi shuningdek, sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib berish, talonlarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni berish majburiy bo‘lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik, shuningdek, hisob-kitob terminallari orqali to‘lovlarni qabul qilishni rad etganlik – besh million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq organlarida ro‘yxatga olinmagan nazorat-kassa texnikasini qo‘llagan yoki sotib oluvchiga kvitansiyalar, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni bergan holda savdoni amalga oshirganlik va (yoki) xizmatlar ko‘rsatganlik – yetti million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Boshqa shaxslar nomiga rasmiylashtirilgan hisob-kitob terminallaridan soliq to‘lovchi tomonidan foydalanilishi – yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Texnik talablarga muvofiq bo‘lmagan yoki xizmat ko‘rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa texnikalaridan foydalanganlik – yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish (daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish kitobi) qoidalarini buzish – besh yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) – yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasidan Soliq kodeksiga muvofiq soliqlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish), deb quyidagilar e’tirof etiladi:

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasini hisobga olish registrlarida aks ettirmaslik;

yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmasdan yoxud soxta hujjatlar bo‘yicha tashish;

hisobda realizatsiya qilinmagan, deb ko‘rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi;

rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish;

tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni almashtirish, soxtalashtirish yoki yo‘q qilish;

qalbaki birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;

nazorat-kassa texnikasining fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy ravishda o‘zgartirish kiritish;

foydalanilmagan moddiy xarajatlarni foydalanilgan, deb ishlab chiqarish hisobotiga qo‘shish;

tovarlarni sotishdan (xizmat ko‘rsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o‘tkazish (sotish hajmini va daromadni (foydani) qasddan kamaytirish);

moddiy, yoqilg‘i-energetika resurslari xarajatlarini (limitlarni) va amortizatsiya (eskirish) normasini sun’iy ravishda oshirish yoki normativlarni noto‘g‘ri qo‘llash;

ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan xodimlarning haqiqiy ish haqi summasi soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo‘yicha aks ettirish.

Soliqni (yig‘imni) noto‘g‘ri hisoblab chiqarish yoki boshqa g‘ayriqonuniy harakatlar (harakatsizlik) natijasida soliq (yig‘im) summasini to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik – to‘lanmagan soliq (yig‘im) summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar bo‘lmagan mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobvaraq-fakturada aks ettirganlik – mahsulot yetkazib beruvchilarga hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Bunda mahsulot yetkazib beruvchi hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan soliq summasini byudjetga to‘lashi shart.

Nazorat qilinadigan bitimlarda soliq solish maqsadida mustaqil shaxslar o‘rtasidagi bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari bilan solishtirib bo‘lmaydigan tijorat va (yoki) moliyaviy shartlar

qo‘llanilishi natijasida soliq summalarini soliq to‘lovchi tomonidan to‘lamaganlik yoki to‘liq to‘lamaganlik – to‘lanmagan soliq summasining qirq foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining yuridik yoki jismoniy shaxs bo‘lgan nazorat qiluvchi shaxslari tomonidan mazkur kompaniya foydasining ulushi soliq bazasiga kiritilmaganligi natijasida soliq summalarini to‘lamaganlik yoki to‘liq to‘lamaganlik – nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining soliq bazasiga kiritilishi lozim bo‘lgan foydasiga nisbatan tegishincha foyda solig‘i bo‘yicha yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha to‘lanmagan soliq summasining yigirma foizi miqdorida, lekin o‘n million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Bank tomonidan soliq (yig‘im), bo‘nak to‘lovi, penya va jarima summasini o‘tkazish to‘g‘risidagi soliq to‘lovchining topshiriqnomasini, soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarmaslik (bajarilishini kechiktirish) – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining bir yuz ellikdan bir qismi miqdorida, lekin kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun o‘tkazilmagan summa bir foizining beshdan bir qismidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ma’lumotnomani (ko‘chirmalarni) bank tomonidan soliq organiga taqdim etmaslik, shuningdek, ma’lumotnomalarni (ko‘chirmalarni) belgilangan muddatni buzgan holda yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar bo‘lgan ma’lumotnomalarni (ko‘chirmalarni) taqdim etish – ikki million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi necha yoshdan boshlab vujudga keladi?
2. Yuridik shaxs tomonidan soliqqa oid javobgarlik sodir etilishi qanday javobgarlik qo‘llanilishiga sabab bo‘lishi mumkin?
3. Soliq to‘lovchi soliqqa oid bir necha huquqbuzarliklar sodir etgan taqdirda moliyaviy sanksiyalar qanday tartibda qo‘llanadi?

4. Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlarni keltirib o‘ting.
5. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni keltirib o‘ting.

5-BO‘LIM. “SOLIQ MA’MURCHILIGINING SAMARALI ISHLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI”

15-mavzu. SOLIQ MA’MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA DAVLAT SOLIQ IDORALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMI

15.1. Davlat soliq qo‘mitasining soliq ma’murchiligini amalga oshirishdagi asosiy vazifalari

15.2. Qo‘mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholashning asosiy mezonlari

15.3. Soliq ma’murchiligidagi mavjud muammolar va uni bartaraf etish yo‘llari

15.1. Davlat soliq qo‘mitasining soliq ma’murchiligi amalga oshirishdagi asosiy vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish tartibi va hisobotini, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari rahbarlarining funksional majburiyatlari va javobgarliklari “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va yig‘imlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2010-yil 8-yanvardagi PQ-1257-son va “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qarorlariga muvofiq belgilanadi.

Qo‘mita soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini va davlatning iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash sohasidagi nazorat bo‘yicha respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi. Qo‘mita o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlar davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, soliq to‘lovchilar, shu jumladan yuridik va jismoniy shaxslarning ijro etishi uchun majburiy hisoblanadi.

Qo‘mita, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, shuningdek, Qo‘mita tizimiga kiradigan tashkilotlar yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan hamda o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan chet el valyutasidagi hisob raqamlariga ega.

Davlat soliq xizmati organlari o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

Quyidagilar Qo‘mitaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

– davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi yuzasidan nazoratni ta’minlash;

– O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar va yig‘imlarning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida va bir xildagi tushumini ta’minlash hisobiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining daromad qismini barqaror shakllantirish;

– soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlarining o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, ularning to‘liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga ma’lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayta ishlashni ta’minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish;

– soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha tahlil qilish va ta’sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta’sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig‘ilishini

oshirish bo‘yicha choralarni amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

– pul mablag‘larining g‘ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to‘liq va o‘z vaqtida topshirilishi yuzasidan muntazam nazoratni ta’minlash;

– bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo‘jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko‘ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;

– soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, har bir xodim tomonidan “Soliq xizmati – insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori” - degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish;

– soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni bajarish;

– soliq to‘lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish yo‘li orqali soliq to‘lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish;

– qonun hujjatlarini takomillashtirish va soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar kiritish;

– kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, davlat soliq xizmati organlarini yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan malakali xodimlar bilan to‘ldirish, shuningdek, kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

– davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, korrupsiya faktlariga keskin barham berish bo‘yicha ta’sirchan choralarni, shu jumladan xodimlar manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilish yo‘li bilan amalga oshirish, ishga rasmiyatchilik bilan yondashishga barham berish, shuningdek, xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash, o‘z xizmat faoliyati

samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish;

– hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha davlat soliq xizmati organlariga biriktirilgan sektorlarda soliq solish sohasidagi tizimli muammolarni o‘rganish va aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Davlat soliq qo‘mitasi o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi yuzasidan soliq nazoratini ta’minlash sohasida:

– soliqlar va yig‘imlarning Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushishi prognozini ishlab chiqishda qatnashadi;

– soliq to‘lovchilar faoliyatining soliq tekshiruvlarini, shuningdek, soliq to‘lovchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg‘arib boriladigan pensiya badallarining to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida kiritilishi tekshiruvlarini belgilangan tartibda o‘tkazadi;

– davlat soliq xizmati organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini soliq tekshiruvi o‘tkazilishida qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

– yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qiladi;

– soliq to‘lovchilardan yoki ularning mansabdor shaxslaridan tushuntirishlar oladi, soliq to‘lovchining mol-mulki mavjudligini tekshiradi, shuningdek, hududlarni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan soliq to‘lovchilar tomonidan daromadlar olish uchun foydalaniladigan yoxud soliq solish obyektini saqlash bilan bog‘liq joylarni ko‘zdan kechiradi yoki tekshiradi;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan

tartibiga rioya qilinishini, korxonalar hududiga moddiy boyliklarni olib kirish va u yerdan olib chiqishda korxonalarda ruxsat berish tizimi ishlarining tashkil etilishi holatini tekshiradi;

– soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) jarayonida hisobotdagi ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘g‘riligini aniqlash, davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarida faktlarning buzib ko‘rsatilishini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun buxgalteriya hisoblarini va moliyaviy hisobotlarni tekshiradi;

– moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) davomida xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va tayyor buyumlarni tortib ko‘radi va o‘lchaydi, ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini va taqdim etilgan soliq hisob-kitoblarining to‘g‘riligini aniqlash uchun xomashyo va materiallar sarfi normalari, ularning mahsulot ishlab chiqarish uchun to‘g‘ri hisobdan chiqarilishini, tayyor mahsulotning to‘liq kirim qilinishini, mahsulot chiqishi normalari hamda moddiy boyliklarni saqlash va tashishda tabiiy yo‘qotishlar normalari to‘g‘ri belgilanishini aniqlash uchun xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishda nazorat tariqasida ishlatib ko‘radi, xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni nazorat tariqasida tekshiradi;

– yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

– jismoniy va yuridik shaxslardan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishi to‘g‘risida kelib tushgan murojaatlar, xabarlar va boshqa axborotlarni tekshiradi;

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlarini tahlil qiladi hamda soliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli organlarga takliflar kiritadi;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning uzoq muddatli hamda joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

b) Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar va yig‘imlarning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida va bir xildagi tushumini ta’minlash hisobiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining daromad qismini barqaror shakllantirish sohasida:

– soliq to‘lovchilarning majburiyatlari paydo bo‘lishi (to‘xtatilishi) to‘g‘risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;

– belgilangan tartibda soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan moliya va soliq hisobotlarini, shuningdek, soliq to‘lovchilarning faoliyati to‘g‘risida soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida yig‘ilgan boshqa hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida kameral nazoratni amalga oshiradi;

– o‘zaro tuzilgan kelishuv asosida soliq monitoringida ishtirok etayotgan soliq to‘lovchi tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi soliq monitoringini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi;

– davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni sotishdan olingan pul mablag‘larining davlat daromadiga to‘liq va o‘z vaqtida tushishi nazoratini, shuningdek, davlat organlariga berilgan mol-mulkning hisobga olinishini ta’minlaydi;

– soliqlar va yig‘imlarning tushumini ta’minlash, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo‘shimcha zaxiralarini aniqlash bo‘yicha moliya organlari, manfaatdor vazirliklar va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qiladi;

d) soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlarining o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, ularning to‘liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga ma’lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayta ishlashni ta’minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish sohasida:

– soliq to‘lovchilar, soliq solinadigan baza, shuningdek, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarning to‘liq, o‘z vaqtida va ishonchli hisobga olinishini ta’minlaydi;

– yuridik va jismoniy shaxslarga, ularni soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamlari berilgan holda soliq to‘lovchilar sifatida hisobga qo‘yish to‘g‘risida hujjatlar berilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil qiladi;

– O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestrini shakllantiradi va yuritadi;

– soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida soliq to‘lovchilar bo‘yicha soliqlar va yig‘imlarning hisoblab chiqilishi va amaldagi tushumlari hisobini yuritadi;

– soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha imtiyozlar hisobini yuritadi;

– banklar tomonidan tegishli axborot taqdim etilishiga ko‘ra, bank hisobvaraqlari bo‘yicha olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik faoliyati bo‘yicha — uch oy mobaynida) pul operatsiyalarini amalga oshirgan holda moliya-xo‘jalik faoliyatini yuritmayotgan korxonalarni aniqlaydi;

– tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishdan bo‘yin tovlash mexanizmlarini o‘rganadi, aniqlaydi va bartaraf etadi;

– axborot xavfsizligi ta’minlanishini hisobga olgan holda, barcha soliq to‘lovchilar va soliq tushumlari bo‘yicha soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasini yaratadi;

– soliq axborotlarini qabul qilib olish, qayta ishlash, uzatish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirish choralarini ko‘radi;

– davlat soliq xizmati organlarida, axborot xavfsizligini ta’minlashni hisobga olgan holda, yagona axborot, dasturiy-texnik va telekommunikatsiya tizimi joriy etilishini tashkil qiladi;

– soliq ma’murchiligi jarayonida davlat soliq xizmati organlari ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi hamda xarajatlarni maqbullashtirish va resurs ta’minotini rivojlantirish uchun ularni texnologik jarayonlarini yuritishning zamonaviy tizimlari va boshqarishning tezkor vositalari bilan jihozlaydi;

e) soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha tahlil qilish va ta’sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta’sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig‘ilishini oshirish bo‘yicha choralarni amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish sohasida:

– soliq to‘lovchilarni “xavf-xatar” guruhi bo‘yicha segmentlashni amalga oshiradi;

– soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha dalillarni aniqlaydi va tegishli choralar ko‘radi;

– soliq nazoratini amalga oshirishda zamonaviy usullarni qo‘llaydi;

– Qo‘mitaning texnik bazasini modernizatsiya qilish, mustahkamlash va yangilash bilan tashqi va ichki manbalardan kelib tushadigan ma’lumotlarni tahlil qilishning ilg‘or avtomatlashtirilgan usullarini joriy etadi;

– makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

– O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha soliq qarzini undirishni belgilaydigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning tashkillashtirilishini va qo‘llanishini ta’minlaydi;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida belgilangan tartibda xronometraj ko‘zdan kechiradi;

– soliq solinadigan bazaga tuzatishlar kiritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘zdan kechirish hamda so‘rov o‘tkazishni amalga oshiradi;

– ishlab chiqarish va daromadlar miqdorlarini yashirish, sotilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmlarini kamaytirib ko‘rsatish mexanizmlarini o‘rganish va aniqlashni tashkillashtiradi va amalga

oshiradi, ko‘rsatib o‘tilgan mexanizmlarning qo‘llanishini bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

– soliq ma’muriyatchiligi islohoti va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi va uning ijrosi monitoringini amalga oshiradi;

f) pul mablag‘larining g‘ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to‘liq va o‘z vaqtida topshirilishi yuzasidan muntazam nazoratni ta’minlash sohasida:

– savdo va xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etishning qonun hujjatlariga muvofiqligi, shu jumladan nazorat-kassa mashinalarini, plastik kartochkalardan to‘lovlarni qabul qilib olish bo‘yicha hisob-kitob terminallarini qo‘llash, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

– naqd pul mablag‘lari muomalada bo‘lishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul aylanmasiga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;

– tadbirkorlik subyektlarida, shuningdek, bozorlar va savdo komplekslarida, bir martalik yig‘imlar, bozorlar, savdo komplekslari va ularning filiallarida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun ijara to‘lovlarining o‘z vaqtida va to‘liq undirilishi, savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalari bajarilishi, naqd pul mablag‘lari yoki plastik kartochkalar bo‘yicha to‘lov shakliga qarab narxlarning sun’iy ravishda oshirilishi yoki pasaytirilishi, nazorat-kassa mashinalarining, to‘lov terminallarining qo‘llanilishi, shuningdek, belgilangan tartibda talon va cheklarning berilishi, naqd pul tushumining o‘z vaqtida va to‘liq hajmda inkassatsiya qilinishi masalalari bo‘yicha belgilangan tartibda qisqa muddatli tekshirishlarni amalga oshiradi;

g) bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo‘jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida

aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko‘ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish sohasida:

– bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtomobillarni vaqtinchalik saqlash joylarida moliyaviy-iqtisodiy hamda soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlaydi, oldini oladi va bartaraf etadi;

– bozorlar va savdo komplekslari hududlarida sifatsiz, qalbakilashtirilgan (yasama) yoki noqonuniy olib kirilgan tovarlarni tayyorlash va sotishga qarshi kurashadi;

– bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo‘lgan avtomobil vositalarining to‘xtash joylari, shuningdek, ular hududida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan olingan pul oqimlari harakati monitoringini va mablag‘lar tushumi hisobining to‘liqligini ta’minlaydi;

– bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek, ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari pul mablag‘lari tushumlari va tovar aylanmasi to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlariga tushadigan ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish uchun banklar hamda statistika organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;

– bozorlar, savdo komplekslari hududlarida, ularga tutash bo‘lgan avtomobil vositalarining to‘xtash joylarida moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquqni buzish sodir etilishi holatlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvlarni tashkil etadi va olib boradi, jinoiy ishlar qo‘zg‘aydi, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko‘ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga beradi;

– soliqqa oid huquqbuzarliklar natijasida davlatga, yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararning belgilangan tartibda undirilishini ta’minlash choralarini ko‘radi;

h) soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, har bir xodim tomonidan “Soliq

xizmati – insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori” - degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish sohasida:

– soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko‘maklashadi;

– soliqlar va yig‘imlarning o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini ta’minlash uchun soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha choralarni amalga oshiradi;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ayrim turdagi soliqlarni hisoblash tarzida soliq to‘lovchilarga servis xizmatlari ko‘rsatadi;

– yuridik va jismoniy shaxslarning soliq sohasidagi huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlari himoyalanishini ta’minlaydi;

– davlat soliq xizmati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlaydi;

– soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning qonun hujjatlariga muvofiq sir tutilishiga rioya etish ishlarini tashkil qiladi;

i) soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni bajarish sohasida:

– soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlarni soliq to‘lovchilarga va aholiga o‘z vaqtida tanishtirish va yetkazish ishlarini tashkil etadi;

– soliq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati to‘g‘risida joylarda va ommaviy axborot vositalari orqali keng tushuntirish ishlarini olib boradi;

– soliqqa doir qonun hujjatlarini nashr etish, ko‘paytirish va davlat soliq xizmatining hududiy organlariga yetkazish, maslahat xizmatlari ko‘rsatish, soliq to‘lovchilarni soliqlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarishga, soliq hisobotlarini va soliqlar hamda yig‘imlarni hisoblab chiqish, to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishga o‘qitish uchun servis-markazlar tashkil qiladi;

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar to‘plamlarini nashr etadi, davlat soliq xizmati organlarini qonun hujjatlari bilan ta’minlash choralarini ko‘radi;

– jismoniy va yuridik shaxslarning soliq solish va soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi masalalari bo‘yicha murojaatlarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi;

– soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

– soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan ularning sodir etilishi sabablarini aniqlaydi va bartaraf etadi;

– huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;

– aksizosti tovarlarini ishlab chiqarishda va aylanmasida huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etilishini belgilangan tartibda tashkillashtiradi va amalga oshiradi;

– soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir qilgan shaxslarni qidirib topish uchun materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga beradi, davlatga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda undirishni ta’minlash choralarini ko‘radi;

– ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ishlarni yuritadi;

– soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etgan jismoniy va yuridik shaxslarning hisobini yuritadi, mazkur ma’lumotlarning tahlilini amalga oshiradi;

– soliqqa oid jinoyatlarning sodir etilishi holatlarini aniqlash uchun, surishtiruv, tergov va suddan yashirinib yurgan shaxslarni qidirib topish uchun ommaviy-axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanadi;

j) soliq to‘lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish yo‘li orqali soliq to‘lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish sohasida:

– soliq to‘lovchilar bilan ishlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilishini ta’minlaydi;

– soliq to‘lovchilarga real vaqt rejimida keng ko‘lamli interaktiv xizmatlar ko‘rsatilishini tashkil etadi;

– soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali, shu jumladan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron xizmat ko‘rsatilishini ta’minlaydi;

– soliq to‘lovchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ayrim soliqlar bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliqlar summasi haqida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali xabardor qiladi;

k) qonun hujjatlarini takomillashtirish va soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar kiritish sohasida:

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini, shu jumladan tabiiy resurslardan ehtiyotlab va samarali foydalanishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan soliqqa oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, soliqlar va yig‘imlarni birxillashtirish, soliq yukini qisqartirish, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini rag‘batlantirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish bo‘yicha takliflar tayyorlashda qatnashadi;

– qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va ularni belgilangan tartibda ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solish masalalari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

– soliq hisobotlari hamda soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish, to‘lash bilan bog‘liq boshqa hujjatlar shakllarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

– O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan ma’lumotlarni almashish va soliq sohasida hamkorlik qilish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalari loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi hamda ularning belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlaydi;

l) kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, davlat soliq xizmati organlarini yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan malakali

xodimlar bilan to‘ldirish, shuningdek, kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish sohasida:

– qo‘yilgan talablarga muvofiq davlat soliq xizmati organlariga ma’naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlarni tanlash va to‘ldirish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

– belgilangan tartibda ta’lim muassasalari tashkil etish yo‘li bilan, davlat oliy ta’lim muassasalari imkoniyatlaridan foydalangan holda davlat soliq xizmati organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarining tizimli ravishda tashkil etilishini ta’minlaydi, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning soliq organlari va o‘quv muassasalari bilan tajriba almashishning kengaytirilishini amalga oshiradi;

– davlat soliq xizmati organlari xodimlari lavozimlarining malaka tavsifnomalarini ishlab chiqadi, rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiyadan o‘tkazadi, ularga o‘z vakolatlari doirasida maxsus unvonlar beradi;

– tegishli tanlovdan o‘tmagan yoki lavozim vazifalarini jiddiy buzganligi uchun ilgari davlat soliq xizmati organlaridan bo‘shatilgan shaxslarning ishga qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan nazoratni ta’minlaydi;

– davlat soliq xizmati organlari kadrlarini tayyorlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan tizimni joriy etadi, soliq to‘lovchilar bilan nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda ularga stressga bardoshlilikni singdirish, shuningdek, xodimlarning axloqiy – psixologik holatini oshirish bo‘yicha psixologik treninglarni joriy qiladi;

m) davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, korrupsiya faktlariga keskin barham berish bo‘yicha ta’sirchan choralarni, shu jumladan xodimlar manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilish yo‘li bilan amalga oshirish, ishga rasmiyatchilik bilan yondashishga barham berish, shuningdek, xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash, o‘z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish sohasida:

– kadrlarni O‘zbekiston Respublikasiga sodiqlik, vatanparvarlik, halollik hamda huquqiy davlat g‘oyalari va asoslarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash yuzasidan uzluksiz ishlarni amalga oshiradi;

– davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq to‘lovchilarga nisbatan g‘arazli maqsadlarda noqonuniy ta’sir ko‘rsatish holatlarini aniqlaydi va ularga barham beradi;

– davlat soliq xizmati organlarida korrupsiya holatlarini aniqlashga, ularning oldini olishga, qarshi kurashishga va bartaraf etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, tashkil etadi va ularni amalga oshirishda qatnashadi;

– davlat soliq xizmati organlarining xodimlari o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

– xizmat vazifalarini bajarayotganda davlat soliq xizmati organlari xodimlarini noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

– har ikki yilda ko‘pi bilan bir marta davlat soliq xizmatining hududiy organlari hamda Hududlararo inspeksiyaning byudjet va xo‘jalik faoliyati bo‘yicha xarajatlar smetalari ijrosi yuzasidan taftishni amalga oshiradi. Juda zarur bo‘lganda va moliya-xo‘jalik faoliyatida qonun buzilishlariga yo‘l qo‘yilgan holatlar to‘g‘risida ishonchli axborot mavjud bo‘lgan taqdirda navbatdan tashqari taftishlar o‘tkazilishi mumkin;

– davlat soliq xizmatining hududiy organlari hamda Hududlararo inspeksiya tomonidan moddiy va pul resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bajarilishini ta’minlaydi, xo‘jasizlik, isrofgarchilik, davlat mablag‘larini va byudjetdan tashqari mablag‘larni asossiz ravishda sarflash, smeta-shtat intizomini buzish hollariga barham beradi;

– mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish borasida vijdonan xizmat qilayotgan xodimlarni ularning shaxsiy hissasidan kelib chiqqan holda rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratadi;

n) hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha davlat soliq xizmati organlariga biriktirilgan sektorlarda soliq solish

sohasidagi tizimli muammolarni o‘rganish va aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish sohasida:

– soliq solish sohasida ishlarni haqqoniy holatini chuqur va har tomonlama o‘rganishni amalga oshiradi;

– birinchi navbatda, uyma-uy yurish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, aholining turli qatlamlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni tashkil etish orqali to‘plangan muammolar va tizimli kamchiliklarni aniqlash bo‘yicha ishlarini amalga oshiradi;

– soliq solish sohasidagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

– soliq to‘lovchilar o‘rtasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyatini tushuntirish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi.

15.2. Qo‘mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholashning asosiy mezonlari

Qo‘mita faoliyatini amalga oshirishda o‘ziga yuklatilgan vazifalarni qay darajada samarali va natijali bajarganligini baholash quyidagi asosiy mezonlarga asoslanadi:

- davlat soliq xizmati organlari ishining sifatini qoniqarli baholaydigan soliq to‘lovchilar, shuningdek, ularning harakatlari va qarorlari yuzasidan shikoyatlarning soni;
- kameral nazorat natijasi bo‘yicha undirilgan soliqlar va yig‘imlarning umumiy summasi;
- xronometraj ko‘zdan kechirish va soliq tekshiruvlari natijalari bo‘yicha aniqlangan davlat byudjeti daromadlarini oshirish zaxiralari summasi va ularni undirish darajasi;
- hisoblangan soliq va yig‘imlar undirilishining to‘liqligi va soliq qarzdorligining pasayish darajasi;
- davlat soliq xizmati organlari bilan o‘zaro munosabatlarda “shaxsiy cabinet”dan foydalanish darajasi;
- elektron hisobvaraq-fakturalarni hisobga olish va onlayn nazorat-kassa mashinalarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish

bo‘yicha dasturiy mahsulotlarni qo‘llayotgan soliq to‘lovchilarning qamrab olinishi.

Qo‘mita markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari, davlat soliq xizmatining hududiy organlari, Hududlararo inspeksiya va tasarrufidagi tashkilotlar faoliyatining samaradorligini baholashning qo‘shimcha mezonlarini belgilashi mumkin.

Qo‘mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo‘yicha:

– davlat soliq xizmati organlarining rahbarlari va xodimlariga nisbatan rag‘batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlik choralari;

– Qo‘mitaning faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish choralari qabul qilinadi.

15.3. Soliq ma’murchiligidagi mavjud muammolar va uni bartaraf etish yo‘llari

Mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda samarali soliqqa tortish tizimi va davlat soliq xizmati organlarining uyg‘unlashgan faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq nazoratining eskirgan uslub va prinsiplariga asoslangan davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etish mazkur organlar oldiga qo‘yilgan yangi vazifalarni hal qilish, jumladan, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliqlar yig‘iluvchanligining oshirilishini ta’minlash imkonini bermaydi, o‘z yechimini topmagan sezilarli muammolar ham mavjud.

Soliq ma’murchiligida uchraydigan muammolarni ko‘radigan bo‘lsak:

- Soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish holati soliq ma’murchiligining shaffofligini, soliq solish masalalarida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish hamda nazorat samaradorligini, shuningdek, davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlanmayapti.

- Soliq to‘lovchilarning, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlarining ularga to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotsiz xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan “soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti”dan foydalanish manfaatdorligini oshirish bo‘yicha faol ish tashkil etilmagan;

- Soliq organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida yig‘ish uchun mavjud resurslarni safarbar qilish imkonini bermayapti;

- Soliqqa oid huquqiy munosabatlarning ahvoli va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, soliq siyosatining o‘rta muddatli va istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish, soliq solishning dolzarb muammolarini tadqiq etish, shuningdek, byudjetga soliq tushumlarini ishonchli prognozlashtirish faoliyatini takomillashtirishni talab qilmoqda;

- Soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, shu jumladan, soliq tekshiruvi obyektlarining zarur tahlilsiz belgilanishi soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni barvaqt profilaktika qilish samaradorligini pasaytirmoqda;

- Soliq nizolarini sudgacha hal etish – soliq apellyatsiysi instituti imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi soliq to‘lovchilarning sud organlariga murojaatlari ko‘payishiga olib kelmoqda;

- Soliq solish tizimining murakkabligi va bir xil soliq solish bazasiga ega soliqlarning yetarli darajada unifikatsiya qilinmaganligi, soliq qonunchiligining o‘zgaruvchanligi soliq to‘lovchilar tomonidan o‘z soliq majburiyatlarini to‘liq bajarish imkonini bermyapti;

- Soliq organlarining Davlat byudjetiga tushumlar to‘liqligini ta’minlash faoliyati ustidan tashqi nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish va soliq to‘lovchilarni hisobga olish imkonini bermayapti;

- Soliq to‘lovchilarning soliqlarni to‘lash bo‘yicha o‘z konstitutsiyaviy burchini ixtiyoriy bajarishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan, ayniqsa, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni takomillashtirish talab etiladi;
- Bozorlar va savdo komplekslari faoliyati ustidan samarali soliq nazorati o‘rnatilmaganligi mahalliy byudjetlarni to‘ldirish uchun mavjud rezervlarni to‘liq safarbar qilish, shuningdek, naqd pul mablag‘larining kafolatli qaytishini ta’minlamayapti;

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ish ko‘rsatkichlarini yaxshilash, korrupsiya ko‘rinishlarini profilaktika qilish, shuningdek, soliq organlarida xizmat qilishga halol va yuqori malakali kadrlarni jalb etish maqsadida davlat soliq xizmati organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.[35]

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib hozirda tegishlicha choralar ko‘rilmoqda, xususan Prezidentimizning 5116-sonli farmonlariga asosan soliq ma’murchiligini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari belgilab berildi. Unga ko‘ra:

- Soliq ma’murichiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish;
- Soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan ishonchli axborotni o‘z muddatida taqdim etish bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish;
- Soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq

[35] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 30.03.2018 dagi 5116- sonli farmoni.

to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

- Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olishni ta’minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalarning faoliyatini tiklashga har tomonlama ko‘maklashish, past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish, o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;
- Soliq solish masalalarida, shu jumladan, respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo‘shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;
- Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, soliq organlarini ma’naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to‘ldirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek, xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Bulardan tashqari bugungi kunda soliq ma’murchiligi samaradorligini va soliq organlarining soliq qarzlarini tartibga solish va undirish yuzasidan qilinadigan ishlar sifatini oshirish – soliq og‘irligini oshirmasdan byudjet daromadlarini ko‘paytirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Shu munosabat bilan soliq qarzlarini tartibga solish masalalari o‘z yechimini bir tomondan, soliq organlarining nazorat va servis funksiyalari, boshqa tomondan esa, xo‘jalik subyektlari ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari balansini ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuvda topishi mumkin.

Xo‘jalik subyektlarining soliqdan qarzlarining mavjudligi O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi va uning hududlari moliyaviy imkoniyatlarini cheklovchi muhim omillardan biri sifatida izohlanishi mumkin.

Hozirgi sharoitda soliq organlari oldiga soliq qarzlarining o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik va uni undirish va tartibga solishning turli samarali usullarini qidirib topish vazifasi qo‘yilgan.

Soliq qonunchiligi va amaliyotida hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolarning mavjudligi O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilish zarurligini ko‘rsatmoqda va bulardan kelib chiqib quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin.



15.1-rasm. Soliq islohotini taqozo qilgan muammolar

Shu bilan birga, soliq ma’murchiligi sohasida, jumladan, soliqlar va yig‘imlarni yig‘ishda, soliq solinadigan bazani kengaytirishda va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolar mavjudligi o‘z navbatida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda soliq tizimini takomillashtirish hamda soddalashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada soliq ma’murchiligi shaffofligini ta’minlash, soliq to‘lovchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilish borasida muayyan yutuqlarga erishilmoqda.

Bu yo‘nalishda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirish maqsadida, eng avvalo, ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog‘ini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, soliq yukini kamaytirish natijasida korxonalarda o‘z ixtiyorida qoladigan mablag‘lardan ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida investitsiya faoliyatini kengaytirish hamda xodimlar mehnatini yanada rag‘batlantirish imkoni paydo bo‘lmoqda.

Soliq tizimini soddalashtirish va soliqlarni birxillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlar, o‘z navbatida, soliqlarni hisoblash va to‘lash ishlarini soddalashtirishga hamda soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi.

Bu boradagi islohotlarni izchil davom ettirish va yanada jadallashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy talablarga javob beradigan soliq tizimi – iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. O‘zbekiston Respublikasida Davlat soliq qo‘mitasi qanday maqomga ega?
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining funksiyalari nimalardan iborat?
4. “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonunning mohiyatini ochib bering.
5. O‘zbekiston Respublikasi soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishini ta’riflab bering.
6. Soliq ma’muriyatchiligini amalga oshirishdagi mavjud muammolar?

16-mavzu. DAVLAT SOLIQ ORGANLARIDA JORIY ETILGAN DASTURIY MAHSULLAR HAMDA SOLIQ TO‘LOVCHILARGA KO‘RSATILADIGAN XIZMATLAR

16.1. Davlat soliq organlarida joriy etilgan dasturiy mahsullar
16.2. Davlatning axborotlashtirish siyosati, soliq tizimidagi ma’lumotlardan foydalanishda shaxsiy kabinetning va elektron raqamli imzoning ahamiyati
16.3. Interaktiv xizmat tushunchasi, turlari va uning vazifalari
16.4. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan davlat interaktiv xizmatlarining turlari, huquqiy asoslari va foydalanish tartibi
16.5. Davlat interaktiv xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha chet el davlatlari tajribasini o‘rganish

16.1. Davlat soliq organlarida joriy etilgan dasturiy mahsullar

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2013-yil 25-dekabrdagi “Tahlika tahlil” (“Risk analiz”) dasturiy mahsulini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 534-sonli buyrug‘iga asosan, Davlat soliq qo‘mitasining Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Tahlika tahlil” (“Risk analiz”) dasturiy mahsulini davlat soliq xizmati organlarida 2013-yilning 26-dekabridan boshlab joriy etish belgilandi. Mazkur buyruq asosida dasturiy mahsulni respublikaning barcha hududiy davlat soliq xizmati organlarining Kameral nazorat va Soliq tekshiruvlari bo‘lim (shu’ba)lari kompyuterlariga bog‘lash ishlarini amalga oshirildi.

“Tahlika tahlil” (“Risk analiz”) dasturiy mahsuli tekshiruvlarni o‘tkazish uchun soliq qonunchiligi buzilishlarining xavfi mavjudligini aniqlashga

imkon beruvchi mezonlar asosida soliq to‘lovchilarni tanlash maqsadida yaratilgan. Dasturiy mahsul orqali soliq to‘lovchilar ma’lumotlari avtomatik tarzda tahlil etiladi va eng tavakkallilari identifikatsiya qilinadi. Bu o‘z navbatida soliq organlarining cheklangan resurslarini maqbullashtirish, qonunga itoatkor soliq to‘lovchilar uchun ma’muriy bosimni pasaytirish imkoniyatini beradi.

“Tahlika tahlil” (“Risk analiz”) dasturiy mahsulining afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– dasturiy mahsul yordamida barcha soliq to‘lovchilar avtomatik tarzda tahlil etilib, eng tavakkallilari identifikatsiya qilinadi;

– soliq inspektorlari eng tavakkalli soliq to‘lovchilar – xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshiradilar;

– rejali tekshiruvlarni soliq to‘lovchi faqat tavakkalli bo‘lib hisoblangandagina o‘tkazish orqali soliq organlarining cheklangan resurslari maqbullashtiriladi;

– tavakkalli hisoblanmagan soliq to‘lovchilar faqat istisno hollarda tekshirilishi natijasida qonunga itoatkor soliq to‘lovchilar uchun ma’muriy bosimni pasaytirish imkoniyati yaratiladi;

– tahlil oldindan belgilangan va dasturlangan tavakkalchiliklar mezoni asosida to‘liq kompyuter tizimi yordamida amalga oshiriladi;

– iqtisodiy sharoitlar va soliq to‘lovchilarning intizomi o‘zgarganda tavakkalchiliklarni tezkorlik bilan qayta ko‘rib chiqish imkoniyati yaratiladi.

“Tahlika tahlil” (“Risk analiz”) dasturiy mahsuli quyidagi:

- Otcheti (EFO),
- Kameral (EFO),
- “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida kameral nazorat natijalari hisobini yuritish” modullarini o‘z ichiga oladi:

Otcheti (EFO) moduli. Yuridik shaxslarning taqdim etgan elektron hisobotlarini kameral nazoratdan o‘tkazish uchun mo‘ljallangan.

Kameral (EFO) moduli. Bu bo‘limida asosiy tahliliy va qo‘shimcha ma’lumotlar shakllanadi.

“Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida kameral nazorat natijalari hisobini yuritish” moduli tarkibida bir nechta bo‘limlar mavjud bo‘lib, bu bo‘limlarning quyidagilariga ma’lumotlar kiritiladi:

1. “Talabnomalarni ro‘yxatga olish”.
2. “Mezonlar kesimida hisobot”.
3. “Talabnomaga javob bermagan korxonalar bo‘yicha”.
4. “Byudjetga reja ko‘rsatkichlarini bo‘lib berish” (faqat DSQ va DSB foydalanuvchilari uchun. DSIlar ma’lumot kiritmaydi).
5. “Korxonalarga reja ko‘rsatkichlarini bo‘lib berish” (faqat DSQ va DSB foydalanuvchilari uchun. DSIlar ma’lumot kiritmaydi).

“Soliqlar kesimida hisobot” va “Yig‘ma hisobotlar” bo‘limidan faqat ma’lumotlar yig‘ib olish uchun foydalaniladi. Bu bo‘limlarga ma’lumot kiritilmaydi.

Dasturiy mahsul orqali:

– kameral nazorat natijasida aniqlangan kamchiliklarni ko‘rsatgan holda avtomatlashtirilgan tarzda talabnomalar shakllantirish;

– soliq to‘lovchi tomonidan talabnomaga berilgan javob xati ma’lumotlarini

4 guruhga (talabnomaga javob berish muddati kelmagan holatlar, talabnoma olingandan so‘ng 10 kunlik muddat ichida, 10 kunlik muddatdan keyin, umuman javob berilmagan holatlar) ajratilgan holda ma’lumotlar bazasiga kiritish imkoniyatlari yaratilgan.

Soliq to‘lovchi tomonidan talabnoma olingandan so‘ng 10 kunlik muddat ichida javob berilganda, ma’lumotlar ikkitaga bo‘linishi (aniqlangan tafovutlarga berilgan tushuntirish hamda topshirilgan qayta hisobotlar summalari soliq va to‘lovlar bo‘yicha yig‘ilishi) hamda soliq to‘lovchi tomonidan talabnoma olingandan so‘ng 10 kunlik muddatdan keyin javob berilganda, ma’lumotlar ikkitaga bo‘linishi (aniqlangan tafovutlarga berilgan tushuntirish hamda topshirilgan qayta hisobotlar summalari soliq va to‘lovlar bo‘yicha yig‘ilishi) hamda soliq to‘lovchiga nisbatan ma’muriy choralar qo‘llanganligi bo‘yicha nazorat ta’minlangan.

Soliq to‘lovchi tomonidan talabnomaga umuman javob berilmagan holatlar bo‘yicha ma’lumotlar avtomatik hisoblanib, qo‘shimcha ma’lumotlar kiritish imkoniyati ham mavjud.

“Soliq to‘lovchilarni kameral nazoratdan o‘tkazilishi natijasida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha umumiy hisobot”, “Kameral nazorat natijasida undirilgan soliqlarning tashkil topish manbalari bo‘yicha hisobot”larning respublika, viloyat va tuman pog‘onasida shakllantirilishi ta’minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2014-yil 10-avgustdagi “Tashqi manba” dasturiy majmuasini amaliyotga joriy qilish to‘g‘risida”gi 323-sonli sonli buyrug‘iga asosan Davlat soliq qo‘mitasining Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Tashqi manba” dasturiy majmuasi 2014-yil 15-avgustidan davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy qilindi.

“Tashqi manba” dasturiy majmuasi quyidagi asosiy modullardan iborat:

1. “ Tashqi manba ma’lumotlari” dasturiy mahsuli.
2. “Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsuli.
3. “To‘lovlar monitoringi” dasturiy mahsuli.
4. Valyuta kompleks dasturi.
5. 303 dasturi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-martdagi PQ-303-sonli qarori asosida, O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar shakllanadigan dasturiy mahsul).
6. 511 dasturi. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1- noyabrdagi 511-sonli qarori asosida Elektr tarmoq korxonalari tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar shakllanadigan dasturiy mahsul).
7. Yer fondi dasturi.
8. Soliq to‘lovchi tarixi.

“Tashqi manba ma’lumotlari” (Tashqi manbalardan axborotlarni qabul qilish va hisobini yuritish) dasturiy mahsuli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2013-yil 31-oktabrdagi “Tashqi manbalardan axborotlarni qabul qilish va hisobini yuritish” dasturiy mahsulini amaliyotga joriy qilish to‘g‘risida”gi 459-sonli buyrug‘iga asosan amaliyotga joriy qilingan.

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2014-yil 15-iyundagi “Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsulini amaliyotga joriy qilish to‘g‘risida”gi 241-sonli buyrug‘iga asosan Davlat soliq qo‘mitasining Yangi texnologiyalar ilmiy-axbort markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsuli 2014-yilning 15- iyunidan davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy qilingan.

“Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsulida shakllantirilayotgan ma’lumotlardan samarali foydalanish va ushbu ma’lumotlar asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan nazorat tadbirlarini o‘tkazish hamda uning natijadorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2014-yil 17-iyuldagi ““Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsuli ma’lumotlari asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan nazorat tadbirlarini o‘tkazish Reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 284-sonli buyrug‘iga asosan “Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsuli ma’lumotlari asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan nazorat tadbirlarini o‘tkazish Reglamenti tasdiqlangan.

Reglament “Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsuli tomonidan shakllantirilgan ma’lumotlar asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar bilan munosabatlarini nazorat qilish mexanizmini belgilab beradi.

“Naqd pul tushumlari” moduli orqali respublika, viloyatlar, tuman (shahar)lar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar kesimida ma’lum bir tanlangan davr uchun banklar kassalariga topshirilgan naqd pul mablag‘lari, to‘lov terminallari orqali inkassatsiya qilingan mablag‘lar to‘g‘risidag‘i ma’lumotlar shakllantiriladi.

“Naqd pul tushumilari hisobini yuritish” dasturiy mahsuli “Qayta ishlash va tahlil” dasturiy majmuasi tarkibiga kiritilgunga qadar Davlat soliq qo‘mitasining 2007-yil 12-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrdagi “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-726-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 266-sonli buyrug‘iga asosan ishlab chiqilgan.

Dasturiy mahsul O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2011-yil 1-avgustdagi “Nazorat-kassa mashinalarini ro‘yxatga olish va hisobini yuritish” hamda “Naqd pul tushumlari hisobini yuritish” dasturiy mahsullarini davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 213-sonli buyrug‘i bilan amaliyotga joriy qilingan.

Dasturiy mahsulni joriy qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad Markaziy bankdan olingan kunlik ma’lumotlarni yuklash asosida, subyektlar tomonidan bank kassalariga toshpirilgan naqd pul tushumlari haqida kunlik ma’lumotlarni shakllantirishdan iborat.

“Naqd pul tushumlari hisobini yuritish” dasturiy mahsuli ma’lumotlar bazasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan taqdim etilgan shifrlangan elektron ma’lumotlar asosida DSQ tomonidan shakllantirilib, undan quyidagi hisobotlar tanlangan kunga oy boshidan, kunlik va tezkor holda shakllantirilishi mumkin.

Ma’lumotlarni tezkor holda shakllantirish uchun viloyat tumanlari prognoz ma’lumotlarini kiritishi lozim bo‘ladi.

Tuman prognoz ma’lumotlari kiritilgandan so‘ng tezkor hisobotda prognozga nisbatan quyidagi ma’lumotlar shakllanadi:

- ✓ prognoz summasi;
- ✓ fakt: naqd pulda, terminallar orqali;
- ✓ faktning prognozga nisbatan farqi;
- ✓ bajarilishi foizlarda;
- ✓ tanlangan sana oralig‘ida tushgan tushum;
- ✓ prognozga nisbatan farqi;
- ✓ o‘tgan oyning shu davridagi tushum;
- ✓ o‘tgan oyga nisbatan farqi.

Naqd pul tushumi bo‘yicha hisobotlar respublika, viloyatlar, shahar va tumanlar miqyosida shakllanadi.

Hisobotda shakllanadigan ma’lumotlar:

Naqd puldagi savdo tushumi:

yakka tadbirkorlardan tushgan tushumlar;

iste’mol tovarlari sotishdan tushgan tushumlar;

alkogolli ichimliklarni sotishdan tushgan tushum;

tamaki mahsulotlarini sotishdan tushgan tushum;
o‘simlik yog‘ini sotishdan tushgan tushum;
neft mahsulotlari va gaz yoqilg‘isini sotishdan tushgan tushum;
boshqa iste’mol tovarlarini sotishdan tushgan tushum;
umumiy ovqatlanish korxonalaridan tushgan tushum;
avtotransport vositalarini sotishdan tushgan tushum;
hisob-kitob terminallari orqali tushgan tushum.

Ma’lumotlarni tuman (shahar)dagi banklar kesimida va/yoki subyektlar kesimida ko‘rish mumkin. Buning uchun ekranda hosil bo‘lgan jadvalning yuqori chap tomonidagi tugmachasini bosish talab e’tiladi.

Banklar va/yoki subyektlar bo‘yicha ma’lumot olish uchun jadval oxiridagi tugmalardan foydalaniladi. Bunda A-qatordagi tugmachaga banklar bo‘yicha hisobotlar, B-qatordagi tugmachaga subyektlar bo‘yicha hisobotlar joylashtirilgan. Tugmalar bosilganda hisobotni saqlash yoki ochish imkoniyatini beruvchi muloqot oynasi chiqadi. Foydalanuvchi xohishiga binoan hisobot ochib ko‘riladi yoki saqlab olinadi.

DSQning 2014-yil 17-iyuldagi 284-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Reglamentga asosan “Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsuli ma’lumotlari asosida davlat soliq xizmati organlari va ularning tegishli tuzilmalari tomonidan nazorat tadbirlari o‘tkazilib, Reglamentga asosan belgilangan vazifalar amalga oshiriladi.

Moliya vazirligi G‘aznachiligi tomonidan kun davomida moliyalashtirilayotgan va moliyalashtirishga tayyor xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘yicha axborot almashinuvini tashkil etish yuzasidan Davlat soliq qo‘mitasi va G‘aznachilik o‘rtasida 2011-yil 12-noyabrda kelishuv bitimi imzolangan va ma’lumotlardan foydalanish bo‘yicha “G‘aznachilik to‘lovlari monitoringi” dasturiy mahsuli ishlab chiqilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-oktyabrdagi PQ-1843-sonli qarori ijrosini ta’minlash doirasida hamda vazirliklar va idoralardan kelib tushayotgan ma’lumotlarni qayta ishlash va undan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida, Davlat soliq

qo‘mitasining 2013-yil 30- noyabrdagi ““G‘aznachilik to‘lovlari monitoringi” dasturiy mahsuli”ni amaliyotga joriy qilish to‘g‘risida”gi 500-sonli buyrug‘iga asosan “G‘aznachilik to‘lovlari monitoringi” dasturiy mahsulining takomillashtirilgan varianti amaliyotga joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2014-yil 11-oktyabrdagi 399-sonli buyrug‘i asosida Davlat soliq qo‘mitasining 2013-yil 30-noyabrdagi “G‘aznachilik to‘lovlari monitoringi” dasturiy mahsulini amaliyotga joriy qilish to‘g‘risida”gi 500-sonli buyrug‘i nomi va matnidagi “G‘aznachilik to‘lovlari monitoringi” so‘zlari “To‘lovlar monitoringi” so‘zlari bilan almashtirildi hamda Davlat soliq qo‘mitasining 2013-yil 30-noyabrdagi 500-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “G‘aznachilik to‘lovlari monitoringi” dasturiy mahsuli ma’lumotlari asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan nazorat tadbirlarini o‘tkazish Reglamenti” yangi tahrirda bayon etildi.

“To‘lovlar monitoringi” dasturiy mahsulini yaratishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – G‘aznachilik tomonidan kun davomida moliyalashtirilayotgan va moliyalashtirishga tayyor xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda boshqa manbalardan bankdagi hisobvarag‘iga pul mablag‘lari kelib tushgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar bilan munosabatlarini nazorat qilish mexanizmini yaratish bo‘lib hisoblanadi.

Dasturiy mahsul quyidagi vazifalarni bajaradi:

G‘aznachilik tomonidan moliyalashtirilgan hamda boshqa manbalardan bankdagi hisobvarag‘iga pul mablag‘lari kelib tushgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

G‘aznachilik tomonidan moliyalashtirilgan hamda boshqa manbalardan bankdagi hisobvarag‘iga pul mablag‘lari kelib tushgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar bilan munosabatlarini avtomatik ravishda tahlil qilish;

G‘aznachilik tomonidan moliyalashtirilgan hamda boshqa manbalardan bankdagi hisobvarag‘iga pul mablag‘lari kelib tushgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning byudjet va byudjetdan tashqari

maqsadli jamg‘armalar bilan munosabatlari bo‘yicha tahliliy hisobotlarni viloyatlar, tumanlar va subyektlar, shuningdek, vazirliklar kesimida yaratish.

Davlat soliq qo‘mitasining 2014-yil 11-oktabrdagi 399-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan Reglament O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi tomonidan kun davomida moliyalashtirilayotgan va moliyalashtirishga tayyor hamda boshqa manbalardan bankdagi hisobvarag‘iga pul mablag‘lari kelib tushgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar bilan munosabatlarini nazorat qilish mexanizmini belgilab beradi.

G‘aznachilik tomonidan kun davomida moliyalashtirilayotgan va moliyalashtirishga tayyor xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish Davlat soliq qo‘mitasi va G‘aznachilik o‘rtasida tuzilgan Bitimga asosan amalga oshiriladi.

Boshqa manbalardan bankdagi hisobvarag‘iga pul mablag‘lari kelib tushgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrdagi “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-726-sonli qarori hamda Adliya vazirligidan 2003-yil 3-martda 1321-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Tijorat banklari tomonidan alohida yirik miqdordagi pul mablag‘lar aylanmasi bo‘yicha Davlat soliq qo‘mitasiga elektron axborot uzatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan Markaziy bank va tijorat banklaridan naqd pul tushumi va yirik pul aylanmalariga doir taqdim etilayotgan ma’lumotlar asosida shakllantiriladi.

Dasturiy mahsulning ma’lumotlar bazasi G‘aznachilik va Banklar tomonidan telekommunikatsiya aloqa tarmoq‘i orqali taqdim etilgan shifrlangan elektron ma’lumotlar hamda Davlat soliq qo‘mitasida amalda foydalanilayotgan “Bank-DSQ”, “SI AIJ-4”, “Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish” dasturiy mahsullari va elektron soliq hisobotlari ma’lumotlar bazasi bilan bog‘langan holda avtomatik tarzda shakllanadi.

WEB texnologiyasi asosida qayta ishlab chiqilgan “Eksport-import operatsiyalari va tovarlar harakati” dasturiy majmuasi O‘zbekiston

Respublikasi Soliq kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 2-maydagi 125-sonli qaroriga muvofiq, bojxona organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborotlarni davlat soliq xizmati organlariga telekommunikatsiya kanallari orqali elektron shaklda taqdim etilishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan hamda amaliyotga Davlat Soliq Qo‘mitasining ““Eksport-import operatsiyalari va tovarlar harakati” dasturiy mahsulini tajribaviy sinovdan o‘tkazish va amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 2012-yil 21-iyuldagi 282-sonli buyrug‘iga asosan joriy etilgan.

Davlat soliq qo‘mitasining 2014-yil 29-iyuldagi “Eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish” dasturiy mahsulini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 307-sonli buyrug‘iga asosan Davlat soliq qo‘mitasining Yangi texnologiyalar ilmiy-axbort markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish” dasturiy mahsuli davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy qilindi hamda “Eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish” dasturiy mahsuli ma’lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha Reglament tasdiqlangandi.

Reglament O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-oktyabrdagi PQ-1843-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 29-iyundagi “Birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 245-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilib, bojxona organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborotlarni davlat soliq xizmati organlariga telekommunikatsiya kanallari orqali real vaqt (on-line) rejimida elektron shaklda taqdim etilishini ta’minlash hamda mazkur ma’lumotlar asosida eksport kontraktlari bo‘yicha yuridik shaxs-rezidentlarga nisbatan qo‘llaniladigan moliyaviy jarimalar va ko‘rilgan choralar hisobini yuritishni ta’minlovchi “Eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish” dasturiy mahsuli ma’lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanish tartibini belgilaydi.

Dasturiy mahsul ma’lumotlari tarkibi:

– tashqi manba ma’lumotlari bazasi – Davlat bojxona qo‘mitasi bilan tuzilgan bitim bo‘yicha telekommunikatsiya kanallari orqali elektron shaklda yuborilgan axborotlar asosida;

– nazorat tadbirlari natijalari – davlat soliq xizmati organlarining eksport kontraktlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitorlik qarzga yo‘l qo‘ygan yuridik shaxs-rezidentlarga nisbatan moliyaviy jarima qo‘llash yuzasidan amalga oshirilgan nazorat tadbirlari to‘g‘risidagi axborotlarni kiritish yo‘li bilan shakllanadi.

Dasturiy mahsulda shakllangan tashqi manba ma’lumotlari bazasiga asosan kameral nazorat va tahlil o‘tkazishning asosiy maqsadi:

– soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligi, valyuta va eksport-import operatsiyalarining belgilangan tartibini buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik va kelgusida ularga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ma’muriy, jinoiy na moliyaviy jazo choralarining oldini olish;

– soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlar va yig‘imlar, shuningdek, valyuta tushumining majburiy sotuvi bo‘yicha imtiyozlardan to‘g‘ri foydalanilishini nazorat qilish;

– eksport-import operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitorlik qarziga yo‘l qo‘ygan soliq to‘lovchilarga nisbatan belgilangan tartibda choralar ko‘rilishini nazorat qilish;

– eksport qiluvchi korxonalar tomonidan eksport operatsiyalari bo‘yicha qo‘llanilgan soliq imtiyozlari to‘g‘riligini nazorat qilish;

– korxonalarning eksport-import operatsiyalari bo‘yicha yuzaga keladigan soliq majburiyatlari to‘g‘ri amalga oshirilganligini nazorat qilishdan iborat.

Dasturiy mahsulning tashqi manba ma’lumotlar bazasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan real vaqt rejimida taqdim etilgan ma’lumotlar asosida hamda nazorat tadbirlari natijalari hududiy davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan kiritilgan ma’lumotlar asosida shakllanadi.

Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan eksport-import operatsiyalari yuzasidan taqdim etilgan ma’lumotlar kontraktlar kesimida shakllanadi. Bunda har bir konrakt bo‘yicha mazkur kontraktga tegishli bo‘lgan bojxona yuk deklaratsiyalari ro‘yxati, amalga oshirilgan to‘lovlar va har

bir bojxona yuk deklaratsiyasi kesimida aylanma-qoldiq summalar qaydnomasi avtomatik ravishda shakllanadi.

Mazkur jarayonda agar valyuta tushumi qonunchilikda belgilangan muddatlarda kelib tushmagan hollarda, muddati o‘tgan debitor qarzi mavjud bojxona yuk deklaratsiyalari ro‘yxati avtomatik tarzda shakllanadi.

Dasturiy mahsulning ishlash tamoyili 2 usulda, ya’ni davlat bojxona qo‘mitasidan kelib tushgan ma’lumotlar asosida, yuridik shaxs-rezidentlarning eksport kontraktlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar hisobini yuritish va o‘tkazilgan hujjatli tekshirishlar natijalarini hamda ularga muvofiq amalga oshirilgan nazorat tadbirlari natijalarini dasturiy mahsulga kiritib borish orqali shakllantiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari mas’ul xodimlari tomonidan birinchi navbatda eksport-import operatsiyalarni amalga oshirgan xo‘jalik subyektlarining toifasi, ya’ni kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlariga tegishliligi aniqlanib, tegishli yozuvlar kiritiladi.

Avtomatik tarzda tanlab olingan muddati o‘tgan debitorlik qarziga yo‘l qo‘ygan yuridik shaxs-rezidentlar faoliyati yuzasidan o‘tkazilgan kameral nazorat natijalari bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar (har bir nazorat tadbirlari amalga oshirilgan sanadan boshlab) 3 kun muddatda dasturiy mahsulga kiritiladi:

1) kameral nazorat o‘tkazilgan sana;
2) milliy valyuta birligida qo‘llanilishi lozim bo‘lgan moliyaviy jarima summasi;
3) moliyaviy jarimani ixtiyoriy to‘lab berish to‘g‘risidagi talabnoma raqami, sanasi va summasi;
4) talabnomaga javoban yuridik shaxs-rezident tomonidan ixtiyoriy to‘lash to‘g‘risidagi yozma xat raqami va sanasi;
5) xo‘jalik sudiga kiritilgan da’vo arizasi raqami, sanasi va moliyaviy jarima summasi;
6) xo‘jalik sudi hal qiluv qarorining raqami, sanasi va qo‘llanilgan yoki rad etilgan jarima miqdori hamda qisqacha mazmuni.

“Eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish” dasturiy mahsuli orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan amalga oshirilayotgan eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish jarayoni yengillashdi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan eksport-import shartnomalariga asosan tuzilayotgan har bir bojxona yuk deklaratsiyasi bo‘yicha ma’lumot olish imkoniyati yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-noyabrdagi “Elektr energiyasidan foydalanganlik uchun hisob-kitob mexanizmini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 511-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan, 2005-yil 1-yanvardan boshlab soliqlar va byudjetga majburiy to‘lovlar o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun javobgarlikka tortishning belgilangan tartibi iste’mol qilingan elektr energiyasi uchun muddati o‘tkazib yuborilgan to‘lovlarga yo‘l qo‘ygan yuridik shaxslarga tatbiq etilishi belgilandi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga to‘lov muddati o‘tgan qarzlarni yig‘ish va yuridik shaxslar tomonidan iste’mol qilingan elektr energiyasi uchun mablag‘larning to‘liq tushishini nazorat qilish funksiyasi yuklatildi.

Yuridik shaxslar tomonidan iste’mol qilingan elektr energiyasi uchun muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlar “O‘zbekenergo” DAK bo‘linmalari tomonidan har oyda taqdim etiladigan to‘lov talabnomalari to‘g‘risidagi reyestrlar bo‘yicha yuridik shaxs ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan so‘zsiz tartibda undirib olinishi joriy qilingan.

Xususan, “O‘zbekenergo” DAK energiya bilan ta’minlovchi tashkilotlarining soliq xizmati organlari bilan yuridik shaxslarning berilgan elektr energiyasi qiymati miqdorida muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik qarzi bobida axborot taqdim etish qismidagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solish tartibi to‘g‘risidagi Nizom Adliya vazirligidan 2004-yil 25-dekabrda 1437-son bilan ro‘yxatga olingan.

Mazkur nizomga ko‘ra, energiya bilan ta’minlovchi tashkilot yuridik shaxs – iste’molchilarga taqdim etilgan to‘lov talabnomalari Reyestrini

tuzadi va har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay iste’molchi ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi tuman (shahar) Davlat soliq inspeksiyalariga, tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etadi.

O‘z navbatida, yuridik shaxslardan to‘lov muddati o‘tgan debitor qarzlarini majburiy undirish bo‘yicha Xo‘jalik sudlari tomonidan berilgan ijro hujjatlarini bajarilishini ta’minlashda soliq idoralari, “O‘zbekenergo” DAK va Adliya vazirligi huzuridagi sud ijro Departamenti o‘rtasidagi faoliyatni tartibga solish bo‘yicha Yo‘riqnoma ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2005-yil 6-apreldagi 1466-son bilan ro‘yxatga olingan.

Mazkur Yo‘rinqnomaga muvofiq, soliq idoralari reyestrda keltirilgan iste’molchilar ro‘yxatini uch ish kuni davomida undiruvni ularning mol-mulkiga qaratish to‘g‘risida Xo‘jalik sudiga ariza bilan murojaat qiladi.

Xo‘jalik sudi soliq idorasi tomonidan taqdim etilgan arizani qonunda belgilangan tartibda undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish to‘g‘risida Sud buyrug‘i berish masalasini ko‘rib chiqadi.

Xo‘jalik sudi to‘lov muddati o‘tgan debitor qarzlarni iste’molchi – yuridik shaxslarning mol-mulki hisobidan undirib olish to‘g‘risidagi Sud buyruqlarini tegishli Davlat soliq boshqarmalariga yuboradi, ular tomonidan ushbu Sud buyruqlarini ertasidan kechiktirmay tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalariga yuboriladi.

O‘z navbatida, Davlat soliq inspeksiyasi ikki ish kunidan kechiktirmasdan majburiy tartibda ijrosini ta’minlash uchun tegishli tuman (shahar) Sud ijrochilari bo‘limiga kuzatuv xati bilan topshiradi.

Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish maqsadida Davlat soliq xizmati organlarida Davlat soliq qo‘mitasining 2005-yil 5-avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlarida avtomatlashtirilgan kompyuter dasturiy mahsullarini amalga joriy etish to‘g‘risida»gi 148-sonli buyrug‘iga asosan “Elektr energiyasi bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik hisobini yuritish” dasturiy mahsuli joriy qilinib, DSQning 2006- yil 14-dekabrdagi 301-sonli buyrug‘iga asosan barcha DSI, DSB va DSQga amaliyotga kiritildi.

Dasturiy mahsulning web-texnologiyasi asosida takomillashtirilgan so‘nggi versiyasi Davlat Soliq Qo‘mitasining 2013-yil 20-sentabrdagi 369-sonli buyrug‘iga asosan amaliyotga joriy etildi.

Dasturiy mahsulini joriy qilish maqsadlari bo‘lib:

- Muddati o‘tgan qarzdorlikni qisqartirish borasida quyi soliq idoralarining faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish;
- Iste’mol qilingan elektr energiya uchun muddati o‘tgan qarzdorlikka ega yuridik shaxslar ustidan nazoratni kuchaytirish;
- Elektr energiya iste’mol va hisob-kitobi bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga rioya etmagan yuridik shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini ko‘rish ishlarini kuchaytirish;
- Muddati o‘tgan qarzdorlikni qisqartirishga aloqador bo‘lgan boshqa idoralar bilan o‘zaro hamkorlik ishlarining samarasini oshirish;
- Muddati o‘tgan qarzdorlikni vazirlik, tarmoq va hududlar kesimida tahlil qilish va tegishli choralarni belgilash hisoblanadi.

“Soliq to‘lovchilarning egaligidagi yer fondi” dasturiy mahsuli Davlat soliq qo‘mitasining 2013-yil 30-iyundagi ““Soliq to‘lovchilarning egaligidagi yer fondi” (STEYeF) dasturiy mahsulini (birinchi bosqich-yuridik shaxslar) amaliyotga joriy qilish to‘g‘risida”gi 257-sonli buyrug‘iga asosan amaliyotga joriy etildi.

Dasturiy mahsul yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan yer solig‘i bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasining hududiy bo‘limlaridan yer egalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq idoralariga olib, yer solig‘i to‘lovchilari tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar bilan solishtirgan holda Soliq kodeksiga asosan kameral nazoratni amalga oshirish maqsadida joriy qilingan.

Dasturiy mahsulda quyidagi imkoniyatlar yaratilgan*:*

1. Respublika bo‘yicha yuridik shaxslar egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lgan yer maydonlari hisobini avtomatlashgan holda yuritgan holda quyidagi ma’lumotlarni:

– noqishloq xo‘jalik korxonalari;

– qishloq xo‘jalik korxonalari (yagona yer solig‘i to‘lashga o‘tmagan);

– yagona yer solig‘ini to‘lovchilari bo‘yicha umumiy va alohida-alohida ma’lumotlarni olish.

2. Noqishloq xo‘jalik korxonalarning yer maydonlari, shu jumladan, shaharlarda zonalar bo‘yicha va qishloq joylarida joylashgan yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish.

3. Qishloq xo‘jalik korxonalari (yagona yer solig‘i to‘lashga o‘tmagan) yer maydonlarining yer turlari, ball boniteti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish.

4. Yagona yer solig‘i to‘lovchi qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarning yer maydonlari va ularning normativ qiymatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish.

5. Yer solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarga nisbatan dasturiy mahsulda hisoblangan yer solig‘i bo‘yicha solishtirma ma’lumot, yuridik shaxslarga hisoblangan yer solig‘i bo‘yicha hisoblangan, to‘langan, soliq qarzi va ortiqcha to‘lovlar to‘g‘risidagi, yer solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, imtiyoz turlari va summalari bo‘yicha:

– noqishloq xo‘jalik korxonalari;

– qishloq xo‘jalik korxonalari (yagona yer solig‘i to‘lashga o‘tmagan);

– yagona yer solig‘i to‘lovchilari bo‘yicha umumiy va alohida-alohida ma’lumotlarni olish.

6. Yuridik shaxslarning soliq to‘lash tartibiga ko‘ra, yagona soliq to‘lovi to‘lovchisi bo‘lgan korxonalar bo‘yicha alohida hisobot shakllantirish bunda, yagona soliq to‘lovini to‘lovchi korxonaga hisoblangan yer solig‘i bilan ular tomonidan taqdim etilgan yagona soliq to‘lovi hisob-kitobini solishtirish.

7. Dasturiy majmuadan barcha yer solig‘i to‘lovchilarining faoliyat turlari, holatlari, boshqarish organlari (vazirlik) bo‘yicha istalgan ma’lumotlarni shakllantirish.

Jumladan, fermer xo‘jaliklarining faoliyat turlari bo‘yicha, paxtachilik va g‘allachilik, kartoshka va sabzavotchilik, lavlagichilik, meva rezavor yetishtirish va uzumchilik, yog‘ olinadigan o‘simliklarni

yetishtirish, ozuqabop o‘simliklarni yetishtirish, chorvachilik, qo‘ychilik va echkichilik, parrandachilik, baliqchilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklari bo‘yicha alohida-alohida hisobotlar chiqarish.

8. Dasturiy mahsulda hisoblangan yer solig‘i summasi bilan korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar bo‘yicha hisoblangan soliq summalarini taqqoslash orqali, avtomatik tarzda kameral nazorat qilish imkoni yaratiladi.

16.2. Davlatning axborotlashtirish siyosati, soliq tizimidagi ma’lumotlardan foydalanishda shaxsiy kabinetning va elektron raqamli imzoning ahamiyati

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2007-yil 23- avgustda 181-sonli “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, Mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingan [36]. Mazkur qarorda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari to‘g‘risidagi Nizom, bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reestri tasdiqlangan.

Qarorda Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatish va ko‘rsatilayotgan ana shunday xizmatlarni kengaytirish, yuridik va jismoniy shaxslarning interaktiv davlat xizmatlaridan sifatli foydalanishini ta’minlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash yo‘li bilan davlat va xo‘jalik boshqaruvi,

[36] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 23 августдаги 181- сонли «Давлат ва хўжалик бошқаруви, Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда юридик ва жисмоний шахслар билан ўзаро ҳамкорлигини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.

mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rishlari belgilab o‘tilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishini ta’minlash;
- davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O‘zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;
- xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog‘idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;
- davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o‘zaro aloqada ishlashini ta’minlash;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;
- axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko‘maklashish;
- dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini rag‘batlantirish;
- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;
- kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish.

Davlatimizning axborotlashtirish siyosatidan kelib chiqqan holda soliq tizimida elektron ma’lumotlar bazasini yaratish, undan foydalanish chora-tadbirlari va amaliy ishlar bir necha yillardan buyon muntazam amalga oshirilmoqda.

Soliq tizimidagi axborotlardan yuridik shaxslar tomonidan foydalanishda shaxsiy kabinetning va elektron raqamli imzoning ahamiyati muhim hisoblanadi.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy web-saytiga joylashtirilgan, soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlari amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni elektron tarzda amalga oshirishni ta’minlaydigan axborot resursidir.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar soliq to‘lovchining soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali uning yozma arizasi, shu jumladan, axborot tizimi orqali yuborilgan elektron shakldagi arizasi asosida amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo‘lmagan taqdirda, soliq to‘lovchi va davlat soliq xizmati organi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron hujjat yuborilganda soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti amal qilishi to‘xtatib turilganligi to‘g‘risida yoki elektron raqamli imzo kaliti sertifikati bekor qilinganligi haqida ma’lumot olingan bo‘lsa, ushbu hujjat soliq to‘lovchiga mazkur ma’lumotlar olingan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida qog‘ozda jo‘natiladi.

“Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq[37]:

- **elektron raqamli imzo** – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi

[37] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 23 avgustdagi 181-I sonli «Elektron raqamli imzo to’g’risida»gi Farmoni.

axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

- **elektron raqamli imzoning yopiq kaliti** – elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo‘yuvchi shaxsning o‘ziga ma’lum bo‘lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi;
- **elektron raqamli imzoning ochiq kaliti** – elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi.

Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u maxsus vakolat bergan organ amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli organ:

- elektron raqamli imzodan foydalanish standartlari, normalari va qoidalarini ishlab chiqadi;
- elektron raqamli imzolar kalitlarini ro‘yxatga olish markazlarini (bundan buyon matnda ro‘yxatga olish markazi, deb yuritiladi) davlat ro‘yxatidan o‘tkazadi;
- ro‘yxatga olish markazlari vakolatli shaxslariga tegishli elektron raqamli imzolar kalitlari sertifikatlarining yagona davlat reyestrini yuritadi hamda yuridik va jismoniy shaxslarning undan erkin foydalana olishini ta’minlaydi;
- ro‘yxatga olish markazlarining vakolatli shaxslariga elektron raqamli imzolar kalitlari sertifikatlarini beradi;
- yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatiga binoan ro‘yxatga olish markazlari vakolatli shaxslarining elektron raqamli imzosi haqiqiyligini tasdiqlaydi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va yig‘imlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[38]gi 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son Farmonining ijrosini ta’minlash, tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 864-sonli qaror qabul qildi, unda quyidagi vazifalar belgilandi[39]:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi bir oy muddatda:

tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlari orqali elektron raqamli imzolar kalitlarini ro‘yxatga olish va elektron raqamli imzolar sertifikatlarini berish tartibini ishlab chiqishi va tasdiqlashlari;

o‘z xodimlarini va tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlari xodimlarini elektron raqamli imzolar kalitlarini ro‘yxatga olish va elektron raqamli imzolar sertifikatlarini berish tartibotlariga tizimli ravishda o‘qitishni ta’minlashi;

tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlari orqali olish elektron raqamli imzolar kalitlarini ro‘yxatga olish va elektron raqamli imzolar sertifikatlarini berish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarning namunaviy shakllari va blankalarini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha xususiyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqishi va tasdiqlashlari;

ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarining pasportini unda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning dolzarbligini doimiy ravishda ta’minlagan holda ishlab chiqishi va tasdiqlashlari.

---

[38] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning yig’iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”[38]gi 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-son Farmoni.

[39] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 864-sonli qaror “tadbirkorlik sub’ektlariga “yagona darcha” tamoyili bo’yicha davlat xizmatlarini ko’rsatish tartibini yanada takomillashtirish tugrisida”gi 2017 yil 1 avgustdagi Qarori.

Bundan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari iqtisodiyot, soliq tizimida foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada ko‘rsatilayotgan davlat interaktiv xizmatlari sifatini oshirish, doimiy takomillashtirib borish talab qilinmoqda va amalga oshirilmoqda.

16.3. Interaktiv xizmat tushunchasi, turlari va uning vazifalari

Muassasa tomonidan muassasaning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog‘i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga ko‘rsatiladigan xizmatlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda Interaktiv xizmat ko‘rsatish hisoblanadi.

Interaktiv xizmatlarni ko‘rsatish:

a) axborot almashish va tarqatish tezkorligi darajasining o‘sishi hisobiga davlat funksiyalarini bajarish samaradorligi va xizmat ko‘rsatish sur’atini oshirishga;

b) muassasa tomonidan ularga yuborilgan so‘rovlarni puxta ishlanishi, yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqilishi ijro nazoratini kuchaytirishga;

d) muassasalarning fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro hamkorligi darajasini oshirishga;

e) muassasaning yuridik va jismoniy shaxslar hamda boshqa muassasalar bilan o‘zaro hamkorligiga sarflanadigan xarajatlarini qisqartirishga;

f) muassasa faoliyatining ochiq-oshkoraligi darajasini oshirishga;

g) ma’lumot almashinuvining takomillashgan mexanizmiga o‘tishga yo‘naltirilgan.

Interaktiv xizmatlar:

Umumiy foydalaniladigan axborotni tarqatish – tegishli axborot tizimlari, shu jumladan, Internet orqali axborot resurslaridan foydalanish xizmatlarini amalga oshirish;

bir tomonlama aloqa – turli formadagi elektron shakldagi hujjatlardan foydalanish imkoniyatini berish;

ikki tomonlama axborot almashinuvi – so‘rov bo‘yicha qabul qilish, tahlil (ko‘rib chiqish) va javob yuborishni o‘z ichiga oladigan muassasa

Interaktiv xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish va/yoki berish);

Interaktiv xizmatlar umumiy foydalaniladigan, foydalanish qulay hamda aholining barcha qatlamlari foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qoniqtirishga yo‘naltirilishi kerak. Interfaol xizmatlarni taqdim etish qulay va tezkor bo‘lishi lozim.

Interaktiv xizmatdan foydalanishni kafolatli va xavfsiz bo‘lishi muassasa tomonidan ta’minlanishi kerak. Interaktiv xizmat ko‘rsatish jarayonida taqdim etiladigan ma’lumot ishonchli, himoyalangan va qonun hujjatlarida belgilangan normalarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Soliq to‘lovchilar uchun ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish hamda sifatini oshirishga yo‘naltirilgan davlat soliq xizmati organlari axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardir:

- byudjetga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlarni tahlil etish va prognoz qilish;
- soliq to‘lovchilar, soliqqa tortish obyektlari, hisoblangan va to‘langan soliqlar hamda yig‘imlar, shuningdek, ular bo‘yicha imtiyozlar to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va saqlash;
- soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining bajarilishini kameral nazorat qilish, shuningdek, davlat soliq xizmati organlariga yuklatilgan vazifalarning ijrosini nazorat qilish uchun axborot ta’minoti;
- soliq to‘lovchilarning soliq va moliya hisobotlari hamda soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi boshqa axborotlarni avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olish;
- soliq ma’muriyatchiligi jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va boshqa vazirliklar hamda organlar o‘rtasida, jumladan, aloqa kanallari orqali elektron axborot almashuvini tashkil etish;
- soliq to‘lovchilarga real vaqt rejimida keng ko‘lamli Interaktiv xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish;

- axborot xavfsizligini ta’minlash hamda mavjud ma’lumotlarni himoya qilish choralarini ko‘rish.

Davlat soliq qo‘mitasining 2016-yil 2-fevraldagi 40-sonli buyrug‘iga asosan 16.1-rasmda O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko‘rsatiladigan davlat interfaol xizmatlari reyestri quyida keltirilgan:

Soliq to‘lovchi jismoniy va yuridik shaxslarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yish, ularga hisobga qo‘yilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma berish.
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolinmasdan daromadni to‘lash uchun O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi sifatida faoliyatni amalga oshirishi va doimiy muassasa sifatida hisobda turganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma berish.
Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash yoki undan ixtiyoriy voz kechish to‘g‘risida xabarnomalarni qabul qilish.
Yagona soliq to‘lovini to‘lovchi yuridik shaxslardan qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy asosda to‘lashlari va to‘lashni rad etishlari to‘g‘risida xabarnomalar qabul qilish.
Soliq to‘lovchi yuridik shaxslardan moliyaviy, soliq va yig‘imlar bo‘yicha hisobotlarni, shuningdek, ayrim soliq turlari bo‘yicha hisob-kitob ma’lumotnomalarini qabul qilish va qayta ishlash.
Yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarni qabul qilish va qayta ishlash.
Jismoniy shaxslarning daromadlari to‘g‘risidagi soliq deklaratsiyalarini qabul qilish va qayta ishlash.
Chet elda ochilgan hisob raqamlardagi mablag‘lar harakati bo‘yicha axborot qabul qilish va qayta ishlash.
Majburiy sotilishi kerak bo‘lgan valyuta tushumi miqdori hisob-kitobini qabul qilish va qayta ishlash.
Soliq to‘lovchilarga shaxsiy kartochkalardan ko‘chirmalarni va solishtirma dalolatnomani taqdim etish.
Soliq to‘lovchilarga soliqlar va yig‘imlardan soliq qarzi mavjud

emasligi haqida ma’lumotnomalar berish.

. Ortiqcha to‘langan soliqlar va yig‘imlar summalarini hisobga olish va (yoki) soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘iga qaytarish yuzasidan soliq to‘lovchilarning arizalarini qabul qilish.

. Soliq to‘lovchilarga nol darajali stavkani qo‘llash natijasida hosil bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining ortiqcha summasini qaytarish uchun topshirilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish.

. O‘zbekiston Respublikasi norezidentining yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini qaytarish to‘g‘risidagi arizani qabul qilish va ko‘rib chiqish.

. O‘zbekiston Respublikasi norezidenti jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini qaytarish to‘g‘risidagi arizani qabul qilish va ko‘rib chiqish.

. Jismoniy shaxslarning mol-mulk, yer va daromad soliqlarini, shuningdek, dehqon xo‘jaliklarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig‘ini hisoblab chiqish va to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomalarini taqdim etish.

. O‘zbekiston Respublikasining ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan norezidentlariga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasini hisoblab chiqarish va to‘lov xabarnomasini taqdim etish.

. Kichik biznes toifasiga mansubligi haqida ma’lumotnoma taqdim etish.

. Majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkaziladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan auditorlik xulosasining tasdiqlangan nusxasini qabul qilish.

. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari – jismoniy va yuridik shaxslarning doimiy joylashgan joyi (rezidentlik) faktini rasmiy tasdiqlab berish.

. Mol-mulk bir yuridik shaxs – O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan boshqa yuridik shaxsga – O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga, jismoniy shaxsga – O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga yoki rezidentiga realizatsiya qilingan taqdirda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘langanligi to‘g‘risida

ma’lumotnoma berish.

. Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini ro‘yxatdan o‘tkazish kartochkasini berish.
. Tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar va nazorat qiluvchi organlarga tekshirishlar reja-jadvalidan ko‘chirma berish.
. Nazorat qiluvchi organlar tomonidan hisobotlarni qabul qilish.
. Soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organining qarori nusxasini soliq to‘lovchiga topshirish.
. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish.
. Davlat soliq xizmati organlari rahbariyati va mansabdor shaxslari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish.
. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini davlat soliq xizmati organlarining “Ishonch telefoni” orqali qabul qilish.
. Davlat soliq xizmati organlariga ishga kirish uchun rezyume qabul qilish.
. Davlat soliq xizmati organlarining tuzilmasi, tarkibi, funksiyalari va asosiy faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etish.
. Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida ma’lumot taqdim etish.
. Soliqqa tortish umumiy masalalari yuzasidan tushuntirishlar berish.
. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari yuzasidan tushuntirishlar berish.
. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish masalalari yuzasidan tushuntirishlar berish.
. Soliq va yig‘imlarni qabul qilish.
. Soliq to‘lovchilar haqidagi ma’lumotlarni taqdim etish.

- Elektron raqamli imzolar kalitlarini ro‘yxatga olish.
- Fuqarolarning hisoblangan sug‘urta badallari ma’lumotlarini yakka tartibda hisobini yuritish bo‘yicha fuqarolarga ma’lumot taqdim etish. ***(qo‘shildi 384, 30.07.17)***[40]
- Soliq qarzini undirish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish.
- Davlat soliq xizmati organlarida mehnat faoliyati to‘g‘risida ma’lumotnoma berish
- Davlat soliq xizmati organlarida ishlagan davrida olingan ish haqi to‘g‘risida ma’lumotnoma berish
- Yuridik shaxslarning soliq imtiyozlarini qo‘llash asoslarini qabul qilish va qayta ishlash.
- Yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan to‘langan sug‘urta badallari to‘g‘risida ma’lumotnoma berish.
- Korxona va tashkilotlardan ularda ishlovchi xodimlarning mol-mulk va yer soliqlari uchun to‘lovlarni qabul qilish.

16.1-rasm. **O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko‘rsatiladigan davlat inerfaol xizmatlari ro‘yxati**[41]

16.4. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan davlat interaktiv xizmatlarining turlari, huquqiy asoslari va foydalanish tartibi

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘grisida”[42] gi Qonuniga muvofiq, davlat soliq xizmati organlari tomonidan axborot-

[40] O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasining 2017 yil 30 iyuldagi “O’zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko’rsatiladigan yangi elektron davlat xizmatlarini amaliyotga joriy etish to’g’risida”gi 384- son Buyrug’i.

[41] O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasining 2016 yil 2 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko’rsatiladigan davlat intarfaol xizmatlari reestri tug’risida”gi 40 -sonli buyrug’i.

[42] O’zbekiston Respublikasining 2015 yil 9 dekabrdagi O’RQ-395 sonli"Elektron hukumat to’g’risida"Qonuni «Xalq so’zi» gazetasi 2015 yil 10 dekabr.

kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron davlat xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirish maqsadida bir qator amaliy ishlar bajarilgan va bu jarayon doimiy ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

Bugungi kunda Davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslarga bir qancha davlat interaktiv xizmatlari ko‘rsatilmoqda.



16.2-rasm. **Davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan davlat interaktiv xizmatlari ro‘yxati**[43]

[43] Manba: http//my.soliq.uz internet sayti malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



16.3-rasm. **Davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan davlat interaktiv xizmatlari ro‘yxati**[44]



16.4-rasm. **Davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan davlat interaktiv xizmatlari** [45]

[44] Manba: http//my.soliq.uz internet sayti malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

[45] Manba: http//my.soliq.uz internet sayti malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



16.5-rasm. **Davlat soliq xizmati organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shaxsiy kabineti**[46]

16.5. Davlat interaktiv xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha chet el davlatlari tajribasini o‘rganish

Rossiya Federatsiyasining Federal Soliq xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga ko‘rsatiladigan davlat interaktiv xizmatlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarga o‘xshash jihatlari ko‘p. Rossiya Federatsiyasida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslar shaxsiy kabinetlari orqali Federal Soliq xizmati bilan elektron ma’lumot almashish imkoniyatiga ega. Buning uchun elektron imzo talab qilinadi.

[46] Manba: http//my.soliq.uz internet sayti malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



16.6-rasm. **Rossiya Federatsiyasi Federal Soliq xizmatidan ro‘yxatdan o‘tgan soliq to‘lovchi yuridik shaxsning shaxsiy kabinetining umumiy ko‘rinishi**[47]

Federal soliq xizmati organlari tomonidan bir qator interaktiv xizmatlar ko‘rsatiladi. Bularga quyidagilarni misol qilib keltiramiz: kontragentning maqomini tekshirish, inspeksiya qabuliga onlayn yozilish, eng ko‘p beriladigan savollar, hududiy o‘z inspeksiyangizning manzili va to‘lov rekvizitlari, INN ni aniqlash, yuridik shaxslar elektron hujjatlarini davlat reestriga kiritish uchun topshirish, to‘langan soliqlar, to‘lov topshiriqnomasini to‘ldirish va boshqalar.

Qozog‘iston Respublikasida soliq masalalari bo‘yicha yuqori turuvchi organ Qozog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat daromadlari qo‘mitasi hisoblanadi. Ushbu organ tomonidan soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarga bir qator interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatiladi.

[47] Manba: http//lk3.nalog.ru internet sayti malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Qozog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat daromadlari qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarga bir qator interaktiv davlat xizmatlariga quyidagilar kiradi: soliq to‘lovchini qidirish, ekspres yordam, QQS to‘lovchilari reestrlari, ishonchsiz soliq to‘lovchilarni izlash, iqtisodiy sohada jinoyat sodir etib qidiruvda bo‘lgan shaxslar haqida ma’lumot beruvchi qidiruv xizmati, shikoyatlar elektron kitobi, ro‘yxatdan o‘tgan nazorat kassa mashinalaridan berilgan nazorat chekini tekshirish, to‘lov hujjatlari shakllarini kiritish va chop etish , ma’lumot beruvchi resurslar va boshqalar.

Buyuk Britaniya davlatida “Elektron hukumat” tizimida ko‘rsatilayotgan davlat interaktiv xizmatlari soni qariyb 25000 dan ortadi. Bunda aynan soliq tizimiga tegishli bo‘lgan davlat interaktiv xizmatlari 560 dan ortiqni tashkil etadi.

“Katta yigirma”talik davlatlari iqtisodiyotida axborot tizimining ahamiyati va ularda joriy etilgan “Elektron hukumat” tizimi biz uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda elektron hukumat tizimi Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Norvegiya, Kanada, Niderlandiya, Daniya hamda Germaniya singari mamlakatlarda samaradorligini ko‘rsatmoqda. Ushbu mamlakatlarda juda ko‘plab davlat xizmatlaridan uydan chiqmagan holda, onlayn rejimida foydalanish mumkin. Davlat organlariga so‘rovlarga javoblar, turli to‘lovlar, rasmiy hujjatlarning namunasini olish, ularni to‘ldirish, elektron imzo bilan yuborish, oliy o‘quv yurtlarida masofadan turib tahsil olish, ichki ishlar idoralariga ariza bilan murojaat etish va boshqalar shular jumlasidandir. Masalan, Janubiy Koreyada shaxslar rasmiy sayt orqali o‘zining murojaati ko‘rib chiqilishi qaysi bosqichda ekanligini kuzatib borishi mumkin.

Jahon bankining Doing Business reytingida so‘nggi besh yilda O‘zbekistonning umumiy reytingi biznes yuritish bo‘yicha 150-o‘rindan 87-o‘ringa ko‘tarildi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida, jumladan, belgilangan tartib-taomillarni buzganlik uchun shikoyat bildirish, tadbirkorni

murojaat qiluvchining mobil telefon raqami orqali identifikatsiya qilish maqsadida ro‘yxatga olish, muhandislik-kommunikatsiya texnologiyalariga ulanish uchun ariza berish, tadbirkorlik subyektlariga o‘zimizda ishlab chiqarilgan avtomobil transporti vositalarini xarid etish uchun ariza berish, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni ro‘yxatga olish maqsadida arizani rasmiylashtirish singari xizmatlar joriy qilingan.

2014-yildan boshlab eksport va import kontraktlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida bepul ro‘yxatdan o‘tkazilmoqda. Banklar, soliq hamda bojxona organlari Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi orqali xo‘jalik subyektlarining tashqi savdo faoliyati monitoringini olib boryapti. Davlat bojxona qo‘mitasi saytida elektron yuk bojxona deklaratsiyalari qabul qilinmoqda. 2015-yilda davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali ishga tushirildi va elektron savdo shakli amaliyotga tatbiq etildi. Masofaviy bank xizmatlari joriy qilinishi bilan 2016-yilda 1847569 nafar foydalanuvchi kredit olish uchun elektron ariza bilan murojaat etdi.

BMT ekspertlarining fikricha, 2019-yilda O‘zbekistonda elektron hukumatning rivojlanish indeksi 0,5434 yoki eng yuqori ko‘rsatkichga nisbatan 54 foizni tashkil qildi. Bu O‘zbekiston elektron hukumat ravnaqi yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishiga zamin yaratdi (50 foizdan yuqori).

BMTning iqtisodiy hamda ijtimoiy masalalar bo‘yicha departamenti 2016- yilda dunyoning turli davlatlarida elektron hukumatning rivojlanishi haqida navbatdagi hisobotini e’lon qildi. BMT uslubiyotiga binoan Elektron hukumatning rivojlanishi bo‘yicha indeksi asosida mamlakatlarning reytingi shakllantiriladi. Bu indeks uchta omil, ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi, inson kapitali va elektron xizmatlar rivojidan iborat. Yana boshqa juda muhim ko‘rsatkich – elektron ishtirok etish indeksidagi o‘sish ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur indeksga binoan, hukumatning fuqarolar, biznes subyektlari hamda davlat organlari o‘rtasida muloqotni rivojlantirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishiga baho beriladi, erishilgan natijalar o‘rganiladi.

Yana bir diqqatga sazovor jihati, O‘zbekiston elektron ishtirok etish reytingida 24 pog‘ona – 2018-yilgi 71-o‘rindan 2019-yilda 47-o‘ringa ko‘tarildi. Ushbu indeksning o‘sish sur’atlari bo‘yicha respublika Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi o‘rinni, Hamdo‘stlik davlatlari o‘rtasida esa uchinchi pog‘onani egalladi. BMT ekspertlari O‘zbekistonda uy-joy mulkdorlari shirkatlari portali, ochiq ma’lumotlar portali va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portali ishga tushirilganiga e’tibor qaratgan. Ularning fikricha, bu sa’y-harakatlar davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlash hamda xalq bilan muloqot amaliy mexanizmlarini joriy etish borasida ijobiy qadam hisoblanadi.

Elektron hukumat rivojlanishi bo‘yicha O‘zbekiston indeksining o‘sishida elektron xizmatlar ko‘rsatish darajasi (56 foiz o‘sish bo‘lgan) muhim o‘rin tutdi. Lekin bunda AKT infratuzilmasi rivojlanishi bo‘yicha o‘sish u darajada yuqori bo‘lmadi (6 foiz). Ushbu indeks muqim va mobil telefon aloqasi abonentlari soni, aralash hamda simsiz keng polosali aloqa tarmog‘i, shuningdek, internetdan foydalanuvchi aholi soni asosida shakllantiriladi. 2019-yilda O‘zbekistonda internetdan muntazam foydalanadigan aholi ulushi 46,4 foizni tashkil qildi, keng polosali internetdan foydalanadiganlar soni esa, bor-yo‘g‘i, 1900000 kishiga yaqinni tashkil etdi. Inson kapitalining rivojlangan darajasi bo‘yicha indeks esa 3,5 foiz tushgan. Bunda yoshi katta kishilarning savodxonligi, aholining ta’lim tizimi bilan qamrab olinganlik darajasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Aytish joizki, elektron hukumat faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishda idoralararo elektron hamkorlik tizimidan foydalanishni kengaytirish talab etiladi. Shuni unutmaslik kerakki, elektron hukumat faoliyatida ma’lumotlar muayyan davlat muassasasidan tashqariga chiqadi. Bu esa axborot xavfsizligi tizimini takomillashtirishni kun tartibiga qo‘yadi.

Turli idoralar axborot tizimlari o‘rtasida elektron hamkorlikka o‘tilishi aynan elektron hukumatning shakllanish jarayoni sanaladi. Ushbu jarayonning markazida davlat organi emas, aynan foydalanuvchi turmog‘i lozim.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida 2018–2021-yillarga mo‘ljallangan tegishli dastur ishlab chiqildi. Notarial xizmatlar avtomatlashtiriladi hamda soddalashtiriladi. Eksport-import operatsiyalari bo‘yicha ruxsat beruvchi hujjatlarni birxillashtirish davom ettiriladi. Davlat organlari xodimlari va aholining internetdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kompyuter savodxonligi oshirilishi bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘riladi.[48]

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan interaktiv xizmatlarni korsatishning maqsadlari nimadan iborat?
2. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan interaktiv xizmatlarni korsatishning vazifalari nimadan iborat?
3. Davlat soliq qo‘mitasining interaktiv xizmatlarni ko‘rsatish vazifasini ta’minlash maqsadida qabul qilingan hujjatlar nimadan iborat?
4. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlar turlarini tasniflab bering.

[48] https://daryo.uz/k/2017/03/10/ekspert-elektron-hukumat-faoliyati-samaradorligiga-idoralararo-elektron-aloqalarning-yaxlit-tizimi-yoqligi-xalaqit-bermoqda/ internet sayti malumotlari asosida tayyorlandi.

17-mavzu. SOLIQ MA’MURCHILIGINI AMALGA OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

17.1. Xorijiy davlatlarda soliq ma’murchiligini amalga oshirishning xususiyatlari
17.2. Ayrim xorijiy davlatlar (AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya)da soliq ma’murchiligini amalga oshirishning o‘ziga xos ahamiyati
17.3. Soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirishning xorij tajribasi

17.1. Xorijiy davlatlarda soliq ma’murchiligini amalga oshirishning xususiyatlari

Soliq tizimini isloh qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishishdir. Har bir mamlakatda ham ushbu maqsadga faqat izchil soliq siyosatini amalga oshirish orqali erishiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda soliq siyosati muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvining boshqa unsurlari pul-kredit siyosati, baho siyosati kabilar bilan birgalikda mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga faol ta’sir etadi. Davlat soliq siyosati orqali iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi yoki cheklaydi.

Soliq siyosatining asosiy vazifasi oxir-oqibat iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilishi lozim. Aynan iqtisodiy o‘sishga erishilgandagina ishlab chiqarish rivojlanishiga va uning samaradorligini ta’minlashga, aholining yashash darajasini oshishiga xizmat qiladi. Shu

boisdan ham bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda doimo takomillashib borilishi lozim.

Mamlakatimiz mustaqilligining o‘ttiz yili daomida respublikamiz soliq tizimi tashkil etilib, rivojlanib, takomillashib bordi. Jumladan, istiqlolning dastlabki yillarida, davlat byudjeti taqchilligini kamaytirish va daromad qismini mustahkamlash maqsadida, korxonalardan 30 % stavkada qo‘shilgan qiymat solig‘i, 15 %dan 45 %gacha daromad (foyda) solig‘i; aksiz solig‘i; mol-mulk solig‘i; respublikadan tashqariga olib chiqiladigan mahsulotlar va xomashyo resurslariga soliqlar joriy etildi. Qishloq korxonalari uchun daromad solig‘i, ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lov, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash maqsadida 6 foizli resurslar solig‘i va 30 foizli amortizatsiya soliqlari joriy etildi.

Respublikamizda soliq idoralari faoliyati 1990-yilning oxirida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshida Davlat moliya-soliq bosh boshqarmasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarori (1990-yil 17-dekabrdagi 383-sonli) qabul qilinganidan so‘ng faollasha boshladi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to‘g‘risida”gi 1991-yil 14-iyundagi Nizomi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to‘g‘risida”gi 1991-yil 12-avgustdagi 217-sonli qarori qabul qilinganidan keyin davlat nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatidagi soliq idoralarining shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishiga asos solindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida”gi 1994-yil 18-yanvardagi Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasi Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirildi.

Soliq islohotlarining keyingi bosqichida soliqlarni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish va korxonalarning ishlab

chiqarishni rag‘batlantirishga qaratish maqsadida korxonalar har bir foiz mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirgani hisobiga foyda solig‘i stavkasi 0,3 foizga kamaytirish, qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun foyda solig‘i stavkasi rentabellik darajasidan kelib chiqib, ya’ni rentabellik darajasi 40 %gacha bo‘lgan korxonalar uchun 3 foizli stavkada, rentabellik darajasi 40 %dan yuqori bo‘lgan korxonalar uchun 20 foizli stavkada undirish belgilandi.

1995-yildan boshlab soliq tizimi ixchamlashtirilib, bir qator kam samarasiz soliqlar respublika tashqarisiga olib chiqiladigan xomashyo resurslari uchun soliq, hisoblab yozilgan amortizatsiyadan byudjetga 30 foiz ajratma va boshqalar bekor qilindi. Jamoa xo‘jaligi a’zolari va iqtisodiyotning boshqa sohalarida ishlayotganlar uchun soliqqa tortishning yagona tartibi o‘rnatildi. Fuqarolar daromadiga solinadigan soliq shkalasi o‘zgartirildi.

Soliqlarni bozor munosabatlaridagi faoliyatini kuchaytirish uchun yagona huquqiy asos 1997-yil 24-aprelda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilindi va soliq qonunchiligi mustahkamlabgina qolinmasdan, soliqlarni mahsulotlarni eksportini, import tovarlar o‘rniga mahsulotlar ishlab chiqarishni, nogironlarni ishlab chiqarishga qatnashishini, mehr-muruvvat ishlarini rag‘batlantirish vazifasini kuchaytirdi.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilash maqsadida 1997-yilning avgustida “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Unda, davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifa va funksiyalari belgilanishi bilan birga uchastka davlat soliq inspektori lavozimi joriy etildi. Natijada, davlat soliq organi aholi keng qatlamlari bilan yaqindan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

1998-yildan keyingi soliq islohotlari davrida soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish davri boshlanib, bu davrda soliq to‘lovchi yuridik shaxslarga imkoni boricha soddalashgan, ixchamlashgan soliq tizimi joriy etildi va ularning soliq hisoblari, hisobotlari, soliq to‘lash muddatlari ixchamlashtirildi.

Xususan kichik korxonalar uchun soddalashtirilgan tizimda yagona solig‘ini to‘lash, qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘ini to‘lash, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi daromaddan soliq va mol-mulk solig‘ini to‘lash joriy etildi

2000-yildan boshlab samarasiz, byudjetga tushishini qiyinlashtiradigan reklama solig‘i, avtotransport vositalarini olib sotish solig‘i, me’yoridan ortiq sotilmagan tayyor mahsulot qoldig‘i uchun 2 foizli haq hamda tabiatni ifloslantiruvchi chiqindilarni joylashtirish uchun haqlar bekor qilindi.

Soliq islohotlarining keyingi davrida ya’ni 2005-yilning 1-iyulidan boshlab mikrofirma va kichik korxonalar uchun ilgari to‘lab kelingan yagona soliq hamda byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Yo‘l va Maktab ta’limi jamg‘armalariga majburiy ajratmalar o‘rniga yagona soliq to‘lovi joriy etildi.

2007-yildan boshlab savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun belgilangan yalpi daromad solig‘i, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga, Respublika yo‘l jamg‘armasiga, Maktab ta’limini rivojlantirish jamg‘armasiga ajratiladigan majburiy to‘lovlar o‘rniga yalpi tushumdan to‘lanadigan yagona soliq to‘lovi joriy etildi.

Ma’lumki 2005-yildan boshlab O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish sohasida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish davri boshlandi.

Xususan, 1997-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Soliq kodeksi iqtisodiy islohotlar sohasida bugungi kunning yangi va ustuvor vazifalari talablariga javob bermasligi qayd etilib, soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan foydalanish o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etib, soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lishi lozimligini uqtirildi va amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, shu asosda uni yanada soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq boshqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirishni

nazarda tutadigan yangi tahrirdagi Soliq kodeksini tasdiqlash topshirildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 25 dekabr “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash o‘g‘risida”gi Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi tasdiqlanib, 2008-yil 1-yanvardan kuchga kiritildi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining avvalgisidan eng asosiy farqi soliq Kodeksi to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir kuchiga ega bo‘lgan, yani har bir soliqni hisoblash va to‘lash tartiblari turli huquqiy-meyoriy hujjatlar, yo‘riqnomalar asosida amalga oshirilmasdan, to‘g‘ridan to‘g‘ri Soliq kodeksida aks ettirildi.

Shu bilan birga, Kodeksda, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida soliq to‘lovchilar, shuningdek, ushbu soliq va majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish va to‘lash uchun zarur elementlar belgilab qo‘yilgan taqdirdagina soliq va majburiy to‘lov belgilangan, deb hisoblanishi, barcha soliqlar va majburiy to‘lovlar faqatgina qonunchilik hujjatlari bilan joriy qilinishi, soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar qonunchilik hujjatlari va Prezident qarorlari bilan o‘rnatilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi ikki qismdan iborat bo‘lib uning umumiy qismida xalqaro me’yorlarga mos keluvchi soliqqa tortish tamoyillari, kodeksda foydalanilgan asosiy tushunchalar, soliq majburiyatlarini bajarishda foydalaniladigan tartiblar, soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lash yoki to‘lov muddatlarini kechiktirish tartiblari, ortiqcha to‘lovlarni qaytarib berishning aniq mexanizmlari, soliq nazorati shakllari va ularni amalga oshirish tartiblari hamda soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlari va harakatsizligi ustidan shikoyat qilish tartiblari, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilash masalalar keng yoritildi.

Soliq kodeksining maxsus qism umumbelgilangan soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibini, soliq solishning soddalashtirilgan tartibini, shuningdek, soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari belgilandi. Soliq kodeksining to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishini ta’minlash maqsadida, maxsus qismda davlat boji va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lanadigan majburiy

to‘lovlar, soddalashtirilgan soliq solish tartibini qo‘llashda soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibini belgilovchi bo‘limlar bilan to‘ldirildi.

Shuningdek, Soliq kodeksiga soliq nazoratining shakllari va amalga oshirish tartibini, shuningdek, soliq organlarining qarorlari va ularning mansabdor shaxslari harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilishni tartibga soluvchi boblar kiritilib, unda soliq nazoratining shakllari “kameral nazorat”, “xronometraj” o‘tkazish tartibi, muddatlari, davriyligi hamda ushbu nazorat shakllarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar belgilab qo‘yildi.

Moliyaviy jarimalarni qo‘llashni tartibga solish maqsadida soliq to‘lovchilarga, soliq agentlariga moliyaviy jarimalar sud tartibida qo‘llanilishi, soliq to‘lovchi, soliq agenti sodir etilgan huquqbuzarlikda aybini tan olganda va yetkazilgan zararni belgilangan muddatlarda va to‘liq hajmda, shu jumladan, peniyani ixtiyoriy ravishda to‘lagan holatlarning bundan mustasnoligi belgilab qo‘yildi.

Mamlakatimizda soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilsak eng avvalo mavjud soliq turlaridan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar soliq turlarini tahlil qilib o‘zimizda mavjud soliq turlari bilan solishtirilganida, ularning tajribasini o‘rganib amaliyotga joriy qilinishi foydaliroq bo‘ladi.



17.1-rasm. **Xorijiy davlatlar amaliyotida mavjud soliq turlari**[49]

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, rivojlangan davlatlarning aksariyat qismida qo‘shilgan qiymat solig‘ida korporatsiyalar solig‘i va daromad solig‘i turlari mavjud. Ushbu soliq turlari Yevropa va Osiyo davlatlar soliq ma’murchiligida tutgan o‘rnini va ahamiyatini tahlil qilish orqali bizning soliq amaliyotimiz bilan solishtirish orqali o‘rganib chiqamiz.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ham yuridik shaxslar o‘z faoliyatlari davomida ega bo‘lgan daromadlaridan foyda solig‘i to‘lashadilar. Ushbu davlatlar soliq tizimida ham korxonalar olinadigan foyda solig‘i alohida ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur soliqning ko‘pgina umumiy xususiyatlarga egaligi bilan ayni paytda bir-biridan farq qilishini ham ta’kidlash lozim.

t/r	Davlatlar	Foyda solig‘i miqdori,

[49] https://www.google.com

		Foizda
1.	Yaponiya	37
2.	Italiya	36
3.	Ispaniya	35
4.	Niderlandiya	34,5
5.	Avstriya	34
6.	Fransiya	33,3
7.	Buyuk britaniya	30
8.	Qozog‘iston Respublikasi	30
9.	Germaniya Federativ Respublikasi	25
10	Rossiya Federatsiyasi	24
11	O‘zbekiston Respublikasi	15

17.2-rasm. **Xorijiy davlatlarda korxonalardan olinadigan foyda solig‘ining stavkalari miqdorlari**[50]

Jadval ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, foyda solig‘i stavkasi dunyoda iqtisodiy salohiyati bo‘yicha faqat AQShdan keyingi o‘rinda turgan Yaponiya mamlakatida 37 foizni yoki korxonalar moliyaviy natijasining 1/3 qismidan ko‘pini tashkil etmoqda. Bu O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan soliq stavkasiga qaraganda esa 3 barobardan ham ko‘pni tashkil etmoqda. Umuman olganda nomlari keltirilgan davlatlar ichida O‘zbekistondan bir pog‘ona oldin Rossiya Federatsiyasi bo‘lib, undagi stavka ham bizdagiga qaraganda ikki barobar ko‘p bo‘lmoqda.

[50] IBFD. Publications. European Tax Handbook-2017. r. 59.



17.3-rasm. **Xorijiy davlatlarda korxonalardan olinadigan foyda solig‘ining stavkalari miqdorlari**[51]

AQShda korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliqni qo‘llashga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri shundaki, bu yerda dividendlar soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanmaydi. Ammo, dividendlarga nisbatan sezilarli darajada soliq imtiyozlari qo‘llaniladi. Masalan, korporatsiyalarning daromadlaridan olinadigan soliq imtiyozlari ularning aksionerlik kapitalidagi salmog‘idan kelib chiqqan holda, belgilangan. Xususan korporatsiyaning boshqa korporatsiya aksionerlik kapitalidagi salmog‘i 80 foiz va undan ortiq bo‘lsa, u holda korporatsiya oladigan dividend 100 foiz soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi. Agar bu ko‘rsatkich 20 foiz va undan ortiq bo‘lsa

[51] IBFD. Publications. European Tax Handbook-2017. r. 59.

dividendlarning 80 foizi, qolgan barcha boshqa holatlarda dividendlarning 70 foizi soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi[52].

Buyuk Britaniya kompaniyalari kapitalning o‘sishidan soliqni ham to‘laydilar. Norezident kompaniyalar bu soliqni to‘lamaydilar.

Korporativ daromad solig‘i jamiyatning kelajakdagi rivojlanish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu hujjat uchta usulda mavjud tadqiqotlarga o‘z hissasini qo‘shadi: birinchi navbatda, mavjud soliq manbalarini kengaytirib, soliqlar odamlarning kelajagiga bo‘lgan munosabati kabi asosiy shaxsiy qadriyatlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini isbotlovchi dalillarni taqdim etadi.

Germaniyada korporatsiyalar foydasiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumlar bor. Soliq stavkasi 25 foizni tashkil etadi. Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda foyda ikkiga bo‘linadi; taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan[53].

Fransiyada esa korxonalar foydasidan olinadigan soliq – bu korxonani barcha operatsiyalar yig‘indisi bo‘yicha olingan sof foydasidan undiriladi. Hozirgi kunda soliqning asosiy stavkasi 33.3 foiz bo‘lib, ushbu soliq stavkasiga pasaytiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llaniladi. Eng yuqori soliq stavkasi 42 foizdir.

Yaponiyada korporatsiyalar foydasiga soliqning stavkasi 37 foizni tashkil etadi. Ushbu soliqqa nisbatan ham pasaytiriluvchi koeffitsiyentlar qo‘llaniladi. Eng yuqori soliq stavkasi 48,8 foizni tashkil etadi.

[52] Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератов-Пресс”. 2017. Стр. 123.
[53] James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2015 e. p. 121.



17.4-rasm. **Xorijiy davlatlarda fuqarolardan olinadigan daromad solig‘i**[54]

Rasm ma’lumotlaridan tahlil qilish mumkinki, daromad solig‘ining eng yuqori stavkasi bugungi kunda Belgiya 42,8 % Gegmaniyada 39,9 % va Daniya davlatida esa 38,9 % ga to‘g‘ri keladi. Meksika davlatida esa daromad solig‘i stavkasi qolgan davlatlariga nisbatan sezilarli darajada farq qilishini ko‘rish mumkin. Bugungi kunda bizning amaliyotimizda esa daromad solig‘i stavkasi 12 foizni tashkil etadi.

Jahon amaliyotida soliq idoralari ishini tashkil etishning turli variantlari mavjud. Ayrim davlatlarda soliq idoralari mustaqil statusga ega bo‘lsa (Avstraliya, Xitoy, Yaponiya), boshqalarida ushbu institutlar moliyaviy organlarning tarkibiy bo‘linmalari (Italiya, Fransiya, Shveytsariya, AQSh) sifatida faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, to‘g‘ri va egri soliqlarning undirilishi nuqtayi nazaridan soliq ma’murchiligining bo‘linishi hollari ham jahon tajribasida mavjud.

[54]https://www.google.com

Quyida soliq xizmatini tashkil qilishning tartibini keltirib o‘tamiz.

Buyuk Britaniyada soliq olinishini nazorat va tartibga soluvchi idoralar. Mamlakat soliq tizimini boshqarish va tartibga solishda G‘aznachilik asosiy hukumat idorasi hisoblanadi. Soliq ishini tashkil qilish ushbu idoraning ikkita departamentiga yuklatilgan: Ichki daromadlar boshqarmasi va Bojlar hamda aksizlar boshqarmasi.

Ichki daromadlar boshqarmasining funksional majburiyati mamlakatdagi yuridik va jismoniy shaxslardan soliq undirilishini nazorat qilishdan iborat. Bojlar va aksizlar boshqarmasi bevosita egri soliqlar olinishini nazorat qilish bilan shug‘ullanadi.

Buyuk Britaniyada soliqlarni undirish xarajatlari soliqli daromadlarning 2%ni tashkil etib, bu ko‘rsatkich boshqa iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlardan birmuncha past darajada ekanligi bilan e’tiborga loyiq.

AQShda soliq xizmati ishini tashkil qilish tartibi. AQSh davlat byudjetining tuzilishi uch pog‘onali bo‘lganligi sababli, bevosita soliqlar va yig‘imlarni undirish ishlarini tashkil qilish vazifasi yuklatilgan organ hisoblangan Ichki daromadlar xizmati (IDX) ham uch darajali tizimdan iborat:

1) IDX yuqori darajasida federal soliqlarni undirilishi nazorat qilinadi;

2) IDXning o‘rta darajasida shtatlar darajasidagi soliq va yig‘imlarni undirilishini nazorat qiladi;

3) IDX ning quyi bo‘g‘inida joylardagi mahalliy hokimiyat idoralari tomonidan o‘rnatilgan mahalliy soliqlarni olinishi nazorat qilinadi.

AQSh soliq xizmati oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalar sifatida quyidagilar keltiriladi:

a) ixtiyoriy ravishda to‘lanadigan soliqlar tushumini ko‘paytirish;

b) soliq to‘lovchilar uchun soliq to‘lash jarayonini yengillashtirish;

d) soliq xizmati sifati va samaradorligini oshirib borish.

Soliq boshqaruvining tarkibiy tuzilishi soliq turlari bo‘yicha emas, balki funksional belgilari asosida tashkil topgan. Xususan:

- Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash bo‘limi soliq to‘lovchilar tomonidan topshirilgan deklaratsiya ma’lumotlarini qayta ishlash bilan shug‘ullanadi.
- Soliqlarni byudjetga undirish bo‘limi to‘lanmay qolgan yoki boqimandalarni byudjetga yo‘naltirilishi bilan shug‘ullanadi.
- Jinoyat qidiruv bo‘limi esa soliqqa oid huquqbuzarlik holatlarini o‘rganadi va soliq qonunchiligi bajarilishini nazorat qiladi.
- Soliq to‘lovchilar xizmat ko‘rsatish bo‘limi soliq to‘lovchilarga amaldagi soliq qonunchiligi qoidalarini tushuntirishga va ular bilan ish olib borilishini tashkil qilish bilan shug‘ullanadi.

Xulosa qilish mumkinki, soliq stavkasini past ekanligi o‘sha davlatda aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab- quvvatlash va ularning daromadini soliqqa tortish mexanizmi samarali yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan soliqqa tortish islohotlari iqtisodiy yangilanishlarning tarkibiy qismi sifatida o‘tish davrining umumiqtisodiy va maxsus vazifalarini hal etishga yordam berishi lozim. Bunda soliqlar va yig‘imlar tizimini davr talabidan kelib chiqib takomillashtirish, shu hisobdan ma’lum darajada aholining turmush sharoitini tartibga solish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va byudjetga muntazam ravishda daromadlar kelib tushishini ta’minlash uchun foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu maqsadlarga erishish uchun, jumladan, mahalliy soliqlar va yig‘imlar samaradorligini oshirishning jahon tajribasi bilan tanishish muhim ahamiyatga egadir.

17.2. Ayrim xorijiy davlatlar (AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya)da soliq ma’murchiligini amalga oshirishning o‘ziga xos ahamiyati

O‘zbekistonda soliq ma’murchiligi fanini rivojlantirishda xorij tajribasining qo‘llanilishi zaruriy elementlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va inqiroz davridan keyingi sharoitlarda soliq qonunchiligi masalalarining soddalashtirilishi, soliq rejimlari va soliq stavkalarning, shuningdek, soliq imtiyozlari soni va

salmog‘ining kamayishi holatlari kuzatiladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida soliq ma’murchiligining takomillashtirilishi tobora soliq to‘lovchilar va ularning manfaatlari ko‘zlagan holda amalga oshirilmoqda. Ayrim davlatlar soliq nazoratini mustahkamlash va takomillashtirish yo‘lidan borayotgan bo‘lsa, boshqa birlari esa soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘mak berish orqali hamkorlik “aloqalari”ni o‘rnatishga harakat qilishmoqda. Masalan, AQShda soliq to‘lovchi bilan soliq ma’murlari o‘rtasidagi munosabatlar axborot xatlari asosida amalga oshiriladi. Fransiyada soliq organi bilan soliq to‘lovchi munosabatlari fikrlar almashinuvi doirasida, har bir tomon o‘zining haqligini himoya qilgan holda yuzaga keladi. Joriy va hisobot natijalari bo‘yicha soliq deklaratsiyalari auditorlar va mustaqil soliq maslahatchilari tomonidan tuziladi. Qo‘shimcha soliq hisoblash administrativ tarzda o‘tkaziladi, agar soliq idorasi tomonidan katta miqdordagi soliq to‘lanmaganligi aniqlansa, sezilarli jarima sanksiyalari qo‘llash uchun asos bo‘ladi. Agar tekshiruv natijasida soliq to‘lovchi tomonidan ortiqcha soliq to‘lagani aniqlansa, soliq summasi foiz ustamalari bilan qaytariladi.

Fransiyada soliq kodeksining tegishli moddalari soliq to‘lovchining yashash tarzidan kelib chiqqan holda uning olishi mumkin bo‘lgan daromadlarini belgilab beradi. Masalan, soliq to‘lovchi ma’lum kadastr qiymatiga ega bo‘lgan uyga ega bo‘lsa va uni ijaraga bergan taqdirda, uning daromadi uyning ijara haqining besh baravari miqdorida aniqlanadi. Agar soliq to‘lovchining uy xizmatkori mavjud bo‘lsa, uning yillik daromadi 30 ming frankka tenglashtiriladi, yangi avtomobil olgan taqdirda avtomobil qiymatining 75 %dan kelib chiqqan holda daromadi aniqlanadi va belgilangan tartibda soliqqa tortiladi. Agar soliq to‘lovchi tasarrufida uy, avtomobil va uy xizmatkori bo‘lsa, yuqoridagi daromad miqdorlari qo‘shilgan holda soliq olinadi.

Shvetsiyada soliq ma’murchiligini isloh qilish “yagona deklaratsiya – yagona hisob raqami – yagona manzil (to‘lov shakli)” tamoyili asosida olib boriladi. Shvetsiyaning barcha fuqarolari soliq idoralarida, ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tgan yagona fiskal raqamga egalar. Bundan tashqari, soliq idoralarining ko‘chmas mulk

obyektlarini hisobga olishning yagona bazasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirish vakolati mavjud.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida soliq idoralari ularning funksional belgilari asosida tuzilgan. Ichki daromadlarning tashkiliy qo‘mitasi soliq ma’murchiligining to‘rtta ustuvor yo‘nalishidan kelib chiqqan holda tashkil etilgan: 1) ish haqi va investitsiyalar; 2) kichik biznes 3) yirik va o‘rta biznes; 4) soliq imtiyozlari (chegirmalari) va davlat korxonalari. Bundan tashqari, ushbu xizmat tuzilmasi tarkibida boshqa normativ va ma’murchilik vazifalarini bajaruvchi bo‘linmalar ham faoliyat yuritadi. Xususan, jinoyat qidiruv, soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish (soliq advokati xizmati), tashqi aloqalar, axborot texnologiyalari, moliya va kadrlar xizmati bo‘linmalari shular jumlasidandir.

Germaniya Federativ Respublikasi federal soliq xizmatida xalqaro va milliy soliqqa tortish masalalari bilan shug‘ullanuvchi soliq va nazorat bo‘linmalari mavjud. Bu o‘rinda soliq departamentlari aniq belgilangan funksional tarkibga ega. Ularning tarkibiga soliq to‘lovchilarni ma’lumotlar bilan ta’minlash va hisobga olish, soliq siyosatini amalga oshirish bo‘yicha, turli xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o‘rnatish bo‘limlarini kiritish mumkin. Nazorat xizmatlarining ichki tarkibiy tuzilmasi ixtisosligidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Masalan, korporatsiyalar foyda solig‘i bo‘yicha qonunchilikni amalda qo‘llashga ixtisoslashgan (Korperschqftsteuer), ish haqi va daromad solig‘i bo‘yicha qonunchilikka ixtisoslashgan (Lohnsteuer), (Einkommensteuer), hunarmandchilik solig‘i bo‘yicha (Gewerbesteuer) bo‘limlar tashkil etilgan.

Buyuk Britaniyada Ichki daromadlar va bojxona bojlari xizmatining tarkibi ixtisoslashgan bo‘linmalardan tashkil topgan. Uning tarkibida daromad va kapitalni soliqqa tortishni tashkil etuvchi, egri va ekologik soliqlarni, bojxona bojlari va yig‘imlarni, ijtimoiy sug‘urtaga majburiy to‘lovlarni yig‘ishni tashkil etuvchi bo‘limlar mavjud.

Shunday qilib, soliq organlarini ishini tashkil etishda aniq belgilangan yondashuv mavjud emasligi yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdi. Ko‘p hollarda soliq tizimi idoralari tarkibi tarixiy taraqqiyotdan,

mavjud an’analardan va har bir davlatning soliq ma’murchiligini ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan davlatlarda nisbatan iqtisodiy va siyosiy barqarorlik hukm surishiga qaramasdan, bu davlatlar uchun davlat boshqaruvi tizimini isloh qilib borish xarakterlidir. Islohotlar va o‘zgarishlar jarayoni hozirgi davrda ham davom etmoqda. Boshqa bir qator o‘zgarishlar bilan birga, korporativ boshqaruv tizimidan davlat boshqaruviga ilg‘or natijalarni qo‘llanilishi bu borada ijobiy natijalar berishi shubhasiz.

17.3. Soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirishning xorij tajribasi

O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan soliq tizimining samaradorligini oshirishga ko‘maklashuvchi muhim va zarur shartlardan biri uzoq vaqtlardan buyon soliqlar orqali iqtisodiyotni boshqarishning eng ta’sirchan vositalaridan biri sifatida samarali foydalanib kelayotgan rivojlangan mamlakatlarning tajribasini puxta o‘rganishdir.

Dunyo mamlakatlar soliq tizimi ushbu mamlakatlarda mavjud iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy shart-sharoitlarga bog‘liq ravishda taraqqiy etadi. Bunda mamlakatimiz rivojiga o‘zining hissasini ma’lum darajada qo‘shib kelayotgan rivojlangan Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya, AQSh, Rossiya hamda Gruziya mamlakatlarining tajribasini o‘rganish muhim va murakkab ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Bu rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimi soliqlarning undirilishi, tarkibi va stavkasi hisoblanish usuli bilan bizdagi soliq tizimidan ko‘p jihatlari bilan farq qiladi.

Soliq va yig‘imlarning davlat byudjetiga to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash soliq ma’murchiligining ta’sirchanligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Mamlakat iqtisodiyotida bo‘ladigan tarkibiy o‘zgartirishlar, soliq qonunchiligida bo‘ladigan yangiliklar soliq ma’murchiligini muntazam takomillashishiga undaydi va doimiy harakatda bo‘ladi.

Mamlakatimizda soliq ma’murchiligini samarali tashkil etish va uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi, eng avvalo, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning soliq ma’murchiligi borasidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish va uning ijobiy natijalarini tahlil qilib,

mamlakatimizda ushbu yo‘nalishdagi muammolarni hal etishda foydalanishdir.

Albatta, har qanday davlat o‘z iqtisodiyotini tartibga solishda, davlatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal etishda eng avvalo soliqlarga tayanar ekan, albatta soliq ma’murchiligi ishini samarali tashkil etish davlatning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lmog‘i zarur.

Shuning uchun, hozirgi kunda eng avvalo, biz soliq ma’murchiligini samarali tashkil etish masalalariga, birinchi navbatda, o‘z e’tiborimizni qaratishimiz kerak.

Soliq ma’murchiligini samarali tashkil etish borasida asosiy e’tibor albatta, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish va ularning ijobiy natijalariga tayangan holda, o‘zimizning iqtisodiyotimizga mos bo‘lgan tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash kerak. Biz bu yerda “rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi” deyilayotganda soliq tizimi nisbatan samarali faoliyat ko‘rsatayotgan AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya va boshqa shular kabi mamlakatlarni nazarda tutayapmiz. Buning boisi shundaki, bu mamlakatlarda soliq ma’murchiligini samarali tashkil etish borasida ma’lum bir ishlar qilingan va ana shu mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotganligi, o‘z navbatida, ana shundan dalolat beradi.

Mamlakatimiz soliq qonunchiligida amalga oshirilayotgan islohotlarni, soliq to‘lovchilarga soliqlarni hisoblash va to‘lash bo‘yicha yaratilayotgan qulaylik va imkoniyatlarni targ‘ibot qilishni tahlil qilar ekanmiz, mazkur targ‘ibotning og‘zaki, yozma yoki ommaviy axborot vositalari orqali yetkazilishi yetarlicha samara bermayotganligini kuzatish mumkin.

Shu sababli, soliq qonunchiligini targ‘ibot qilishning qonuniy mexanizmlarini kuchaytirish lozim bo‘ladi.

Buning uchun eng asosiysi soliq to‘lovchilarda soliq madaniyatini shakllantirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratish. Xususan, soliq to‘lashning ijobiy mohiyatini va soliq to‘lashdan qochganlik uchun ko‘riladigan huquqiy ta’sir choralarini muntazam reklama qilishni

yo‘lga qo‘yish. Soliq to‘lash fuqarolarning huquqiy burchi ekanligini va mamlakatimizda joriy etilgan soliqlar, ularni hisoblash va to‘lash tartiblari to‘g‘risida maktab, kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar ishlab chiqib joriy etish (Yaponiya tajribasidan kelib chiqib).

Shuningdek, soliq to‘lovchilar bilan ishlashda soliq solish tartibi va soliq tizimi xodimlariga nisbatan jamoatchilik fikrini o‘rganib borish tizimini joriy etish.

To‘g‘ri, soliq munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlarda soliq targ‘ibotining huquqiy kafolatlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliq organlaridan tegishli axborotlarni olish soliq to‘lovchilarning huquqlari sifatida aks ettirilgan bo‘lsa, “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunida soliq to‘lovchilarga maslahatlar berish soliq organlarining vazifa va majburiyatlari sifatida belgilangan.

Bu kabi huquqiy kafolatlar soliq madaniyatini yuksaltirishga, soliq to‘lovchilar bilim saviyasini ortishiga, soliqlarni ixtiyoriy ravishda to‘lashga zamin yaratadi.

Soliq madaniyatining yuqori bo‘lishi rivojlangan davlatlar tajribasida, jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi davlatlarda “Public relations”, ya’ni jamoatchilik munosabatlarini keng shakllanganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Soliq to‘lovchilarga soliqlarning mohiyati qanchalik tushunarli va aniq-ravshan bo‘lsa, ular to‘layotgan soliqlar davlatning bir qator ijtimoiy vazifalarini hal etish uchun sarflanayotganligini chuqurroq anglab yetsa, soliqlarni ixtiyoriy ravishda to‘lash samaradorligi yanada ortadi.

Bu borada soliqlarni targ‘ibot qilish, soliq to‘lovchilarga axborot-maslahat xizmatlarini ko‘rsatish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish muhim rol o‘ynaydi.

Soliq targ‘iboti va maslahati davlat xizmatlari hamda mustaqil institutlar tomonidan amalga oshiriladi.

Masalan, Yaponiyada hududiy davlat soliq idoralarida telefon orqali 600 dan ortiq soliq maslahatchilari xizmat ko‘rsatadi, soliq

xizmati xodimlari bilan yuzma-yuz holda, yozma ravishda yoki web-saytlar orqali murojaat qilgan shaxslarga ham alohida xizmatlar ko‘rsatiladi[55].

Shuningdek, mustaqil faoliyat ko‘rsatuvchi 70 mingga yaqin malaka sertifikatiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan soliq maslahati xizmati ko‘rsatiladi. Bu esa o‘z navbatida 1,8 mingdan ortiq kishiga 1 ta malaka sertifikatiga ega bo‘lgan mustaqil faoliyat yurituvchi shaxs to‘g‘ri kelishini ifoda etadi va soliq maslahati xizmatini yuqori darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

Soliq xizmatida uzoq yillar xizmat qilgan masalan, 10 yildan ortiq mehnat faoliyatini amalga oshirgan shaxslarga soliq maslahati yo‘nalishida malaka sertifikatini olishdagi imtihonlarda o‘ziga xos imtiyozlar joriy etilgan.

Janubiy Koreyada esa Milliy soliq xizmati tarkibida soliq to‘lovchilar bilan ishlash bo‘yicha alohida Mijozning talabini qondirish (soliq to‘lovchilar murojaatlari bo‘yicha ishlash) markazi tashkil etilgan.

Milliy soliq xizmatining ushbu markazida soliq tizimida kamida 10 yil tajribaga ega bo‘lgan xodimlar ishlashi belgilab qo‘yilgan.

Markazda asosan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha mijozlarga xizmat ko‘rsatiladi[56]:

1. Telefon yoki internetda yozib qoldirilgan mijozning audio tovushi orqali savol eshitiladi va javob beriladi;

2. Telefon (1588-0060) raqami bo‘yicha qo‘ng‘iroq orqali bevosita 24 soat davomida onlayn tarzda javob beriladi;

3. http://call.nts.go.kr internet sayti bo‘yicha berilgan savollarga 48 soat ichida javob beriladi;

4. Mijoz bilan yuzma-yuz gaplashib javob beriladi.

Ushbu markaz faoliyat boshlagandan keyin ijobiy natijalarga erishish uchun ko‘p vaqt talab etilmadi. Soliq to‘lovchilar 2001-yildan 2007-yilga qadar ushbu xizmatdan faol foydalanishni o‘rganib oldilar. Ularning soni qisqa muddatda deyarli 2 baravarga ortgan va mazkur

[55] Outline of Japanese Tax Administration,/ Seminar on Tax Administration./ February 15, 2010./ Tokyo /JICA.
[56] http://.nts.go.kr

xizmat samaradorligining darajasi ham o‘sgan. Ushbu natija MTQ markazi xodimlarini yanada jadalroq va sifatliroq ishlashga undagan.

Barcha qabul qilish kanallari orqali olingan savollar boshqaruv tizimida to‘planadi va har bitta murojaat mijoz yoki xizmat turi, savol yoki e’tiroz sababi bo‘yicha tegishli yo‘nalishning maxsus mutaxassisiga yo‘naltiriladi. Jarayon boshlanib soliq to‘lovchi muammosining yechimi topilgandan so‘ng, markaz ushbu ish bilan chegaralanib qolmasdan, yuqoridagi muammolarning kelgusida takrorlanishini oldini olish maqsadida, barcha hududiy va mahalliy soliq idoralariga ushbu yechimni elektron tarzda jo‘natadi.

Har bir soliq xodimi maxsus elektron bazadan ushbu muammo va yechimlar bilan tanishadi va amaliyotga tatbiq etishga kirishadi.

Natijada fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish, qonunchilikda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar, soliq xodimlarining noqonuniy harakatlari yuzasidan e’tirozlar va soliq xodimlariga bildiriladigan minnatdorchiliklar yuzasidan murojaatlarni yetkazilishi tezkorlik bilan hal etiladi.

Savdo va pullik xizmatlar muomalalarini nazorat qilish tizimi.

CRS (cash receipt system) – soliq to‘lovchi savdo do‘konida biror bir tovar xarid qilsa, u o‘zining identifikatsiya raqami (kredit karta)ni sotuvchiga ma’lum qiladi. Savdo rastasi xodimi maxsus terminalga soliq to‘lovchining xaridi va uning identifikatsiya raqamini kiritib, chek urib beradi. Natijada terminalga kiritilgan ma’lumot avtomatik tarzda Davlat soliq tizimining ma’lumotlar bazasiga jamlanadi.

Ushbu tizimni joriy etilishini asosiy sababi, ilgari ichki xususiy iste’molchi tomonidan to‘lovlar 45,6 foizi kredit kartochkalar, 54,4 foizi esa naqd pul muomilasi orqali amalga oshirilgan.

Kredit kartochka orqali amalga oshirilgan aylanmalar barchasi bank ma’lumotlari va Davlat soliq tizimining ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lib, xaridor va sotuvchining faoliyati nazorat ostida bo‘ladi.

CRS ning maqsadi savdo, maishiy xizmat va boshqa pullik xizmatlar bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati ustidan nazorat o‘rnatib, soliqdan bo‘yin tovlash holatlarini qisqartirish bo‘lgan.

Tizimni mukammal ishlashini ta’minlash maqsadida xaridor (jismoniy shaxs)larga ushbu tizim orqali xarid qilgan holda daromad solig‘ida qo‘shimcha chegirmalar joriy etilgan.

Savdo tashkilotlariga nisbatan ushbu tizimga rioya etmasdan faoliyat yuritgan holatlari aniqlanganda ma’muriy va moliyaviy jarimalar joriy etilgan.

Ikkinchi bosqichda savdo tashkilotlariga ham ushbu tizim orqali amalga oshirgan aylanmasiga soliq chegirmalari joriy etilgan.

Masalan, bir yil davomida 19,5 mlrd. AQSh dollariga teng savdo aylanmasi tizim orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, keyingi yilda bu ko‘rsatkich 32,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan.

Davlat soliq xizmati ma’lumotlar bazasiga jamlangan ma’lumotlar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq hisobotlarini qabul qilishda va faoliyatini nazorat qilishda qo‘llaniladi.

Mamlakatimizda ham Prezidentimizning bir qator farmon va qarorlari bilan belgilangan muddatlarda soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lagan va ishlab chiqarish o‘sishini ta’minlagan soliq to‘lovchilar faoliyatini tekshirish muddatlari kechiktirilgan va ko‘pchilik soliq to‘lovchilar ushbu imkoniyatdan foydalanishga harakat qiladi shunga intiladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1.Soliq idoralarini ishini tashkil qilishning xorijiy davlatlardagi ahamiyati ganday?

2. AQSh soliq ma’murchiligini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.

3. Fransiya soliq ma’murchiligini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.

4. Buyuk Britaniya soliq ma’murchiligini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.

5. Soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirishda xorij tajribasining ahamiyati.

GLOSSARIY

O‘ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O‘ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
Appelyatsiya	Appeal	Аппеляция	A. Yuqori tashkilot, masalan, sudga ma’lum bir qaror ajrimi yuzasidan shikoyat. B. Hukm ustidan mohiyatan ishni qayta ko‘rib chiqish huquqiga ega bo‘lgan yuqori sudga shikoyat. C. Maslahat yuzasidan murojaat
Aksioner	Stock	Акционер	Aksionerlik jamiyatining aksiyalariga egalik qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. Aksiyalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin.
Aksiya	The campaign	Акция	Aksionerlik jamiyatining kapitaliga hissa qo‘shilganligi to‘g‘risida guvoxlik beruvchi qimmatbaho qog‘oz. Aksiya o‘zining egasiga dvidend shaklida foydani bir qismini olish (o‘zlashtirish) huquqini beradi.
Balans qiymati	The value of the balance	Значение баланса	Buxgalteriya balansida asosiy fondlar va aylanma mablag‘larning pulda ifodalangan bahosi.
Balans foyda	Balance profit	Балансовая прибыль	Mahsulot tannarxiga kiritiladigan barcha xarajatlar va chiqimlar hamda majburiy to‘lovlar chegirilganidan so‘nggi korxona yalpi daromadining qismi. Balans foyda soliqqa tortulguncha qadar bo‘lgan yalpi foydadir.
Budjet tizimi	Budget system	Бюджетная система	Turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, ularni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, shuningdek, byudjet jarayonida paydo bo‘ladigan ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi.

Byudjet dan tashqari fondlar	Non-budget funds	Внебюджетные фонды	a) ijtimoiy: ijtimoiy sug‘urta fondi; pensiya fondi; bandlik fondi; majburiy tibbiyot sug‘urtasi fondi; b) noijtimoiy: yo‘l fondi; ekologiya va boshqa fondlardan iborat bo‘lib, ularning barchasi byudjet tizimida konsolidatsiyalanadi.
Balanslashgan to‘lov	Balancedpayment	Балансированный платеж	To‘lovni uzish sxemasi – annuitet to‘lovlarni oy(lar) kesimida teng ulushlarda to‘lash nazarda tutadigan sxema.
Byudjet dotatsiyasi	Budget subsidies	Бюджетные субсидии	O‘z daromadlari va byudjet tomonidan tartibga solinadigan barcha mablag‘lar yetishmagan holda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga tekinga (haq olmay) ajratiladigan pul mablag‘lari.
Byudjet profitsiti	Budget surplus	Бюджетный избыток	Muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi.
Byudjet ssudasi	Budget loan	Бюджетный кредит	Yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoki respublika byudjetidan rezident – yuridik shaxsga yoki xorij davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘.
Byudjet subvensiyasi	Budget subventions	Бюджетные субвенции	Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ma’lum maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga tekinga (haq olmay) ajratiladigan pul mablag‘lari.
Byudjet tashkilotlari	Budget organizations	Бюджетные организации	Davlat byudjetida unga zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq faoliyatni moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lgan byudjetdan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat

			tashkiloti.
Byudjet taqchilligi	Budget deficits	Дефицит бюджета	(Defitsiti, kamomadi) – muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi.
Byudjet transferti	Budget transfer	Перевод бюджета	Byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoki vakolatli organ orqali haq olmay (tekinga) ajratiladigan pul mablag‘lari.
Boqimanda	Arrears	Задолженность	Belgilangan muddatda o‘tkazilmagan va so‘zsiz undirilishi lozim bo‘lgan soliq yoki yig‘imining summasi.
Boj poshlinalari	Custom duties	Таможенные пошлины	Iste’mol soliqlarining tarkibiga kiradi. Ularning maqsadi daromad olish bo‘lmasdan, balki ichki bozorni, milliy sanoatni va qishloq xo‘jaligini himoya qilishdir. Davlat iqtisodiy siyosatining instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan tovarlarning bahosi bilan ichki bozordagi xuddi shunga o‘xshash tovarlarning bahosini tenglashtirish lozim.
Davlat byudjeti	State budget	Госбюджет	Davlat pul mablag‘larining (shu jumladan, davlat maqsadli fondlari mablag‘larining) markazlashtirilgan fondi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Daromad solig‘i	Incometax	Подоходный налог	To‘g‘ri soliqlarning asosiy shakli. Jismoniy yoki yuridik shaxslarning jami daromadidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarini chegirgan holda foizda hisoblangan ulushi.

Daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya	Income declaration	Декларация о доходах	Dvidendlar – taqsimlashga mo‘ljallangan aksionerlarning sof foydasi (daromadi); aksionerlik jamiyati yoki korxona sof foydasidan har bir aksiya uchun aksionerlarga ma‘lum davrdan so‘ng (har yili, ayrim hollarda – har chorakda) to‘lanadigan daromad.
Dotatsiya	Subsidy	Субсидия	Davlat byudjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablag‘lari, (ziyon)larni qoplash uchun korxona va tashkilotlarga beriladigan davlat nafaqalari. Zarar (ziyon)lar korxonaga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra vujudga kelgan paytda istisno tariqasida dotatsiya berilishi mumkin.
Daromad solig‘ining shedulyar shakli	Shedulyar income tax form	Шедулярная форма налога на прибыль	Buyuk Britaniya soliq tizimida qabul qilingan. Daromadning manbaini inobatga olgan holda uning qismlarga (shedulyarga) bo‘linishini taqozo etadi. Har bir shedul o‘ziga manbai oldida “tutish”ni maqsad qilib qo‘yadi. Mamlakatda bu sohada olti shedul amal qilib, ularning ayrimlari yana ichki taqsimlanishga ham egadir.
Jarima	Penaltu	Санкция	Soliqqa oid jinoyatlar uchun javobgarlik o‘lchovidir.
Kapital o‘sishidan olinadigan soliq	Capital gains tax	Налог на прирост капитала	Jismoniy va yuridik shaxslarning sotuvi amalga oshirilgan kapitali o‘sishidan undiriladigan daromad solig‘i. Kapitali o‘sishi aksiyalar, obligatsiyalar va qimmatli metallar va mol-mulkni sotish hisobidan olinadi. Kapitali o‘sishi aktivlar birmuncha yuqori narxlarda sotilgan yoki ular bo‘yicha qo‘shimcha tarzdagi qiymat, masalan, dividend va foiz olinishi hisobiga yuzaga keladi. Kapital

			o‘sishidan olinadigan soliq uning boshlang‘ich va joriy bahosi o‘rtasidagi farq hisobidan undiriladi. Kapital o‘sishidan olinadigan soliq barcha mamlakatlarda ham qo‘llanilmaydi, balki ayrim mamlakatlarda joriy etilgan va stavkalari turlicha ekanligi bilan ajralib turadi. Stavkalardagi farqlanish ularning jismoniy yoki yuridik shaxs ekanligi oqibatida yuzaga keladi.
Ikki marta soliqqa tortish	Double taxation	Двойное налого обложение	1. Turli soliqlarni daromad (kapital)ning yagona manbaidan olinishi; 2. Qo‘shma korxona xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga o‘tkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xuddi shu foydani xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi; 3. Sof foyda (daromad) (korporatsiyalar foydasi) va undan to‘lanadigan dividendlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda to‘langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbaini ikkinchi mamlakatda soliqqa tortishdan ozod qilish yo‘li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin.
Investitsion soliq krediti	Investment tax credits	Инвестиционные налоговые кредиты	Soliq to‘lovchi tomonidan ma‘lum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha juda muhim buyurtmani bajarganligi yoki shu hudud aholisiga juda muhim xizmatni taqdim etganligi uchun unga mahalliy hokimiyat organlari tomonidan soliq summasi doirasida beriladigan

			yengillik, imtiyoz (soliq to‘lovini kechiktirilishi). Bu kredit soliq to‘lovi va mahalliy ma’muriyat o‘rtasida tuziladigan soliq bitimi bilan rasmiylashtiriladi. Investitsion soliq kreditini taqdim etish (berish), rasmiylashtirish va qaytarish tartibi “Investitsion soliq kredit to‘g‘risida” gi qonunga muvofiq belgilanadi.
Imtiyoz	Privilege	Льгота	Ma’lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to‘liq) ozod etish, ma’lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo‘lish, masalan, soliq imtiyoziga.
Import-eksport solig‘i	Import-export tax	Налог на импорт-экспорт	Soliqqa tortishning ko‘rinishlaridan biri; tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish vositasi (chorasi). Soliqqa tortish obyekti bo‘lib belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada hisoblangan tovarlarning boj qiymati yoki og‘irlik va miqdor birliklarida ifodalangan tovarlarning soni hisoblanadi.
Import solig‘i	Import tax	Налог на импорт	Bir necha mamlakatlardagi soliqlar guruhi, daromad sarf qilinayotgan paytda olinadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizlar ana shunday soliq tarkibiga kiradi. Boj poshlinalarini ham iste’mol soliqlari qatoriga kiritish mumkin. Bu soliqlarning ayrimlari davlat foydasiga olinsa, boshqa bir qismi mahalliy byudjetlarga borib tushadi.
Yig‘imlar	Tolls	Пошлины	Qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to‘lovchilar tomonidan tegishli darajadagi byudjetlarga yoki byudjetdan tashqari fondlarga o‘tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga savdo-

			sotiq qilish huquqi uchun yig‘im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im, avtotransport to‘xtash joyidan foydalanganlik uchun yig‘im, obodonchilik ishlari uchun yig‘im va boshqalar kiradi.
Mahalliy soliqlar va yig‘imlar	Local taxes and fees	Местные налоги и сборы	Mahalliy byudjetga olinadigan jismoniy va yuiridk shaxslarning majburiy to‘lovlari. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig‘im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im, avtotransport to‘xtash joyidan foydalanganlik uchun yig‘im, obodonchilik ishlari uchun yig‘im va boshqalar.
Mahalliy byudjet	The local budget	Местный бюджет	Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromad manbalari va ularning tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Ma‘muriy javobgarlik	Administrative responsibility	Административная ответственность	Ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdor shaxslar yuridik javobgarligining shakllaridan biri.

Ortiqcha to‘lovlar	Payment	Переоплата	To‘lovning byudjetga tushgan ortiqcha summasi. Odatda soliq to‘lovchining boshqa to‘lovlar bo‘yicha mavjud bo‘lgan boqimandalarini uzish uchun hisobga olinadi va bu to‘g‘rida unga ma’lum qilinadi yoki moliya organining qarori nusxasi va bankning tegishli ko‘chirmasi asosida soliq to‘lovchiga qaytariladi.
Penya	Fine/surcharge	Пения	Qonunchilikda nazarda tutilgan yoki shartnoma majburiyati bo‘yicha belgilangan vaqtdan kechikkan har bir kun uchun bitim bo‘yicha qayd etilgan summaning foizdagi ulushi ko‘rinishida qo‘llaniladi
Regressiv soliq	Regressivetax	Регрессив-ный налог	Soliqqa tortiladigan daromadning oshishi bilan soliq stavkasining pasayishi xarakterlidir. Bunday soliqlar toifasiga, xususan, egri (bilvosita) soliqlarni kiritish mumkin. Regressiv soliqlarning yuki (og‘irligi) boylarga nisbatan kambag‘al qatlamlar uchun og‘irroq deb sanaladi. Masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash uchun kambag‘allar boylarga nisbatan o‘z daromadlarining ko‘proq qismini (hissasini) sarflaydilar. Proporsional soliq ham regressiv bo‘lishi mumkin.
Regressiv soliqqa tortish	Regressivetaxation	Регрессив-ное налогообложение	Soliq asosi (bazasi)ning o‘sib borishi bilan soliq stavkasining pasayishini taqozo etadi. Soliq undirish og‘irligi daromadga teskari proporsionaldir: daromad qancha kam bo‘lsa, soliq to‘lovchi uchun soliqning og‘irligi shuncha og‘irdir. Hozirgi paytda qo‘shilgan qiymat solig‘ining joriy etilishi bilan egri (bilvosita) soliqlarning regressivligi kuchayib bormoqda.

Real soliq	Real tax	Реальный налог	Soliq to‘lovchining ayrim mulklarini soliqqa tortadigan to‘g‘ri soliqlardan iboratdir.
Rezidentlar	Residents	Резиденты	Kalendar yilida mamlakatda 183 kundan kam bo‘lmagan muddatda yashagan, O‘zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan va bo‘lmagan soliq to‘lovchilar (shu mamlakat hududida va undan tashqarida olinganlari ham) shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.
Respublika byudjeti	Republican budget	Республиканский бюджет	Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Soliq agenti	Taxagent	Налоговый агент	Soliq agenti uchun soliq qonunchiligida boshqacha yondashuv nazarda tutilmagan bo‘lsa, u soliq to‘lovchi bilan bir xil huquqqa egadir. Soliq agenti, o‘zi to‘lanayotgan soliqning to‘lovchi yoki to‘lovchisi emasligidan qat’iy nazar, soliqlarni hisoblash, ushlab qolish va o‘tkazish vazifalarini amalga oshiradi.
Soliqlar	Taxes	Налоги	Qonunda belgilangan tartibda stavka bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlardan va fuqarolar (yuridik va jisoniy shaxslar)dan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy byudjetga olinadigan majburiy to‘lovlar.
Soliq organlari	Tax authorities	Налоговые органы	Soliq qonunchiligiga rioya qilish, mamlakatning qonunlariga muvofiq belgilangan (o‘rnatilgan) soliqlar va

			yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblanishi, ularning to‘liq va o‘z vaqtida byudjetga o‘tkazilishi ustidan nazoratni ta’minlovchi yagona mustaqil markazlashtirilgan tizim. Davlat soliq qo‘mitasining yagona tizimiga kiruvchi soliq organlari davlat boshqaruvining markaziy organi (Davlat soliq qo‘mitasi), viloyat, tuman va shahar soliq inspeksiyalaridan iboratdir. Soliq organlari yuridik shaxs hisoblanib, o‘z nomiga o‘zlarining mustaqil xarajatlar smetasiga, banklardagi joriy schyotiga va o‘z muhriga egadir.
Soliq inspeksiyalari	Tax inspection	Налоговая инспекция	Davlat soliq qo‘mitasining yagona tizimi tarkibiga kiruvchi tuzilmaviy birlik. Ularning tarkibiy tuzilishi funksional belgiga ko‘ra aniqlanadi. Fuqarolarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun soliq inspeksiyasi nazorati ostida bo‘lgan hudud uchastkalarga bo‘linadi.
Soliq stavkasi	Tax rate	Ставка налога	Soliqqa tortish birligiga to‘g‘ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat‘iy soliq stavkalari daromadlarga bog‘liq bo‘lmagan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan absolyut summalarida o‘rnatiladi.
Soliq tizimi	The tax system	Налоговая система	Mamlakat doirasida (hududida) to‘lovlardan (yuridik va jisoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakli va uslublari yig‘indisi.
Soliq qonunchiligi	Tax legislation	Налоговое законода тельство	Davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi,

			o‘zgarishi va to‘xtatishini tartibga solib turuvchi yuridik me’yorlar yig‘indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquqi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifa va funksiyalari bilan belgilanadi.
Soliq badallari (to‘lovlari)	Tax payments (payments)	Налоговые платежи (платежи)	Soliq qonunchiligi bo‘yicha belgilangan tartibda va muddatda soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan, hisoblangan yoki qat’iylashtirilgan summalardir. Ularni hisoblash tartibi har bir soliq turi bo‘yicha qonunga binoan aniqlanadi.
Soliq tushumlari	Tax revenues	Налоговые поступления	Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlari qismidagi har bir soliq va yig‘imlarga mo‘ljallangan qism, band, kod va moddaga muvofiq vakolatli banklarning hisob-kitob schyotiga yoziladigan, hisoblangan va haqiqatda kelib tushgan soliq badallari (to‘lovlari) va moliyaviy sanksiyalar.
Soliq hisob-kitoblari	Tax calculations	Налоговые расчеты	Yuridik shaxslar tomonidan qonunda ko‘zda tutilgan muddatlarda buxgalteriya hisoboti bilan birgalikda soliq organlariga taqdim etilib, o‘zida ma’lum hisobot davri mobaynida to‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan to‘lovlar summasini aks ettiradi.
Soliq nazorati	Financial control	Финансовый контроль	Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va yig‘imlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash ustidan nazorat.
Soliqqa tortilmaydigan oborot	Tax-exempt turnover	Необлагаемый оборот	Qonunga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortilmaydigan oborot.

Soliq deklaratsiyasi	TaxDeclaration	Налоговая декларация	Soliq to‘lovchining soliq organiga ma’lum bir davr oralig‘ida olgan daromadlari hamda unga qo‘llaniladigan chegirma va imtiyozlarni o‘zida aks ettirgan maxsus shakldagi rasmiy bayonoti. Soliq organi unga va amaldagi soliq stavkalariga asoslanib, to‘lanishi belgilangan soliq summalari undirilishini nazorat qiladi.
Soliq majburiyati	Taxliabilities	Налоговые обязательства	Soliqlarni hisoblash va to‘lash yuzasidan talab etiladigan va bajarilishi shart bo‘lgan majburiyatlarni o‘zida aks ettirgan iqtisodiy munosabatlar majmui. Bu jarayonda davlat o‘zining vakolatli organlari orqali soliq to‘lovchidan mazkur majburiyatlar bajarilishini talaba etish huquqiga egadir.
Soliq mexanizmi	the tax mechanism	Налоговый механизм	Davlat, jamiyat va alohida subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish yuzasidan markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag‘lari fondlarini tashkil etish bilan bog‘liq obyektiv munosabatlarni boshqarish usullari yig‘indisi.
Soliq ma’murchiligi	Tax administration	Налоговое администрирование	A) davlatning boshqaruv va hokimiyat organlari (shu jumladan, barcha darajadagi soliq organlari) qonuniy asosda soliqqa oid faoliyatni muvofiqlashtirish, shuningdek, soliq mexanizmi funksionalligini ta’minlashga yo‘naltirilgan munosabatlari tizimi. B) fan sifatida bevosita ilmiy-tadqiqot va amaliy-uslubiy harakatlar jabhasi sifatida boshqaruv nazariyasi va amaliyotining ajralmas qismi

			hisoblanadi.
Soliq organi	Taxauthority / taxbodies	Налоговый орган	Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, soliqlar undirilishini amalga oshiruvchi davlat organlari tizilmasi.
Soliq organlarining vakolatlari	The competence of the tax authorities	Компетенция налоговых органов	Soliq organlarining huquq va majburiyatlari majmui.
Sud tribunallari	The Tribunals courts	Трибуналь-ный суд	Turli darajadagi sud tribunallari.
Soliq to‘lovchi	Taxpayer	Налогопла тильщик	Qonunchilikka ko‘ra, tegishli soliqlarni to‘lash majburiyati zimmasiga yuklatilgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

TESTLAR

1. Soliq tushunchasiga to‘g‘ri berilgan ta’rifni toping:

a) Soliq kodeksida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov;

b) Bojxona kodeksida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan bojxona to‘lovi;

d) Byudjet kodeksida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy beg‘araz yordam;

e) Ma’muriy kodeksda belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy jarima summasi.

2. Soliq solish prinsiplarini ko‘rsating:

a) majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi;

b) oshkoralik va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi, soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashni bartaraf etish, majburiylik;

d) soliq tizimining yagonaligi, majburiylik, ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik;

e) tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, aniqlik va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi.

3. Soliq kodeksi qanday munosabatlarni tartibga soladi?

a) soliqlar va yig‘imlarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to‘lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni;

b) soliqlarni belgilash va to‘lashga doir munosabatlarni;

d) bojxona to‘lovlarini belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to‘lashga doir munosabatlarni;

e) yig‘imlarni belgilash va majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni.

4. Qaysi qatorda soliq elementlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) soliq solish obyekti, soliq bazasi, soliq stavkasi. soliq davri, soliqni hisoblab chiqarish tartibi, soliq hisobotini taqdim etish tartibi,soliqni to‘lash tartibi;

b) soliq agenti,yuridik shaxs,soliq inspektori, soliq davri, soliqni hisoblab chiqarish tartibi

d) soliq stavkasi, soliq imtiyozi, soliq solish obyekti, soliq bazasi;

e) soliq yuki, Laffer egri chizig‘i, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, soliqni to‘lash tartibi.

5. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘ldiring: Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa ... qo‘llaniladi.

a) xalqaro shartnoma qoidalari;

b) O‘zbekiston Respublikasining qoidalari;

d) soliq qonunchiligida belgilangan qoidalar;

e) Byudjet kodeksida belgilangan qoidalar.

6. Qaysi shakllarda hisob hujjatlari tuziladi?

a) qog‘ozda va (yoki) elektron shakllarda;

b) faqat qog‘ozda;

d) elektron shaklda;

e) qog‘ozda va elektron hisob-varaqlarda.

7. Soliq davri deganda qaysi davr tushuniladi?

a) tugagandan keyin soliq bazasi aniqlanadigan hamda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi hisoblab chiqariladigan kalendar yil yoki boshqa davr;

b) tugagandan keyin soliq bazasi aniqlanadigan hamda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi hisoblab chiqariladigan kun;

d) tugagandan keyin soliq obyekti aniqlanadigan yil;

e) tugagandan keyin to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi hisoblab chiqariladigan keyingi yil.

8. Soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror qaysi vaqtdan e’tiboran ijro etilishi lozim?

a) u kuchga kirgan kundan e’tiboran;

b) u kuchga kirgan yildan e’tiboran;

d) u kuchga kirgan oydan e’tiboran;

e) u kuchga kirgan soatdan e’tiboran.

9. Qanday hollarda yuridik shaxs soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza bilan soliq organiga murojat qilishga haqli?

a) agar uning oldingi yil uchun daromadlari yillik moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra kamida o‘n milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa ------agar uning o‘n yil oldingi daromadlari yillik moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra kamida yuz milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa;

b) agar uning oldingi oy uchun daromadlari yillik moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra kamida o‘n uch milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa;

d) agar uning oldingi kun uchun daromadlari choraklik moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra kamida o‘n ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa.

10. Soliq monitoringi o‘tkaziladigan davr to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

a) Yuridik shaxs soliq organiga soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risida ariza taqdim etgan yildan keyingi kalendar yil;

b) Yuridik shaxs soliq organiga soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risida ariza taqdim etgan yildan besh yil keyingi kalendar yil;

d) Yuridik shaxs soliq organiga soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risida ariza taqdim etgan yildan o‘n yil keyingi kalendar yil

Yuridik shaxs soliq organiga soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risida xulosa taqdim etgan yildan keyingi yil.

11. Boshqa shaxslar nomiga rasmiylashtirilgan hisob-kitob terminallaridan soliq to‘lovchi tomonidan foydalanilishi qanday miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi?

a) yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga;

b) besh yuz million so‘m miqdorida jarima solishga;

d) olti yuz million so‘m miqdorida jarima solishga;

e) etti yuz million so‘m miqdorida jarima solishga.

12. Texnik talablarga muvofiq bo‘lmagan yoki xizmat ko‘rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa texnikalaridan foydalanganlik qanday miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi?

a) yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga;

b) bir million so‘m miqdorida jarima solishga;

d) ikki million so‘m miqdorida jarima solishga;

e) uch million so‘m miqdorida jarima solishga.

13. Jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirsa qanday miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi?

a) bunday faoliyatdan olingan daromadlarning o‘n foizi miqdorida, lekin bir million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda;

b) bunday faoliyatdan olingan daromadlarning bir foizi miqdorida, lekin yuz ming so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda;

d) bunday faoliyatdan olingan daromadlarning ikki foizi miqdorida, lekin ikki yuz ming so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda;

e) bunday faoliyatdan olingan daromadlarning uch foizi miqdorida, lekin uch yuz ming so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda.

14. Soliq solish obyekti bo‘yicha soliq organlarida hisobga qo‘yish muddatlari, hisobga qo‘yishning belgilangan muddatidan o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lgan muddat o‘tishi kabi hisobga qo‘yish

tartibi soliq to‘lovchi tomonidan buzilganda qanday jazo chorasi qo‘llaniladi?

a) ikki million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

b) yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

d) ikki yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

e) uch yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

15. Soliq solish obyekti bo‘yicha soliq organlarida hisobga qo‘yish muddatlari, hisobga qo‘yishning belgilangan muddatidan o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmagan muddat o‘tishi kabi hisobga qo‘yish tartibi soliq to‘lovchi tomonidan buzilganda qanday jazo chorasi qo‘llaniladi?

a) bir million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

b) yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

d) ikki yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

e) uch yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

16. Bir shaxs tomonidan ikki va undan ortiq soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda moliyaviy sanksiyalar qanday tarzda undiriladi?

a) moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlik uchun alohida tarzda undiriladi;

b) moliyaviy sanksiyalar undirilmaydi;

d) moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlikning bittasi uchun undiriladi;

e) moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlikning faqat istalgan bittasi uchun undiriladi.

17. Moliyaviy sanksiyalar qanday chora hisoblanadi?

a) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik chorasidir;

b) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun rag‘batlantirish chorasidir;

d) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun minnatdorchilik chorasidir;

e) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qamoqqa olish chorasidir.

18. Soliq monitoringi o‘tkazilayotganda soliq organi yuridik shaxsdan qanday hujjatlarni talab qilib olishga haqli?

a) soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblab chiqarilganligi (ushlab qolinganligi), to‘liq va o‘z vaqtida to‘langanligi (o‘tkazilganligi) bilan bog‘liq bo‘lgan zarur hujjatlarni (axborotni), tushuntirishlarni;

b) to‘lov topshiriqnomalarini va boshqa zarur hujjatlarni;

d) soliqlar to‘g‘ri hisoblab chiqarilganligi bilan bog‘liq bo‘lgan zarur hujjatlarni;

e) tushuntirishlarni.

19. Soliq monitoringi kim tomonidan va qaysi joy bo‘yicha o‘tkaziladi?

a) soliq organining vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan o‘z xizmat majburiyatlariga muvofiq soliq organi joylashgan er bo‘yicha o‘tkaziladi;

b) prokuratura organining vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan o‘z xizmat majburiyatlariga muvofiq prokuratura organi joylashgan er bo‘yicha o‘tkaziladi;

d) tijorat bankning vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan o‘z xizmat majburiyatlariga muvofiq tijorat banki joylashgan er bo‘yicha o‘tkaziladi;

e) soliq to‘lovchining mansabdor shaxslari tomonidan o‘z xizmat majburiyatlariga muvofiq soliq to‘lovchi joylashgan er bo‘yicha o‘tkaziladi.

20. Qanday harakatlarni amalga oshirgan shaxslar soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor deb e’tirof etiladi?

a) G‘ayrihuquqiy xatti-harakatni (harakat va harakatsizlik) qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan;

b) Huquqiy xatti-harakatni qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan;

d) Xatti-harakatni (harakat va harakatsizlik) ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan;

e) Xatti-harakatni (harakat va harakatsizlik) qasddan sodir etgan.

21. Soliq kodeksinin 213-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan, shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun quyidagi holatlardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

a) soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjud emasligi; soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybi mavjud emasligi; soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketganligi;

b) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybi mavjud bo‘lishi; soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjudligi;

d) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketmaganligi; soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjudligi;

e) soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjudligi; soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybi mavjud emasligi.

22. Soliq kodeksinin qaysi moddasida soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzganlik uchun jarima miqdori ko‘rsatib o‘tilgan?

a) Amaldagi Soliq kodeksining 220-moddasida;

b) Amaldagi Soliq kodeksining 3-moddasida;

d) Amaldagi Soliq kodeksining 2-moddasida;

e) Amaldagi Soliq kodeksining 1-moddasida.

23. Soliq kodeksinin 220-moddasida ko‘rsatilgan soliq hisobotini soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etmaganlik uchun qanday jazo chorasi

belgilangan?

a) bu soliq hisoboti asosida to‘lanishi (qo‘shimcha to‘lanishi) lozim bo‘lgan soliq summasini belgilangan muddatda to‘lanmagan har bir kechiktirilgan kun uchun bir foiz miqdorida, lekin ko‘rsatilgan summaning o‘n foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

b) bu soliq hisoboti asosida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini belgilangan muddatda to‘lanmagan har bir kechiktirilgan kun uchun ikki foiz miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

d) bu soliq hisoboti asosida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini belgilangan muddatda to‘lanmagan har bir kechiktirilgan kun uchun uch foiz miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

e) bu soliq hisoboti asosida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini belgilangan muddatda to‘lanmagan har bir kechiktirilgan kun uchun besh foiz miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

24. Soliq kodeksinin qaysi moddasida javobgarlikka tortishni istisno etuvchi holatlar ko‘rsatib o‘tilgan?

a) Amaldagi Soliq kodeksining 213-moddasida;

b) Amaldagi Soliq kodeksining 12-moddasida;

d) Amaldagi Soliq kodeksining 23-moddasida;

e) Amaldagi Soliq kodeksining 24-moddasida.

25. Jismoniy shaxsning soliq majburiyati qanday hollarda tugatiladi?

a) mazkur shaxs vafot etganda; uni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirganda;

b) mazkur shaxs daraksiz yo‘qolganda;

d) mazkur shaxs vafot etganda;

e) uni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirganda.

26. Soliq organi soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etilgan soliq hisobotini qabul qilishni rad etishga haqlimi?

a) belgilangan shaklda taqdim etilgan soliq hisobotini qabul qilishni rad etishga haqli emas;

b) belgilangan shaklda taqdim etilgan soliq hisobotini qabul qilishni rad etishga haqli;

d) belgilanmagan shaklda taqdim etilgan soliq hisobotini qabul qilishni rad etishga haqli emas;

e) taqdim etilgan soliq hisobotini qabul qilishni rad etishga haqli.

27. Yirik soliq to‘lovchilar soliq hisobotini qaysi davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etadi?

a) joylashgan eridan qat’i nazar, soliq hisobotini Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspektsiyasiga taqdim etadi;

b) joylashgan joyi bo‘yicha, soliq hisobotini davlat soliq inspektsiyasiga taqdim etadi;

d) joylashgan eridan qat’i nazar, soliq hisobotini davlat soliq boshqarmasiga taqdim etadi;

e) joylashgan yeridan qat’i nazar, soliq hisobotini taqdim etmaydi.

28. Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun kim javobgar hisoblanadi?

a)Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik soliq to‘lovchining yoki soliq agentining zimmasiga yuklanadi;

b) Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik soliq inspektorining zimmasiga yuklanadi;

d) Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik auditorning zimmasiga yuklanadi;

e) Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik hech kimning zimmasiga yuklanmagan.

29. Soliq hisoboti nima?

a) Soliq to‘lovchining har bir soliq turi yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblarni va soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga hamda soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan, soliq to‘lovchilarning va soliq agentlarining soliq majburiyatlarini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlari soliq hisobotidir;

b) Soliq hisoboti - har bir soliq bo‘yicha, hamda hisob-kitoblarga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan soliq to‘lovchining hujjatidir;

d) Soliq hisoboti - to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘z ichiga oladigan soliq to‘lovchining hujjatidir;

e) Soliq hisoboti - soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan soliq to‘lovchining hujjatidir.

30. Davlat soliq xizmati organining eng quyi pog‘anasini ko‘rsating:

a) Soliq inspeksiyasi;

b) Soliq boshqarmasi;

d) Soliq qo‘mitasi;

e) Soliq inspektori.

31. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish muddatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating.

a) soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan ushbu soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan e’tiboran o‘n kun o‘tgach, lekin o‘n besh kundan kechirtirmay ko‘rib chiqilishi kerak;

b) soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan ushbu soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan e’tiboran besh kun o‘tgach ko‘rib chiqilishi kerak;

d) soliq auditi dalolatnomasi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallari soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan ushbu soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan e’tiboran, lekin besh kundan kechirtirmay ko‘rib

chiqilishi kerak;

e) soliq auditi dalolatnomasi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi materiallari soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan ushbu soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun o‘tgach ko‘rib chiqilishi kerak.

32. Soliq kodeksining 223-moddasida soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) qanday jazo chorasi ko‘zda tutilgan?

a) yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

b) yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining to‘rt foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

d) yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining besh foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

e) yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining yuz foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

33. Soliq kodeksining 219-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq to‘lovchisi sifatida soliq organlarida hisobga qo‘yishning belgilangan tartibi soliq to‘lovchi tomonidan buzilganda qanday jazo chorasi qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan?

a) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining besh foizi miqdorida, lekin besh million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi;

b) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining ellik foizi miqdorida, lekin ellik million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi;

d) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining ellik besh foizi miqdorida, lekin ellik besh million

so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi;

e) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining bir foizi miqdorida, lekin yuz million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

34. Soliq kodeksning qaysi moddasida soliq solish maqsadlarida hisobga olish va hisob hujjatlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan?

a) Amaldagi Soliq kodeksining 76-moddasida;

b) Amaldagi Soliq kodeksining 13-moddasida;

d) Amaldagi Soliq kodeksining 14-moddasida;

e) Amaldagi Soliq kodeksining 27-moddasida.

35. Soliq kodeksining qaysi moddasida alohida-alohida hisob va uni yuritish qoidalari ko‘rsatilib o‘tilgan?

a) Amaldagi Soliq kodeksining 80-moddasida;

b) Amaldagi Soliq kodeksining 28-moddasida;

d) Amaldagi Soliq kodeksining 29-moddasida;

e) Amaldagi Soliq kodeksining 30-moddasida.

36. Soliq kodeksning qaysi moddasida soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi ko‘rsatib o‘tilgan?

a) Amaldagi Soliq kodeksining 210-moddasida;

b) Amaldagi Soliq kodeksining 34-moddasida;

d) Amaldagi Soliq kodeksining 35-moddasida;

e) Amaldagi Soliq kodeksining 40-moddasida.

37. Soliq kodeksning qaysi moddasida nazorat-kassa texnikasini va hisob-kitob terminallarini qo‘llash tartibini buzish ko‘rsatib o‘tilgan?

a) Amaldagi Soliq kodeksining 221-moddasida;

b) Amaldagi Soliq kodeksining 64-moddasida;

d) Amaldagi Soliq kodeksining 65-moddasida;

e) Amaldagi Soliq kodeksining 66-moddasida.

38. Soliq kodeksning qaysi moddasida soliq majburiyatini bajarish tartibi va muddati ko‘rsatib o‘tilgan?

a) Amaldagi Soliq kodeksining 86-moddasida;
b) Amaldagi Soliq kodeksining 7-moddasida;
d) Amaldagi Soliq kodeksining 8-moddasida;
e) Amaldagi Soliq kodeksining 9-moddasida.

39. Soliq kodeksning qaysi moddasida soliq majburiyatining tugatilishi ko‘rsatib o‘tilgan?

a) Amaldagi soliq kodeksining 87-moddasida;
b) Amaldagi soliq kodeksining 7-moddasida;
d) Amaldagi soliq kodeksining 12-moddasida;
e) Amaldagi soliq kodeksining 13-moddasida.

40. Soliq kodeksning qaysi moddasida soliq to‘lovchilarning huquqlari ko‘rsatib o‘tilgan?

a) Amaldagi soliq kodeksining 21-moddasida;
b) Amaldagi soliq kodeksining 1-moddasida;
d) Amaldagi soliq kodeksining 2-moddasida;
e) Amaldagi soliq kodeksining 13-moddasida.

41. Qaysi javobda soliq agentiga to‘g‘ri ta’rif berilgan.

a) Soliq kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi;

b) Soliq kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlarni byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi;

d) Soliq kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi;

e) Byudjet kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish va byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi.

42. Soliq organida hisobga qo‘yish tartibini buzish etganlik uchun javobgarlik Soliq kodeksining qaysi moddasida ko‘rsatilgan?

a) Amaldagi soliq kodeksining 219-moddasida;

b) Amaldagi soliq kodeksining 46-moddasida;

d) Amaldagi soliq kodeksining 47-moddasida;

e) Amaldagi soliq kodeksining 48-moddasida.

43. Jismoniy shaxs soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarlikka necha yoshdan boshlab tortilishi mumkin?

a) o‘n olti yoshdan boshlab;

b) o‘n besh yoshdan boshlab;

d) o‘n ikki yoshdan boshlab;

e) o‘n uch yoshdan boshlab.

44. Yuridik shaxslarga STIR necha marta beriladi ?

a) Butun faoliyati davomida bir marta;

b) Butun faoliyati davomida ikki marta;

d) Butun faoliyati davomida uch marta;

e) Butun faoliyati davomida o‘n marta.

45. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar kimning foydasiga talqin etiladi?

a) soliq to‘lovchining foydasiga talqin etiladi;

b) davlatning foydasiga talqin etiladi;

d) yuridik shaxsning foydasiga talqin etiladi;

e) jismoniy shaxsning foydasiga talqin etiladi.

46. Soliqqa oid huquqbuzarlik bo‘yicha moliyaviy sanktsiyalar qaysi shaklda belgilanadi va qo‘llaniladi?

a) soliq kodeksning 28 va 29-boblarida nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida qo‘llaniladi;

b) soliqqa oid xuquqbuzarlik uchun chora hisoblanib,ozodlikdan mahrum qilish tarzida qo‘llaniladi;

d) soliqqa oid xuquqbuzarlik uchun chora hisoblanib, ahloq tuzatish tarzida qo‘llaniladi;

e) soliqqa oid xuquqbuzarlik uchun chora hisoblanib, rahbar xodimlarni egallab turgan lavozimidan ozod etish tarzida qo‘llaniladi.

47. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qaysi moddasida javobgarlikka tortishning umumiy shartlari ko‘rsatilgan.

a) Amaldagi soliq kodeksining 212-moddasida;

b) Amaldagi soliq kodeksining 37-moddasida;

d) Amaldagi soliq kodeksining 38-moddasida;

e) Amaldagi soliq kodeksining 39-moddasida.

48. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qaysi moddasida jismoniy shaxs to‘g‘risida asosiy tushunchalar ko‘rsatilgan?

a) 30-modda;

b) 100-modda;

d) 125 –modda;

e) 150-modda.

49. Soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy Qonuniy hujjatni ko‘rsating

a) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi;

d) O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy kodeksi;

e) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.

50. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomaning shakli kim tomonidan tasdiqlanadi?

a) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi;

d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

e) O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi tomonidan tasdiqlanadi.

51. ”Davlat soliq xizmati to‘g‘risida “ qonun qachon qabul qilingan?

a) 29 avgust 1997 yil;

b) 1 yanvar 2008 yil;

d) 15 fevral 1991 yil;

e) 1 yanvar 2010 yil.

52. Soliq kodeksining qaysi moddasida hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzganlik uchun javobgarlik ko‘rsatilgan?

a) Amaldagi soliq kodeksining 225 moddasida;

b) Amaldagi soliq kodeksining 40 moddasida;

d) Amaldagi soliq kodeksining 41 moddasida;

e) Amaldagi soliq kodeksining 42 moddasida.

53. Soliq majburiyatini bajarish muddatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating.

a) Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, chorak, oy, o‘n kunlik va kun) o‘tishi bilan belgilanadi;

b) Soliq majburiyatini bajarish muddatlari soliq tekshiruvi o‘tishi bilan belgilanadi;

d) Soliq majburiyatini bajarish muddatlari soliq monitoringi o‘tishi bilan belgilanadi;

e) Soliq majburiyatini bajarish muddatlari yil o‘tishi bilan belgilanadi.

54. Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan oldin bajarishga haqlimi?

a) Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan oldin bajarishga haqli;

b) Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan oldin bajarishga haqli emas;

d) Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan oldin bajarmaslikka haqli;

e) Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatida bajarishga haqli.

55. Soliq to‘lovchida soliq qarzi mavjud bo‘lgan taqdirda, ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq summasi ushbu qarzni uzish hisobiga qanday ketma-ketlikda hisobga olinishi lozim?

a) mazkur soliq turining penyasi bo‘yicha qarz hisobiga, boshqa soliqlar va ularning penyalari bo‘yicha qarzni uzish hisobiga, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun jarimalarni to‘lash hisobiga;

b) boshqa soliqlar va ularning penyalari bo‘yicha qarzni uzish hisobiga, mazkur soliq turining penyasi bo‘yicha qarz hisobiga;

d) mazkur soliq turining penyasi bo‘yicha qarz hisobiga,soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun jarimalarni to‘lash hisobiga;

e) soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun jarimalarni to‘lash hisobiga, boshqa soliqlar va ularning penyalari bo‘yicha qarzni uzish hisobiga.

56. Ortiqcha to‘langan soliq summasi soliq to‘lovchiga qaytarish mumkinmi?

a) soliq to‘lovchining arizasiga ko‘ra soliq to‘lovchiga to‘liq yoki

qisman qaytarilishi mumkin;

b) soliq to‘lovchining ko‘rsatmasiga ko‘ra soliq to‘lovchiga qisman qaytarilishi mumkin;

d) soliq to‘lovchining arizasiga ko‘ra soliq to‘lovchiga qaytarilishi mumkin emas;

e) soliq to‘lovchiga qaytarilishi mumkin.

57. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘ldiring: Penya – bu...

a) Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasidir;

b) Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzmagan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasidir;

d) Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda qaytarib olishi lozim bo‘lgan pul summasidir;

e) Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzmagan taqdirda qaytarib berilishi lozim bo‘lgan pul summasidir.

58. Penyalarni hisoblash qaysi muddatdan boshlanadi?

a) Penyalar, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to‘lash kunidan keyingi kundan boshlab soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun hisoblanadi;

b) Penyalar, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to‘lash kunidan o‘n kun o‘tgandan keyin soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun hisoblanadi;

d) Penyalar, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to‘lash kunidan besh kun o‘tgandan keyin soliqni to‘lash bo‘yicha

majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar yili uchun hisoblanadi;

e) Penyalar, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to‘lash kunidan o‘ttiz kun o‘tgandan keyin soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kuni uchun hisoblanadi.

59. Soliq qarzi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning mol-mulkini xatlash qanday asosda amalga oshiriladi?

a) Soliq qarzi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning mol-mulkini xatlash sud qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi;

b) Soliq qarzi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning mol-mulkini xatlash soliq organi qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi;

d) Soliq qarzi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning mol-mulkini xatlash mansabdor shaxs qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi;

e) Soliq qarzi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning mol-mulkini xatlash mumkin emas.

60. Soliq to‘lovchining soliq qarzi bo‘yicha uning mol-mulkini xatlash qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?

a) soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan kundan boshlab o‘n besh kalendar kun ichida u tomonidan to‘liq bajarilmagan taqdirda amalga oshiriladi;

b) soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan kundan boshlab bir yuz besh kalendar kun ichida u tomonidan to‘liq bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi;

d) soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan kundan boshlab o‘ttiz bir kalendar kun ichida u tomonidan to‘liq bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi;

e) soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan keyin o‘n uch kalendar kun ichida u tomonidan to‘liq bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

61. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘ldiring: Yangi soliqlar va

yig‘imlar belgilanishini, soliq imtiyozlarini bekor qilishni, yangi majburiyatlarni joriy etishni, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirishni yoki soliq munosabatlari subyektlarining holatini boshqacha tarzda og‘irlashtirishni nazarda tutuvchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ular rasmiy e’lon qilingan paytdan e’tiboran...

a) kamida uch oy o‘tgach, amalga kiritiladi;

b) keyingi oyning uchinchi kunidan e’tiboran amalga kiritiladi;

d) o‘n kun o‘tgach kuchga kiradi;

e) kamida olti oy o‘tgach kuchga kiradi.

62. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘ldiring: Soliqlar va yig‘imlar stavkalarining o‘zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, agar ularda kechroq muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ular rasman e’lon qilingan ...

a) oydan keyingi oyning birinchi kunidan e’tiboran amalga kiritiladi;

b) oydan keyingi oyning o‘ninchi kunidan e’tiboran amalga kiritiladi;

d) oydan keyingi oyning oxirgi kunidan e’tiboran amalga kiritiladi;

e) kunidan e’tiboran amalga kiritiladi.

63. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki yengillashtiradigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga egami?

a) Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki engillashtiradigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega;

b) Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega;

d) Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik orqaga qaytish kuchiga ega emas;

e) Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari har qanday holatda ham orqaga qaytish kuchiga ega emas.

64. Soliq hisoboti shakllari qaysi organ tomondan tasdiqlangan shakllarda tuziladi?

a) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakllarda tuziladi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakllarda tuziladi;

d) O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakllarda tuziladi;

e) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakllarda tuziladi.

65. Soliq hisobotini saqlash muddatini ko‘rsating.

a) hisobot taqdim etilgan yildan keyin kamida besh yil saqlashi shart;

b) hisobot taqdim etilgan kundan keyin besh yil saqlashi shart;

d) hisobot taqdim etilgan hisobot davri tugaganidan keyin besh yil saqlashi shart;

e) soliq tekshiruvi o‘tkazilgunga qadar saqlashi shart.

66. Soliq nazorati qanday shaklda amalga oshiradi?

a) soliq tekshiruvlari va soliq monitoringi shaklida amalga oshiradi;

b) kameral soliq tekshiruvi shaklida amalga oshiradi;

d) sayyor soliq tekshiruvi shaklida amalga oshiradi;

e) muqobil tekshiruvlar shaklida amalga oshiradi.

67. Soliq tekshiruvlarining turlarini ko‘rsating.

a) kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi,soliq auditi;

b) qisqa muddatli soliq tekshiruvi, soliq auditi;

d) rejadan tashqari soliq tekshiruvi, soliq auditi;

e) qisqa muddatli tekshiruvi, kameral soliq tekshiruvi.

68. Soliq tekshiruvlarini o‘tkazish maqsadi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating.

a) Soliq tekshiruvlari soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi;

b) Soliq tekshiruvlari soliq to‘lovchilar tomonidan qonun hujjatlariga rioya etmasligi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi;

d) Soliq tekshiruvlari yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq va bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi;

e) Soliq tekshiruvlari soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi.

69. Kameral soliq tekshiruvi qanday va kim tomondan olib boriladi?

a) soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar hamda ma’lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladi;

b) soliq to‘lovchining huzuriga qisqa muddatli tekshiruvga borish orqali soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida davlat soliq xizmati organida mavjud boshqa hujjatlarni o‘rganish hamda soliq to‘lovchida mavjud ma’lumotlar bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi;

d) haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi;

e) soliq to‘lovchining huzuriga bormasdan turib soliq to‘lovchi tomonidan elektron tarzda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotlarini arifmetik jihatdan to‘g‘riligini tekshirish maqsadida o‘tkaziladi.

70. Sayyor soliq tekshiruvi qanday tekshiruv hisoblanadi?

a) Soliq to‘lovchilarning soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash sohasidagi ayrim majburiyatlarini, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish;

b) Soliq to‘lovchilarning soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash sohasidagi ayrim majburiyatlarini bajarmasligini tekshirish;

d) Soliq to‘lovchilarning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish;

e) Soliq to‘lovchilarning yig‘imlarni hisoblab chiqarish majburiyatlarini, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish.

71. Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish muddati to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang.

a) o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda;

b) o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda;

d) bir kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda;

e) o‘n besh kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda.

72. Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish muddatining boshlanishi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang.

a) Sayyor soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqda ko‘rsatilgan sana;

b) Soliq to‘lovchiga sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasini topshirilgan kun;

d) Sayyor soliq tekshiruvini boshlanishidan kamida o‘ttiz kalendar kun oldin;

e) Sayyor soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyrug‘i bilan uni o‘tkazish dasturida ko‘rsatilgan sana.

73. Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish muddatining tugashi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang.

a) Soliq to‘lovchiga sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasini topshirilgan kun;

b) Sayyor soliq tekshiruvi boshlanganidan besh kalendar kun o‘tgandan keyin;

d) Sayyor soliq tekshiruvi boshlanganidan o‘ttiz kalendar kun o‘tgandan keyin;

e) Sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan keyingi kun.

74. Sayyor soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organlari tomonidan soliqlar va yig‘imlarni hisoblash amalga oshiriladimi?

a) Sayyor soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organlari tomonidan soliqlar va yig‘imlarni hisoblash amalga oshirilmaydi;

b) Sayyor soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organlari tomonidan soliqlar va yig‘imlarni hisoblash amalga oshiriladi;

d) Sayyor soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organlari tomonidan soliqlarni hisoblash amalga oshiriladi;

e) Sayyor soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organlari tomonidan yig‘imlarni hisoblash amalga oshiriladi.

75. Soliq organlari sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazish chog‘ida qanday tadbirlarini o‘tkazishga haqli?

a) soliq organlari profilaktika tadbirlarini va xronometraj kuzatuvlarini amalga oshirishga, nazorat-kassa texnikasi va to‘lov terminallari qo‘llanilishini tekshirishga va soliq nazoratining boshqa tadbirlarini o‘tkazishga haqli;

b) soliq organlari soliq auditi va xronometraj kuzatuvlarini amalga oshirishga o‘tkazishga haqli;

d) soliq organlari profilaktika tadbirlarini va kameral soliq tekshiruvini amalga oshirishga o‘tkazishga haqli;

e) soliq organlari soliq monitoringi va soliq nazoratining boshqa tadbirlarini o‘tkazishga haqli.

76. Soliq auditi tushunchasi to‘g‘ri ifodalangan javobni toping.

a) Muayyan davr uchun soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lashning to‘g‘riligini tekshirish soliq auditidir;

b) Hisobot davri uchun yig‘imlarni hisoblab chiqarish to‘g‘riligini tekshirish soliq auditidir;

d) Soliq davri uchun soliqlar hisoblab chiqarish to‘g‘riligini tekshirish soliq auditidir;

e) Muayyan davr uchun soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlarini hisoblab chiqarish hamda to‘lashning to‘g‘riligini tekshirish soliq auditidir.

77. Soliq auditi qaysi toifadagi soliq to‘lovchilarga nisbatan o‘tkaziladi?

a) soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) nisbatan;

b) soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) past darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) nisbatan ;

d) soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) tavakkalchilikka yo‘l qo‘ymaydigan toifasiga mansub soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) nisbatan;

e) barcha soliq to‘lovchilarga (soliq agentlariga) nisbatan.

78. Davlat soliq xizmati organi soliq auditi o‘tkazishning boshlanishi haqida soliq to‘lovchini qanday muddatda ogohlantirishi kerak?

a) soliq auditi o‘tkazilishi boshlanishidan kamida o‘ttiz kalendar kun oldin soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi;

b) soliq auditi o‘tkazilishi boshlanishidan kamida o‘n uch kalendar kun oldin soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi;

d) soliq auditi o‘tkazilishi boshlangan kun soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi;

e) soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yubormaydi.

79. Soliq auditini o‘tkazish muddati to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating.

a) Soliq Kodeksning 142-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditi o‘ttiz kundan ortiq davom etishi mumkin emas;

b) Kodeksning 142-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditi o‘n kundan ortiq davom etishi mumkin emas;

d) Kodeksning 142-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditi o‘n besh kundan ortiq davom etishi mumkin emas;

e) Kodeksning 142-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditi yigirma kundan ortiq davom etishi mumkin emas.

80. Soliq organi soliq to‘lovchini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqlimi?

a) Agar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lsa, soliq organi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishgan holda soliq to‘lovchini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqlidir;

b) Agar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lsa, soliq organi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi bilan kelishgan holda soliq to‘lovchini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqlidir;

d) Agar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lmasa, soliq organi O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bilan

kelishgan holda soliq to‘lovchini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqlidir;

e) Agar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqli emasdir.

81. Soliq auditini o‘tkazish muddati qaysi kundan boshlangan hisoblanadi?

a) soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq topshirilgan kunda boshlanadi;

b) soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi ariza topshirilgan kunda boshlanadi;

d) soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq topshirilgan kundan o‘n kun o‘tib boshlanadi;

e) soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi bayonnoma va qaror topshirilgan kunda boshlanadi.

82. Soliq auditini o‘tkazish muddatini qaysi muddatgacha uzaytirish mumkin?

a) Agar boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditini o‘tkazish muddati ikki oygacha, alohida hollarda esa – uch oygacha uzaytirilishi mumkin;

b) Agar boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditini o‘tkazish muddati o‘n kungacha, alohida hollarda esa – o‘n besh kungacha uzaytirilishi mumkin;

d) Agar boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditini o‘tkazish muddati o‘n oygacha, alohida hollarda esa – o‘n ikki oygacha uzaytirilishi mumkin;

e) Agar boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq auditini o‘tkazish muddati ikki yilgacha, alohida hollarda esa – uch yilcha uzaytirilishi mumkin.

83. Soliq auditining umumiy muddati qancha muddatdan oshishi mumkin emas?

a) Soliq auditining umumiy muddati olti oydan oshishi mumkin emas;

b) Soliq auditining umumiy muddati olti kundan oshishi mumkin emas;

d) Soliq auditining umumiy muddati o‘n bir oydan oshishi mumkin emas;

e) Soliq auditining umumiy muddati o‘n kundan oshishi mumkin emas.

84. Soliq auditi tugaydigan kun to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?

a) Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida dalolatnoma tuzilgan (imzolangan) kunda tugaydi;

b) Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida buyruq imzolangan kunda tugaydi;

d) Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida dalolatnoma tuzilgan (imzolangan) kundan o‘n kundan keyin tugaydi;

e) Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida bayonnoma va qaror imzolangan kunda tugaydi.

85. Soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslar tekshirilayotgan shaxsning hududlari va binolarini, shuningdek, hujjatlar va buyumlarni ko‘zdan kechirishni amalga oshirishga haqlimi?

a) Haqli;

b) Haqli emas;

d) Tekshiruv boshlanishidan oldin haqli;

e) Tekshiruv tugaganidan keyin haqli.

86. Soliq auditi natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

a) tekshiruvni o‘tkazgan vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan soliq auditi dalolatnomasi tuzilishi kerak;

b) tekshiruvni o‘tkazgan vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan soliq auditi bayonnomasi tuzilishi kerak;

d) tekshiruvni o‘tkazgan vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan soliq auditi qarori tuzilishi kerak;

e) tekshiruvni o‘tkazgan vakolatli soliq organining rahbari tomonidan soliq auditi buyrug‘i tuzilishi kerak.

87. Soliq auditi dalolatnomasi nechchi nusxada tuziladi?

a) Soliq auditi dalolatnomasi kamida uch nusxada tuziladi;

b) Soliq auditi dalolatnomasi kamida besh nusxada tuziladi;

d) Soliq auditi dalolatnomasi kamida o‘n nusxada tuziladi;

e) Soliq auditi dalolatnomasi kamida bir nusxada tuziladi.

88. Soliq qarzi nima?

a) hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, shuningdek soliq Kodeksda belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanktsiyalar va penyalar;

b) hisoblab chiqarilgan va belgilangan muddatlarda to‘langan soliqlarning, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, shuningdek soliq Kodeksda belgilangan muddatda to‘langan moliyaviy sanktsiyalar va penyalar;

d) hisoblab chiqarilgan va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo‘yicha joriy to‘lovlarning summalari;

e) hisoblab chiqarilgan va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shuningdek, Bojxona kodeksida belgilangan muddatda to‘lanmagan jarimalar va penyalar.

89. Soliq qarzini to‘lash, shu jumladan, uni soliq organlari tomonidan undirish chog‘ida to‘lash qanday tartibdagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi?

a) 1) soliqlar summasi 2) hisoblangan penyalar 3) jarimalar;

b) 1) hisoblangan penyalar 2) soliqlar summasi 3) jarimalar;

d) 1) soliqlar summasi 2) jarimalar 3) hisoblangan penyalar;

e) 1) jarimalar 2) hisoblangan penyalar 3) soliqlar summasi.

90. Soliq majburiyati to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang.

a) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash majburiyati;

b) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash majburiyati;

d) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilmagan yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish majburiyati;

e) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lamaslik majburiyati.

91. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan qancha muddatga qabul qilinishi mumkin?

a) o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga qabul qilinishi mumkin;

b) o‘n besh kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga qabul qilinishi mumkin;

d) o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga qabul qilinishi mumkin;

e) mumkin emas.

92. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni o‘n kundan ko‘p muddatga to‘xtatib turish qaysi organ qaroriga asosan qabul qilinishi mumkin?

a) sud tomonidan qabul qilinishi mumkin;

b) Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinishi mumkin;

d) Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan qabul qilinishi mumkin;

e) Oliy majlis tomonidan qabul qilinishi mumkin.

93. Soliq to‘lovchi tomonidan soliqlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi qanday ta’minlanadi?

a) Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi uni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi bankka, o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor-yo‘qligidan qat’i nazar, to‘lov muddatidan kechiktirmasdan taqdim etishi shart;

b) Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi uni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi soliq organiga, o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor-yo‘qligidan qat’i nazar, to‘lov muddatidan kechiktirmasdan taqdim etishi shart;

d) Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi uni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi bankka, o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor-yo‘qligidan qat’i nazar, belgilangan to‘lov muddatidan kechiktirib taqdim etishi shart;

e) Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi uni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi bankka, o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor bo‘lsagina, belgilangan to‘lov muddatidan kechiktirmasdan taqdim etishi shart.

94. Soliq organi tomonidan qaysi muddatda soliq qarzi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchiga talabnoma yuboradi?

a) soliq to‘lovchida to‘lanmagan soliq qarzi mavjud bo‘lsa, soliq organi unga soliqlarni to‘lash muddati o‘tganidan keyin uch kundan kechiktirmay;

b) soliq to‘lovchida to‘lanmagan soliq qarzi mavjud bo‘lsa, soliq organi unga soliqlarni to‘lash muddati o‘tganidan keyin o‘ttiz kundan kechiktirmay;

d) soliq to‘lovchida to‘lanmagan soliq qarzi mavjud bo‘lsa, soliq organi unga soliqlarni to‘lash muddati o‘tganidan keyin o‘n uch kundan kechiktirmay;

e) soliq to‘lovchida to‘lanmagan soliq qarzi mavjud bo‘lsa, soliq organi unga soliqlarni to‘lash muddati o‘tganidan keyin bir kundan kechiktirmay.

95. Soliq qarzi belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq qarzini undirish qanday tartibda amalga oshiriladi?

a) soliq qarzini undirish – undiruvni bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lariga (shu jumladan, korporativ kartalardagi pul mablag‘lariga) qaratish yo‘li bilan majburiy tartibda amalga oshiriladi;

b) soliq qarzini to‘lash soliq to‘lovchi tomonidan ixtiyoriy tartibda amalga oshiriladi;

d) soliq qarzini undirish – undiruvni mol-mulkka qaratish yo‘li bilan majburiy tartibda amalga oshiriladi;

e) soliq qarzini undirish – undiruvni bank hisob varaqlaridagi valyuta pul mablag‘lariga qaratish yo‘li bilan majburiy tartibda amalga oshiriladi.

96. Soliq qarzini undirish uchun hisobvaraqlardan zarur pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va byudjetga o‘tkazish qanday amalga oshiriladi?

a) bankka inkasso topshiriqnomasini elektron shaklda yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

b) bankka ishonchnomani elektron shaklda yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

d) bankka shartnomani elektron shaklda yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

e) bankka hisob fakturani elektron shaklda yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

97. Soliq organi tomonidan qaysi muddatlarda inkasso topshiriqnomasi soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga qo‘yiladi?

a) soliq to‘lovchi soliqni to‘lash uchun to‘lov topshiriqnomasini mustaqil ravishda yubormagan bo‘lsa, soliq organining inkasso

topshiriqnomasi soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat tugagach uch ish kunidan kechiktirmay qo‘yiladi;

b) soliq organining inkasso topshiriqnomasi soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat tugagach o‘n bir ish kunidan kechiktirmay qo‘yiladi;

d) soliq organining inkasso topshiriqnomasi soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat tugagach o‘n uch ish kunidan kechiktirmay qo‘yiladi;

e) soliq organining inkasso topshiriqnomasi soliq to‘lovchining valyuta hisobvarag‘iga soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat tugagach bir ish kunidan kechiktirmay qo‘yiladi.

98. Soliq monitoringi soliq to‘lovchilar uchun majburiymi?

a) Soliq to‘lovchilar uchun soliq monitoringi ixtiyoriydir;

b) Soliq to‘lovchilar uchun soliq monitoringi majburiydir;

d) Soliq to‘lovchi yuridik shaxslar uchun soliq monitoringi majburiydir;

e) Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar uchun soliq monitoringi ixtiyoriydir.

99. Soliq monitoringi qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?

a) Soliq monitoringi soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror asosida soliq organi tomonidan amalga oshiriladi;

b) Soliq monitoringi soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror asosida bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi;

d) Soliq monitoringi soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror asosida moliya bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi;

e) Soliq monitoringi soliq monitoringini o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror asosida tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi.

100. Soliq monitoringini o‘tkazish muddati to‘g‘ri ko‘rstilgan javobni ko‘rsating.

a) Soliq monitoringini o‘tkazish soliq monitoringi o‘tkaziladigan yilning 1 yanvaridan boshlanadi va soliq monitoringi o‘tkazilgan davrdan keyingi yilning 1 iyulida tugallanadi;

b) Soliq monitoringini o‘tkazish soliq monitoringi o‘tkaziladigan yilning 31 yanvaridan boshlanadi va soliq monitoringi o‘tkazilgan davrdan keyingi yilning 10 iyulida tugallanadi;

d) Soliq monitoringini o‘tkazish soliq monitoringi o‘tkaziladigan yilning 30 iyunida boshlanadi va soliq monitoringi o‘tkazilgan davrdan keyingi yilning 15 iyunida tugallanadi;

e) Soliq monitoringini o‘tkazish soliq monitoringi o‘tkaziladigan yilning keyingi yilining 1 yanvaridan boshlanadi va soliq monitoringi o‘tkazilgan davrdan keyingi yilning 13 iyulida tugallanadi.

101. Qaysi qatorda soliq munosabatlarining subyektlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) Soliq to‘lovchilar, soliq agentlari va vakolatli organlar;

b) Yuridik shaxslar, vakolatli organlar va soliq agentlari;

d) Yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar va soliq agentlari;

e) Yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar.

102.Qaysi qatorda soliq to‘lovchilarga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

a) Soliq kodeksga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar;

b) Zimmasiga soliqlar, bojlar hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar;

d) Belgilangan soliqlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar,soliq agentlari va tadbirkorlar;

e) Belgilangan yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar.

103. Qaysi qatorda soliq agentlariga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

a) Zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar;

b) Zimmasiga soliqlarni soliq to‘lovchidan ushlab qolish majburiyati yuklatilgan shaxslar;

d) Zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish majburiyati yuklatilgan shaxslar;

e) Zimmasiga soliqlarni byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar.

104. Qaysi qatorda ortiqcha to‘langan soliq summasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

a) soliqning to‘langan summasi bilan haqiqatda to‘lanishi lozim bo‘lgan summasi o‘rtasidagi ijobiy farq;

b) soliqning to‘langan summasi bilan haqiqatda qaytarilishi lozim bo‘lgan summasi o‘rtasidagi farq;

d) soliqning haqiqatda to‘lanishi lozim bo‘lgan summasi;

e) soliqning to‘langan summasi bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan summasi o‘rtasidagi manfiy farq.

105. Qaysi qatorda ortiqcha undirilgan soliq summasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

a) soliq organlarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari natijasida ortiqcha to‘langan soliq summasi;

b) soliq organlarining harakatsizligi natijasida ortiqcha to‘langan soliq summasi;

d) soliq organlarining qonuniy xatti-harakatlari va harakatsizligi natijasida ortiqcha to‘langan soliq summasi;

e) soliq organlarining harakatsizligi natijasida kam to‘langan soliq summasi.

106. Qaysi qatorda tan olingan soliq qarziga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

a) soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma berilgan sanadan boshlab o‘n kalendar kun ichida soliq to‘lovchi tomonidan e’tiroz bildirilmagan qarz yoki sud qarori bilan tasdiqlangan qarz;

b) soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma berilgan sanadan boshlab ellik kalendar kun ichida soliq to‘lovchi tomonidan e’tiroz bildirilmagan qarz;

d) soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma berilgan sanadan boshlab o‘n yuz kalendar kun ichida soliq to‘lovchi tomonidan e’tiroz bildirilmagan qarz;

e) sud qarori bilan tasdiqlanmagan qarz.

107. Qaysi qatorda umidsiz qarzga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

a) sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da’vo muddati tugashi sababli to‘lanishi mumkin bo‘lmagan qarz;

b) sud qarori bilan majburiyatning paydo bo‘lishi tufayli yoki da’vo muddati boshlanishi sababli to‘lanishi mumkin bo‘lgan qarz;

d) yuridik shaxsning qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoki da’vo muddati tugashi sababli to‘lanishi mumkin bo‘lmagan qarz;

e) soliq inspeksiyasining qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli to‘lanishi mumkin bo‘lmagan qarz.

108. Qaysi qatorda soliq organi tomonidan soliq qarzini to‘lash to‘g‘risida talabnoma yuborilishi uchun asos to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyatining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi;

b) Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyatining to‘liq bajarganligi;

d) Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyatining mavjud emasligi;

e) Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyatining bajarilganligi yoki lozim darajada bajarilganligi.

109. Soliqni to‘lash qanday to‘lov birliklarida amalga oshiriladi?

a) milliy valyutada;

b) chet el valyutasida;

d) qimmatli qog‘ozlarda;

e) dividendlarda.

110. Soliq to‘lovchining topshiriqnomasi yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasi qaysi muddatlarda bank tomonidan bajariladi.

a) olingan kundan keyingi bir operatsiya kuni ichida;

b) olingan kundan keyingi o‘n bir operatsiya kuni ichida;

d) olingan kundan keyingi uch operatsiya kuni ichida;

e) olingan kundan keyingi o‘n operatsiya kuni ichida.

111. Soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida pul mablag‘larining yo‘qligi (yetarli emasligi) sababli soliq organining inkasso topshiriqnomasini belgilangan muddatda bajarishning imkoni bo‘lmaganda, bank qaysi muddatda inkasso topshiriqnomasini yuborgan soliq organiga uning topshiriqnomasi bajarilmaganligi (qisman bajarilganligi) to‘g‘risida xabar qilishi shart.

a) belgilangan muddat tugaganidan keyingi kundan kechiktirmay;

b) belgilangan muddat tugaganidan o‘n kundan kechiktirmay;

d) belgilangan muddat tugaganidan keyin uch kundan kechiktirmay;

e) belgilangan muddat tugaganidan keyin o‘n bir kundan kechiktirmay.

112. Javobgarlik choralarining qo‘llanilishi bankni soliq to‘lovchining topshiriqnomasini yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarish majburiyatidan ozod etadimi?

a) ozod etmaydi;

b) ozod etadi;

d) qisman ozod etadi;

e) javobgarlik choralari qo‘llanilmaydi.

113. Banklar soliq to‘lovchilarning topshiriqnomalarini va soliq organlarining inkasso topshiriqnomalarini ko‘rsatilgan operatsiyalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilganligi uchun qanday miqdorlarda haq undiradi?

a) Haq undirmasdan bajaradi;
b) 0.1% miqdorida haq undiradi;
d) 10% miqdorida haq undiradi;
e) 5% miqdorida haq undiradi.

114. Tugatilayotgan yuridik shaxsning soliqlar bo‘yicha qarzi bo‘lmagan taqdirda, ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliqlar (penyalar, jarimalar) summasi shu yuridik shaxsga Soliq kodeksida belgilangan tartibda u ariza bergan kundan e’tiboran qanday muddatlarda qaytarilishi lozim?

a) u ariza bergan kundan e’tiboran o‘n besh kundan kechiktirmay;
b) u ariza bergan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay;
d) u ariza bergan kundan e’tiboran o‘ttiz besh kundan kechiktirmay;
e) u ariza bergan kundan e’tiboran o‘n bir kundan kechiktirmay.

115. Qaysi qatorda soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirish, deb e’tirof etilishi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) Soliq to‘lashning muddatini keyinroq muddatga ko‘chirish;
b) Soliq to‘lashning muddatini 100 kunga kechiktirish;
d) Soliq to‘lashning muddatini 10 kunga kechiktirish;
e) Soliq to‘lashning muddatini 30 kunga kechiktirish.

116. Soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish qaysi shakllarda amalga oshiriladi?

a) uni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash shaklida;
b) uni to‘lashni uzaytirish shaklida;
d) bo‘lib-bo‘lib to‘lash shaklida;
e) uni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lash shaklida.

117. Qaysi qatorda soliq to‘lash muddatining o‘zgartirilishi soliq to‘lash bo‘yicha mavjud majburiyatlarga ta’siri to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) mavjud majburiyatlarni bekor qilmaydi va yangi majburiyatlarni vujudga keltirmaydi;

b) mavjud majburiyatlarni bekor qiladi va yangi majburiyatlarni vujudga keltiradi;

d) mavjud majburiyatlar paydo bo‘ladi;

e) yangi majburiyatlarni vujudga keltiradi.

118. Qaysi javobda ortiqcha to‘langan soliq summasi soliq to‘lovchining arizasiga ko‘ra qaytarilishi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) soliq to‘lovchiga to‘liq yoki qisman qaytarilishi mumkin;

b) soliq to‘lovchiga to‘liq yoki qisman qaytarilishi mumkin emas;

d) soliq to‘lovchiga qisman qaytarilishi mumkin;

e) soliq to‘lovchiga to‘liq qaytarilishi mumkin.

119. Soliqning ortiqcha to‘langan summalarini hamda hisoblangan foizlarini hisobga olish yoki qaytarish qanday valyutada amalga oshiriladi?

a) milliy valyutada;

b) chet el valyutasida;

d) milliy valyutada va so‘mda;

e) milliy valyutada va chet el valyutasida.

120. Ortiqcha to‘langan soliq summasi, soliq to‘lovchiga uning yozma arizasiga binoan soliq organi tomonidan bunday ariza olingan kundan e’tiboran qaysi muddat ichida qaytarilishi lozim?

a) o‘n besh kun ichida;

b) o‘ttiz besh kun ichida;

d) o‘n bir kun ichida;

e) o‘ttiz kun ichida.

121. Ortiqcha to‘langan soliq summasini hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risidagi ariza, agar soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ko‘rsatilgan summa to‘langan kundan e’tiboran qaysi muddat ichida berilishi mumkin?

a) to‘langan kundan e’tiboran besh yil ichida;

b) to‘langan kundan e’tiboran bir yil ichida;

d) to‘langan kundan e’tiboran o‘n yil ichida;

e) to‘langan kundan e’tiboran o‘n besh yil ichida.

122. Ortiqcha to‘langan soliq summasini qaytarish to‘g‘risidagi qaror soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining tegishli arizasi olingan kundan e’tiboran yoki, agar birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkazilgan bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchi bilan u to‘lagan soliqlarning birgalikdagi o‘zaro solishtirish dalolatnomasini imzolagan kundan e’tiboran qaysi muddat ichida qabul qilinadi?

a) o‘n kun ichida;

b) o‘n bir kun ichida;

d) o‘ttiz kun ichida;

e) o‘n yil ichida.

123. Soliq organi ortiqcha to‘langan soliq summasini hisobga olishni yoki qaytarishni rad etish to‘g‘risidagi qabul qilingan qaror haqida soliq to‘lovchiga bunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran qaysi muddat ichida xabar qilishi shart?

a) uch kun ichida;

b) o‘ttiz kun ichida;

d) o‘ttiz uch kun ichida;

e) uch yil ichida.

124. Qaysi javobda soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomaga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

a) Soliq to‘lovchiga uning zimmasidagi soliq qarzi summasi to‘g‘risida, shuningdek, shu qarz summasini belgilangan muddatda to‘lash majburiyati haqida xabar yuborish;

b) Soliq to‘lovchiga uning zimmasidagi soliq qarzi summasi to‘g‘risida, shuningdek, shu qarz summasini belgilangan muddatda qaytarib olish haqida xabar yuborish;

d) Soliq to‘lovchiga uning zimmasidagi ortiqcha to‘lov summasi to‘g‘risida, shuningdek, shu ortiqcha summasini belgilangan muddatda qaytarib olish majburiyati haqida xabar yuborish;

e) Soliq to‘lovchiga uning zimmasidagi qarz summasini belgilangan muddatda to‘lash majburiyati haqida xabar yuborish.

125. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha qanday shartlar mavjud bo‘lgan taqdirda yuboriladi?

a) soliq qarzi yoki foizlar mavjud bo‘lgan taqdirda;

b) ortiqcha to‘lov mavjud bo‘lgan taqdirda;

d) qo‘shimcha to‘lov mavjud bo‘lgan taqdirda;

e) foizlar mavjud bo‘lgan taqdirda.

126. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortilgandan keyin ham yuboriladimi?

a) soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortilishidan qat’i nazar yuboriladi;

b) soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzmaganlik uchun javobgarlikka tortilishidan qat’i nazar yuboriladi;

d) soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortilgandan keyin yuborilmaydi;

e) soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortilishidan qat’i nazar yuborilmaydi.

127.Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomada qanday ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak?

a) soliq bo‘yicha qarz summasi, talabnoma yuborilayotgan paytga hisoblangan penyalar miqdori, jarimalar summasi, shuningdek soliq to‘lovchi talablarni bajarmagan taqdirda, soliq qarzini undirish va soliq majburiyati bajarilishini ta’minlash bo‘yicha ko‘riladigan choralar haqidagi ma’lumotlar;

b) soliq bo‘yicha ortiqcha to‘lov summasi, talabnoma yuborilayotgan paytga hisoblangan penyalar miqdori, ko‘riladigan choralar haqidagi ma’lumotlar;

d) soliq bo‘yicha qarz summasi, soliq majburiyati bajarilishini ta’minlash bo‘yicha ko‘riladigan choralar haqidagi ma’lumotlar;

e) talabnoma yuborilayotgan paytga hisoblangan penyalar miqdori, soliq qarzini undirish bo‘yicha ko‘riladigan choralar haqidagi ma’lumotlar.

128. Sayyor soliq tekshiruvi qanday hujjat asosida o‘tkaziladi?

a) soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida;

b) statistika organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida;

d) soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) bildirgisi asosida;

e) soliq organi rahbarining ishonchomasi asosida.

129.Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga kim tomonidan yuboriladi?

a) u hisobda turgan soliq organi tomonidan;

b) u hisobda turgan moliya organi tomonidan;

d) u hisobda turgan bojxona organi tomonidan;

e) u hisobda turgan mahalla tomonidan.

130. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga qanday muddatda yuborilishi kerak?

a) ushbu qarz aniqlangan kundan e’tiboran yoki soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha aniqlangan soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi qaror kuchga kirgan sanadan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay;

b) ushbu ortiqcha to‘lov aniqlangan kundan e’tiboran yoki soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha aniqlangan soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi qaror kuchga kirgan sanadan e’tiboran bir ish kunidan kechiktirmay;

d) ushbu qarz aniqlangan kundan e’tiboran o‘n uch ish kunidan kechiktirmay;

e) ushbu qarz aniqlangan kundan e’tiboran o‘ttiz uch ish kunidan kechiktirmay.

131.Qanday maqsadda yuridik va jismoniy shaxslar soliq organlarida hisobga qo‘yilishi lozim?

a) soliq nazoratini amalga oshirish maqsadida;

b) soliq monitoringini amalga oshirish maqsadida;

d) kameral tekshiruvni amalga oshirish maqsadida;

e) soliq auditini amalga oshirish maqsadida.

132.O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlarini hisobga qo‘yish qanday holatlarda amalga oshiriladi?

a) Soliq Kodeks u yoki bu soliqni to‘lash majburiyatining paydo bo‘lishini bog‘laydigan holatlar mavjudligidan qat’i nazar;

b) soliqni to‘lamaslik holatlari mavjudligidan qat’i nazar;

d) soliqni to‘lash majburiyatining tugashi holatlari mavjudligidan qat’i nazar;

e) Soliq Kodeks u yoki bu soliqni qaytarish majburiyatining paydo bo‘lishi holatlar mavjudligidan qat’i nazar.

133.Soliq organlarida hisobga qo‘yish va hisobdan chiqarish qanday amalga oshiriladi?

a) bepul amalga oshiriladi;

b) pulli amalga oshiriladi;

d) pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

e) naqd pulda amalga oshiriladi.

134. Soliq to‘lovchiga identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risida soliq organi tomonidan berilgan guvohnoma yoki soliq to‘lovchini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida u bir vaqtning o‘zida soliq organlarida va davlat statistika organlarida hisobga qo‘yilgan taqdirda – davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma qanday hujjat hisoblanadi?

a) soliq to‘lovchining hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi;

b) soliq to‘lovchining hisobdan chiqarilganligini tasdiqlovchi;

d) soliq to‘lovchining hisobdan o‘chganligini tasdiqlovchi;

e) soliq to‘lovchining tugatilganligini tasdiqlovchi.

135.Soliq to‘lovchilarni hisobga olish ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi qanday hujjatni yuritadi?

a) O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestrini;

b) O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining ma’lumotlar bazasini;

d) O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona portalini;

e) O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona tuzulmasini.

136.O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestrida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning tarkibi hamda reestrni yuritish tartibi kim tomonidan belgilanadi?

a) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan;

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan;

d) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan;

e) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan.

137. Soliq to‘lovchiga identifikatsiya raqamini berish, qo‘llash hamda uni o‘zgartirish tartibi va shartlari kim tomonidan belgilanadi?

a) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

d) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi;

e) O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

138.Soliq organi soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini unga yuboriladigan qanday hujjatlarda ko‘rsatadi?

a) barcha hujjatlarda;

b) ayrim hujjatlarda;

d) talabnomalarda;

e) inkasso topshiriqnomalarida.

139.Yuridik shaxslar qaerda hisobga qo‘yiladi?

a) o‘zlari joylashgan erdagi va ularning alohida bo‘linmalari joylashgan erdagi moliya organlarida;

b) o‘zlari joylashgan erdagi va ularning alohida bo‘linmalari joylashgan erdagi bojxona organlarida;

d) o‘zlari joylashgan erdagi statistika organlarida;

e) o‘zlari joylashgan erdagi va ularning alohida bo‘linmalari joylashgan erdagi mahallarda.

140. O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni vakolatxona yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari qaerda hisobga qo‘yilishi lozim?

a) faoliyatni amalga oshirish joyidagi soliq organlarida;

b) faoliyatni amalga oshirish joyidagi mahalliy organlarida;

d) faoliyatni amalga oshirish joyidagi statistika organlarida;

e) faoliyatni amalga oshirish joyidagi bojxona organlarida.

141. Jismoniy shaxslar qaerda hisobga qo‘yiladi?

a) o‘z yashash joyidagi soliq organlarida;

b) o‘z yashash joyidagi mahallarda;

d) o‘z yashash joyidagi moliya organlarida;

e) o‘z yashash joyidagi ichki ishlar organlarida.

142. Soliq to‘lovchilarni soliq solish obyekti bo‘yicha hisobga qo‘yish qaysi organlari tomonidan amalga oshiriladi?

a) soliq solish obyekti joylashgan erdagi soliq organlari tomonidan;

b) soliq solish obyekti joylashgan erdagi moliya organlari tomonidan;

d) soliq solish obyekti joylashgan erdagi statistika organlari tomonidan;

e) soliq solish obyekti joylashgan erdagi ichki ishlar organlari tomonidan.

143.Soliq to‘lovchini obyektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish u Soliq Kodeksning 129-moddasida belgilangan tartibda hisobga qo‘yilganidan keyin, agar Soliq Kodeksga muvofiq soliq to‘lovchida soliq to‘lovchi sifatida hisobga olinmagan joydagi qaysi soliqlarni to‘lash majburiyati yuzaga kelgan bo‘lsa, amalga oshiriladi?

a) er solig‘i, mol-mulk solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va (yoki) noruda qazilma boyliklari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

b) foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va (yoki) noruda qazilma boyliklari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

d) ijtimoiy soliq, aylanmadan soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq er solig‘i, mol-mulk solig‘i;

144.Soliq to‘lovchini obyektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish u Soliq Kodeksning 129-moddasida belgilangan tartibda hisobga qo‘yilganidan keyin, agar Soliq Kodeksga muvofiq soliq to‘lovchida soliq to‘lovchi sifatida hisobga olinmagan joydagi yana qaysi soliq to‘lovchilariga nisbatan amalga oshiriladi?

a) benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aktsiz solig‘ining soliq to‘lovchilariga, hududiy alohida bo‘linma joylashgan eri bo‘yicha xodimlar soni yigirma besh kishidan ko‘p bo‘lgan doimiy ish joyi yaratgan soliq agentiga;

b) aktsiz solig‘ining soliq to‘lovchilariga, hududiy alohida bo‘linma joylashgan eri bo‘yicha xodimlar soni yigirma besh kishidan ko‘p bo‘lgan doimiy ish joyi yaratgan soliq agentiga;

d) aktsiz va mol-mulk solig‘ining soliq to‘lovchilariga, hududiy alohida bo‘linma joylashgan eri bo‘yicha xodimlar soni yigirma besh kishidan ko‘p bo‘lgan doimiy ish joyi yaratgan soliq agentiga;

e) aktsiz va mol-mulk solig‘ining soliq to‘lovchilariga, ijtimoiy soliq, aylanmadan soliq to‘lovchilarga.

145. Kameral soliq tekshiruvi qanday hujjat asosida o‘tkaziladi?

a) soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida;

b) soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) qarori asosida;

d) soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) farmoyishi asosida;

e) moliya organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida.

146.Kameral soliq tekshiruvi qaysi davrlarga nisbatan o‘tkazilishi mumkin?

a) da’vo muddati o‘tmagan soliq davrlariga nisbatan;

b) da’vo muddati o‘tgan soliq davrlariga nisbatan;

d) da’vo muddati kelmagan soliq davrlariga nisbatan;

e) soliq davrlari belgilanmagan.

147.Agar o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvi yakuni bilan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlangan bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchiga Soliq Kodeksda belgilangan tartibda qanday hujjatni yuboradi?

a) soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish talabnomasini;

b) soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish dalolatnomasini;

d) soliq tekshiruvlariga tuzatishlar kiritish buyrug‘ini;

e) soliq monitoringiga uzaytishlar kiritish talabnomasini.

148.Kameral soliq tekshiruvi tugatilgan sana qaysi sana hisoblanadi?

a) soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish haqida talabnoma yuborilgan sana;

b) soliq tekshiruvi tugatilgan sana;

d) soliq monitoringi tugatilgan sana;

e) soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish haqida buyruq yuborilgan sana.

149.Qanday hollarda ham kameral soliq tekshiruvi yakunlangan hisoblanadi?

a) o‘rganish va tahlil qilish yakunlariga ko‘ra tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanmagan bo‘lsa;

b) o‘rganish va tahlil qilish yakunlariga ko‘ra xatolar aniqlangan bo‘lsa;

d) o‘rganish va tahlil qilish yakunlariga ko‘ra tafovutlar va (yoki) xatolar to‘langan bo‘lsa;

e) o‘rganish va tahlil qilish yakunlariga ko‘ra tafovutlar va (yoki) xatolar ko‘p bo‘lsa.

150. Soliq to‘lovchi tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi talabnoma olingan kundan e’tiboran qaysi muddatda tegishli soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda aniqlangan tafovutlarning asosnomasini Soliq kodeksida belgilangan tartibda taqdim etishi shart?

a) o‘n kunlik muddatda;
b) o‘ttiz kunlik muddatda;
d) o‘n bir kunlik muddatda;
e) o‘n uch kunlik muddatda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-fevraldagi “Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5214 sonli farmoyishi.

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017. 488 b.

6. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2017. 56 b.

7. A. Tagayev., F. Xashimatov va b. Soliq nazorati: O‘quv qo‘llanma. -T.: Yangi asr avlodi, 2010.- 84 b.

8. Toshmatov Sh, Ro‘ziyev G‘. Soliq tekshiruvi usullari: O‘quv qo‘llanma. T.: Yangi asr avlodi, 2011. 212 b.

9. A. Xomma, A. Tangirqulov, Sh. Toshmatov, I. Norqo‘ziyev va N. Roziqov. Soliq qarzi va uni undirish: O‘quv qo‘llanma. T.: Yangi asr avlodi, 2011.

10. Toshmatov Sh. Soliq to‘lovchilar bilan ishlash: O‘quv qo‘llanma. T. Yangi asr avlodi, 2010. 112 b.

11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2017.

12. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 30-dekabrdagi “Soliq ma’muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan 0‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 0‘RQ-455-sonli qonuni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ”gi PQ-3802-son qarori.

14. Александров И.М. Налоги и налогообложение: Учебник. М. Дашков и К, 2009. 227 с.

15. Барулин С.В., Ермакова Е.А., Степаненко В.В. Налоговый менежмент: Учебник. М.: Дашков и К, 2011. 332 с.

16. E.F. Gadoyev, N.R. Kuziyeva, N.B. Ashurova, J.J. O‘rmonov. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish: Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2013. 592 b.

17. Gadoyev E.F., Kuziyeva N.R. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish: Darslik. T.: O‘zbekiston, 2012. 336 b.

18. Gadoyev E.F., Kuziyeva N.R., Ashurova N.B. Soliq siyosati strategiyasi: O‘quv qo‘llanma. T.: El-press, 2013. 272 b.

19. Гадоев Э. и др. Налог на прибыль. Учебно-практическое пособие. - Т.: Норма, 2011.- 356 с.

20. Э.Ф. Гадоев и др. Упрощённая система налогообложения: Учебно-практическое пособие. Т.: Норма, 2011. 324 с.

21. Гончаренко Л.И. Налогообложение организаций: Учебник. М.: КноРус, 2018. 512 с.

22. Vaxabov A., Jorayev A. Soliq va soliqqa tortish: Darslik. T.: Sharq, 2019. 448 b.

23. Миронова О.А., Ханафаев Ф.Ф. Налоговое администрирование. М.: ОМЕГА-Л, 2005.

24. Шалагина М.А., Невская М.А. Налоговое администрирование: Учебное пособие. М.: Омега-Л, 2009. 250 с.

25. Ro‘ziyev G‘.O‘. Soliq nazorati: Soliq akademiyasi: O‘quv qo‘llanma. T.: Fan va texnologiyalar, 2007. 156 b.

26. Доброхотова В.Б. Налоговые проверки: книга для налогоплательщика и налоговика: Учебное пособие. М.: МЦФЕР, 2007. 416 с.

27. Н.А. Попонова и др. Организация налогового учета и налогового контроля: Учебное пособие.М.: Эксмо, 2006. 624 с.

28. Спирина Л.В. Налоговые проверки: Учебно-практическое пособие. М.: Экзамен, 2006. 412 с.

29. Касянова Г.Ю. Камеральная налоговая проверка: содержание, порядок проведение, последствия: Учебное пособие. М.: Аргумент, 2006.56 с.

30. Лермонтов Ю.М. Налоговые проверки по новому: Учебное пособие. М.: Индекс-Медиа, 2007. 256 с.

Internet saytlari

31. www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

32. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

33. www.soliq.uz– O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.

34. www.norma.uz-Informatsion huquqiy tizim dasturi.

35. www.ziyonet.uz-Axborot ta’lim tarmog‘i.

36. www.nalog.ru-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti.

MUNDARIJA

KIRISH……..
1-BO‘LIM. “SOLIQ MA’MURCHILIGINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI”……..

1-mavzu. SOLIQ MA’MURCHILIGI FANINING MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI…….……
1. “Soliq ma’murchiligi” fanining predmeti va funksiyalari, o‘qitishning zarurligi.
2. “Soliq ma’murchiligi” fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.
3.“Soliq ma’murchiligi” fanining maqsadi va kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati.

2-mavzu. SOLIQ MA’MURCHILIGI TIZIMINING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....
1. Soliq ma’murchiligi to‘g‘risida tushuncha va uni ahamiyati.
2. Soliq tizimida soliq ma’murchiligini takomillashtirish tamoyillarining ustuvorligi.
3. Soliq munosabatlarini boshqarish tizimida soliq ma’murchiligining huquqiy asoslari.

3-mavzu. SOLIQ MA’MURCHILIGINI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARINING O‘RNI VA SOLIQ QONUNCHILIGI TARG‘IBOTI.....
1. Davlat soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi.
2.Davlat soliq xizmati organlarining asossiy vazifalari va huquqlari.
3. Davlat soliq xizmati organlarining boshqa organ va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi.

4-mavzu. SOLIQ MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISHDA SOLIQ MA’MURCHILIGI TIZIMINING AHAMIYATI.....

1.Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq ma’murchiligi tizimining o‘rni va ahamiyati.

2.Soliqlar yig‘iluvchanligining tutgan o‘rni va ahamiyati.

2-BO‘LIM. “SOLIQ MA’MURCHILIGINING RIVOJLANISH BOCQICHLARI MEXANIZMI”.....

5-MAVZU: SOLIQ TO‘LOVCHILAR VA SOLIQ OBYEKTLARINI HISOBGA OLISH TIZIMI.....

1.Soliq to‘lovchilarni hisobga olish.

2.Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olish.

3.Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning hisobini yuritish.

6-mavzu. SOLIQ IDORALARIDA SOLIQLAR VA MAJBURIY TO‘LOVLAR HISOBINING YURITILISHI.....

1. Shaxsiy kartochka tushunchasi va uni yuritish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish.
2. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va to‘lovlar hisobini yuritish.
3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va to‘lovlar hisobini yuritish.
4. Soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritilishini nazorat qilish va javobgarlik.

7-MAVZU: SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH.....

1.Soliq qarzlarining vujudga kelish sabablari hamda soliqlarni undirish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar.

2. Soliqlarini undirish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar.

3. Soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish.

3-BO‘LIM. “SOLIQ MA’MURCHILIGINING AHAMIYATINI OSHIRISHDA SOLIQ NAZORATINI ROLI”.....

8-mavzu. SOLIQ ORGANLARI NAZORAT FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNINIG SHAKLLARI VA ZAMONAVIY USULLARI.....

1. Soliq nazorati va uning ahamiyati.
2.Soliq nazoratining shakllari va ularni amalga oshirish tartibi.

9-mavzu. KAMERAL SOLIQ NAZORATI, UNI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH MEXANIZMI.....

1. Kameral soliq tekshiruvini tashkil etish.
2.Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish.
3. Kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha talabnomani yuborish.
4. Kameral soliq tekshiruvda aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish.

10-mavzu. SOLIQ TEKSHIRUVLARI VA TURLARI HAMDA ULARNI TASHKIL QILISH.....

1.Soliq tekshiruvlari turlari.
2.Soliq tekshiruvlarini tashkil qilish.

11-mavzu. SOLIQ TEKSHIRUVLARINI O‘TKAZISH TARTIBI.....

1.Soliq auditini tayinlashi.
2. Soliq auditini o‘tkazish tartibi.
3.Hudud va binolarni ko‘zdan kechirish, hujjatlarni talab qilib olish.

12-mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI QARORLARI IJROSINI TA’MINLASHDA DAVLAT SOLIQ ORGANLARI AMALGA OSHIRADIGAN NAZORAT TADBIRLARI.....

1. Sayyor soliq tekshiruvi va uni amalga oshirichda soliq organlari mansabdor shaxslarining huquqlari hamda majburiytlari.
2. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarning hisobga qo‘yilishi ustidan soliq nazoratini amalga oshirish.
3. Xronometraj ko‘zdan kechirishni o‘tkazish.
4. Nazorat kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo‘llanilishini tekshirish.
5. Soliq to‘lovchi ishchi-xodimlarining haqiqiy soni va soliq hisobotidagi aks ettirilgan ishchi-xodimlar soniga muvofiqligini tekshirish.
6. Bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarining to‘xtash joylarida soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish.
7. Savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish.
8. Yer qa’ridan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan foydali qazilmalar hajmini tekshirish.
9. Soliq to‘lovchilarning to‘lov topshiriqnomalari va soliq organlarining inkasso topshiriqnomalari banklar tomonidan o‘z vaqtida bajarilishini tekshirish.
10. Valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rezidentlar va norezidentlar tomonidan rioya etilishini tekshirish.

4-BO‘LIM. SOLIQ TEKSHIRUVI NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH VA UNI KO‘RIB CHIQISH TARTIBI.....

13-mavzu. SOLIQ TEKSHIRUVI NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH VA UNI KO‘RIB CHIQISH TARTIBI.....

1.Soliq tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirish tartibi.

2.Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibi.

3. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiru materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish.

4.Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorning kuchga kirishi.

14-mavzu. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIK UCHUN JAVOBGARLIK CHORALARI.....

1.Soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarlik.

2. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun javobgarlik.

5-BO‘LIM. SOLIQ MAMURCHILIGINING SAMARALI ISHLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....

15-mavzu. SOLIQ MA’MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA DAVLAT SOLIQ IDORALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMI.....

1.Davlat soliq qo‘mitasining soliq ma’murchiligi amalga oshirishdagi asosiy vazifalari.

2.Qo‘mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash asosiy mezonlari.

3.Soliq ma’murchiligidagi mavjud muammolar va uni bartaraf etish yo‘llari.

16-mavzu. DAVLAT SOLIQ ORGANLARIDA JORIY ETILGAN DASTURIY MAHSULLAR HAMDA SOLIQ TO‘LOVCHILARGA KO‘RSATILADIGAN XIZMATLAR.....

1. Davlat soliq organlarida joriy etilgan dasturiy mahsullar.

2.Davlatning axborotlashtirish siyosati, soliq tizimidagi ma’lumotlardan foydalanishda shaxsiy kabinetning va elektron raqamli imzoning ahamiyati.

3.Interaktiv xizmat tushunchasi, turlari va uning vazifalari.

4.Davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan davlat interaktiv xizmatlarining turlari, huquqiy asoslari va foydalanish tartibi.
5.Davlat interaktiv xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha chet el davlatlari tajribasini o‘rganish.

17-mavzu. SOLIQ MA’MURCHILIGINI AMALGA OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....

1.Xorijiy davlatlarda soliq ma’murchiligini amalga oshirishning xususiyytlari.
2. Ayrim xorijiy davlatlar (AQSh, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya)da soliq ma’murchiliginini amalga oshirishning o‘ziga xos ahamiyati.
3. Soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirishning xorij tajribasi.

GLOSSARIY…….

TESTLAR……..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR …….

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....

Глава 1. ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ……

1-тема. СОДЕРЖАНИЕ, ЦЕЛЬ И ЗАДАЧИ ДИСЦИПЛИНЫ “НАЛОГОВОЕ АДМИНИСТРИРОВАНИЕ”

1.Предмет, функции и необходимость изучения дисциплины “Налоговое администрирование”

2.Взаимосвязь дисциплины “Налоговое администрирование” с другими предметами

3.Цель и значение дисциплины «Налоговое администрирование» в подготовке кадров.

2-тема. ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА СИСТЕМЫ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТИРОВАНИЯ……

1.Понятие налогового администрирования и его значение.

2.Приоритет принципов совершенствования налогового администрирования в налоговой системе.

3.Правовые основы налогового администрирования в системе управления

налоговых отношений.

3-тема. МЕСТО ОРГАНОВ НАЛОГОВОЙ СЛУЖБЫ В

РЕАЛИЗАЦИИ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ И НАЛОГОВОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА……..

1.Структура налоговых органов.

2.Основные задачи и права органов государственной налоговой службы.

3.Взаимодействие государственной налоговой службы с другими органами и организациями.

4-тема. ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ В НАЛОГОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ……

1.Роль и значение системы налогового администрирования в регулировании налоговых отношений.

2.Роль и значение собираемости налогов.

Глава 2. МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ

5-тема. СИСТЕМА УЧЕТА НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКОВ И ОБЬЕКТОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ……

1.Регистрация налогоплательщиков.

2.Учет объектов налогообложения и объектов, связанных с налогообложением.

3.Ведение учета объектов налогообложения и объектов, связанных с налогообложением.

6-тема. ВЕДЕНИЕ УЧЕТА НАЛОГОВ И ДРУГИХ ОБЯЗАТЕЛЬНЫХ ПЛАТЕЖЕЙ В НАЛОГОВЫХ ОРГАНАХ……

1.Понятие личной карточки и организация работ по ее ведению.

2.Учет налогов и сборов для юридических лиц.

3.Учет налогов и сборов для физических лиц.

4.Контроль и ответственность за управление личными карточками налогоплательщика.

7-тема. МЕХАНИЗМ СБОРА НАЛОГОВ И ПУТИ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ……..

1.Причины возникновения налоговой задолженности и меры, осуществляемые по сбору налогов.

2.Работы, проводимые по сбору налогов.

3.Совершенствование механизма сбора налогов.

Раздел 3. РОЛЬ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ……

8-тема. ФОРМЫ И СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ…….

1.Налоговый контроль и его значение.

2.Формы налогового контроля и порядок их осуществления.

9-тема: КАМЕРАЛЬНЫЙ КОНТРОЛЬ, ЕГО ОРГАНИЗАЦИЯ И МЕХАНИЗМ ПРОВЕДЕНИЯ……...

1.Организация камерального налогового контроля.

2. Формирование базы данных налогоплательщиков на основе внутренних и внешних источников, в целях повышения эффективности камерального контроля.

3.Информирование налогоплательщиков об ошибках и недостатках, выявленных по результатам камеральной проверки на основе внутренних и внешних данных.

4.Принятие соответствующих мер в результате выявления незарегистрированных объектов налогообложения и нарушения порядка налоговой отчетности.

5.Осуществление камерального контроля над деятельностью физических лиц.
6.Ответственность сотрудников, осуществляющих камеральный контроль в налоговых органах.

10-тема. ФОРМЫ И ОРГАНИЗАЦИЯ НАЛОГОВЫХ ПРОВЕРОК…….

1.Формы налоговых проверок.
2.Организация налоговых проверок.

11-тема. ПОРЯДОК ПРОВЕДЕНИЯ НАЛОГОВЫХ ПРОВЕРОК ……...

1.Порядок проведения налоговых проверок
2.Информация для представления в программе налоговой проверки.
3.Начало проведения налоговой проверки.
4.Порядок организации и проведения проверки финансово-хозяйственной деятельности налогоплательщика.

12-тема. МЕРЫ КОНТРОЛЯ, ОСУЩЕСТВЛЯЕМЫЕ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ НАЛОГОВЫМИ ОРГАНАМИ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ИСПОЛНЕНИЯ РЕШЕНИЙ ПРАВИТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН……...

1.Основные цели и задачи проверки денежных средств юридических лиц.
2.Проверка кассового аппарата.
3.Проверка кассовых операций.
4.Проверка операций по счетам в соответствующих банках.

Раздел 4. ПОРЯДОК ОФОРМЛЕНИЯ И РАССМОТРЕНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НАЛОГОВОЙ ПРОВЕРКИ……..

13-тема. ПОРЯДОК ОФОРМЛЕНИЯ И РАССМОТРЕНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НАЛОГОВОЙ ПРОВЕРКИ……..

1.Порядок оформления результатов налоговой проверки.

2.Порядок регистрации материалов налоговой проверки в налоговых органах.

3.Контроль и ведение учета зарегистрированных материалов налоговой проверки, а также налоговых правонарушений.

14-тема. МЕРЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НАЛОГОВЫЕ ПРАВОНАРУШЕНИЯ…… ……...

1.Ответственность за совершение налоговых правонарушений.

2.Виды налоговых правонарушений и ответственность за их совершение.

Раздел 5. ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ МОДЕРНИЗАЦИИ МЕХАНИЗМОВ ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ…

15-тема. СИСТЕМА ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ, В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ…...

1.Основные задачи Государственного налогового комитета в налоговом администрировании.

2.Основные критерии оценки эффективности и результативности работы Комитета.

3.Существующие проблемы в налоговом администрировании и пути их устранения.

16-тема. ПРОГРАММНЫЕ ПРОДУКТЫ, ВНЕДРЕННЫЕ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ НАЛОГОВЫХ ОРГАНАХ И УСЛУГИ,

ОКАЗЫВАЕМЫЕ НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКАМ……
1.Программные продукты, внедренные в государственных налоговых органах.
2.Государственная политика информатизации, значение личного кабинета и электронной подписи в доступе к информации в налоговой системе.
3.Понятие, виды и функции интерактивной услуги.
4.Виды, правовые основы и порядок использования интерактивных государственных услуг, предоставляемых государственной налоговой службой юридическим лицам.
5.Изучение опыта зарубежных стран в предоставлении государственных интерактивных услуг.

17-тема. ОПЫТ ПЕРЕДОВЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В ОСУЩЕСТВЛЕНИИ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ…….
1. Особенности налогового администрирования в зарубежных странах.
2.Особенности налогового администрирования в некоторых зарубежных странах (США, Франция, Великобритания, Швеция).
3.Международный опыт увеличения сбора налогов.
ГЛОССАРИЙ…… ……
ТЕСТЫ…… ……
ЛИТЕРАТУРА…….

TABLE OF CONTENTS

INTRODUCTION……

SECTION 1. “THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF TAX ADMINISTRATION”……...

1-THEME: CONTENTS, PURPOSE AND TASKS OF THE DISCIPLINE “TAX ADMINISTRATION”…….....

1. The subject, function and the importance of studying the discipline “Tax administration”
2. The relationship of the discipline "Tax administration" with other subjects
3. The purpose and importance of the discipline "Tax Administration" in personnel training.

2-THEME: ORGANIZATIONAL LEGAL BASIS OF THE TAX ADMINISTRATION SYSTEM……...

1. The concept of tax administration and its significance.
2. Priority principles for improving tax administration in the tax system.
3. The legal basis of tax administration in the management system of Tax relations

3-THEME: PLACE OF TAX SERVICE BODIES IN THE IMPLEMENTATION OF TAX ADMINISTRATION AND TAX LEGISLATION…….

1. The structure of tax authorities.
2. The main tasks and rights of the state tax service.
3. Interaction of the state tax service with other bodies and organizations.

4-THEME: THE IMPORTANCE OF THE SYSTEM OF TAX ADMINISTRATION IN TAX REGULATION…….

1. The role and importance of the tax administration system in the regulation of tax relations.
2. The role and importance of tax collection.

SECTION2."MECHANISM OF DEVELOPMENT OF TAX ADMINISTRATION"……..

5-THEME: SYSTEM OF REGISTERING TAXPAYERS AND OBJECTS OF TAXATION…….

1. Registration of taxpayers.
2. Registering objects of taxation and objects related to taxation.
3. Keeping records of objects of taxation and objects related to taxation.

6-THEME: RECORDING OF TAXES AND OTHER MANDATORY PAYMENTS IN TAX AUTHORITIES……

1. The concept of a personal card and the organization of work on its maintenance.
2. Accounting for taxes and payments for legal entities.
3. Accounting for taxes and payments for individuals.
4. Control and responsibility for managing personal taxpayer cards.

7-THEME: MECHANISM OF COLLECTING TAXES AND WAYS TO IMPROVE IT……

1. The causes of tax arrears and measures taken to collect taxes.
2. Work carried out to collect taxes.
3. Improving the mechanism of tax collection.

SECTION 3. "THE ROLE OF TAX CONTROL IN THE ACTIVITIES OF TAX ADMINISTRATION"…… …….

8-THEME: FORMS AND MODERN METHODS OF ORGANIZING TAX CONTROL ACTIVITIES……

1. Tax control and its significance.
2. Forms of tax control and the procedure for their implementation.

9-THEME: CAMERAL CONTROL, ITS ORGANIZATION AND MECHANISM…… ……...

1. Organization of cameral tax control.
2. In order to increase the effectiveness of cameral control, the formation of a database of taxpayers based on internal and external sources.

3. Informing taxpayers about mistakes and deficiencies identified by the results of cameral control based on internal and external data.
4. Taking appropriate measures as a result of identifying unregistered objects of taxation and violation of tax reporting procedures.
5. The implementation of cameral control over the activities of individuals.
6. Responsibility of employees exercising cameral control in tax authorities.

10 THEME: FORMS AND ORGANIZATION OF TAX AUDITS…….

1. Forms of tax audits.
2. Organization of tax audits.

11-THEME: PROCEDURE FOR TAX AUDITS……..

1. The procedure for tax audits
2. Information for presentation in the tax audit program.
3. The beginning of the tax audit.
4. The procedure for organizing and conducting audits of the financial and economic activities of the taxpayer.

12-THEME: CONTROL MEASURES IMPLEMENTED BY THE STATE TAX AUTHORITIES TO ENSURE THE IMPLEMENTATION OF DECISIONS OF THE GOVERNMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN……..

1. The main goals and objectives of the verification of funds of legal entities.
2. Checking the cash register.
3. Checking cash transactions.
4. Verification of operations on accounts in the banks

SECTION 4. " PROCEDURE FOR PERFORMING AND REVIEWING THE RESULTS OF TAX INSPECTION…….

13-THEME: PROCEDURE FOR PERFORMING AND REVIEWING THE RESULTS OF TAX INSPECTION……

1. The procedure for processing the results of a tax audit.
2. The procedure for registering tax audit materials with tax authorities.
3. Control and accounting of registered tax audit materials, as well as tax offenses.

14-THEME: RESPONSIBILITY MEASURES FOR TAX OFFENSES…….

1. General conditions for liability for tax offenses
2. Types of tax offenses and liability for their commission.

SECTION 5. PRIORITY DIRECTIONS OF UPGRADE OF MECHANISMS OF EFFECTIVE FUNCTIONING OF TAX ADMINISTRATION ……...

15-THEME: SYSTEM OF EVALUATING THE EFFICIENCY OF ACTIVITIES OF THE STATE TAX AUTHORITIES IN THE IMPROVEMENT OF TAX ADMINISTRATION……

1. The main tasks of the State Tax Committee in tax administration.
2. The main criteria for evaluating the effectiveness and efficiency of the Committee.
3. Existing problems in tax administration and ways to address them.

16-THEME: SOFTWARE PRODUCTS INTRODUCED IN STATE TAX AUTHORITIES AND SERVICES PROVIDED TO TAXPAYERS……

1. Software products implemented in state tax authorities.

2. The state policy of informatization, the importance of a personal account and electronic signature in access to information in the tax system.
3. The concept, types and functions of an interactive service.
4. Types, legal basis and procedure for using interactive state services provided by the state tax service to legal entities.
5. The study of the experience of foreign countries in the provision of public interactive services.

17-THEME: EXPERIENCE OF ADVANCED FOREIGN COUNTRIES IN THE IMPLEMENTATION OF TAX ADMINISTRATION……

1. Features of tax administration in foreign countries.
2. Features of tax administration in some foreign countries (USA, France, UK, Sweden).
3. International experience in increasing tax collection.

GLOSSARY … … … … …… … … … … … … … … … … … … … … … … …

TESTY……..

THE LIST OF THE USED LITERATURES ……..…...… … … … … … ..